

KASB-HUNAR TA'LIMI

ILMIY-USLUBIY, AMALIY, MA'RIFIY JURNAL

2023, № 6-son



KASB-HUNAR TA'LIMI

Профессиональное образование
Professional education

Ilmiy-uslubiy, amaliy, ma'rifiy jurnal
2023-yil, 6-son

Muassislar:

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,
Pedagogik innovatsiyalar, professional ta'lim
boshqaruv hamda pedagog kadrlarni qayta
tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti

Bosh muharrir: Z.Y.XUDAYBERDIYEV

Ijrochi direktor: H.SIROJIDDINOV

Tahrir hay'ati:

M.XOLMUXAMEDOV, R.X.JO'RAYEV,

A.Q.JALALOV, A.R.XODJABAYEV

J.SH.SHOSALIMOV, A.NABIYEV,

A.A.HASANOV, H.SIROJIDDINOV,

K.M.GULYAMOV

Jurnal 2000-yildan nashr etila boshlangan.
O'zbekiston matbuot va axborot agentligida
2007-yil 3-yanvarda qaytadan ro'yxatga olinib,
0109-raqamli guvohnoma berilgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar
Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasi
tomonidan 2017 yil 29 avgustdagi 241/8 qarori
bilan Pedagogika fanlari bo'yicha dissertatsiyalar
yuzasidan asosiy ilmiy natijalarni chop etishga
tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Manzil: 100095, Toshkent sh., Olmazor tumani

Universitet ko'chasi, 2-uy

Tel.: 90-979-75-89; 94-677-90-32;

E-mail: kasbhunartalimi@mail.ru,
ksbjurnal@inbox.uz.

Nashr uchun mas'ul

H.Sirojiddinov

Shifalovchi:

I.Sirojiddinov

Tahririyat fikri muallif nuqtai nazariga to'g'ri
kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar tahrir etilmaydi
va egasiga qaytarilmaydi.

Jurnaldan ko'chirib bosilganda "Kasb-hunar ta'limi"
jurnalidan olingani izohlanishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 01.10.2023-yil.

Bichimi 60x84 1/8

Bosma tabog'i 10. Adadi 60 nusxa.

Buyurtma "PROFIEDUPRESS" MChJ

bosmaxonasida chop etildi.

Korxonangiz: Toshkent shahri, Sirg'ali tumani,

Yangi Sirg'ali ko'chasi, 18-uy

МУНДАРИЖА

Astankulova M. Innovatsion ta'lim sharoitida "maktabgacha ta'limda menejment" fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish.....	3
Mo'minov K.A. Forsayt texnologiyasi asosida talabalarni texnik va dasturiy ta'minoti kompetentligini innovatsion takomillashtirish mexanizmi.....	6
Toshtemirova D. Bo'lajak tarbiyachilarda bolalarni tabiat bilan tanishtirish jarayonini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari.....	11
Rajabov F.T. Zamonaviy pedagogik yondashuvlarning afzalliklari.....	16
Abdugarova Sh. X. Дидактические возможности формирования гендерного равенства у детей дошкольного возраста	22
Ibadullayev Q.M. Bola rivojida tarbiya madaniyatining roli va ahamiyati.....	26
Tashxodjayeva P.B. Zamonaviy ingliz tilida audiovizual tarjima va uning metodikasi.....	30
Berdiyeva M.M. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda zamonaviy yondashuvlardan foydalanish.....	33
Kurbanova F.K. Umummadaniy kompetensiyani rivojlantiruvchi samarali usullar.....	36
Mehrochev B.B. Elektron axborot-ta'lim muhitida talabalar mustaqil ishini tashkil etish.....	41
Jo'rayeva N.T. Bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish usullari.....	48
Akramova D.G'. Ta'lim jarayonida o'quvchilarni kasbiy faoliyat xavfsizligiga tayyorlash: pedagogik yondashuv.....	52
Fozilov J. Pedagogik aksiologiyaning asosiy tushunchalari va prinsiplari.....	57
Nazarqosimov Q., Qarshiboyev A.A. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarda shaxsiy sifatlarni kamol toptirishning hozirgi kundagi ahamiyati.....	63
Axrorova S.A. Autizm sindromli bolalarning muloqot ko'nikmalarini o'rganishda tibbiy-psixologik-pedagogik qarashlar.....	68
Gaynazarova G.A. Ertaklardan foydalangan holda bolalarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish usullari.....	76
Mirzayev Sh. O'quv me'yoriy xujjatlarning o'quv jarayonida samaradorlikni oshirishga ta'sir etadigan nazariy asoslar va ta'lim-tarbiyaviy prinsiplar.....	82
Kadirov T.B. O'qituvchilarning mediakompetentligini rivojlantirish muammosini yechish yo'llari.....	85
JABBAROV Z. Oliy ta'lim muassasalarining harbiy tayyorgarlik o'quv bo'linmalarida harbiy ta'limni rivojlantirish muammolari.....	90
Abdullayeva N.O'. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlashda og'zaki nutqni rivojlantirishda arifmetik amallarning ahamiyati.....	94
Toshurdiyeva Z.D. Erta yoshdagi rivojlanish ortida qolayotgan bolalarni lug'at kamchiligini diagnostika qilishda nutqiy motivatsiyani oshirish.....	102
Usmonova Z.I. Boshlang'ich sinflarda o'rgatiladigan og'zaki hisob usullari, ularning nazariy-metodik jihatlari.....	107
Toshpulova N. Maktabgacha yoshdagi aqliy rivojlanishda muammosi bo'lgan bolalarning maktab talimiga yetukligini o'rganishga qaratilgan ishlar.....	111
Haqberdiyev J.A. Kar va zaif eshituvchi bolalarni oilada tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlari	118
MAMATQULOVA SH.O'. "Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarni aqliy qobiyatini rivojlantirishda triz ta'lim texnologiyasi asosida rivojlantirish".....	123
Jabbarov R.R. Oliy ta'lim muassasalarida amaliy bezak san'ati fanini dasturiy mahsulotlar orqali o'qitish muammosining metodik adabiyotlarda o'rganilganlik darajasi.....	130
Abdulxafizov B.X. Pedagogik kvalimetriyaga kirish va uning o'rta maktab (10-11-sinf) o'quvchilarining bilimlarini baholashdagi roli.....	136
Suvankulova Sh.K. Aqli zaif bolalarda nutq nuqsonlarini korreksiyalashning ahamiyati.....	141
Arifxodjayev G'.S., Isarova Sh.B. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarda shaxmatni o'ynashda tasavvurlarni shakllantirish.....	145
Xodiyeva G.H. Boshlang'ich sinflarda steam fanlarni o'qitishning didaktik xususiyatlari.....	149

Norqo'ziyeva M.A., Musurmonova S. Fridrix frebelning didaktik tizimi - steam ta'lim moduli sifatida.....	155
Esanboyeva M.A. Theoretical and practical foundations of using innovative technologies in teaching English.....	159
Xamrayeva E.M. Bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining nutq madaniyatini innovatsion texnologiyalar asosida rivojlantirish.....	163
Буранова Ш.А. Нодавлат мактабгача таълим ташкилоти педагогларининг корпоратив маданиятини такомиллаштиришнинг педагогик мазмуни.....	168
Temurova G.X. Kar va zaif eshituvchi bolalar tarbiyasida qurish-yasash va uning tutgan o'rni.....	173
Пўлатов Ш.П. Таълим ташкилотларининг кластерли ёндашув асосида ҳамкорлик фаолиятини ривожлантириш йўналишлари.....	176
Yunusov M.X. Kar va zaif eshituvchi bolalar eshituv-nutqiy faoliyatini tashkil etishning korreksion yo'nalganligi.....	180
Позилова Ш.Х., Зарипова Д.А. Научно-методический анализ развития профессиональной креативности преподавателей профессионального образования.....	184
Berdiyeva M.B. Bo'lajak boshlang'ish sinf o'qituvchilarini kreativ kompetentligini rivojlantirish – ijtimoiy pedagogik muammo sifatida....	189
Каримова В., Шоймардонова Т.Т. Алгоритм отбора преподавателей на основе морфологического анализа для повышения качества подготовки руководящих кадров вузов.....	193
Maxmudova D.M. Maktabgacha yoshdagi bolalarni xalq og'zaki ijodi vositasida maktab ta'limiga tayyorlash.....	200
Пардабаев Ж.Э. Ўқувчиларнинг касбий тайёргарлигини ривожлантиришда мактабдан ташқари, умумий ўрта ва профессионал таълим узвийлиги.....	203
Sultanov T.M. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'yin texnologiyalari asosida ta'limga adaptatsiya qilishning pedagogik mazmuni.....	210
Терехова О.Е. Описание методической работы по развитию речевого творчества детей старшего дошкольного возраста.....	214
Nadirova N. O'rta umumta'lim maktablari ingliz tili darslarida og'zaki nutq mashqlarining taxlili.....	219
Atakav I.R. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tarbiya fanini o'qitishni metodik takomillashtirish.....	224
Kuranbayeva H.A. Ta'lim traektoriyasini metodik takomillashtirishda uzluksizlikni ta'minlashning daraja ko'rsatkichlari mexanizmi.....	229
Xanbabayev X.I. Auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar jarayonida talabalarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirish.....	234
Mavlonov F.F. Harbiy xizmatchilarning kasbiy madaniyatini rivojlantirishning pedagogik shartlari.....	240
Djo'raboeva R. Rahbar xodimning boshqaruv madaniyatini rivojlantirishdagi o'ziga xos jihatlari.....	245
Muratova N.H. Noto'liq oilada voyaga yetayotgan farzandlarning ijtimoiy hayotga moshlashuv mexanizmlarini o'rganish.....	250
Xo'jamatova X.M. Maktabgacha yoshdagi bolalar ijtimoiylashuvi.....	255
Sobirov S.T. O'quvchilarda illyustrativ rasm ishlash kompetensiyalarini uzviylik prinsipi asosida shakllantirish.....	260
Qodirova N.A. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida nuksonli bolalar bilan ishlashning ma'naviy-psixologik aspektlari.....	264
Talipov N., Egamberdiyeva D. Talabalarni manzara kompozitsiyasini ishlashga o'rgatishning muhim omillari.....	268

INNOVATSION TA'LIM SHAROITIDA "MAKTABGACHA TA'LIMDA MENEJMENT" FANINI O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

ASTANAKULOVA MANZURA

Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada innovatsion ta'lim sharoitida "Maktabgacha ta'limda menejment" fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish yo'llari haqida ilmiy ma'lumotlar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim tizimi, ta'lim sifati, modellashtirish, ilmiy bilish, maktabgacha ta'lim, boshqarish, qonun hujjatlari, ta'limni tizimli tahlili, amaliyot sohasi, tarkibiy tahlili.

Abstract: This article provides scientific information about ways to improve the teaching methodology of the subject "Management in preschool education" in the conditions of innovative education.

Key words: Education system, quality of education, modeling, scientific knowledge, pre-school education, management, legislation, systematic analysis of education, field of practice, structural analysis.

Аннотация: В данной статье представлена научная информация о путях совершенствования методики преподавания предмета «Менеджмент в дошкольном образовании» в условиях инновационного образования.

Ключевые слова: Система образования, качество образования, моделирование, научные знания, дошкольное образование, менеджмент, законодательство, системный анализ образования, область практики, структурный анализ.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining pedagogik jamoasini boshqarish o'z navbatida boshqaruv faoliyati bilan bog'liq bo'lgan muammolarni MTTning xodim va xodimlar guruhi tomonidan boshqa guruhlar faoliyatini samarali tashkil etish va birgalikdagi faoliyatni amalga oshirishning mexanizmlarini rivojlantirilib boriladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotini hodimlarini boshqarishda, ta'lim tashkilotlari rahbarlari, pedagog xodimlar uchun pedagogik jamaoni boshqarishda bilimlarning ahamiyati, jamoada bo'ladigan shaxslarning o'zaro munosabatlarini tashkil etishiga muhim ilmiy-amaliy manba bo'lib xizmat qiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi pedagogik jamoani boshqarish ilmiy asosida o'rganiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotini boshqarishda boshqa sohalari bilan uzviy bog'likda, o'zi to'plagan ma'lumotlarni chuqur va ilmiy jihatdan oqilona tahlil qilish

imkoniyatiga ega bo'ladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqaruv ilmining mazmun va mohiyati xodimlarni yoki jamoa mehnat faoliyatini boshqarish bilan ham bog'likdir. Jamoa yiriklashgan sari boshqaruvning vazifalari murakkablashib boradi. Boshqaruv jarayonining murakkablashuvi boshqaruv ilmidan foydalanish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Ta'lim sifati muammolarini tadqiq qilish metodologiyasi uch xil tahlil darajasini: tadqiqotning umummetodologik, xususiy metodologik va aniq metodikalarini o'z ichiga oladi.

Boshqaruv masalalarida tadqiqot olib borgan nemis olimlari V. Zigert va L. Lang boshqaruvga quyidagicha ta'rif berganlar: "Boshqaruv – bu odamlarni boshqarish va mablag'lardan foydalanishning shunday turiki, u qo'yilgan maqsadga insoniy, iqtisodiy va ratsional ravishda erishishni ta'minlaydi".

Amerikalik olim P. Drukerning

nuqtai nazari bo'yicha, "boshqaruv, bu faoliyatning mujassamlashmagan, olomoni samarali, maqsadga yo'naltirilgan va ishlab chiqaruvchi guruhga aylantiruvchi turidir".

Boshqaruv darajalari, odatda uchta asosiy kategoriyalarga bo'linadi:

1. institutsional bosqich;
2. boshqaruv bosqichi;
3. texnik bosqich.

Ularni ko'rib chiqamiz: Institutsional bosqichda strategik, ya'ni istiqbol rejalar va maqsadlar tuziladi. Bunda boshqarishning boshqa kategoriyalariga qaraganda kam sonli hisoblanadi va o'zida yuqori bo'g'in boshqaruvchilarini: – vazirlar, rektorlar, kompaniya direktorlar Kengashi raisi, generallar va maktabgacha ta'lim boshqarishni qamrab olishi mumkin.

Yuqori bo'g'in boshqaruv rahbarlari shunday shaxslarki, ular tashkilotning muhim qarorlarini qabul qilinishida mas'ul hisoblanishadi. Ularning ishi juda katta bosimga ega, qizg'in va ushbu tashkilot mavjud ekan, aniq bir chegaralar mavjud emas.

O'rta bo'g'in boshqaruv rahbarlari yuqori bo'g'in boshqaruvchilariga bo'ysunadilar va quyi bo'g'in (texnik) rahbarlarining ishini yo'naltiradilar va nazorat qiladilar. Agar tashkilot keng tarqalgan tuzilmaga ega bo'lsa, unda o'rta bo'g'in boshqaruv rahbarlari ikki qo'shimcha darajaga bo'linadilar (yuqori darajadagi o'rta bo'g'in boshqaruv rahbarlari va quyi darajadagi o'rta bo'g'in boshqaruv rahbarlari).

O'rta bo'g'in boshqaruv rahbarlariga eng keng tarqalgan misol qilib quyidagilarni ko'rsatib o'tish mumkin: dekan (oliy ta'lim muassasida), bo'lim boshliqlari (agar gap biznes haqida borsa), sektor boshlig'i, maktabgacha ta'lim tashkiloti mudiralari va boshqalar. Quyi bo'g'in boshqaruv rahbarlari ishlab chiqarish vazifalarining bajarilishini nazorat qilishadi. Bular - tashkiliy daraja,

ya'ni bevosita kadrlar, ishchilar yoki yosh kadrlar bilan ishlaydilar.

Quyi bo'g'in boshqaruvi rahbarlari juda xilma-xil bo'lgan harakatlar mavjud bo'lgan qizg'in ishni bajaradilar. Ular bir vazifadan ikkinchisiga o'tishlariga to'g'ri keladi. Shunday qilib, pedagogik boshqaruv ijtimoiy boshqaruvning muhim qismi hisoblanib, o'z maqsadi, predmeti, manbalari va tarkiblariga egadir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini pedagogik boshqaruvning maqsadi: ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish va tizim faoliyatini ta'minlash, jamiyat tomonidan ta'lim -tarbiyaga qo'yilayotgan talablarni bajarishini ta'minlash uchun tizimning takomillashuvini oshirish yo'llarini ishlab chiqishdan iborat.

Ta'lim tashkilotlari darajasida menejmentning asosiy kategoriyalarini ko'rib chiqishda ular faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari va faoliyat yuritishining umumiy vazifalarini hisobga olish zarur. Boshqaruv obyekti — bu boshqariladigan obyekt, ya'ni, tarmoq, tashkilot, tashkilot va hokazo. Boshqaruv obyekti sifatida faoliyat sohasi bo'lmish ta'lim, shuningdek, turli xildagi ta'lim tashkilotlari ko'rib chiqilishi mumkin. Menejmentda boshqaruv obyekti sifatida, odatda, faoliyati muvofiqlashtiriladigan va muayyan maqsadlarga erishishga yo'naltiriladigan bir guruh odamlar tushuniladi.

Boshqaruv subyekti — bu boshqaradigan subyekt, ya'ni, tarmoq, tashkilot va tashkilotni boshqarish apparati. Ta'limdagi menejmentga nisbatan olganda, boshqaruv subyekti boshqaruvning turli darajalarida konkret vazifalarni bajaruvchi muayyan bo'g'inlari majmuidan iborat. Bunda har bir yuqori bo'g'in quyi bo'g'inga nisbatan boshqaruv subyekti sifatida yuzaga chiqadi.

Boshqaruv subyekti va obyekti bevosita

FORSAYT TEXNOLOGIYASI ASOSIDA TALABALARNI TEXNIK VA DASTURIY TA'MINOTI KOMPETENTLIGINI INNOVATSION TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMI

MO'MINOV KOMILJON AXMADJONOVICH

TAFU Informatika kafedrası o'qituvchisi

TAFU "Pedagogika" kafedrası p.f.d., dot.Axmedova M.E. taqrizi sosida

Annotatsiya. Ushbu maqola pedagogik OTMning bakalavr ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalari hamda pedagogik oliy ta'lim professor o'qituvchilari, uchun mo'ljallangan. Talabalarning kreativ kompetensiyalarini forsayt texnologiyalari asosida metodik takomillashtirishda ta'limning innovatsion tashkiliy-didaktik shakllarini qo'llashning pedagogik shart-sharoitlari va sifat ko'rsatgichlari, axborot-didaktik ta'minoti tavsiflangan. Talabalarning kreativ kompetensiyalarini Forsayt texnologiyalar asosida takomillashtirish metodikasi, innovatsion yondashuv asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar: kreativ kompetensiya, kadrlar tayyorlash, modernizatsiyalash, metodik ta'minot, innovatsion faoliyat

Аннотация. Данная статья предназначена для студентов бакалавриата педагогического вуза и преподавателей высшего педагогического образования. Описаны педагогические условия и качественные показатели использования инновационных организационно-дидактических форм обучения в методическом совершенствовании творческих компетенций обучающихся на основе технологий предвидения, информационно-дидактического обеспечения. Освещен метод совершенствования творческих компетенций студентов на основе технологий Форсайт, инновационный подход.

Ключевые слова: творческая компетентность, подготовка кадров, модернизация, методическое обеспечение, инновационная деятельность

Annotation This article is intended for undergraduate students of the Pedagogical Higher Educational Institution and professors of higher pedagogical education. Pedagogical conditions and quality indicators of using innovative organizational and didactic forms of education in the methodical improvement of students' creative competencies based on foresight technologies, information and didactic support are described. The method of improvement of students' creative competences based on Forsayt technologies, innovative approach is covered.

Key words: creative competence, personnel training, modernization, methodological support, innovative activity

Kirish. Zamonaviy pedagogik ta'lim – O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimining tarkibiy qismi sanaladi va umumiy o'rta ta'lim tizimini kadrlar bilan ta'minlashdek muhim vazifani bajaradi. Pedagogika ta'limini modernizatsiyalash vazifalarini aniqlashtirish zaruriyati, uni rivojlantirishning ichki qonuniyatlari bevosita, davlat, jamiyat, shaxsni rivojlantirish ehtiyojining istiqboli bilan mushtarak holda amalga oshiriladi. Pedagogika ta'limi tizimi uchun mutaxassislarni tayyorlash ayni vaqtda

an'anaviy ta'lim va jahon tajribasi, kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirishning yangilangan tizimi talablari asosida amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda amalga oshiriliyotgan fan-texnika taraqqiyoti va jamiyatdagi o'zgarishlar, zamonaviy ta'lim tizimining yuqori darajada yangilanish bosqichida bo'lg'usi o'qituvchilarni innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayoniga o'ziga xos talablar qo'yimoqda. Bo'lajak axborot texnologiyalariga oid mutaxassislarni

tayyorlashning yangilangan talablari mohiyati: innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashga sharoit yaratish, tez o'zgaruvchan mehnat mazmuni va doimiy ravishda uzluksiz yangilanadigan bilimlar zaruriyati bilan bog'liq.

“Innovatsiya” va “innovatsion faoliyat” tushunchalari ilmiy atamalarga nisbatan kiritilgan termin. Ilk marta – “innovatsiya” tushunchasi XIX asrda madaniyatshunoslarning tadqiqot ishlarida paydo bo'lgan va bir madaniyatning ayrim elementlarini boshqasiga kiritishni anglatgan. Uning mazkur ma'nosi hozirga qadar etnografiyada saqlanib qolingan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). M.V.Klarin “innovatsiya” tushunchasini nafaqat yangiliklarni yaratish va tarqatish, balki mazkur yangiliklar bilan aloqador bo'lgan qayta o'zgarishlarga, faoliyat tarzidagi, fikrlash uslubidagi o'zgarishlarga ham tegishli ekanligini tasdiqlaydi. Yangiliklarni tasniflashda agar ta'lim-tarbiya jarayonining murakkabligi, majmualigi va dinamikligi inobatga olinsa, yanada ko'proq murakkablashadi. Har bir pedagogning o'quvchilar, ularning ota-onalari, ehtiyojlari, manfaatlarini inobatga olgan holda ta'lim-tarbiya konsepsiyasiga o'z nuqtai nazarini ishlab chiqish va himoyalashga yo'l qo'yiladi. Maxsus adabiyotda yangiliklarning tasnifi turli belgilar bo'yicha amalga oshiriladi. Biz Ye.I.Kazakovaning nuqtai nazariga qo'shilamiz, u yangiliklarni qo'llash tasnifi sifatida maqsadli foydalanish yangiligi, ta'lim missiyasi sohasida yangilik, integratsiyalangan pedagogik g'oyalar sohasida yangilik, ta'lim mazmunidagi yangilik, ta'lim tizimini tashkil etish va qurish sohasidagi yangilik, texnologiya va alohida usullarni ishlab chiqish sohasidagi yangilik, sifatni baholash sohasidagi yangilik kabi mezonlarni tanlaydi.

YUNESKOning davriy sharhlariga asoslanib, Ye.I.Kazakova dunyo miqyosidagi

yangiliklarga ijtimoiy maqomda (davlat ta'lim paradigmasida aks ettirish), ta'lim tizimi tuzilishida, ta'lim tizimidagi uzluksiz aloqalar majmuasida, ta'lim mazmunida, ta'lim muassasalarining tipologik tuzilishida, ta'lim tuzilishini tashkil etish va texnologiyasida, ta'lim sub'ektlari o'rtasidagi munosabatlarda, xususiy metodikalarda, o'quv jihozlarida, ta'lim uchun binolar va inshootlarni qurish va jihozlashda kabi yangiliklarni kiritish mumkinligini ta'kidlaydi. Nayxof yangilikni «Bu biron-bir g'oyadan boshlanadigan va o'zgarishlarga ta'sir ko'rsatadigan, ularning o'zlashtirilishi yoki iste'molchilar tomonidan inkor etiladigan jarayon» sifatida ta'riflaydi. XX asrning boshlarida yangi bilim sohasi innovatika – yangiliklar kiritish haqidagi fan paydo bo'ldi, unda moddiy ishlab chiqarish sohasidagi texnik yangiliklarning qonuniyatlari o'rganiladi. Innovatikada asosiy tushuncha - innovatsion jarayon hisoblanadi. Ta'limda innovatsion jarayonlar uch asosiy jihatdan qarab chiqiladi: ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik-pedagogik va tashkiliy-boshqaruv. Ushbu jihatlar innovatsion jarayonlar o'tadigan umumiy iqlim va sharoitlarga bog'liqligi sababli mavjud sharoitlar innovatsion jarayonga hissa qo'shishi yoki to'sqinlik qilishi mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da1 belgilangan vazifalarni amalga oshirish ta'lim tizimiga eng zamonaviy pedagogik hamda raqamli texnologiyalardan foydalanishni talab etadi. Shuningdek, oliy ta'limda tayyorlanayotgan salohiyatli kadrlarimiz kelajakni ko'ra bilishi, tezkor o'zgaruvchan raqobatbardosh muhitga moslashuvchan bo'lishlari, barqaror rivojlanish tamoyillarini amalga tatbiq eta olishlari zarur. Chunki, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tezlashib borayotgan bir vaqtda kelajak strategiyasini to'g'ri shakllantirish barqaror rivojlanishning asosini tashkil

etadi. Hozirgi globallashuv davrida dunyo, mintaqa, davlat yoki axborot texnologiyalari sohalaridagi yirik muammolar (ekologik, texnologik, axborot xavfsizligiga oid va b.) yechimiga oid strategik rejalar, yo'l xaritalari va konsepsiyalar ishlab chiqishda Forsayt texnologiyalaridan foydalanish eng samarali va maqbul variant hisoblanadi. Forsayt texnologiyasi asosida rivojlanishning uzoq muddatli (5 yildan 30 yilgacha) rivojlanish dasturi yoki konsepsiyasi qisqa muddatli aniq dalillarga asoslangan ma'lumotlar asosida yaratiladi, ya'ni kelajak strategiyasi aniq, yuqori darajadagi dalillar asosida rejalashtiriladi 2. Rivojlangan davlatlarda forsayt texnologiyasi alohida bir tashkilot yoki korxonada doirasida ham keng foydalaniladi, forsayt uslublari yordamida korxonaning kelajak strategik rejasi ishlab chiqiladi, qaysi texnologiyalarni takomillashtirish zarurligi aniqlanadi, maqsadga erishish yo'l xaritalari ishlab chiqiladi. Shu sababli rivojlangan davlatlar oliy ta'lim tizimida axborot xizmatlaridan foydalanib mutaxassislarni tayyorlashda elektron axborot texnologiyalari va informatika fanlari asosida shaxsiy kompyuterlarning ta'minoti va uning turlari, kompyuter avlodlari va ularning klassifikatsiyasi, kompyuter arxitekturasi va uning ishlash prinsiplari, xotira va uning ishlash imkoniyatlari, kompyuter asosiy va tashqi qurilmalarining tafsiflari, shaxsiy kompyuter asosiy ta'minoti va uning rivojlanish tendentsiyalari, tizimli dasturiy ta'minot va ularning turlari, arxivlashtirish dasturlari, antivirus dasturiy vositalari, dasturlash texnologiyasining uskunaviy vositalari va unda qo'llaniladigan dasturlar haqida tushuncha, matematik masalalarni yechishga mo'ljallangan amaliy dasturlar, obyektga yo'naltirilgan dasturlash muhitida ishlash imkoniyatlari, modellashtirish va simulyatsiya, kompyuter simulyatsiyasi haqida va amaliy bilimlarni, ko'nikma va malakalarni rivojlantirishdan iborat.

Kompyuter asosiy ta'minoti fanining maqsadi va vazifalaridan kelib chiqib, kompyuter avlodlari va ularning klassifikatsiyasi, kompyuter asosiy ta'minoti to'liq Forsayt texnologiyasi asosida yoritiladi. Kompyuter avlodlari va ularning klassifikatsiyasi. Zamonaviy kompyuterlar arxitekturasi. Mikroprotsessorlar. Xotira turlari va uning ishlash tamoyillari. Mikroprotsessor arxitekturasi. Mikroprotsessor turlari va ishlash tamoyillari. Xotira turlari. Kompyuter asosiy, atrof qurilmalari va ularning xarakteristikalarini. Kompyuter asosiy va tashqi qurilmalari. Kompyuter kiritish-chiqarish qurilmalari. Kompyuter zamonaviy periferik qurilmalarini forsayt texnologiyasi asosida amaliy ko'rsatib berish lozim. Kompyuter asosiy ta'minoti fanlarini o'qitishda forsayt texnologiyalaridan keng foydalaniladi va ta'lim dasturlarida aynan forsaytga oid fanlar nazarda tutilgan. Forsayt texnologiya asosida global (xalqaro hamkorlik asosida) muammolar, jumladan hamkorlik asosida qaysi sohani yanada keng rivojlantirish va qaysi texnologiyalarni takomillashtirish lozimligi aniqlanadi, maqsadga erishishning strategiyasi ishlab chiqiladi. 1990 yillardan boshlab uzoq muddatli istiqbolni belgilashda forsayt texnologiyalardan AQSh, Yevropa, Osiyo, Lotin Amerikasidagi iqtisodiy rivojlangan bir qancha davlatlar keng foydalana boshlashdi. Forsayt loyihalar natijalari asosida keng masshtabli Xalqaro tadqiqot dasturlari ishlab chiqilgan, jumladan Yevropa Ittifoqining Oltinchi va Yettinchi ilmiy tadqiqotlar va texnologiyalarni rivojlantirish dasturining byudjet xarajatlari 17,5 va 54 mlrd. yevroni tashkil etgan. Shvesiyaning oxirgi forsayt loyihasi 3,6 mln yevro, Turkiyada esa 2 mln yevroga yaqin mablag' sarflangan. Forsayt tadqiqotlar borasida EFMN (The European Foresight Monitoring Network) - Yevropa forsayt

tadqiqotlar monitoringi tizimi, FISTERA – axborotlashgan jamiyat sohasidagi loyihalar tizimi faoliyatini misol qilishimiz mumkin. EFMN Yevropa Ittifoqi tomonidan moliyalashtiriladi va “Yevropa bilimlar almashinuvi platformasi”ning bir qismi hisoblanadi. Uning tarkibiga ARC-SA, VDI, PREST, TNO, CKA, Atlantis, Fhg-ISI, Dialogik, Louis Lengand & Associates, Technology Centre Prague kabi tashkilotlar kiradi. 2006 yilgi ma’lumotlar bo’yicha EFMN monitoring portfoliosida Yevropa Ittifoqiga a’zo davlatlarda hamda Yaponii, SShA, Kanada, Xitoy, Koreya Respublikasi va Braziliyada bajarilgan 1000 ga yaqin forsait tadqiqotlar to’g’risida ma’lumotlar mavjud. Forsait texnologiya asosida muddatli strategik rejalar, konsepsiyalar va istiqbolli yo’l xaritalari ishlab chiqish amaliyoti yo’lga qoyilmagan. Respublikamizdagi ko’pgina ishlab chiqarish korxonasi va tashkilotlari oldida turgan asosiy muammolardan biri, ular tomonidan yuqori texnologik loyihalarni rivojlantirish jarayonini bozor va texnologik trendlar rivojlanishini hisobga olmasdan amalga oshirib kelinayotganligidadir. Innovatsion sektorda kooperativ jarayonlarning rivojlanmaganligi tufayli ilmiy yutuqlarni ishlab chiqarishga joriy etish masalasiga sust yondashish hamda matematik-statistik tadqiqotlari o’tkazishning yetarlicha baholanmaganligi kuzatiladi. Shu sababli oliy ta’lim o’quv jarayonida bo’lajak Kompyuterning texnik va dasturiy ta’minoti fanining forsait texnologiya, uning mazmuni, forsait uslublaridan foydalanish to’g’risida ma’lumotlar berish hamda ushbu uslublarni o’quv jarayonida innovatsion pedagogik texnologiya sifatida keng qo’llash va ularda “Forsait kompetentlik”ni rivojlantirish zamon talabi hisoblanadi. O’zbekistonda Forsait nisbatan yangi texnologiya hisoblanadi, shu sababli axborot texnologiyasi tarmoqlari sohasida hamda ta’lim sohasida forsait tadqiqotlar olib borilmagan va forsait

bo’yicha ilmiy tadqiqotlar yetarli emas. Muammoning qo’yilishi. Hozirgi sharoitda Oliy ta’limda Kompyuterning texnik va dasturiy ta’minoti, fanini islohotning asosiy ustuvor yo’nalishlaridan biri, ayniqsa talabalarga amaliy faoliyatimizda qo’llanilayotgan Forsait texnologiyasining metodik, nazariy va ilmiy nuqtai nazarlardan qo’llash mexanizmini ishlab chiqishdir. Forsait-kompetentlik–talabalarning kasbiy va ilmiy-refleksiv faoliyatida kelajagini bashoratlashga tayyorligi hamda qobiliyatini takomillashtirilganligi bilan xarakterlanadi. Kompyuterning texnik va dasturiy ta’minoti fanining forsait kompetentligini baholash indikatorlari sifatida axborot va mutaxassisligini tanlashdagi ijobiy jihatlari, mutaxassislik fanlari majmui bo’yicha bilimlari, refleksiv kasbiy faoliyati bo’yicha tajribalari, texnik va dasturiy ta’minoti madaniyati masalalarini samarali hal etish bo’yicha tayyorgarligi, forsait uslublarini puxta bilishlari va amaliyotga tadbiq eta olishlari hamda o’zining kasbiy kompetentligini mustaqil oshirib borish, o’z-o’zini rivojlantirish jarayoni asosida Forsait kompetentlik kasbiy kompetentlikning ajralmas qismi hisoblanadi, shu sababli uni maqsadli kompetentlik deb ta’riflash ham mumkin. O’quv shakllari an’anaviy ta’lim tizimidagi muammoli ma’ruzalar, amaliy va seminar mashg’ulotlari, o’quv-tadqiqot ishlari, malakaviy amaliyotlardan iborat. O’quv vositalari esa elektron ta’lim resurslari va pedagogik simulyatorlardan iborat.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Forsait kompetentlikning baholash-natijaviy komponentini va ularning xarakterlarini belgilovchi asosiy ko’rsatkichlarini qo’yidagi 3 ta guruhga ajratamiz: 1. Forsait asosida bashoratlashga oid nazariy bilimlarga ega bo’lish (forsait metodlarini o’zlashtirish, ulardan amalda foydalanish, forsait asosida uzoq, o’rta va qisqa muddatli bashoratlash qobiliyatlariga ega bo’lish). 2. Strategik

rejalar va yo'l xaritalar ishlab chiqish (bashorat natijalari asosida strategik rejalar, yo'l xaritalari ishlab chiqish ko'nikmasiga ega bo'lish). Bo'lajak axborot hamda kompyuterning texnik va dasturiy ta'minoti mutaxassislarini forsayt bo'yicha o'z vaqtida tezkor qarorlar qabul qilish hamda belgilangan natijaga erishini ta'minlash, nazorat qilish va baholash bo'yicha nazariy bilim, malaka hamda uquvlarni takomillashtirishdan iborat. Prinsiplar: tizimli, faol, variativlik, amaliyotga yo'naltirilgan Komponent tarkibi Invariantiv component; Variativ component. Asosiy o'quv moduli: kasbiy faoliyatni tashkil etish metodologiyasi va metodlari Variativ o'quv moduli: "Kasbiy istiqbolni loyihalash" Texnologik komponent Metodlar: O'quv shakllari: O'quv vositalari: Forsayt texnologiyalari asosida interaktiv metodlar,

muammoli o'qitish metodlari Muammoli ma'ruzalar, amaliy va seminar mashg'ulotlari, o'quv-tadqiqot ishlari, malakaviy amaliyotlar Elektron ta'lim resurslari, pedagogik simulyator Baholash-natijaviy komponent Forsayt asosida bashoratlash Strategik rejalashtirish Natijaga erishish, nazorat va baholash Komponentlarni belgilovchi ko'rsatkichlar Forsayt texnologiyasini o'zlashtirish, ulardan amalda foydalanish, forsayt asosida uzoq, o'rta va qisqa muddatli bashoratlash qobiliyatlariga ega bo'lish. Bashorat natijalari asosida strategik rejalar, yo'l xaritalari ishlab chiqish ko'nikmasiga ega bo'lish. Belgilangan rejalarni bajarish bo'yicha qaror qabul qilish, nazorat va baholash, natijaga erishish yo'llarini bilish OTM talabalarida muhim ahamiyatga ega.



Foydalanilgan adabiyotlar:



1. Ishmuhamedov R.J. Bolalarni tarbiyalash va sog'lomlashtirish ishlarida pedagogik texnologiya (o'zbek va rus tillarida). – T.: UDAP, 2004 y.
2. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. – T.: TDPU, 2005 y.
3. Arianne Rourke, Kathryn Coleman "Pedagogy leads technology". O'quv qo'llanma USA. Common Ground Publishing, -2011.
4. Sifrovaya pedagogika v obrazovatel'nom prostranstve: Uchebnoe posobie / J.K. Sagalieva, M.D. Yesekeshova, A.A. Jusupova, E.Sh. Kochkorbaeva. – Almaty: «Bastau», 2020
5. Sifrovaya pedagogika : uchebnoe posobie / A.V. Golubinskaya, V.A. Demareva. – Nijniy Novgorod: Nijgorodskiy gosuniversitet, 2021
6. Sifrovaya pedagogika: texnologii i metody: uchebnoe posobie / N.V. Solovova [i dr.]. – Samara: Izdatelstvo Samarskogo universiteta, 2020.

Axborot manbaalari

1. <http://www.edu.uz>—O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi sayti.
 2. www.prometeus.nsc.ru/contents/books/slasten
 3. www.relarn.ru/conf/conf2007
 4. <http://vilenin.narod.ru/Mm/Books/>
 5. <http://www.allmath.ru/>
- <http://www.ziyonet.uz/>

BO'LAJAK TARBIYACHILARDA BOLALARNI TABIAT BILAN TANISHTIRISH JARAYONINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

TOSHEMIROVA DILNURA
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Abstrakt. Bo'lajak tarbiyachilarni bolalarni tabiat bilan tanishtirish jarayoni erta yoshdagi bolalarni tarbiyalash va rivojlantirishning muhim tarkibiy qismidir. Ushbu maqolada ushbu jarayonning psixologik xususiyatlari ko'rib chiqiladi, kelajakdagi o'qituvchilarga ta'siri va bolalar uchun foydasiga e'tibor qaratiladi. Bo'lajak tarbiyachilarni tabiat bilan bog'lashning psixologik dinamikasini tushunish samarali ta'lim strategiyalarini shakllantirish va bolalarda tabiatga chuqurroq munosabatda bo'lishni rivojlantirish uchun muhimdir.

Kalit so'zlar: Tabiatga asoslangan ta'lim, psixologik xususiyatlar, Bo'lajak tarbiyachilar, bolalar, kognitiv rivojlanish, hissiy farovonlik, ijtimoiy ko'nikmalar, atrof-muhitni bilish, pedagogika, tajriba o'rganish, barqarorlik.

Абстракт. Процесс знакомства будущих педагогов детей с природой является важной составляющей дошкольного образования и развития. В данной статье рассматриваются психологические особенности этого процесса, особое внимание уделяется влиянию на будущих учителей и пользе для детей. Понимание психологической динамики связи будущих учителей с природой важно для формирования эффективных образовательных стратегий и развития более глубокой связи с природой у детей.

Ключевые слова: природное образование, психологические характеристики, будущие учителя, дети, когнитивное развитие, эмоциональное благополучие, социальные навыки, экологическое сознание, педагогика, экспериментальное обучение, устойчивость.

Abstract. The process of introducing future educators to children with nature is a vital component of early childhood education and development. This article examines the psychological characteristics of this process, focusing on the impact on future educators and the benefits for children. Understanding the psychological dynamics involved in connecting future educators with nature is essential for shaping effective educational strategies and fostering a deeper appreciation of nature among children.

Keywords: Nature-based education, psychological characteristics, future educators, children, cognitive development, emotional well-being, social skills, environmental awareness, pedagogy, experiential learning, sustainability.

Tabiatni erta bolalik davridagi ta'limga kiritish juda katta ahamiyatga ega bo'lib, bolalarga tabiiy dunyo bilan bog'lanish imkoniyatini beradi va ularning har tomonlama rivojlanishiga yordam beradi. Bu intilish Bo'lajak tarbiyachilarning psixologik xususiyatlaridan katta ta'sir ko'rsatadi, chunki ular bolalarning tabiatga nisbatan ta'lim tajribasi va tasavvurlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Bo'lajak tarbiyachilarning bolalarni tabiat bilan tanishtirishlariga ta'sir qiluvchi psixologik jihatlarni tushunish tabiatga asoslangan

ta'limning afzalliklaridan foydalanadigan samarali ta'lim strategiyalarini ishlab chiqish uchun muhimdir.

Ushbu maqola kelajakdagi o'qituvchilarni tabiat bilan bolalar bilan tanishtirish jarayoniga ta'sir qiluvchi psixologik xususiyatlarni o'rganadi. O'qituvchilarning munosabati, e'tiqodi, ta'limi, o'z-o'zini samaradorligi va tajribaviy o'rganishini o'rganish orqali biz ularning tabiatni tushunish va qadrlashi bolalar uchun yaratadigan ta'lim tajribasini shakllantirish usullarini yoritishni maqsad qilganmiz.

Bundan tashqari, ushbu maqola tabiatga ta'sir qilishning bolalarga kognitiv rivojlanish, hissiy farovonlik, ijtimoiy ko'nikmalar va atrof-muhitni bilish kabi chuqur psixologik ta'sirini o'rganadi. Ushbu psixologik dinamikani har tomonlama tushunish orqali biz bolalar va tabiiy dunyo o'rtasida chuqur ildiz otgan aloqani mustahkamlaydigan, barqaror va ekologik ongli jamiyatni rivojlantiruvchi ta'lim landshaftini tasavvur qilishimiz mumkin.

Kelajakdagi pedagoglar uchun psixologik jihatlar

Tushunish va munosabat

Bo'lajak tarbiyachilarning tabiatga bo'lgan munosabati va tasavvurlari ularni ta'lim jarayoniga kiritishga yondashuviga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Xulq-atvor odatda shaxsiy tajribalari, madaniy kelib chiqishi va bolalik davridagi tabiatga ta'sir qilish bilan shakllanadi. Tabiatga ijobiy munosabatda bo'lgan o'qituvchilar ochiq havoda va tabiatga asoslangan mashg'ulotlarni o'z o'qitish amaliyotiga ko'proq qo'shib, bolalarda qiziqish va izlanishni rivojlantiradigan muhitni yaratadilar.

Ekologik e'tiqodlar va qadriyatlar

Bo'lajak tarbiyachilarning ekologik e'tiqodlari va qadriyatlari ularning tabiatga yo'naltirilgan ta'limga yondashuvining asosini tashkil qiladi. Bu qadriyatlar atrof-muhit masalalarini shaxsiy tushunishlari, axloqiy mulohazalari va barcha tirik mavjudotlarning o'zaro bog'liqligini idrok etishlari bilan shakllanadi. Kuchli ekologik qadriyatlarga ega bo'lgan o'qituvchilar o'z ta'limlarida barqaror amaliyot, atrof-muhit mas'uliyati va tabiatni muhofaza qilish sa'y-harakatlarini ta'kidlaydilar. Bu, o'z navbatida, ular tarbiyalayotgan bolalarda ham xuddi shunday qadriyatlarni singdiradi, yoshligidanoq boshqaruvchilik tuyg'usini, atrof-muhitni muhofaza qilish ongini

tarbiyalaydi.

Ta'lim va ta'lim

Bo'lajak tarbiyachilar oladigan rasmiy ta'lim va ta'lim ularning tabiatni pedagogik yondashuviga kiritishga tayyorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ekologik ta'lim, ochiq havoda ta'lim yoki tegishli sohalardagi kurslar o'qituvchilarni mazmunli va qiziqarli tashqi tajriba yaratish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va uslublar bilan jihozlaydi. Bundan tashqari, ixtisoslashtirilgan o'quv dasturlari ularning sinfdagi o'rganishni tabiatdagi real hayot tajribasi bilan bog'lash qobiliyatini oshiradi, ta'lim jarayonini boyitadi va bolalarning dunyoqarashini kengaytiradi.

O'z-o'zini samaradorlik va ishonch

Shaxsning muayyan vazifani uddalash qobiliyatiga ishonishi sifatida tavsiflangan o'z-o'zini samaradorligi kelajakdagi o'qituvchilarning tabiatga asoslangan ta'limga qanday yondashishida muhim rol o'ynaydi. Tabiatni o'qitish usullariga qo'shishda yuqori samaradorlikka ega bo'lgan o'qituvchilar ochiq havoda o'tkaziladigan tadbirlarni ishonchli tarzda loyihalash va amalga oshirishga moyildirlar. Ular tabiiy sharoitlarda samarali o'rganish tajribasini osonlashtirish, o'zlarida ham, o'qiyotgan bolalarida ham ishtiyoq va motivatsiyani ilhomlantirish qobiliyatiga ishonishadi.

Tajribali o'rganish

Tabiatdagi shaxsiy tajribalar kelajakdagi o'qituvchilarning tabiiy dunyo haqidagi tasavvurlari va tushunchalariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ijobiy shaxsiy tajribalar, xoh bolalik, xoh balog'at yoshida bo'lsin, tabiatga chuqur hurmat va qo'rquv hissini uyg'otadi. Bu tajribalar kuchli turtki bo'lib xizmat qiladi, Bo'lajak tarbiyachilarni ularning rahbarligi ostidagi bolalar uchun shunga o'xshash boyituvchi tajribalarni yaratishga ilhomlantiradi. Tabiatda tajriba asosida

o'rganish ko'pincha bolalar va tabiiy muhit o'rtasida chuqur aloqani rivojlantirishga qaratilgan o'qitish strategiyalarining asosini tashkil qiladi.

Bo'lajak tarbiyachilarda ana shu psixologik jihatlarni to'g'ri anglash va tarbiyalash nafaqat atrof-muhitni yaxshi biladigan, balki o'zlari ta'lim berayotgan bolalar bilan tabiat mo'jizalarini baham ko'rishga chuqur ishtiyoqi baland pedagoglar avlodini shakllantirish yo'lidagi muhim qadamdir. Ushbu psixologik jihatlardan foydalangan holda, biz shaxslar, jamiyat va tabiat o'rtasidagi uyg'un munosabatlarni ta'minlaydigan o'zgaruvchan ta'lim tajribasini shakllantirishimiz mumkin.

Bolalarga psixologik ta'sir

Kognitiv rivojlanish

Tabiat bolalarning kognitiv rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Tabiiy muhitga ta'sir qilish turli xil kognitiv jarayonlarni, jumladan diqqatni, muammolarni hal qilishni va ijodkorlikni rag'batlantiradi. Tabiat dunyosining murakkabligi va xilma-xilligi bolalarning xayoliy o'yin va kashfiyot bilan shug'ullanishi uchun ideal sharoit yaratadi. Bu esa, o'z navbatida, ularning tanqidiy fikrlash qobiliyatini oshiradi, ilmiy tushuncha va tamoyillarni chuqurroq tushunishga undaydi.

Tabiat bilan shug'ullanish ko'pincha turli elementlarni kuzatish va tasniflashni, tasniflash qobiliyatlarini rivojlantirishni rag'batlantirishni va xotirani kuchaytirishni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, tabiiy sharoitlarda ko'p hissiy tajribalar kognitiv rivojlanishning muhim jihati bo'lgan hissiy integratsiyani rivojlantirishga yordam beradi. Umuman olganda, tabiatga boy muhitlar bolalarga noyob kognitiv stimullarni taklif qiladi, bu esa kognitiv o'sishni va akademik yutuqlarni rag'batlantiradi.

Hissiy farovonlik

Tabiat bilan o'zaro munosabat bolalarning hissiy holatiga chuqur ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tabiiy muhitda vaqt o'tkazish tinchlik, dam olish va baxt hissini uyg'otadi. Yashil joylarga ta'sir qilish bolalarda stress, tashvish va e'tiborni charchash darajasining pasayishi bilan bog'liq. Tabiat ko'pincha qo'zg'atuvchi va talabchan zamonaviy muhitdan xalos bo'lishni taklif qiladi, bu esa bolalarga dam olish va hissiy muvozanatni his qilish imkonini beradi.

Bundan tashqari, tabiat bilan bog'lanish bolalarda hayrat va qo'rquv tuyg'usini uyg'otadi, hissiy faollik va qiziqishni kuchaytiradi. Bu hissiy intellektni rivojlantirishga yordam berib, hissiy ifoda etish va o'z-o'zini aks ettirish imkoniyatlarini beradi. Tabiat bilan ijobiy hissiy munosabatlarni rivojlantirish orqali bolalarda ularning umumiy ruhiy salomatligi va farovonligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan kuchli hissiy asos rivojlanadi.

Ijtimoiy ko'nikmalar va hamkorlik

Tabiatga asoslangan tadbirlar bolalar o'rtasida hamkorlik, jamoaviy ish va ijtimoiy o'zaro munosabatlarni rag'batlantiradi. Qal'a qurish, izni o'rganish yoki tabiat bilan bog'liq muammolarni hal qilish kabi hamkorlikdagi faoliyatlar muloqot, muzokaralar va birgalikda qaror qabul qilishni talab qiladi. Ushbu tajribalar muhim ijtimoiy ko'nikmalarni, jumladan empatiyani, hamkorlikni va nizolarni hal qilishni rivojlantiradi.

Tabiiy sharoit bolalarga baham ko'rish, bir-biriga yordam berish va bir-birlarining hissalarini qadrlash haqida o'rganishga imkon beruvchi ijobiy ijtimoiy o'zaro munosabatlar uchun qulay muhit yaratadi. Ochiq havoda o'tkaziladigan mashg'ulotlarning birgalikdagi tabiati do'stlik va o'zaro hurmat tuyg'usini rivojlantiradi, bu bolalik davrida va undan keyingi davrda kuchli va doimiy shaxslararo

munosabatlarni o'rnatish uchun zarurdir.

Atrof-muhit haqida xabardorlik va boshqaruv

Tabiat bilan erta tanishish bolalarda atrof-muhitni anglash va tushunishni kuchaytiradi. Tabiiy dunyo bilan to'g'ridan-to'g'ri tajribalar orqali bolalar ekologik tamoyillar, biologik xilma-xillik va ekotizimlarning nozik muvozanati haqida bilib oladilar. Bu tajribalar tabiatni umrbod qadrlash va ekologik mas'uliyat hissi uchun asos yaratadi.

Tabiatga duchor bo'lgan bolalar ko'pincha atrof-muhitga ko'proq e'tibor berishadi, qayta ishlash, energiyani tejash va tabiatni muhofaza qilish sa'y-harakatlarini himoya qilish kabi xatti-harakatlarni namoyish etadilar. Ularda atrof-muhitni muhofaza qilish va kelajak avlodlar uchun asrab-avaylash mas'uliyatini his qilib, boshqaruv tuyg'usi shakllanadi. Shunday qilib, tabiatni ta'limga integratsiyalash barqaror va ekologik muvozanatli jamiyatga faol hissa qo'shadigan ekologik ongli shaxslarni shakllantirishga yordam beradi.

Tabiatning bolalarga psixologik ta'sirini tushunish tabiatni ta'lim amaliyotiga kiritish muhimligini ta'kidlaydi. Ushbu psixologik jihatlardan foydalangan holda, o'qituvchilar tabiatning afzalliklaridan foydalanadigan, kognitiv o'sishni, hissiy farovonlikni, rivojlangan ijtimoiy ko'nikmalarni va bolalarda atrof-muhitni boshqarish tuyg'usini rag'batlantiradigan boyitilgan ta'lim tajribalarini ishlab chiqishlari mumkin.

Xulosa

Bo'lajak tarbiyachilarni tabiat bilan bolalar bilan tanishtirish bilan bog'liq psixologik xususiyatlar barqaror va yaxlit ta'lim tajribasini shakllantirish uchun asosdir. Ushbu psixologik jihatlarni o'qituvchilargaham, bolalarga ham ta'sir qiladi, munosabatlarga, e'tiqodlarga, ko'nikmalarga va hissiy

farovonlikka ta'sir qiladi. Ushbu psixologik dinamikani tushunish va ulardan foydalanish orqali biz tabiatning erta bolalik ta'limiga integratsiyalashuvini optimallashtirishimiz, tabiiy dunyoga umrbod muhabbatni rivojlantirishimiz mumkin.

Bo'lajak tarbiyachilar jarayonda hal qiluvchi rol o'ynaydi va ularning tabiatga bo'lgan munosabati va tasavvurlari ularni bolalarga qanday tanishtirishga katta ta'sir qiladi. Kuchli ekologik e'tiqod va qadriyatlar bilan ta'minlangan ijobiy munosabat sinfda tabiatga muhabbatni tarbiyalash uchun asos yaratadi. Ta'lim va o'qitish o'qituvchilarni tabiatni o'z pedagogikasiga muammosiz singdirish uchun bilim va ishonch bilan qurollantiradi.

Bolalar tomonidan tabiat bilan tanishish ularning kognitiv rivojlanishiga, hissiy farovonligiga, ijtimoiy ko'nikmalariga va atrof-muhit ongiga chuqur ta'sir qiladi. Tabiat tanqidiy fikrlashni, muammolarni hal qilish qobiliyatini va ijodkorlikni kuchaytiradigan boy kognitiv stimulyator sifatida ishlaydi. Bundan tashqari, u hissiy dam olishni, baxtni, dam olishni va tabiiy dunyo bilan hissiy aloqani ta'minlaydi. Ijtimoiy jihatdan tabiatga asoslangan faoliyat hamkorlik, muloqot va jamoaviy ishlashni rag'batlantiradi, ijtimoiy qobiliyatli shaxslarni shakllantiradi. Eng muhimi, tabiatga ta'sir qilish mas'uliyatli va barqaror xatti-harakatlar uchun zamin yaratib, ekologik xabardorlik va boshqaruv hissini uyg'otadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, tabiatni erta bolalik davridagi ta'limga integratsiya qilish shunchaki ta'limni yaxshilash emas; bu atrof-muhitni chuqur qadrlaydigan har tomonlama barkamol shaxslarni tarbiyalash yo'lidir. O'qituvchilar bolalar uchun qiziqarli va o'zgaruvchan tabiatga asoslangan tajribalarni yaratish uchun o'zlarining psixologik xususiyatlaridan foydalanishlari

ZAMONAVIY PEDAGOGIK YONDASHUVLARNING AFZALLIKLARI

RAJABOV FURQAT TURAKULOVICH
Chirchiq davlat pedagogika universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy pedagogik yondashuvlar, xususan akmeologik yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv, evristik yondashuvlarning afzalliklari yoritilgan. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar va bu borada olimlarning qarashlari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: zamonaviy pedagogik yondashuvlar, akmeologik yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv, evristik yondashuv, pedagogik tadqiqotlar, o'qitish strategiyalari, ta'lim, kasbiy rivojlanish.

Абстракт. В данной статье освещаются преимущества современных педагогических подходов, в частности акмеологического подхода, компетентностного подхода и эвристических подходов. Анализируются исследования, проводимые по современным педагогическим подходам, и взгляды ученых на этот счет.

Ключевые слова: современные педагогические подходы, акмеологический подход, компетентностный подход, эвристический подход, педагогические исследования, стратегии обучения, образование, профессиональное развитие.

Abstract. This article highlights the advantages of modern pedagogical approaches, in particular acmeological approach, competence approach, and heuristic approaches. Researches conducted on modern pedagogical approaches and views of scientists in this regard are analyzed.

Key words: modern pedagogical approaches, acmeological approach, competence approach, heuristic approach, pedagogical research, teaching strategies, education, professional development.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlarning xalqaro va mahalliy olimlar tomonidan o'rganilishi g'oyalar va istiqbollarga bezak beradi. G'arbdan Rossiya va O'zbekistongacha bo'lgan tadqiqotchilar akmeologik yondashuv, kompetentlik yondashuvi va evristik yondashuvlarni o'rganib, ularning nazariy asoslari, amaliy qo'llanilishi va ta'limga ta'sirini yoritib berdi. Ushbu keng qamrovli nuqtai nazar bo'lajak geografiya o'qituvchilarida kasbiy kompetensiyani rivojlantirishda ta'kidlangan yondashuvlarning dolzarbligi va samaradorligini chuqurroq tahlil qilish uchun zamin yaratadi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar o'qitish va o'rganishni inqilob qilish qobiliyati tufayli ta'limda katta o'rin egalladi. Shulardan kelib chiqib, ushbu yondashuvlar bilan bog'liq bo'lgan keng ko'lamlil afzalliklar

va ijobiy natijalarni o'rganish asnosida ular turli kontekstlarda ta'lim sifatini qanday oshirishi mumkinligiga oydinlik kiritishga harakat qilamiz.

Akmeologiya, shuningdek, akmeologik yondashuv yoki akme fani sifatida ham tanilgan, individual va jamoaviy inson potentsialini rivojlantirish va ro'yobga chiqarishga, xususan, turli jihatlarida eng yuqori samaradorlik, mukammallik va optimal ishlashga erishishga qaratilgan tadqiqot sohasidir. hayotdan.

Bu yerda akmeologik yondashuv haqida batafsilroq ma'lumot:

Ta'rif va kelib chiqishi:

Akmeologiya yunoncha "akme" so'zidan olingan bo'lib, eng yuqori nuqta yoki cho'qqi degan ma'noni anglatadi. Bu atama 20-asr o'rtalarida rus psixologi va pedagogi Boris

Petrovich Nazaretyan tomonidan kiritilgan. Akmeologiya individual va jamoaviy potentsialni maqbul tarzda amalga oshirishga olib keladigan jarayonlar va sharoitlarni tushunish va targ'ib qilishga intiladi.

Eng yuqori samaradorlikka e'tibor qarating:

Akmeologiya kasbiy, shaxsiy, ijtimoiy va intellektual kabi turli sohalarda eng yuqori samaradorlik va malakaga erishishga yordam beradigan omillar va shartlarni o'rganish bilan shug'ullanadi. Bu shaxslar va guruhlar qanday qilib maksimal potentsialga erishishi va mukammallikka erishishi mumkinligini o'rganadi.

Rivojlanish bosqichlari:

Akmeologiya ko'pincha odamlar o'zlarining eng yuqori potentsialiga erishish uchun o'tadigan rivojlanish bosqichlarini ta'kidlaydi. Bu ma'lum bir sohada ko'nikmalarni egallash, tajribani rivojlantirish va o'zlashtirish bosqichlarini aniqlash va tushunishni o'z ichiga olishi mumkin.

Optimal ishlashga ta'sir qiluvchi omillar:

Akmeologiya optimal ishlashga ta'sir qiluvchi omillarni, jumladan, psixologik, ijtimoiy, ekologik va madaniy jihatlarni o'rganadi. U motivatsiya, maqsad qo'yish, chidamlilik, fikrlash, o'qitish, qo'llab-quvvatlash tizimlari va boshqa o'zgaruvchilar shaxsning o'zining yuqori yoki eng yuqori darajasiga erishish qobiliyatiga qanday ta'sir qilishini o'rganadi.

Ta'lim va ta'lim jarayoni:

Akmeologiya ko'pincha ta'lim sohasida o'rganish tajribasini optimallashtirish va tajribani rivojlantirishni osonlashtirish uchun qo'llaniladi. U shaxsning tanlagan sohasi bo'yicha o'z salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish qobiliyatini kuchaytiruvchi ta'lim dasturlari va o'quv yondashuvlarini ishlab chiqishga qaratilgan.

Fanlararo tabiat:

Akmeologiya - bu psixologiya,

sotsiologiya, falsafa, ta'lim, menejment va boshqalar kabi turli fanlardan olingan fanlararo soha. U inson salohiyati va uni qanday amalga oshirish mumkinligini har tomonlama tushunish uchun ushbu fanlardan bilim va tushunchalarni birlashtiradi.

Turli domenlarda qo'llash:

Akmeologik tamoyillar va yondashuvlar biznes va boshqaruv, sport, san'at, ta'lim, etakchilik va shaxsiy rivojlanish kabi keng doiradagi sohalarda qo'llaniladi. Maqsad ushbu domenlarning har birida ishlash va yutuqlarni optimallashtirishdir.

Doimiy takomillashtirish va o'sish:

Akmeologiyaning muhim jihati doimiy takomillashtirish va o'sishga ishonishdir. U shaxslar va tashkilotlarni uzluksiz rivojlanishga, o'z oldiga yuqori maqsadlar qo'yishga va hayotlari davomida mukammallikka erishishga undaydi.

Akmeologiya insonning potentsialini va ish faoliyatini tushunish va optimallashtirishga qaratilgan, hayotning turli jabhalarida eng yuqori yutuq va mukammallikka erishishga qaratilgan tadqiqot sohasidir. U rivojlanish bosqichlarini, ta'sir etuvchi omillarni, fanlararo bilimlarni va potentsialning optimal ishlashi va amalga oshirilishini osonlashtirish uchun turli sohalarda qo'llanilishini o'rganadi.

Akmeologik yondashuvning afzalliklari.

Akmeologik yondashuv mukammallikka intilish va o'z imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarishga katta e'tibor beradi. Natijaviylikka bo'lgan bunday e'tibor talabalarni o'zlarining ilmiy izlanishlarida eng yuqori yutuqlarga intilishlariga undaydi, shaxslarni qobiqlaridan tashqariga chiqishga va o'z yutuqlariga erishishga yetaklaydi, bu esa ajoyib ta'lim natijalariga olib keladi [1].

Akademik yutuqlardan tashqari, akmeologik yondashuv yaxlit shaxsiy rivojlanishni ta'minlaydi. Talabalar o'zlarining kuchli va zaif tomonlarini o'rganishga rag'batlantiriladi, bu esa o'z-

o'zini anglash va o'zini takomillashtirish uchun zamin yaratadi. Bunday o'z-o'zini kashf qilish jarayoni muhim hayotiy ko'nikmalarga ega bo'lgan har tomonlama rivojlangan shaxslarning shakllanishiga yordam beradi[2].

Mukammallikka intilishda talabalar qiyinchiliklar va muvaffaqiyatsizliklarga duch kelishlari tabiiy hol. Akmeologik yondashuv shaxslarni qiyinchiliklarga chidamli bo'lishga o'rgatish orqali chidamlilik va jasoratni rivojlantiradi. Bu chidamlilik esa kuchli mehnat etikasiga va ta'lim yo'lidagi to'siqlarni yengib o'tish qobiliyatiga aylanishi mumkin.

Kompetensiyaviy yondashuvning afzalliklari. Kompetensiyaga asoslangan ta'lim real sharoitlarda zarur bo'lgan ko'nikma va bilimlar bilan chambarchas mos keladi. Muayyan, amaliy kompetensiyalarga e'tibor qaratish orqali talabalar ish beruvchilar va universitetlar tomonidan talab qilinadigan ko'nikmalarga ega bo'lgan ishchi kuchiga kirishga yoki oliy ta'lim olish uchun yaxshiroq tayyorlanishadi.

M.V.Tinni, M.S.Trevizan va M.A.Morsianilar kompetensiyaga asoslangan dasturlar aniq va o'lchanadigan o'quv maqsadlarini belgilaydi, deb hisoblashadi. Ularning ta'kidlashicha, bu aniqlik talabalarga o'z ta'lim olishlari uchun yo'l xaritasini taqdim etadi va ularga ta'lim taraqqiyotini kuzatish, ulardan nima kutilayotganini tushunish imkonini beradi. Shuningdek, u o'qituvchilarga maqsadli o'qitish strategiyalarini ishlab chiqishda yordam beradi[3].

Kompetensiyaviy yondashuvning kuchli tomonlaridan biri uning moslashuvchanligidir. Talabalar o'z sur'atlari bo'yicha rivojlanadilar, bu turli xil o'rganish uslublari va qobiliyatlarini o'z ichiga oladi. Moslashtirilgan ta'lim yo'llari talabalarga kompetensiyalarni o'zlashtirish uchun vaqt

va yordamga ega bo'lishini ta'minlaydi.

Evristik yondashuvlarning afzalliklari.

Evristik yondashuvlar moslashuvchan, amaliy va tezkor tabiati tufayli muammolarni hal qilish, qaror qabul qilish va o'rganish kontekstlarida bir qator afzalliklarni taqdim etadi. Mana bir nechta asosiy afzalliklar:

Tezlik va samaradorlik:

Evristika tez-tez yorliqlar yoki oddiy qoidalarni qo'llash orqali qoniqarli echimlar yoki qarorlarga tezda erishish uchun mo'ljallangan. Bu samaradorlik, ayniqsa, mavjud vaqt cheklovlari doirasida optimal yechimni topish imkonsiz bo'lishi mumkin bo'lgan vaqtga sezgir vaziyatlarda foydalidir.

Oddiylik va amaliylik:

Evristika oddiy va tushunarli bo'lib, ularni keng doiradagi shaxslar uchun ochiq qiladi. Ularning amaliyligi odamlarga murakkab hisob-kitoblar yoki keng qamrovli ma'lumotlarni qayta ishlashni talab qilmasdan ularni turli xil real stsenariylarda qo'llash imkonini beradi.

Kognitiv yukni kamaytirish:

Evristika qaror qabul qilish jarayonini soddalashtirish orqali odamlarga kognitiv yukni kamaytirishga yordam beradi. Mavjud bo'lgan barcha ma'lumotlarni ko'rib chiqish va har qanday variantni tahlil qilish o'rniga, evristika odamlarni qaror qabul qilish jarayonini soddalashtiradigan eng muhim va muhim jihatlarga e'tibor berishga yo'naltiradi.

Noto'g'ri aniqlangan muammolarga qo'llanilishi:

Evristika, ayniqsa, aniq va to'liq qoidalar to'plami mavjud bo'lmagan noto'g'ri yoki noaniq muammolarni hal qilishda samarali bo'ladi. Ular ma'lumotlar to'liq bo'lmagan yoki noaniq bo'lgan holatlarda qaror qabul qilish yoki muammolarni hal qilish uchun asos yaratadi.

Muammoni hal qilishga yordam berish:

Evristika potentsial echimlar yoki yo'nalishlarni yaratishda odamlarga rahbarlik

qilish orqali muammolarni hal qilishda tizimli yondashuvni ta'minlaydi. Ular ijodkorlikni va muqobil variantlarni o'rganishni rag'batlantiradi, murakkab muammolarni hal qilishda yanada faol va strategik yondashuvni rivojlantiradi.

Moslashuvchanlik va moslashuvchanlik:

Evrastika turli kontekstlarga moslashtiriladi va muayyan talablar asosida o'zgartirilishi yoki moslashtirilishi mumkin. Ular qaror qabul qilish va muammolarni hal qilish jarayonlarida moslashuvchanlikni ta'minlaydi, bu esa odamlarga vaziyatning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o'z yondashuvlarini moslashtirishga imkon beradi.

Empirik asoslilik va samaradorlik:

Ko'pgina evrastikalar insonning qaror qabul qilish jarayonlarini kuzatishdan olingan va empirik dalillarga asoslanadi. Vaqt o'tishi bilan tadqiqotchilar va amaliyotchilar qoniqarli natijalarga erishishda ularning samaradorligi va ishonchligini oshirish uchun ushbu evrastik usullarni takomillashtirdilar.

Ta'lim va tajribani rag'batlantirish:

Evrastik yondashuvlar odamlarni amaliyot va tajriba orqali qaror qabul qilish ko'nikmalarini qo'llash va takomillashtirishga undash orqali o'rganish va tajribani rivojlantirishga yordam beradi. Vaqt o'tishi bilan odamlar samarali va samarali echimlarga erishish uchun evrastikadan foydalanishda ko'proq malakaga ega bo'lishlari mumkin.

Iqtisodiy samaradorlik:

Evrastika ko'pincha murakkab va to'liq qaror qabul qilish usullari bilan solishtirganda vaqt, kuch va hisoblash kuchi kabi kamroq resurslarni talab qiladi. Bu iqtisodiy samaradorlik, ayniqsa, resurslar cheklangan muhitda qimmatlidir.

Evrastik kashfiyotlar va innovatsiyalar:

Evrastika ijodiy fikrlash va eksperimentlarni rag'batlantirish orqali yangi

echimlar, g'oyalar yoki innovatsiyalarni kashf etishga turtki berishi mumkin. Ular yangi yondashuvlarni o'rganish va an'anaviy paradigmalardan tashqari fikrlash uchun boshlang'ich nuqtani ta'minlaydi. Evrastik yondashuvlar o'quv jarayonida faol ishtirok etishga ustuvor ahamiyat beradi. Talabalar o'z ta'limning faol ishtirokchisiga aylanadilar, bu esa ularning o'qishga bo'lgan qiziqishi va egaligini oshiradi. Ular mustaqil ravishda savol berish, javob izlash va mavzularni o'rganishga yo'naltiriladi.

R.Paul va L.Elderlarning fikricha, evrastik yondashuv tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Talabalarga chuqur tahlil va ijodiy yechimlarni talab qiladigan ochiq savollar va muammolar taqdim etiladi. Ushbu yondashuv akademik va undan tashqarida muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni rivojlantiradi[4].

Bizningcha, qiziqish va kashfiyotga bo'lgan muhabbatni rag'batlantirish orqali evrastik yondashuvlar uzluksiz ta'limga bo'lgan ishtiyoqni uyg'otadi. Talabalarda doimiy izlanish va o'z-o'zini takomillashtirishni qadrlaydigan, rasmiy ta'limdan tashqarida bo'lgan tafakkur shakllanadi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar geografiya ta'limida ayniqsa foydali hisoblanadi. Akmeologik yondashuv geografiya talabalarini murakkab geografik hodisalarni tushunishda mukammallikka intilishga undaydi. Kompetensiyaviy yondashuv geografik ta'limni fazoviy tahlil va geografik axborot tizimlari (GAT) malakasi kabi real dunyo ko'nikmalari bilan uyg'unlashtiradi. Geografiya darslarida evrastik usullar dunyoning turli landshaftlari va madaniyatlarini faol o'rganishga yordam beradi, mavzuni chuqurroq tushunishga yetaklaydi.

Ushbu yondashuvlar nafaqat geografik

bilimlarning mustahkam poydevoriga ega bo'lgan, balki geografik muammolar haqida tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan geografiya mutaxassislarini tarbiyalaydi. Ushbu pedagogik vositalar bilan qurollangan geografiya o'qituvchilari talabalarni qiziquvchanlik va tahliliy fikrlash bilan dunyoni o'rganishga undaydigan rag'batlantiruvchi va interaktiv o'quv muhitini yaratadi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlarning afzalliklari geografik va madaniy chegaralardan tashqariga chiqadi. G'arb mamlakatlarida, Rossiyada yoki O'zbekistonda bu yondashuvlar hamma uchun qo'llaniladigan afzalliklarni taqdim etadi. Ya'ni ushbu yondashuvlar talabalarga akademik jihatdan ustunlik qilish, muhim hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish va jamiyatga faol hissa qo'shishga imkon beradi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlarning afzalliklari yaqqol ko'rinib tursa-da, shuni tan olish kerakki, ushbu yondashuvlarni amalga oshirish o'qituvchilar uchun ixtisoslashtirilgan treninglar, resurslarni taqsimlash va baholash usullariga moslashish kabi muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Bu qiyinchiliklarni yengish puxta rejalashtirish, kasbiy rivojlanish va doimiy baholashni talab qiladi.

Umuman, ta'limga zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy etish o'qitish va ta'lim sifatini oshirish uchun katta istiqbollari beradi. Akmeologik yondashuv mukammallik va shaxsiy rivojlanishni rag'batlantiradi, kompetensiyaviy yondashuv ta'limni real dunyo ko'nikmalariga moslashtiradi va evristik yondashuvlar faol ishtirok etish va tanqidiy fikrlashni rag'batlantiradi. Ushbu afzalliklar geografiya ta'limiga taalluqli bo'lib, ular talabalarga dunyoning bilimli mutaxassislari bo'lish imkoniyatini beradi. Ushbu yondashuvlarning global qo'llanilishi ularning ta'limni turli muhitlarda o'zgartirish,

o'qitish va o'rganishda yorqin kelajakka yo'l ochib berish imkoniyatlarini ta'kidlaydi.

Akmeologik yondashuv, mukammallik va shaxsiy rivojlanishga urg'u berib, nafaqat akademik jihatdan ustun bo'lgan, balki chidamli va qat'iyatli, har tomonlama rivojlangan shaxslar sifatida paydo bo'ladigan talabalarni tarbiyalashni maqsad qiladi. Kompetensiyaviy yondashuvda ta'limni real dunyo ko'nikmalariga moslashtirish va aniq o'quv maqsadlarini ta'minlash talabalarga muvaffaqiyatga erishish uchun amaliy va moslashtirilgan yo'lni taklif qiladi. Evristik yondashuvlar faol ishtirok, tanqidiy fikrlash va uzluksiz ta'lim olish ko'nikmalarini o'rgatadi, talabalarga izlanuvchan va moslashuvchan fikrlovchi bo'lishga yordam beradi.

Qolaversa, zamonaviy pedagogik yondashuvlarning afzalliklari geografiya ta'limigahamtaalluqlibo'lib, ulardolzarblikni ta'minlaydi, geografiya mutaxassislarini tarbiyalaydi va fanning xilma-xil tomonlarini chuqur o'rganadi. Ushbu afzalliklar turli xil madaniy va mintaqaviy kontekstlarda o'zini namoyon etadi va ularni universal tarzda qo'llash imkonini beradi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlarning afzalliklari bo'lajak geografiya o'qituvchilarining malakasini oshirishda ularning ahamiyatini diqqat bilan o'rganish uchun zamin yaratadi, bu esa o'qituvchilar tayyorgarligini oshirish va geografiya ta'limi sohasini rivojlantirishga qaratilgan izlanishlarimizning asosini tashkil etadi. Dunyo bo'ylab va ma'lum hududlarda olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalarining sintezi ushbu yondashuvlarning global qo'llanilishi va transformatsion salohiyatiga bo'lgan nuqtai nazarimizni boyitadi. Bunday keng qamrovli qarash ta'lim kelajagini shakllantirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlarning ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi va ularning ijobiy o'zgarishlar katalizatori sifatidagi rolini

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ГЕНДЕРНОГО РАВЕНСТВА У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Ш. Х. Абсатарова
самостоятельный соискатель ДГПУ

Аннотация: В данной статье осуществляется дидактические возможности формирования гендерного равенства у детей дошкольного возраста, гендерное воспитание детей дошкольного возраста как педагогическая проблема.

Ключевые слова: гендерное равенство, гендерное воспитание, национальная культура, общечеловеческие ценности, культурные традиции.

Аннотация: Ушбу мақола мактабгача ёшдаги болаларда гендер тенглигини шакллантиришнинг дидактик имкониятлари, мактабгача ёшдаги болаларнинг гендер тарбияси педагогик муаммо сифатида ёритилган.

Калит сўзлар: гендер тенглик, гендер тарбия, умуминсоний қадриятлар, миллий маданият, маданий анъаналар.

Annotation: This article provides didactic opportunities for the formation of gender equality in preschool children, gender education of preschool children as a pedagogical problem.

Key words: gender equality, gender education, national culture, universal values, cultural traditions.

Нельзя возвышать один пол над другим как более совершенный, но также нельзя и уравнивать их.
Ж.-Ж. Руссо.

В последнее время педагоги и психологи говорят о воспитании как гармоничной картине, где учтены все аспекты развития личности, что подразумевает педагогическую работу с детьми, учитывающую не только их биологический пол, но и социальный – «гендер».

В условиях современного общества особую актуальность приобретает личностно-ориентированный подход к каждому ребенку. Проблема гендерного воспитания, позволяющая по-иному увидеть специфику педагогической работы с дошкольниками, по значимости и актуальности на сегодняшний день не имеет аналогов. Поиск истоков духовности человека, представляющей сегодня наибольший дефицит, неизбежно приводит

к культурно-историческому прошлому, закреплённому в традициях разных народов, ориентированному на дифференцированный подход к детям разного пола.

Современная педагогическая наука и практика чаще всего не учитывают пол ребенка как важный фактор при воспитании и обучении. Особенности развития детей разных полов, по данным нейрофизиологов и нейропсихологов, определяют различия в структуре и работе головного мозга. Так что воспитывать и обучать мальчиков и девочек нужно по-разному, ибо одна и та же деятельность у них организуется при участии разных мозговых структур.

В связи с этим, на первое место поднимается проблема учета гендерных особенностей воспитанников. Одним из основных условий педагогической поддержки гендерного воспитания детей дошкольного возраста является использование дидактических игр. Игра и игрушка не-

отделимы друг от друга. Игрушка может вызвать к жизни игру, а игра, развиваясь, требует все новых и новых игрушек.

Анализ состояния данной проблемы и практический опыт показывает, что особенно различия девочек и мальчиков дошкольного возраста заметны в игровой деятельности. Ученые и практики отмечают разное содержание и игровые стили, которые часто не могут быть реализованы в силу того, что воспитателям-женщинам ближе тихие игры девочек на семейно-бытовые темы. Шумные, наполненные движением игры мальчиков вызывают у воспитателей раздражение, так как они считают, что такого рода игры являются лишь бессмысленной беготней и могут привести к травме, а, следовательно, им не место в жизни группы, и они должны быть прекращены.

В настоящее время возрос интерес к развитию и воспитанию детей с учётом гендерного подхода: ребёнок дошкольного возраста должен иметь представление о себе, собственной принадлежности и принадлежности других людей к определённому полу. Перед ДОО и родителями стоит задача перейти к воспитанию партнерских взаимоотношений между мальчиками и девочками, созданию условий для своевременного освоения гендерных ролей, формированию у дошкольников представления о лучших личностных качествах, присущих мужчинам и женщинам.

Гендерное равенство, одно из важнейших прав человека, играет ключевую роль в деле обеспечения мира и согласия в обществе и полноценной реализации человеческого потенциала на основе устойчивого развития. Доказано, что вовлечение женщин в жизнь общества обеспечивает рост продуктивности и экономический рост.

В переводе с английского *gender* означает «род», «пол». Но это не просто обозначение различий между девочками и мальчиками. В отличие от понятия «пол», которое отвечает за биологические функции человеческих особей, гендер – это «социальный пол» индивида. Основное содержание гендерного воспитания связано с идеей утверждения прав человека и возможностей его самореализации независимо от половой принадлежности. В рамках гендерного направления дошкольного образования главной задачей является не только изучение закономерностей формирования и развития характеристик личности ребёнка как представителя определённого пола, но и конкретизация путей и способов освоения им гендерных ролей.

Дошкольный возраст (от 3 до 6-7 лет) – это период, в процессе которого закладываются ведущие слои психики ребёнка, продолжается становление речи, способности к замещению и символическим действиям, а также использованию знаков, наглядно-образное и наглядно-действенное мышление, память и воображение. Взаимодействуя со сверстниками и со взрослыми, дошкольник постепенно учится тонкой рефлексии на другого человека, посредством отношений со взрослыми интенсивно формируется способность к идентификации с другими людьми.

Половая принадлежность ребенка – важный фактор, от которого зависит его развитие и социальное поведение. На наш взгляд, использование гендерного подхода стало актуальным, так как дает огромные возможности в воспитании мальчиков и девочек. В Законе «О дошкольном образовании и воспитании Республики Узбекистан» (2019) поставлены задачи воспитания, направленные на обеспе-

чение равных возможностей детей для полноценного развития каждого из них в период дошкольного детства. Обеспечение равных возможностей, в нашем случае независимо от пола, предполагает уважение прав и свобод личности, а также раскрытие и развитие индивидуальных творческих способностей каждого ребёнка. Существующие в сознании педагогов традиционные представления «о настоящих мальчиках» и «о настоящих девочках» часто мешают раскрывать и развивать индивидуальные творческие способности детей.

В работе Н.А. Шинкарёва разделяет качества на три группы: качества человека, качества женственности, качества мужественности. К человеческим качествам важным для женщины и мужчины, автор относит: лень, трудолюбие, слабость, силу, трусость, смелость, лживость, правдивость, корысть, бескорыстие, терпимость, скромность, гордость, настойчивость, выдержка, решительность. У девочек и мальчиков, начиная с дошкольного периода необходимо воспитывать общие качества: умение нести ответственность, делать выбор, уважение к себе и окружающим, уважение к старшим, толерантность, опрятность. К мужским качествам: уверенность, энергичность, стремление к соперничеству, смелость, агрессивность, щедрость, доминантность, уверенность в собственных силах, решительность, твердость и др. У мальчиков начиная с раннего детства необходимо воспитывать: самостоятельность, активность, инициативность, решительность, смелость, склонность к исследовательской деятельности. К женским качествам: нежность, заботливость, эмоциональность, пассивность, уступчивость, отзывчивость, ласковость, терпеливость и др. У девочек, начиная с раннего детства необходимо воспитыв-

вать: заботливость, сострадательность, нежность, любовь к детям, мягкость, ласковость, эмоциональность, кротость и др.

Формирование качеств мужественности у мальчиков затрудняется тем, что они имеют более узкий круг возможностей, в отличие от девочек, практиковаться в их проявлении в собственном поведении. При этом, надо отметить, что похвала взрослых, когда мальчики чего-то самостоятельно добиваются, проявляют уверенность в своих силах, существенно помогают в формировании у них качеств мужественности. Для формирования качеств мужественности в старшем дошкольном возрасте важное значение имеет усложняющаяся совместная деятельность. Именно в процессе совместной деятельности у мальчиков формируются определенные представления о себе как представителе определенного пола, и о девочках, как представительницах определенного пола. Все это оказывает влияние на формирование их гендерных ролей.

С помощью сказок, стихов и рассказов формируются представления о заботливости, миролюбии, терпимости к недостаткам других. По мнению Е. Комаровой, «такие волшебные сказки, как «Аленький цветочек», «Царевна-лягушка», «Снежная королева», воздействуют на детей на подсознательном уровне, являясь своеобразным учебником гендерного воспитания для самых маленьких».

Одно и то же трудовое задание, например, привести участок ДОО в порядок, желательно дифференцировать для мальчиков и девочек, чтобы оно стало привлекательным для тех и других: девочки сгребают опавшие листья, накладывают их на тачку, а мальчики отвозят её в установленное место, разгружают. Анализ состояния

BOLA RIVOJIDA TARBIYA MADANIYATINING ROLI VA AHAMIYATI

Q.M. IBADULLAYEV

pedagogika fanlari doktori M.B.Temirova-600-MTT rahbari, mustaqil tadqiqotchi

Annatsiya. Ushbu maqolada bola tarbiyasida ota-onalar tomonidan takrorlanayotgan xatolar haqida va xatolardan xulosani ijobiylikka yo'naltirishga qaratilgan o'ganishlar haqida fikr yuritiladi.

Agar bir kishi oldinlari foydalanishni bilmagan va ko'rmagan biron bir zamonaviy jihoz sotib olgudek bo'lsa, albatta, uni ishlab chiqaruvchilar tarafidan tayyorlangan katalog (foydalanish yo'riqnomasi)ni o'qish yoxud bu jihozni ishlatib ko'rgan kishilardan so'rab-suriştirish orqali undan foydalanishni o'rganishga harakat qiladi. Aksariyat hollarda ishlab chiqaruvchilar mijozlarni jihoz to'g'risida yetarli ma'lumotga ega bo'lmasdan turib uni ishlatishdan ogohlantiradilar va foydalanish tavsiyasiga rioya etmagan mijozlar bunday buyumlarni ishlatish mobaynida jiddiy xatoga yo'l qo'yadilar va oqibatda katta mablag' evaziga qo'lga kiritilgan bu jihozlarning yaroqsiz holatga kelib qolishiga sababchi bo'ladilar.

Bola (farzand) har qanday texnik yoki boshqa biror turdagi barcha jihozdan murakkabroq va mukammalroqdir. Farzand odomzodga Ollox tomonidan berilgan ne'matlarning eng a'losi, eng ulug'i va eng mo'tabaridir. Shunday ekan farzandga to'g'ri tarbiya berish chuqur bilim, tajriba va mahorat, sabr-toqatni talab qilishini bilishimiz zarur. Biroq "katta" odamlar buni tan olgisi kelmaydi yoki irodasi yetishmaganidan toqat qila olmaydi. Tarbiyadagi mas'uliyatni sezmagani uchun bo'lsa kerak, bamaylixtir yetti-sakkizta bola ko'rishga jur'at qiladilaru, farzand tarbiyasi to'g'risida bitta kitobcha bo'lsa-da, mutolaa qilish, biron bir tadqiqotchining ma'ruzasini tinglash yoxud mutaxassisdan maslahat so'rash hayollariga ham kelmaydi. Biz bilimsizlikning

achchiq samarasini tatib kelmoqdamiz va manimcha hali ancha vaqt bu mevaning maxzulini ko'raveramiz. Ko'p sonli o'spirin yigit va qizlarning qing'ir-qiyshiq yo'llarga kirib ketishi, yana qanchadan-qancha yosh avlodning o'qish hamda amaliy hayotdagi muvaffaqiyatsizligi mana shu bilimsizlikning ayanchli natijasidir. Farzand tarbiyasi mavzusi - serqirra, benihoya cheksiz va umuman oddiy odamlar qabul qilishi oson bo'lmagan masala hisoblanadi (shuning uchun ham natijadorligi yuqori bo'lmagan aqliy mehnat sanaladi). Har yili dunyo bo'yicha bolalar tarbiyasiga bag'ishlangan minglab kitob va risolalar chop etiladi, biroq yuz yillar muqaddam bo'lgani kabi aksariyat ota-onalar gapga kirmaydigan (quloqsiz) bolalar muammosiga duch kelaverishadi, o'z vaqtida tarbiya muammosi va farzandi bilan shug'ullanmaganligidan qayta-qayta pushaymon bo'laverishadi.

Biz bu borada o'z tadqiqotlarimiz bilan fikrlashmoqchimiz:

«Tarbiya» so'zi arabcha «robba» fe'lidan olingan bo'lib, o'stirdi, ziyoda qildi, rioyasiga oldi, rahbarlik qildi va isloh qildi ma'nolarini bildiradi. Tarbiya madaniyati – bu farzand o'sib ulg'ayotganida o'z fikrlarini siz bilan baham ko'rishni tinglash san'ati. Tarbiya shunday hissiy aloqaki biz uni tarqatamiz va baham ko'ramiz hamda go'zal san'at darajasigacha rivojlantiramiz qachonki siz yangi tug'ilgan chaqaloqning va kichkintoyning ko'zlariga boqib unga mehr bilan dunyoning ajoyibotlarini yetkazish qobiliyatini o'zingizda shakllantira

olsangiz!?

Rus olimi K.D.Ushinchkiy takidlaganidek “Tarbiya madaniyating o‘ziga xos xususiyati shundaki, u deyarli hamma uchun tanish va tushunarli bo‘lib tuyuladi hamda qanchalik tushunarli va oson ko‘rinsa, inson ular bilan nazariy yoki amaliy jixatdan kamroq tanish bo‘ladi. Deyarli hamma tan oladiki, tarbiya sabr-toqat talab qiladi... lekin judayam ko‘pchilik odamlar sabr-toqat, tug‘ma qobiliyat va ko‘nikmalardan tashqari maxsus bilimlar ham zarurligini bilishmaydi” [4].

Qolaversa, «tarbiya madaniyati» deganda, avvalo, tarbiya negizini, uning o‘zaro ta’sirlanish, ta’sir o‘tkazish va o‘zaro jamoaviy ruhiyat paydo qilish asosiga qurilganini anglab yetish hamda bu narsa talab qiladigan tamoyillar, qadriyatlar, fidokorlik, g‘oya va tushunchalar nazarda tutiladi. Tarbiya madaniyatini tashkil qiluvchi mazkur tarkibiy qismlar mukammal tarzda yig‘ilishi benihoyat mushkul ish deb hisoblaymiz va shuning uchun ham biz doimo o‘zimizni tarbiyaviy muammolar iskanjasida his qilamiz, bu muammolarni bartaraf etish borasida munosib ravishda ish yuritishni bilmay boshimiz qotadi. Negaki, doimo ong ostimizda tarbiya g‘oyat murakkab ish deb o‘ylaymiz. Tarbiya nihoyatda qiziqarli hamda zahmatli ishdur. Tarbiya kattalardan yaxshi bilim va hikmat, shuningdek, asabiy muvozanat hamda vazminlik bilan bir qatorda muayyan darajada amaliy tajriba ham talab qiladi. Tarbiya bilan shug‘ullanar ekanmiz, uning og‘ir mas’uliyatini his etamiz. Bu yo‘lda ko‘p sa’y-harakat qilayotganimiz va ancha qimmatbaho narsalarni qurbon etayotganimizni bilamiz-u, biroq bolalarning shaxsiyati hamda yurish-turishida buning asoratini payqamaymiz [2].

Shu o‘rinda tadqiqotchilardan birining Xitoyda o‘sadigan bambuk daraxti haqida aytgan so‘zini eslatishni ma’qul deb bilaman. Bu daraxt urug‘i yerga ko‘milgach, dastlab uning popukli ildizlari yer ostida keng ko‘lamda tarqaladi va bu jarayon to‘rt yil davom etar ekan. Shu davr maboyinida yer ustida uning urug‘dan yorib chiqqan nimjon g‘unchasidan boshqa

narsa ko‘rinmas ekan. Beshinchi yilga o‘tib esa bambukning quyoshga intilish ya’ni o‘shish jarayoni judayam tezlashib balandligi qariyb 25 metrga yetar ekan!?! Tarbiyadagi natijadorlikni ham bambuk daraxatining o‘shishiga o‘xshatish mumkin. Biz garchi natijani ko‘rmasak-da, o‘zgarishlarni his qilmasak-da, tarbiya ishini davom ettiraverishimiz zarur. Samarasi deyarli ko‘rinmasa ham natijalar mayda bo‘lsa ham o‘zgarishlar mavjud. Ko‘pincha ular to‘satdan paydo bo‘ladi. Shu bois umidsizlanish, zerikish va tushkunlikka tushmaslikni tavsiya qilinadi.

Bolalar sodda va tor muhitlardan murakkab hamda keng muhitlarga o‘tish harakatini boshdan kechiradi. Bu harakat shiddatli va beshavqat kechadi, unga farzandlar tarbiyasida aks etadigan ko‘pgina o‘zgarishlar hamrohlik qiladi. Tor doiralarda odamlar o‘rtasidagi o‘zaro mehr-oqibat va hamkorlik darajasi yuqori bo‘ladi. Chunki ularning bir-birlari bilan munasobatlari yaqin hamda mehrlari kuchlidir. Shundan kelib chiqqan holda bir-birlarining g‘am-tashvishlarini his qilish nisbati ham yuqoridir. Bu tuyg‘ular o‘z o‘rnida jamoa a‘zolarida qarindosh-urug‘, qo‘ni-qo‘shni va o‘rtoqlari farzandlarining xatti-harakatlaridan qandaydir ma’naviy javobgarlik hissini paydo qiladi. Bunday jamiyat a‘zolarining barchasi tarbiya ishi bilan shug‘ullanadi, o‘zaro yordam beradi va hamkorlik qiladi [5].

Afsus yuqoridagi holatlar salbiy tomonga rivojlanib bormoqda. Odamlarda hususiychilik (hudbinlik) va shaxsiylik doirasi kengayib, ko‘pchilik otalar farzandlari hayotiga boshqalarning aralashuvini qabul qilmay qo‘ydilar. Shuningdek, hozirgi davrda odamlarda qandaydir o‘z qobig‘iga o‘ralish, jamoaviy yig‘in va to‘y-xashamlar, o‘zining shaxsiy ko‘ngilxushliklariga moyillikni kuzatish mumkin. Biz haqiqatdan ham borgan sayin ko‘proq tarbiya berish mas’uliyatidan uzoqlashib, shaxsiy extiyojlarimiz sari yo‘l olmoqdamiz!?! Bu bir tarafdin shuni ifoda qiladiki, endilikda hayotimizdagi nuqson va kamchiliklarni isloh qilish jamoadan oila ichkarisiga yo‘naltirilmasdan, aksincha,

oiladan jamoaga yo'naladigan bo'lib qoldi. Jamoaning tanazzuli tarbiyaning tanazzulga yuz tutishidan kelib chiqishini biz yaxshi bilamiz. Jamoaning tanazzuli esa oila tarqoqligining samarasidir. Negaki, oila jamoani tashkil qiluvchi asosiy birikmadir. Oila tarqoqligining sabablari juda ko'p. Biroq biz tadqiqotlarimizda bu sabablardan eng muhimiga e'tibor qaratishimiz va o'rganamiz. U ham bo'lsa, tarbiyaning inqirozga uchragani, qalblarda mehr so'nganidir. Qolaversa, ota-onalarda farzandlarga nisbatan mas'uliyat tuyg'usi zaiflashdi, ular turli xil tuban yo'llar va uslublar bilan ko'ngilochar tadbirlaru dunyoviy lazzatlarga berilishdi, ushbu narsalarga ortiqcha qadr-qiyamat va e'tibor qaratgan holda ota-onaning bunday ishlarga mukkasidan ketishi ham oila tarqoqligining eng muhim sabablaridan biridir.

Bola qobiliyatining ko'proq qismini otadan emas, onadan o'zlashtiradi. Farzand oldida onaga ijobiy yoki salbiy munosabatda bo'lish bolaga ikki hissa tezroq ijobiy yoki salbiy ta'sir etadi ya'ni keyingi tassovurlari uchun bola "eng yaqin rivojlanish maydoni" bo'lgan oiladagi munosabatlarni aynan nusxasini oladi. Shunday ekan har qanday oilada va farzand tarbiyasida ayolning o'rni alohida e'tiborga loyiqdir. Odamlarning farzand tarbiyasi sohasida boshdan kechirgan qiyinchiliklari turlichadir va ular buni doimo qaxramonlik sifatida e'tirof etib kelishadi [3].

Ushbu o'rinda shuni ta'kidlash kerakki, xarakteri og'ir va sho'x farzandlarimizni tarbiyalash bizning oila va tarbiya madaniyatimiz uchun «kalit» vazifasini bajarishi lozim. Misol uchun bolalarimizdan birining qaysarligi, nasihat va yo'l-yo'riqlarga osonlikcha quloq solavermasligidan qiynaladigan bo'lsak, u holda bu muammoning yechimi boladan nolish va shikoyat qilish bo'lmasligi kerak. Aksincha, agar farzandlardan biri biron g'aroyib xastalikka chalinganida uni davolash uchun o'qib-izlanganimizdek, albatta qaysar bolalar bilan qanday muomala qilish haqida ham o'qib-o'rganish yoki mutaxassis

(maqolamizning kirish qismida aytganimizdek) maslahatini olish zarur. Og'ir xarakterli, o'ziga xos farzandlar bilan muomala qilish biz uchun bir sinov bo'lib, bu sinovdan muvaffaqiyatli o'tish bizning hayotimizni go'zal qilish uchun sarflangan vaqt deyish mumkin aks holda esa biz yana og'ir, salbiy xarakter egasi bilan kurashda qaxramonlik qilishda davom etaveramiz.

Hozirgi kunlarda aksariyat ota-onalar uchun qattiqqo'llik tarbiyaning bosh mezoni hisoblanadi. U ko'p hollarda haqoratlash yoki kaltaklashga ulanib ketadi. Ba'zan pashshadan fil yasab, kichik xato uchun ham katta jazo tayinlanadi. To'g'ri, bundan keyin bola xatoni takrorlamaslikka harakat qiladi, ammo o'z ixtiyoriga ko'ra emas, o'zgaralar xohishiga ko'ra ish tutishga odatlanib qoladi va bolada mustaqillik fikrlash doirasi kichrayadi. Yuzga urilgan bir shapaloq miyadagi 300-400 ta hujayraning nobud bo'lishiga sabab bo'ladi. Bu esa qanchadan-qancha qobiliyatlarning o'limi demakdir. Endi kichik xato va «o'lik» qobiliyatlarni taqqoslab ko'ring.

Shunday qilib, tarbiyaviy qiyinchilik va muammolar beparvo, loqayd yoki ojizlik va taslim bo'lish mavqeida turish emas balki tarbiya madaniyatimizni boyitish, bolalarni tarbiyalash, ularga bu borada lozim bo'lgan yo'l-yo'riqlarni ko'rsatish sohasida ildam qadam tashlashga bo'lgan qat'iyatimizni yangilash manbaiga aylanadi.

Tarbiya madaniyatini hosil qilish oilaning asosiy burchidir. Biz farzandlardan sodir bo'ladigan xato-kamchiliklar va muvaffaqiyatsizliklardan oilaning umumiy madaniyatini paydo qilish yo'lida foydalanmog'imiz lozim. Uning qobiliyatini hech qachon tengdoshlariniki bilan solishtirib uni kamsitmang aksincha shunday munosabat yuritingki bolaning o'zi undan ijobiy natija chiqarsin. «Falonchi she'rni sendan yaxshi yodlaydi», «Anavi o'rtoq'ing sendan yuz barobar kuchli», «Qo'shnimizning qizi sendan yaxshiroq ish qiladi» kabi misollar bolaning ruhan ezilishi va o'rtoqlariga bo'lgan mehrining susayishiga sabab bo'ladi. Bola qanchalik yosh

ZAMONAVIY INGLIZ TILIDA AUDIOVIZUAL TARJIMA VA UNING METODIKASI

TASHXODJAYEVA PATIMA BAKIYEVNA

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi. Pedagogika, psixologiya va tillar kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolamizda zamonaviy ingliz tilida audiovizual tarjima, hamda uning metodikasini tahlil qilamiz. ingliz tilida muloqotga kirishishi, yangi zamonaviy texnologiyalar asosida ma'lumotlarni tez va samarali usullar orqali tarjima qilish, sifatli o'zlashtirish ko'nikmalari metodlarining ma'lum usullari ham maqolamizda beib o'tilgan. Audiovisual tarjimalarni o'rganish, audiovizual formatdagi o'quv materiallar turli xil mashg'ulotlarni va tarjimalarni mustaqil o'rganish metodikasi modelini ham ko'rib chiqamiz.

Kalit so'zlar: immersion usuli, javob usuli, shuningdek, zamonaviy kino qahramonlari bilan til o'rganish, adabiyot, video va qo'shiqlardan foydalanish, tasvirli matnlar va ularning jamlanmasi, slaydlar bilan taqdimot, audio, kompyuter ekranini ovozli izohlar bilan videoga olish.

Аннотация. В этой статье мы разберем аудиовизуальный перевод на современный английский язык и его методологию. Некоторые способы общения на английском языке, перевод информации на основе новых современных технологий с использованием быстрых и эффективных методов, методы качественного овладения навыками также рассматриваются в нашей статье. Также мы рассмотрим изучение аудиовизуальных переводов, учебные материалы в аудиовизуальном формате, различные тренинги и модель методики самостоятельного изучения переводов.

Ключевые слова: метод погружения, метод реагирования, а также изучение языка с современными киногероями, с использованием литературы, видео и песен, визуальных текстов и их сочетаний, презентации со слайдами, аудио, видеозаписи экрана компьютера с голосом.

Annotation. In this article, we will analyze audiovisual translation in modern English and its methodology. Some methods of communication in English, translation of information based on new modern technologies using fast and effective methods, methods of quality mastery skills are also discussed in our article. We will also consider the study of audiovisual translations, educational materials in audiovisual format, various trainings, and the model of the methodology of independent study of translations.

Keywords: immersion method, response method, as well as language learning with modern movie characters, using literature, videos and songs, pictorial texts and their combination, presentation with slides, audio, video recording of the computer screen with voice annotations.

Kirish. Tarjima insoniyat faoliyatining eng qadimiy turlaridan biridir. Tarjima tufayli biz insoniyat taraqqiyoti tarixini barcha tafsilotlari bilan ochiq-oydin tasavvur etamiz. Tarjimaning asosiy maqsadi materiallar ularni o'quv jarayonida foydalanishga tayyorlash usuli. O'quv materiallarini tarjima qilishning eng yaxshi usuli - bu o'quvchining diqqatini chalg'itmaydigan usulidan foydalanish. Ingliz tilidagi materiallar uchun subtitrlar tarjima qilish, bilimlarni audio-vizual kontent

orqali o'zlashtirishga urg'u berish, ifoda shakllarini ixchamlashtirish va o'zgartirish, o'yinlashtirish va bilish jarayonining "yangi darajalari" va o'quv jarayonining o'tishini talabalarni rag'batlantirish. Texnologiyaning rivojlanishi bilan ta'lim sohasiga audiovizual va audiolingual kabi usullar kirib keldi. Ularning ikkalasi ham ingliz tilida audio va video yozuvlar orqali o'rganishni o'z ichiga oladi. Ushbu uslub juda monoton, chunki barcha sinflar bir xil rejaga amal qiladi. Bundan

tashqari, bu usul tilni to'liq tushunishni ta'minlamaydi, bu yerda talaba faqat leksik qismini o'rganishi mumkin. Shuning uchun bu usullar avvalgilari kabi mashhur emas, lekin ular ko'pincha boshqa usullarning elementlari sifatida ishlatiladi. Ya'ni, o'qituvchilar audio metodlarga muvofiq yagona darslarni o'tkazadilar.

Ingliz tilini o'rganishning bir nechta metodlari: immersion usuli, javob usuli, shuningdek, zamonaviy kino qahramonlari bilan til o'rganish, adabiyot, video va qo'shiqlardan foydalanish.

Ovozsiz usul esa g'ayrioddiy faoliyatni o'z ichiga oladi, chunki o'qituvchi talabalar bilan asosan so'z yoki tovushni ko'rsatadigan kartalar yordamida muloqot qiladi. Ushbu uslub faqat o'rganishning birinchi bosqichlarida yaxshi, keyinchalik u ishlatilmaydi. Audiovizual asarlarni yaratish va ulardan foydalanishning asosiy maqsadi didaktik bo'lib, ularning tarjimai odatiy audiovizual materiallarni tarjima qilishdan farq qiladi. Subtitrlash ingliz tilidagi ta'lim dasturlarini o'zbek tiliga audiovizual tarjima qilishning eng a'lo turi hisoblanadi. O'quv videomateriallarini ingliz tilidan tarjima qilishda ekrandan tashqari tarjimadan foydalanish tavsiya etiladi. Bunday materiallarning asosiy lingvistik xususiyati yuqori terminologik to'yinganlik bo'lib, bu tarjimaga ma'lum cheklovlar qo'yadi, lekin avtomatlashtirilgan tarjima vositalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

O'quv videomateriallarini audiovizual tarjimai bo'yicha o'quv kursini qurishda shuni hisobga olish kerakki, u audiovizual tarjima kabi o'qitish, mavzu mazmunini o'rgatish, shuningdek, avtomatlashtirilgan tarjima vositalaridan foydalanishni o'rgatish kerak. Videomateriallarini tarjima qilish bugungi kunning dolzarb talabidir. Bugun dunyoda masofaviy ta'lim jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda va bu jarayonda videomateriallar qimmatli rol o'ynaydi. O'quv materiallari shakllanishi ingliz tilidagi

videomateriallarning afzalliklarini talabalarga o'rgatishdan iborat.

Texnologiyalarning rivojlanishi ular orasida quyidagi guruhlarni ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiqdir:

- 1) tasvirli matnlar va ularning jamlanmasi;
- 2) rasmlar va so'zlar tizimi;
- 3) slaydlar bilan taqdimot;
- 4) audio;
- 5) kompyuter ekranini ovozli izohlar bilan videoga olish;

Xorijiy tillarni samarali o'rganish, yangi lug'at boyligini osonroq o'zlashtirish masalasi ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan bo'lsa - da, u doimo dolzarb masala sanaladi. Ushbu masalaga bunday yondashuv tabiiy holat. Ko'pincha chet tilini o'rganishda ikki tilli ta'limni tashkil etish bir necha chet tillarini chuqurlashtirishga va o'rganishga imkon beradi. Chet tilini o'rganish ko'pqirrali ta'limot bo'lib, bu jarayonda murakkab psixologik o'zgarishlarni boshdan kechiradi jumladan, ona tili va chet tilini taqqoslash jarayoni sodir bo'ladi. Bu jarayonda o'qitishning turli metod va texnologiyalaridan foydalaniladi. Chet tilini zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida taqqoslab o'qitish samarali natija beradi. Chet tilini o'qitish uning metodikasini bilishni talab qiladi.

Tillararo muloqotning alohida turi bo'lmish tarjima turli tillar matnlarining mazmunan teng qiymatliligini taqazo etadi. Asliyat va tarjima matnlari mazmunining o'zaro mos kelishi, ekvivalentlikni tarjimaning asosiy sharti ekanligini ko'rsatadi. Tarjima amaliyoti sirlarini mukammal egallagan va uning nazaryasi bilan puxta qurollangan tarjimongina asliyatga ekvivalent tarjimalar yarata oladi. Asliyatga ekvivalent hisoblangan tarjima o'zida asliyatning pragmatik xususiyatlarini ham mujassam eadi.

Quyidagi metodlarga ahamiyat beraylik: Pedagogik kuzatuv, pedagogik tajriba, modellashtirish, suhbat, test, so'rovnomalar, pedagogik eksperiment, matematik-statistik

МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNING IJODIY QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA ZAMONAVIY YONDOSHUVLARDAN FOYDALANISH

BERDIYEVA MUHABBAT MEYLIYEVNA
Termiz davlat Pedagogika instituti, dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish va kognitiv qiziqishlarini rivojlantirishda zamonaviy yondoshuvlardan foydalanish usullari yoritib berilgan.

Kalit soʻzlar: Interfaol metodlar, innovatsion yondashuvlar, pedagogik texnologiyalar, ijodiy fikrlash, qobiliyat, kognitiv qiziqish, ijodkorlik, muloqotga kirishish.

Аннотация: В данной статье описаны методы использования современных подходов в формировании творческих способностей детей дошкольного возраста и развитии их познавательных интересов.

Ключевые слова: Интерактивные методы, инновационные подходы, педагогические технологии, творческое мышление, способности, познавательный интерес, творчество, общение.

Abstract: This article describes the methods of using modern approaches in the formation of creative abilities of preschool children and the development of their cognitive interests.

Key words: Interactive methods, innovative approaches, pedagogical technologies, creative thinking, ability, cognitive interest, creativity, communication.

Bolalarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda turli omillar turlicha taʼsir etadi. Bu omillar ichida ijodiy va matiqiy tafakkurni rivojlantirish eng asosiysi hisoblanadi. Zero, bolada tasavvur, tushunchalarning shakllanish jarayoni aynan maktabgacha taʼlim muassasasidan boshlanadi va bu davr bola dunyoqarashining shakllanishida hajm jihatidan eng salmoqli bosqichdir. Shuning uchun ham tushuncha va tasavvurlarni shakllantirishda maktabgacha yoshdagi davr, asosiy davr hisoblanadi. Maktabgacha taʼlim muassasalarida yaratilgan shart sharoitlar, ushbu tizim uchun zarur boʻlgan zamonaviy texnologiyalar, didaktik materiallar va oʻyinchoqlar bilan muntazam taʼminlanib borishining davlat nazoratida boʻlishi kishini quvontiradi. Maqsad esa bitta bolalarni barkamol tarzda voyaga etkazish, ularni maktab taʼlimiga tayyorlash samaradorligini oshirishdir. Maktabgacha yosh - bu oʻzini yorqin ifoda etish, ijodiy qobiliyatlarni namoyon qilish,

bolaning ijodkorligini rivojlantirish uchun eng qulay davr hisoblanadi. Bugungi kunda MTT tarbiyachilarining eng ustuvor vazifalaridan biri ijodkor bolani tarbiyalashdir. Bu jarayon qanchalik erta boshlansa samarasi shunchalik barvaqt namoyon boʻladi va bolaning butun hayotiga ijobiy taʼsir qiladi. Ijodkorlik yangi tadqiqot predmeti emas. Biroq, ilgari jamiyatda odamlarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida ehtiyoj yoʻq edi. Isteʼdodlar oʻz-oʻzidan paydo boʻldi, adabiyot va sanʼat durdonalari, ilmiy kashfiyotlar, ixtirolar yaratildi va shu bilan rivojlanayotgan insoniyat madaniyati ehtiyojlarini qondirdi. Bizning davrimizda vaziyat tubdan oʻzgardi. Ilmiy-texnika taraqqiyoti davrida hayot tobora rang-barang va murakkablashib bormoqda. Bu esa odamdan qoliplashgan odatiy harakatlarni emas, balki harakatchanlikni, fikrlashning moslashuvchanligini, tez yoʻnaltirilganligini va yangi sharoitlarga moslashishini, katta va kichik muammolarni hal qilishda ijodiy

yondashuvni talab qiladi. Zamonaviy dunyoda insonning ijodiy qobiliyatlari, uning intellektining eng muhim qismi sifatida tan olinishi kerak. Insoniyat tomonidan to'plangan madaniy qadriyatlar odamlarning ijodiy faoliyati natijasidir. Kelajakda insoniyat jamiyatining qay darajada rivojlanishini yosh avlodning ijodiy salohiyati belgilab beradi. Tarbiyachi pedagoglar taqlid qilish ijodkorlikni shakllantirishning asosiy mexanizmi ekanligini unutmasligi kerak. Bu shuni anglatadiki, bolaning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun unga yaqin odamlar orasida bola o'zini tanitadigan ijodiy shaxs bo'lishi kerak. Bola uchun ijodiy xulq-atvor namunasi sifatida nafaqat ota-onalar (yoki ota-onalardan biri), balki boshqa kattalar ham (tarbiyachilar, oila do'stlari va boshqalar) harakat qilishlari mumkin. Agar bolalar uchun ota-onalar ko'proq ijodiy xususiyatlarga ega bo'lgan "ideal qahramon" bo'lsa, ayniqsa samarali bo'ladi. Aslini olganda "Ijodkorlik" - bu har xil turdagi ijodiy faoliyatning muvaffaqiyatini belgilaydigan shaxsning individual fazilatlari. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha mashg'ulotlar bolaning shaxsini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu sohada olimlar va psixologlar tomonidan olib borilgan barcha tadqiqotlar, ijod qobiliyatiga ega bo'lgan bolalarning yanada barqaror ruhga ega ekanligi, ular bilan muloqot qilish va do'stona munosabatda bo'lishlarini isbotlaydi. Kichik yoshda, kompleks rivojlanishga, ya'ni maktabgacha yoshdagi bolalarning adabiy, badiiy va musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor berish tavsiya etiladi. Ijodkorlik ko'plab fazilatlarning birlashuvidir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish va ularda ijodkorlik yo'nalishlaridagi qiziqishlarini rivojlantirishda maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi bilan bir qatorda ota-onalar ham bola bilan birga muntazam shug'ullanib borishi zarur. Maktabgacha ta'lim muassasasi bola uchun ta'lim - tarbiya maskani bo'lsa, oila uning barcha

hissiy va ijtimoiy munosabatlarga kirisha olishda o'rnak bo'luvchi maskan hisoblanadi. Shunday ekan, ota-onalar farzandlarining ertangi baxti-kamoli va kelajagini o'z qo'llari bilan yaratib beruvchi shaxslardir. Bu o'rinda shuni aytib o'tish joizki bola bu ikki maskanda ham hayoti uchun muhim bo'lgan jarayonlarni o'rganib, o'zlashtirib boradi.

Psixologik nuqtai nazardan, maktabgacha yoshdagi bolalik ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun qulay davr hisoblanadi, chunki bu yoshda bolalar o'ta izlanuvchan, ularda atrofdagi dunyoni o'rganishga intilish katta. Ota-onalar va tarbiyachilar qiziquvchanlikni rag'batlantirish, ularga bilim berish, turli tadbirlarga jalb qilish orqali bolalar tajribasini kengaytirishga hissa qo'shadilar. Tajriba va bilimlarni to'plash kelajakdagi ijodiy faoliyat uchun zaruriy shartdir. Bundan tashqari, maktabgacha yoshdagi bolalarning fikrlashlari katta yoshdagi bolalarnikiga qaraganda ancha erkindir. U hali stereotiplar tomonidan "ezilgan" emas. Maktabgacha yoshdagi bolalik ham ijodiy tasavvurni rivojlantirish uchun sezgir davr hisoblanadi. Shunday qilib, maktabgacha yosh ijodkorlikni rivojlantirish uchun ajoyib imkoniyatlar yaratadi va kattalarning ijodiy salohiyati ko'p jihatdan bu imkoniyatlardan bolalikda qanday foydalanilganiga bog'liq bo'ladi. Bolaning kognitiv manfaatlarini muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun ota-onalar farzandining nimaga qiziqishini bilishlari kerak va shundan keyingina uning qiziqishlarining shakllanishiga ta'sir qilishlari kerak. Shuni ta'kidlash kerakki, barqaror manfaatlarining paydo bo'lishi uchun bolani haqiqatning yangi sohasi bilan tanishtirish etarli emas. U yangi narsaga ijobiy hissiy munosabatda bo'lishi kerak. Bunday vaziyatlarda bolada paydo bo'ladigan kattalar dunyosiga mansublik hissi uning faoliyati uchun ijobiy muhit yaratadi va bu faoliyatga qiziqishning paydo bo'lishiga yordam beradi. Ammo bolaning o'z ijodiy faoliyati haqida unutmasligimiz kerak. Shundagina uning kognitiv qiziqishlarini rivojlantirish va yangi bilimlarni

o'zlashtirishda kerakli natijaga erishish mumkin. Unga faol fikr yuritishga undaydigan savollarni berishingiz kerak. Uyda ota-onalar farzandlarini ular bilan faol mashg'ulotlarga jalb qilishlari, ushbu mashg'ulotlar davomida bolalarni rag'batlantirib turishlari lozim. Bu jarayonlar natijasida bolada o'ziga nisbatan ishonch hissi shakllanadi va keying yashirin qobiliyatlarni namoyon etishda turtki vazifasini bajaradi. Bola o'zining serqirra qobiliyatlarini rivojlantirishda kattalar tomonidan qo'llab-quvvatlanishni, ijobiy fikr va shirin maqtovlarni kutadi, bu bola psixikasining eng yaxshi ozuqasidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda o'zini namoyan eta olish qobiliyati boshqa yoshdagi bolalarga nisbatan anchagina oson va tez amalga oshadi. Chunki bu yoshda bola o'zini barchaning nazarida bo'lishini xohlaydi va bunga har xil yo'llar bilan erishishga harakat qiladi.

Maktabgacha yoshli bolalarning ijodiy rivojlanishining asosiy tarkibiy qismi muammoli. Bu bolaning doimiy ravishda yangi narsalarga ochiqligini ta'minlaydi, nomuvofiqlik va qarama-qarshiliklarni izlashda, yangi savol va muammolarni o'zi shakllantirishda namoyon bo'ladi. Hatto muvaffaqiyatsizlik ham kognitiv muammoni keltirib chiqaradi va ijodiy rivojlanishning yangi bosqichiga imkoniyat yaratadi. Bolalar dunyoqarashining xususiyatlaridan biri uning

Shuning uchun korreksion ishlar hodisalar va predmetlarning kuzatishning maxsus usullaridan foydalanishga yo'naltirilgan bo'lib, u eshituv, ta'm bilish, hid bilishga asoslangan bo'lib, u bolalarda real hayotning murakkab sintetik obrazlarni yaratish imkonini beradi.

Zaif ko'ruvchilardagi saqlanib qolgan ko'ruv ularning rivojlanishiga, o'quv, mehnat va ijtimoiy adaptatsiyaga (moslashuviga)

muhim ahamiyatga ega, shuning uchun uni avaylab-asrash zarur, buning uchun muntazam tashxis qo'yish, ko'z shifokorida davriy konsul'tatsiya o'tkazish, tiflopedagogda va psixologda konsul'tatsiyalar o'tkazish zarur.

Ko'rlar va zaif ko'ruvchilarda ularni o'rab turgan dunyoni idrok etish va bilishda teri orqali bilish muhim ahamiyatga ega.

Daktil' idrok etish har xil kompleks sezgilar (qo'l tekizish, bosim, issiqlik, sovuqlik, og'riq, materialning fakturasi va boshqalar) orqali ta'minlanadi va bular orqali narsalarning shakllari, o'lchamlari va har xil proporsional aloqalar aniqlanadi. Teri va shilimshiq qavatdagi nerv qoldig'lari tomonidan qabul qilingan har xil sezgilar bosh miya qobig'ining qo'l va barmoqlar ishi bilan bog'liq bo'limiga yuboriladi. Ko'rlar va ko'zi ojizlar xudi shunday qo'llari va barmoqlari bilan "ko'rishga" o'rganadilar.

Ko'rlar va zaif ko'ruvchilarning har xil faoliyat turlarida teri orqali bilishdan tashqari eshituv va nutq ham muhim ahamiyatga ega. Ko'rlikni kompensatsiyalashning birinchi stadiyasida yaratilgan differentsialangan eshituv va ovoz reaksiyalari narsalar bilan dastlabki tanishuvda va atrofdagi odamlar bilan muloqatda muhim rol o'ynaydi. Ko'r bola odamlarning diqqatini jalb qilish maqsadida tovushlar va so'zlardan foydalanadi. Kattalarning shunga mos reaksiyalari bolani unga nisbatan emotsiyasini (hayajonini) oshiradi.

Ko'rlar va zaif ko'ruvchilar tovushlar orqali narsalarni va ularni o'rab turgan muhitning fazoviy xususiyatlarini erkin ifodalaydilar. Ular tovush orqali manbani va uning joylashishini ko'zi ko'radiganlardan aniqroq aniqlaydilar. Ko'ruv protsessi buzilgan shaxslarda fazoviy eshituv juda yuqori darajada rivojlanganligi har xil tovushlar maydonida orientirovka olish shartligi sababli yuzaga keladi.

Shu sababli ko'rlar va zaif ko'ruvchilar ta'lim va tarbiya protsessida differentsiyaga mashqlar o'tkaziladi, narsalarning xarakterlarini tovush yordamida farqlanadi

va bohalanadi, murakkab tovush maydonini analiz va boholash, tovush signallari aniq bir narsalarga, moslamalarga, mexanizmlarga va bu ularda yuz berayotgan protsesslarning yuzaga chiqishidan bo'ladi.

Ko'ruv jarayoni buzilgan shaxslarning har xil faoliyat turlarini muvaffaqiyatli egallash (predmetli, o'yin, mehnat, o'qish) ko'rgazmali qurollar bilan yuqori darajada ta'minlanish va rivojlantirish, fazoviy fikrlash fazoviy mo'ljalga olishni egallash bilan bog'liq. Fazoviy orientirovka fazoda (maydonda) erkin harakatlanishning muhim qismidir.

SHunday qilib, ko'rishda nuqsoni bor bolalarni ikki guruhga ajratish mumkin.

1. Ko'rlar.
2. Zaif ko'ruvchilar.

Ko'rlar ko'ruv o'tkirligiga ko'ra 2 turga bo'linadi.

1. Total ko'rlar. 0 ko'rish o'tkirligi.
2. Qisman ko'rlar. Ko'rish o'tkirligi 0,005 gacha

KELIB CHIQISH SABABIGA KO'RA

1. Tug'ma ko'rlar.
2. Orttirilgan ko'rlar.

Zaif ko'ruvchilar ko'rish o'tkirligiga ko'ra quyidagicha turga bo'linadi.

- 0,05dan 0,1 gacha
- 0,1dan 0,2 gacha
- 0,2 dan yuqori 0,4gacha

Ko'r va zaif ko'ruvchi bolalarda birlamchi nuqsonlar patologiyasi yuzaga keladi: ko'rish o'tkirligi, rang ajratish, ko'rish maydoni, yorug'likni sezish va hakoza.

Ko'ruv o'tkirligi – ko'zni bir-biridan eng kam masofada turgan ikki nuqtani ayrim-ayrim ko'ra olish layoqatidir.

Ko'ruv maydoni – bu odam ko'zlari va boshni qimirlatmay turganida ko'rib idrok etadigan maydondir.

Yorug'lik sezish. Ko'zni qonunlikka qarab adaptometrlar maxsus asbobda yorug'likda tekshiriladi.

Maxsus va to'g'ri tanlangan o'qitish metodikasi qo'llanmasligi natijasida ikkilamchi nuqsonlar yuzaga keladi, bular quyidagilar

bo'lishi mumkin.

- sensor apparatlarning to'liq shakllanmaganligi;
- tasavvur va tushunchalar borasidagi kamchiliklar;
- fikrlashdagi kamchiliklar;
- nutq rivojlanishidagi kamchiliklar;
- harakatdagi kamchiliklar;

Faqat maxsus ta'lim-tarbiya sharoitidagina ikkilamchi nuqsonlarni korrektsiyalashga sharoit mavjuddir.

Ikkilamchi nuqsonlar namoyon bo'ladigan sohalar.

Alebliopiya bilan og'rigan bolalarda ko'rib idrok etish, harakat sohasida (harakatlar aniqligi, koordinatsiyasi buzilgan, mayda matorika makonda orientrlash, oynada aks etganda o'ng va chap tushunchalari rivojlanmagan) predmetli tasavvurlar sohasida hajm biroz kichikroq bo'ladi.

Ko'r bolalarda predmetli tasavvurlar zahirasi ancha kam, ular mavjud tasavvurlar obrazlar bilan ishlashda qiynaladilar. Maktabgacha yoshdagi ko'r bolalarda harakatchanlik sustligi, harakat malakalarini aniq shakllanmasligi, makonda orientirlash ancha buzilganligi, makondagi yo'nalishlarni ajratishda nuqsonlar, makonda harakatlanish chog'ida orientrlashda qiyinchiliklar kuzatiladi. Ko'r bolalarda ikkilamchi nuqsonlar bilish faoliyatida ham namoyon bo'ladi, predmetlar haqida tasavvurlar o'zligi, predmetlar haqida tasavvurlar yo'qligi, tasavvurlar uzuq-yumuqligi va boshqalardir.

Maktabgacha tarbiya.

Maktabgacha tarbiya tizimi davlat, ijtimoiy xarakterga ega bo'lib, muhim ijtimoiy masalalarni hal qiladi: ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarni har tomonlama kamol tptirish; ko'r va zaif ko'ruvchilar nuqsonli rivojlanishini oldini olish; korrektsiyalash va ularning sog'ligini himoyalash va mustahkamlash; Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarni tarbiyalash va maxsus ta'lim berishda oilaga ko'maklashish maqsadida maxsus va

oilaviy MTM qoshida ochilgan maktabgacha tarbiya muassasalari tashkil etilgan. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarga maxsus MTM larda maqsadli ta'lim va tarbiya berish jarayonida ularga normal psixik rivojlanishni ta'minlash, ilk bolalik davridagi noto'g'ri tarbiya natijasida yuzaga keladigan ikkilamchi nuqsonlarni korrektsiyalash, kompensatsiyalash mumkin.

Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun bog'chalar faoliyatida 4 asosiy vazifani belgilash mumkin. Ularning bajarilishi va faqat bolalarning umumta'lim dasturlarini o'zlashtirishga imkoniyatlarini, balki rivojlanishdagi ikkilamchi nuqsonlarni korrektsiyalash va kompensatsiyalashni ta'minlaydi.

1. Qisman ko'radigan va zaif bolalarda saqlangan ko'rish funktsiyalarini rivojlantirish, ambliopiya va g'ily bolalarni ularni normagacha tibbiy va pedagogik vositalar bilan tiklash.

2. Bolalarning rivojlanishi o'quv dasturni o'zlashtirish uchun ularning psixik-jismoniy rivojlanishi xususiyatlarini hisobga olgan holda qulay sharoitlar yaratish.

3. Bola hayotining dastlabki oy yillaridagi noto'g'ri tarbiya natijasida yuzaga keladigan ikkilamchi nuqsonlarni korrektsiyalash

4. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim, o'yin, mehnat, faoliyati kompensator usullarini shakllantirish.

Maxsus vazifalarni hal etishda har bir mutaxassis vrach oftol'molog, tiflopedagog, ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar bog'chasi tarbiyachisining roli garchi o'zaro bog'liq va o'zaro bog'langan bo'lsada, ular ko'p qirralidir.

O'rta ta'lim.

Ko'r va zaif ko'ruvchi bolalar uchun maxsus umumta'lim maktab-internatlari o'quvchilarning ta'lim va tarbiyasini maktab ta'limini, shuningdek, ularning nuqsoni rivojlanishi korrektsiyasini amalga oshiradi. Ko'rlar va ko'zi ojizlar uchun tashkil qilingan maktablar maxsus ta'lim davlat tizimining asosiy qismi hisoblanadi va bu tizim bolalarni o'qitish va tarbiyalashning alohida ta'lim zaruriyatidan

kelib chiqadi va shu tamoyillar asosida ishlaydi. Ko'rlar va ko'zi ojizlar maktablarida o'qitish va tarbiyalash o'zining maxsus tamoyillariga va vazifalariga ega, bu vazifalar yaxshi rivojlanmagan va buzilgan funktsiyalarni qayta tiklash, korrektsiya va kompensatsiya qilishga mo'ljallangan bo'lib, bolalarni guruhlariga differentsiyalashga mo'ljallangan. Ko'rlar va ko'zi ojizlarni o'qitish va tarbiyalashning asosiy qoidalarini asoslab berar ekan, tiflopedagogika shaxsni har tomonlama rivojlantirishni ta'minlashga, ko'rlikni va ko'zi ojizlikni kompensatsiyalashning tabiiy ilmiy asoslariga rivojlanishda turli nuqsonlarga duchor bo'lgan bolalarda biologik va sotsial manbalarning birligi to'g'risidagi kontsepsiyaga asoslanadi.

L.S.Vigotskiyning ta'kidlashicha, bu birlik juda murakkabdir alohida psixik funktsiyalarga nisbatan ham, bolalarning yoshiga qarab bosqichma-bosqich rivojlanishga qarab ham differentsiyalashgan va o'zgaruvchan birlikdir. Ko'r va zaif ko'ruvchi bolalar uchun maktablar uch bosqichdan iborat.

1. Boshlang'ich ta'lim 1-4 sinflar.
2. Asosiy va to'liqsiz ta'lim 5-10 sinflar.
3. O'rta ta'lim 11-12 sinflar.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari bilan KNB bolalar maktabidagi ta'lim bosqichlarining o'xshash va farqli tomonlari.

KNB bolalar maktabida sinf va tarbiya guruhleri 10-12 nafar kishidan murakkab nuqsonli bolalar uchun 5-7 kishidan iboratdir.

Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarni ko'rgazmali-obrazli va nazariy tafakkur elementlarini egallaydilar, o'qish, yozish, sanash, tasavvurlarni tushunishni o'rganadi.

Ikkinchi bosqich bolalar bilim, shaxsiy va harakat doirasi korrektsion bo'yicha gigiena va ko'rishni muhofazalash sog'lomlashtirish ishlari davom etadi.

Uchinchi bosqich o'rta maktabi umumta'lim tayyorgarligi va mehnat kursi tugallanishni ta'minlaydi. Ta'lim keng va differentsiyali asosda olib boriladi.

Kasb ta'lim.

Maxsus maktablarni bitirgan o'quvchilar kasb tayyorgarligini hunar maktablarida olishi mumkin. Kasb hunar kollejlarining ayrimlarida ko'r va zaif ko'ruvchi shaxslar turli kasblarni egallashlari mumkin.

Oliy ta'lim.

Ko'rishda nuqsoni bo'lgan shaxslar O'zbekiston Respublikasi barcha fuqarolari kabi oliy o'quv yurtlariga kirish huquqiga egalardir. Ko'r va zaif ko'ruvchilar barcha kasblarni tanlash huquqiga ega. Oliy o'quv yurtlarida o'qish muddati uzaytirilmaydi.



Foydalanilgan adabiyotlar :



1. Grigor'yanst N, A, Alimjanova. G. Z. Fayzieva Z. SH. «Ko'rishida muammolari bo'lgan bolalarni tekshirish usullari» T- 2008
2. N.Jumaboeva «Ko'rishida muammolari bo'lgan bolalar maktab internatlarida atrof – muhitni tasavvur qilishni shakllantirish» t-2009
3. Alrik Albers, H. Po'latov " Mo'ljall olish va harakatlanish dasturi" 2002y
4. .S.Akramova, A.J.Tajimuratov. Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarni xotirasini kuchaytirish asoslari. Tafakkur ziyosi. 2021-yil 1-soni
5. Akramova X. (2020). Замонавий мультимедиа воситаларидан фойдаланиш - муваффакият гарови. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(12), 1-5. извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/3162
6. Akramova, X. (2020). Мактабгача ёшдаги болалар билан олиб бориладиган ижтимоий педагогик фаолият технологияси. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(16), 1-5. извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/3994
7. Akramova, X. (2020). Mehnat darslarida aqli zaif bolalar nutqini o'stirishning o'ziga xosligi. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(16), 1-5. извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/4025

AUTIZM SINDROMLI BOLALARNING MULOQOT KO'NIKMALARINI O'RGANISHDA TIBBIY-PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK QARASHLAR

AXROROVA SEVINCH ABROROVNA

Jizzax davlat pedagogika universiteti Maxsus pedagogika kafedrası
o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada autizm haqida tushunchalarning shakllanish tarixi, mamlakatimizda bunday bolalar sonining ortib borishi, Kanner sindromining asosiy simptomlar kombinatsiyasi, Asperger sindromi, autizm bilan kasallangan bolalarning asosiy belgilari, autizm sindromiga chalingan shaxslarni asosiy 4 ta guruhga bo'lib o'rganilishi, autizm sindromli bolalarning muloqot ko'nikmalarini o'rganishda tibbiy-psixologik-pedagogik qarashlar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: autizm, Asperger sindromi, Kanner sindromi, Eygen Bleyler, ADOS kuzatuv shkalasi, ilk yoshdagi bolalar autizmi, bolalar autizmi, o'smirlar autizmi, kattalar autizmi, alternativ muloqot.

Аннотация. В статье история формирования представлений об аутизме, увеличение количества таких детей в нашей стране, сочетание основных симптомов синдрома Каннера, синдрома Аспергера, основные симптомы детей с аутизмом, изучение лиц с синдромом аутизма на 4 основные группы, выделены коммуникативные навыки детей с синдромом аутизма. Медико-психолого-педагогические взгляды на навыки обучения.

Ключевые слова: аутизм, синдром Аспергера, синдром Каннера, Эйген Блейлер, шкала наблюдения ADOS, ранний детский аутизм, детский аутизм, подростковый аутизм, взрослый аутизм, альтернативное общение.

Abstract. In the article, the history of the formation of concepts about autism, the increase in the number of such children in our country, the combination of the main symptoms of Kanner syndrome, Asperger syndrome, the main symptoms of children with autism, the study of individuals with autism syndrome into 4 main groups, the communication skills of children with autism syndrome Medical-psychological-pedagogical views on learning skills are highlighted.

Key words: autism, Asperger's syndrome, Kanner's syndrome, Eigen Bleiler, ADOS observation scale, childhood autism, children's autism, adolescent autism, adult autism, alternative communication.

Autizm - grekcha "autos", ya'ni "o'zi" degan ma'noni anglatib, reallikdan uzoqlashish, tashqi dunyodan ajralish va tashqi olam bilan kommunikativ funksiyaning buzilishi kabilarni o'z ichiga oluvchi sindrom hisoblanadi.

Mamlakatimizda bunday bolalar sonining ortib borishi tibbiyot xodimlari, psixiatrlar, psixologlar, pedagoglar, defektologlar va ota-onalarning bu muammoga chuqur yondashuvlarini va uning kelib chiqish sabablarini aniqlash, shuningdek, ularni korreksiyalashning eng optimal variantlarini ishlab chiqarishga undamoqda.

Autizm atamasi olimlarning baxslashib kelishicha, shaxsga (odatda bolaga) "autistelk" deb tashxis qo'yish orqali kirib kelgan bo'lishi

mumkin. Bu kasallikning asosiy belgisi - bolaning muloqot qilishdagi qiyinchiligi, boshqa odamlar bilan aloqa qilishdan o'zini tortib, go'yo o'zining olamida yashayotgandek tuyuladi. Ba'zi autistik cheklanishlari bo'lgan odamlarda bitta ma'lum sohaga (masalan rassomchilik) qaratilgan ajoyib qobiliyatlarni namoyon etsa, boshqalarida esa me'yoriy "normal" holatga tushib qolishlar kuzatiladi. Shunga qaramay, butun olamda bu xastalikka hanuzgacha davo topilgani yo'q.

Autizm nerv sistemasining kasalliklaridan biridir. Ushbu nuqson bolalarda turlicha namoyon bo'ladi. Ayrim olimlar fikricha autizm ruhiy kasalliklarning belgilaridan biri bo'lib, bunda bola tevarak-atrofga nisbatan befarq,

beparvo bo'ladi, natijada atrofdagilar bilan aloqada bo'lmaydi, muloqot qilmaydi. Bola o'z-o'zi bilan bo'lib, o'zicha hayajonlanib, kuyinib, nimalardandir tashvishlanib o'z ichki dunyosida yashaydi. Ba'zi bolalarda emotsional qiyinchiliklar mavjud bo'ladi. Ular tushkunlikka tushishlari yoki bezovta bo'lishlari mumkin yoki ularning xulq-atvori g'ayritabiiy bo'ladi, buni bolalarning noo'rin yig'lashlaridan yoki kulishlaridan bilish mumkin. Ular haddan tashqari harakatchan bo'lib, bir vaqtning o'zida biror narsaga e'tiborini bir zungina qaratib, yana boshqa narsa bilan chalg'ib ketishlari mumkin, yoki ular befarq, parishonxotir bo'lishlari mumkin. Emotsional tushkunliklar yaqin orada bo'lib o'tgan jarohatlar, xafagarchilik yoki uzoq vaqt ongli ish bilan shug'ullanish natijasida yuzaga kelishi mumkin.

Autizm atamasi birinchi bor shvetsar psixiatri Eygen Bleyler tomonidan shizofreniya kasalligining belgilaridan biri sifatida ishlatildi. Autizm holati shizofreniya kabi ruhiy kasallikda ko'proq namoyon bo'ladi. Bola vaqtni sezmaydi, hozirda ro'y berayotgan voqea-hodisalarni o'tgan yoki kelasi zamon bilan almashtiradi, real voqea-hodisalarni fantastik mavhum voqea-hodisalar bilan aralashtirib yuboradi. Autizm holatida bola faoliyati sustlashadi yoki keraksiz, noaniq faoliyat bilan shug'ullanadi. Bolaning xulq-atvori buziladi, o'yin faoliyati, qiziqishi sustlashadi, ma'yus holatda yuradi, kattalar va tengdoshlari bilan aloqada bo'lmaydilar, hech kim bilan gaplashishni istamaydi, ba'zilarida indamaslik (mutizm holati) kuzatiladi.

Ingliz psixiatri Leo Kenner davolash amaliyotida 11 bolaning xulq atvori, yurish-turishida o'xshash belgilarni kuzatib, "ilk yoshdagi bolalar autizmi" atamasini kiritdi. U kuzatgan barcha bolalardagi belgilar hozirgi kunda ham autizmning asosiy belgilari sifatida o'rganilmoqda. Shunga qaramay, ko'p yillar mobaynida bolalar autizmi aqli zaiflik, shizofreniya kabi va boshqa ruhiy kasalliklarning belgilari sifatida o'rganilgan edi. Faqatgina 1981 yildan boshlab bolalar

autizmi mustaqil nuqson sifatida qabul etildi.

Autizm bu yangi kasallik emas, balki yangi tashxis. Bunday bolalar doimo bo'lgan, ammo olimlar ularga nisbatan yaqinda e'tibor berishni boshladilar. Bir nechta psixiatr olimlar miyasi shikastlangan, ularning ahvoli bugungi kunda autizm deb ataladigan tashxisga juda o'xshash bolalarni tasvirlab berishdi. Amerikalik psixolog L.Uitmer Donning o'z hikoyasida tasvirlanishicha, u 2 yil 7 oy ichida deyarli muloqot qilish qobiliyatidan mahrum bo'lgan, ammo uzoq muddatli maxsus mashg'ulotlar natijasida ularning muhim qismini qiyinchiliklar bilan yengib o'tgan. Mamlakatimizda XX asrning 20-30-yillarida T.P.Simson, G.E.Suxareva va boshqalar juda ko'p autizm bilan kasallangan bolalarda shizofreniya va unga bog'liq bo'lgan holatlarning namoyon bo'lishini qayd etadilar.

Ammo birinchi bo'lib autizmni maxsus kasallik deb hisoblab, unga nom bergan va uning maxsus tadqiqotini boshlagan amerikalik psixiatr Leo Kanner edi. Bugungi kunda autizm tushunchasi tarixi 1943 yilda nashr etilgan Leo Kannerning maqolasidan kelib chiqadi. U kuzatgan ko'plab bolalar orasida u 12 nafarini o'ziga xos buzilishlar bilan ajratib ko'rsatdi, ularning ajralib turadigan xususiyati juda yoshligidanoq hissiy aloqa va emotsiyalarning yetishmasligida edi. Avstriyalik pediater Xans Asperger Kannerdan mustaqil ravishda, aloqasi yo'q emotsional bolalar haqida, Kanner ta'riflaganiga o'xshash, ammo tashxisi unchalik aniq bo'lmagan bolalar haqida maqola nashr etdi. U autizmni xarakterni rivojlantirishning bir turi sifatida ko'rib chiqdi: «Biz tushunganimizdek, bu og'ish holatidagi bolalardagi shaxsiyatning asosiy tashkiliy prinsipi bo'lgan asosiy buzilish tushunchalari yordamida topishga va tavsiflashga harakat qildik, biz buni "autistik psixopatiya" deb belgilashni tanladik. Bu nom autizm tushunchasidan kelib chiqadi - ruhiy kasallik shizofreniya bilan kasallangan bemorlarda nihoyatda kuchli.

Asperger keyingi ishlaridan birida G.E.Suxarevaning shizoid psixopatiya haqidagi

maqolasini u ta'riflagan holat bilan bog'liq holda keltirgan. Bugungi kunda psixopatiya so'zi faqat kundalik tilda qo'laniladi va ruhiy kasalliklar tasnifida psixopatiyalar "shaxsiyat buzilishi" atamasi bilan almashtiriladi hamda autistik psixopatiya ularga kiritilmagan.

Kanner va Asperger o'zlarining ta'limidagi shartlarni shizofreniya doiralarning buzilishi bilan bog'lashdi. Ernst Kretschmer ruhiy kasalliklarni o'rganishga asoslanib, shizoid psixopatiya g'oyasini shakllantirdi, shizoid psixopatiya o'zini quyidagicha darajada namoyon qilishi mumkin:

- 1) shizotimiya - hayotga moslashish buzilmagan holatdagi psixopatiya;
- 2) shizoidiya - insonni o'zi va boshqalar uchun qiyinlashtiradigan psixopatiya;
- 3) shizofreniya - psixoz.

Bundan tashqari, aynan shu odamlar haqiqatan ham yangi kashfiyotlarning aksariyatini yaratadilar va ko'plab tadqiqotchilar shizofreniya doirasidagi ijodkorlik va buzilishlar o'rtasidagi bog'liqlik haqida yozadilar. Bugungi kunda - ayniqsa, autistik bolalarning ota-onalari orasida - autizm va shizofreniya o'rtasidagi bog'liqlik, yumshoq qilib aytganda juda mashhur emas. Kanner va Asperger o'sha paytda psixiatriya gapiradigan tilda gaplashishgan - ularning so'zlari yakuniy hukm emas, hatto shizofreniya va autizmga nisbatan ham.

Leningraddagi harbiy kasalxonalarining maslahatchisi bo'lgan, bolalar psixiatriyasining asoschilaridan biri, professor S. S. Mnuxin distrofiya bilan ochlikdan aziyat chekkan bolalardagi ruhiy kasalliklarni tasvirlab berdi. Unda u Kanner gapirgan kasalliklarga o'xshash buzilishlarni eslatib o'tdi. Keyingi yillarda miyaning turli xil lezyonlaridagi buzilishlarni o'rganib, urivojlanishvaxulq-atvorkasalliklarini Kanner va Asperger ta'riflaganlarga juda yaqin deb hisobladi. Xorijiy adabiyotlarda G'arbda tobora kuchayib borayotgan bolalar autizmini o'rganish to'g'risidagi ma'lumotlar professor S. S. Mnuxin va uning hamkasblari 1967 yilda mamlakatdagi bolalar autizmiga bag'ishlangan

birinchi maqolada o'zlarining tajribalarini umumlashtirdilar. Bunda bolalarda autizm tushunchasining uchta yo'nalishi aniqlandi:

- 1) qattiq aloqa buzilishi;
- 2) temperament buzilishi;
- 3) miya bilan bog'liq buzilish.

Ularning orasidagi chegaralar ko'pincha noaniq bo'lib, qayerda tugashi va boshqasi qayerda boshlanishini aytish har doim ham mumkin emas edi. Shunday qilib, Asperger o'zining birinchi maqolasida tasvirlangan holatlardan biri S.S.Mnuxin o'rgangan organik kasalliklar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Tarixda bolalar autizmi tezda shifokorlar va tadqiqotchilar e'tiborini tortdi. Ammo Kanner "o'tgan 30 yil mobaynida muammoni tushunishda sezilarli yutuqlarga erishilmadi" deb ta'kidladi. Biroq, shu bilan birga, psixologlar va ijtimoiy ishchilar autistlarga yordam berishni boshladilar, bunday bolalarni qo'llab-quvvatlash uchun ota-onalarning dastlabki uyushmalari shakllana boshladi.

Uzoq vaqt davomida autizm ruhiy kasalliklar tasnifiga kiritilmagan. Uni belgilash uchun turli xil tashxislardan foydalanilgan: bolalik davridagi shizofreniya, shizoid psixopatiya, organik autizm va boshqalar. 1980 yilda "bolalar autizmi" birinchi bo'lib keng tarqalgan (umumiy) rivojlanish kasalliklari guruhidagi kasalliklardan biri sifatida tasniflangan. "Bolalar autizmi" tashxisini 12 yoshgacha bo'lgan bolalarga qo'yish mumkin, so'ngra kattalar uchun qabul qilingan tashxislardan biriga o'zgartirish mumkin. Keyinchalik, bu cheklov olib tashlandi, "bola" ta'rifi olib tashlandi va endi "autizm" tashxisi insonni butun hayoti davomida kuzatilishi mumkin. Oxirgi tasnifda kasallik "Autizm spektrining buzilishi" deb alohida diagnostika sifatida ajratilgan. Keling endi Kanner va Asperger sindromlarining o'xshash va farqli jihatlarini ko'rib chiqaylik.

Kanner sindromining asosiy simptomlar kombinatsiyasi quyidagilar bilan tavsiflanadi:

- 1) odamlar bilan aloqa o'rnatish qobiliyatining imkonsizligi yoki aniq

cheklanganligi - bola "o'tmishdagi odamlar" bilan yuradi, ularga narsalar kabi munosabatda bo'ladi;

2) odatda rivojlanayotgan bolalar munosabat bildiradigan tashqi stimullarni e'tiborsiz qoldirib, tashqi dunyodan ajralib qolishi;

3) nutq, hatto u yaxshi rivojlangan bo'lsa ham, aloqa uchun ishlatilmaydi yoki ozgina foydalaniladi;

4) ko'z bilan aloqa yetishmasligi yoki yuzga, ko'zlarga qaramaslik holatlari;

5) atrof-muhitdagi o'zgarishlardan qo'rqish va uning o'zgarishini saqlab qolish istagi (shaxsiyat fenomeni, Kanner ta'rifiga ko'ra);

6) to'tiqush yoki gramfon nutqi - yangi eshitilgan yoki bir marta eshitilgan narsalarni takrorlash;

7) "men" ning rivojlanishining kechikishi;

8) o'ynamaydigan narsalar bilan stereotipik o'yinlar va xulq-atvorning turli jihatlarining stereotipik tabiati;

9) stereotipik harakatlar - sakrash, qoilarni ko'z oldida burish.

Ushbu alomatlar 2-3 yoshdan katta bo'lmagan bolalarda uchraydi, ammo ular ancha oldinroq - deyarli tug'ilishdan boshlab shakllanadi. Juda yosh bolalarda bunday holatlarni ota-onalar o'zlarining tajribasizligi va individual xususiyatlar sifatida qabul qilganligi yoki bolaning "katta bo'lganligi" sababli ularni aniqlashlari qiyin bo'ladi. Va keyinchalik, buzilishlar allaqachon aniq bo'lganida, ota-onalar ularni bartaraf etishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. "Ajabo", deyishadi, farzandim "boshqalar kabi emas", degan so'zlarni aytadilar. Ko'pincha, autizmning namoyon bo'lishi ota-onalar uchun xayoliy yoki haqiqiy buzilishlar, masalan, rivojlanishning sustlashishi yoki eshitish qobiliyatining buzilishi bilan tavsiflanadi. Odatda, autizm namoyon bo'lishining birinchi yilida bola odamlarga yomon munosabatda bo'lganligini, o'yinchoqlarni yig'ishtira olmaganligini, g'ayrioddiy passivligini, uydagi tovushlaridan qo'rqishini (changyutgich, qahva

maydalagich) bilib olish mumkin. Vaqt o'tishi bilan ularda bir xil harakatlarni bajarishga odatlanib qolishlik, oziq-ovqatda g'ayrioddiy tanlanganligini ko'rishimiz mumkin. Ba'zida ota-onalar bo'larning barchasini faqat bolaning xatti-harakatiga nisbatan buzilish deb bilishadi [43, 45,46].

Asperger sindromi shuningdek, aloqa buzilishi bilan namoyon bo'ladi, ammo ular biroz boshqacha va yumshoqroq ko'rinadi. Nutq yaxshi rivojlangan, ko'pincha so'zlarni qo'lay olish bilan ham, rivojlanish mobaynida taassurotlarini xatt-harakatlar bilan tushuntira oladilar. Ammo muloqot qilish uchun nutqdan ozgina foydalanishadi va ularning nutqi ritm, temp, ohang, modulyatsiya jihatidan o'ziga xosdir, shuning uchun deklamatsiya yoki elektron qurilmalar tomonidan nutqni taqlid qilish kabi ko'rinadi. Nigoh ichki tomon yo'naltirilgan, xuddi konsentratsiyali go'yo bola juda uzoq narsaga nazar tashlayotgandek bo'ladi. Mimikriya qo'g'irchoqnikiga o'xshaydi - u oddiy bolalar singari "o'ynamaydi". Imo-ishoralar ham kamayadi. Harakat burchakli, stereotipga moyil. Qobiliyatlar ishlab chiqilgan, ammo yetarli darajada avtomatlashtirilmagan, bu ularning amaliy bajarilishini qiyinlashtiradi. Uydan tashqarida bolalar yaqinlarini emas, balki o'zlarining tanishlarini sog'inishadi (Asperger bu mushukni nola qilishi deb ataydi). Qiziqishlar doirasi o'ziga xos, cheklangan va odatda juda barqaror.

Bunday bolalar, yaxshi aqliy rivojlanishiga qaramay, hayotga moslashishlari qiyin, shuning uchun tashqi tomondan xulq-atvorda mantiq va aql-idrok yetishmayotganga o'xshaydi. Ba'zi bolalar o'zlarini va boshqalarni g'ayrioddiy, nostandart tushunish qobiliyatini erta namoyon etishadi. Mantiqiy fikrlash saqlanib qolgan yoki hatto yaxshi rivojlangan bo'lishi mumkin, ammo ulardagi bilim va ko'nikmalar notekis hamda kundalik hayotda kam qo'laniladi. Garchi e'tibor beqaror bo'lsa-da, yetakchi manfaatlar bilan belgilanadigan maqsadlarga erishishda bola o'z yo'lida izchil va qat'iyatli bo'lishi mumkin.

Ko'pincha, autizmning namoyon bo'lishi Kanner sindromi yoki Asperger sindromi orqali namoyon bo'ladi. Bugungi kunda ushbu atama diagnostika imkoniyatlari kengaygan sari autizm spektri buzilishi nomi bilan birlashtirilgan.

Shungako'ra, olimlarni ham o'ylantiradigan holatlar yuzaga kelgan: yuqori funktsional va past funktsional autizm haqida bahs olib borishgan. Yuqori funktsional autizmga ega bo'lgan ko'plab odamlar hech qachon psixiatrning e'tiboriga tushmagan. Autistik insonlar nafaqat hayotda jiddiy to'siqlarni yaratishadi, balki ularni g'ayrioddiy fe'l-atvori va tafakkurlari orqali yengishadi. Tarixda shunday mashhur insonlardan Albert Eynshteyn ko'pincha misol sifatida keltiriladi. Angliyalik psixiatr Lorna Vint "Autizm tadqiqotlarning asosiy figuralaridan biri" asarida shunday deb yozgan edi: «Tabiat chiziq chizganida, u doimo uni qoralaydi. Autistik xususiyatlarga ega va ega bo'lmagan odamlar o'rtasida aniq bir chiziq yo'q. Autizmga chalingan har bir bolada individuallikni ko'ra olish kerak ».

Endilikda autizm tashxisini ishonchli qo'yish uchun professional texnika va texnologiyalar ishlab chiqildi. 2000-yillarning boshlarida autizm diagnostikasi bo'yicha ADOS kuzatuv shkalasi paydo bo'ldi va yaqinda rus tiliga tarjima qilindi hamda moslashtirildi. Bu uni ishlatish uchun maxsus tayyorgarlikni talab qiladigan juda qimmat texnikadir [22].

Ammo hatto eng ajoyib so'rovnomalar ham bolani jonli kuzatishning o'rnini bosa olmaydi. Aynan shu narsa nafaqat alomatlarni, balki ular qanday qilib bolalarni to'liq baholash va tushunishga imkon beradi. Kaleydoskopda bo'lgani kabi - bir xil rangli ko'zoynak to'plarnidan turli xil rasmlar tayyorlanadi. Autizm alomatlari bolalarni taniqli va o'xshash qiladi. Ushbu bolalarni ajratib turadigan va autizm spektri buzilishlarining markazida turadigan asosiy narsa, ular qanchalik murakkab bo'lsa ham, bu ulardagi hissiy aloqalar buzilishidir. Aynan muloqot bolaning asosiy ehtiyojlariga - tashqi dunyo

bilan aloqalarni o'rnatishda ko'maklashadi. Kontakt qilmaslik bolani qiyin va noqulay sharoitlarga tushib qolishiga olib keladi. Aloqa o'rnata olmaslik bola va dunyo o'rtasida devor bo'lib chiqadi, bolani ta'limga o'rgatishga to'sqinlik qiladi, hayotga moslashishga imkon bermaydi. Bu ikkilamchi aqliy zaiflik deb ataladigan narsaga olib keladi, o'z navbatida aloqani murakkablashtiradi. Bunday holatda autizmli bolalarga yordam berilmasa, "qobiq aylana" yopiladi, keyinchalik uni sindirish qiyin bo'ladi. Muloqot qilishning iloji yo'qligi va unga ehtiyoj yo'qligi yoki undan qo'rqish o'rtasidagi differentsiatsiyani farqlash har doim ham oson emas - ayniqsa, o'z tajribalari haqida gapira olmaydigan bolaning xatti-harakatlarida. Shuning uchun autizmga "bola yoshligidanoq namoyon bo'lgan cheklangan muloqot qobiliyati" deb ta'rif beradi olimlar.

Ota-onalar va o'qituvchilar uchun bu tashxis emas, balki bolada sodir bo'layotgan voqealar, uning tajribalari, ehtiyojlari, qo'rquvlari va sabablarini tushunishdir. Bola boshqalar tomonidan tushunmovchilik to'sig'iga tushib qolsa yoki o'z fikrlari va his-tuyg'ularini ifoda eta olmasa, u nimani boshdan kechiradi? Unga dunyo va undagi munosabatlar qanday ko'rinadi? Ba'zida bunday holatlar ongli, ba'zida intuitivdir, ammo aynan shu tushuncha bolada autizm devorini ta'qib qilishga va uni bola bilan birga yo'q qilishga yordam beradi.

Hozirgi kunda bolalar autizmi bosh miyaning rivojlanishidagi kamchiliklardan kelib chiqadigan mustaqil nuqson sifatida o'rganilmoqda. Biroq bosh miyaning rivojlanishidagi nuqsonlarning kelib chiqish sabablari hali ham noaniq. Ayrim olimlarning fikriga ko'ra bolalar autizmi irsiy kasallik bo'lib hisoblansa, boshqalari esa autizm holati aqli zaiflikdan kelib chiqqanligini ta'kidlaydilar.

Amerikada 1996-2007 yillarda bolalar autizmi mustaqil nuqson sifatida ancha ko'p miqdorda hisobga olindi. Bolalarga "sababi noaniq bo'lgan rivojlanishning og'ir buzilishi" diagnozi qo'yilgan. Diagnozni qo'yishda ko'proq bolaning xulq-atvoriga e'tibor beriladi.

Autizmning birinchi belgilari bir yoshda paydo bo'ladi. Odatda sog'lom bola ilk yoshidan boshlab tevarak-atrofga qiziqish bilan qaraydi. To'rt oylik bolaga shiqildoq qo'lga tutilsa u xursand bo'ladi, onasini ko'rsa talpinadi va h.k. Bolalar autizmida esa go'dak atrofdagilarga e'tibor bermaydi, hech narsaga qiziqmaydi, yangi buyumlarni o'rganishni istamaydi, kattalarga ham talpinmaydi. Bunday bolalarning ijtimoiy moslashuvi va muloqotida turli muammolar paydo bo'ladi.

Leo Kanner ta'rifiga ko'ra "Autizm - bosh miya rivojlanishida buzilish paydo bo'lishi natijasida kelib chiqadigan, ijtimoiy moslashuv va muloqotchanlikning qiyinligi, qiziqishlarning chegaralanishi va qaytariladigan harakatlar bilan namoyon bo'ladigan, umrbod saqlanib qoluvchi asab sistemasi kasalliklaridan biri hisoblanadi".

Autizm shaxsda o'zining ichki olamida yashashi, tashqi olamga e'tibor bermaslik, his-tuyg'ularning kambag'alligi bilan namoyon bo'ladi. Har bir autist boshqalarga o'xshamaydi. Autizmning rivojlanishida his-tuyg'ularning tug'ma nozikligi asosiy rol o'ynaydi. Bundan kelib chiqib, noxush hollarda bola tashqi olamdan berkinib oladi. Har birida alohida simptomlar namoyon bo'ladi.

1944 yilda Xans Asperger o'zining "Autist psixopatlar bolalik davrida" va Leo Kannening "Autisticheskiye narusheniya emotsionalnogo kontakta" asarida bu kasallik belgilari haqida ma'lumot berganlar. Ularda yozilishicha autizm bilan kasallangan bolalarda quyidagi belgilar kuzatiladi:

- Autizmning asosiy belgisi real hayotni qabul qilishning buzilishi hisoblanadi.
- Autizm sindromli bola hech kim bilan muloqotga kirishishni istamaydi.
- Nutqi juda sekin rivojlanadi.
- Bola yangilikdan, atrofdagi o'zgarishlardan qo'rqadi, doim bir xil harakatni takrorlaydi.
- Mimika va imo-ishoraning yo'qligi.
- Bola juda kam kuladi va suhbatdoshining ko'ziga qaramaydi.

- Muloqotga kam kirishadi.
- Boshqa insonlar, hatto ota-onasiga ham e'tibor bermaydi.
- Qiziqishlari cheklangan bo'ladi.
- O'z-o'zi bilan o'ynaydi.
- Atrofdagi muhit o'zgarsa, jazavaga tushadi.
- Bitta harakatni doim takrorlashga harakat qiladi.
- E'tiborini faqatgina bir narsaga qaratadi.

Bola hayotining dastlabki yillarida jamiyat bilan o'zaro aloqadorligini, harakatini buzadigan salbiy omillar uning miyasini yetilish jarayonini kechiktiradi, tormozlaydi, analizatorlararo murakkab tizimning shakllanishiga to'sqinlik qiladi. Bunday bolalarga o'z vaqtida psixologik-pedagogik, korreksiyalash yordamini ko'rsatish uchun uning psixik va ijtimoiy rivojlanishdagi nuqsonlarni mumkin qadar erta aniqlash, keyinchalik bartaraf etilishi mushkul bo'lgan nuqsonlarni ilk yoshda bartaraf etish, shu bilan bolalar nogironligini oldini olish ularning ijtimoiy moslashuvini amalga oshirishda juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bolalar autizmi turli shakllarda, aqliy va nutqiy rivojlanishning turli darajalarida namoyon bo'ladi, shu sababli autizm sindromli bolalarni maxsus va umumta'lim maktabgacha ta'lim muassasalarida, yordamchi maktablarda uchratish mumkin. Hamma joylarda bunday bolalar boshqa odamlar bilan o'zaro aloqa qilishda, muloqotda, ijtimoiy moslashishda juda katta qiyinchiliklarga duch keladilar.

Autizm sindromli bola chetdan qaraganda erkalatilgan, tantiq, tarbiyasiz, injiq bola haqida tasavvur hosil qilishi mumkin, atrofdagilarning ko'chada, transportda, do'konda uni tushunmasliklari, tanqidlari bolaning hamda ota-onasining holatini murakkablashtiradi. Natijada, autizm sindromli bolalarda "butun dunyoga qarshi chiqishga" intilish istagi uyg'onadi, o'rtoqlik bog'lanishlari uziladi, jamoat joylarida boyishdan qo'rqish hissi tug'iladi, ya'ni oilaning ikkilamchi autizatsiyasi shakllanadi.

O'z vaqtida tashxis qilinmaslik va tegishli

yordamning, atrofdagilarning xayrixohligi va to'g'ri qo'llab-quvvatlashining mavjud emasligi tufayli autizm sindromli bolalarning ko'p qismi "ta'limga qobiliyatli emas" deb topiladi va ijtimoiy jihatdan moslashmaydi. Shu bilan birgalikda, o'z vaqtida boshlangan korreksiyalash ishlari natijasida bolalardagi autizm ko'rinishlarini bartaraf etishga va asta-sekin bolani jamiyatga kiritishga imkon yaratiladi. Turli sur'atda, turli natijalar bilan, ammo har bir Autizm sindromli bola qadamma-qadam odamlar bilan murakkab o'zaro harakatga, aloqadorlikka kirisha boradi va bu yoddagi har bir jiddiy qadam unga, uning atrofdagilari, yaqinlariga olam-olam quvonch bag'ishlaydi. Ko'pincha muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvga bolaning biror-bir sohadagi o'ziga xos qobilivatliligi, masalan, "tug'ma" savodligi, musiqa, rasm chizishga, texnik qurish-yasashga iqtidori turtki bo'ladi.

Autizm - keng ma'noda, odatda, aloqaga kirishmaslik, "yovvoyilik", aloqadan o'zini olib qochish, o'zining dunyosida yashash ma'nosini anglatadi. Aloqaga kirishishdan qochish turli shaklda va sabablarga ko'ra namoyon bo'lishi mumkin. Ba'zan bu bolaning xarakteri kuchsiz bo'lsa, boshqa hollarda uning ko'rish yoki eshitish qobiliyatining yetarlicha bo'lmasligi, aqliy rivojlanishdan orqada qolish, nutq rivojlanishining orqada qolishi (eng avvalo, uning kommunikativ, ya'ni aloqa qilish funksiyasining), nevroitik buzilishlar yoki og'ir gospitalizm (bolaning ilk yoshlarida ijtimoiy jihatdan izolyatsiya qilinishi natijasida yuzaga kelgan aloqa qilishning surunkali taqchilligi) oqibatida kelib chiqadi.

Hozirgi kunda olimlar autizm sindromiga chalingan shaxslarni asosan 4 ta guruhga bo'lib o'rganishmoqda [48]. Bular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

I guruh: Ilk yoshdagi bolalar autizmi (2yoshgacha bo'lgan bolalar).

Ilk yoshdagi bolalar autizmida bolalar rivojlanishini 4 xil turga bo'ladi.

Ba'zi bolalar atrofdagi voqealarga butunlay bee'tibor bo'ladilar. Bolani kuldirish,

e'tiborini qaratish juda qiyin. Ular hattoki qorni ochganida ham munosabat bildirmaydi. Taktil muloqotga kirishishni istamaydi.

Yana bir guruh bolalar esa tanlab muloqotga kirishishadi. Asosan ota - onasi bilan muloqotga kirishadi, taom va kiyim tanlashda ham e'tiborli bo'ladi. Doimiy hayot tarzidan chetga chiqilganda qo'rquv, agressiya kuzatiladi.

Yana bir guruh autist bolalar autistik qiziqishlarga berilgan bo'ladilar. Ular doim bir xil, qaytariluvchi harakatlarni bajarishadi. Ular yillar davomida faqatgina bir mavzuda suhbatlashishlari, bir xil syujetli rasm chizishlari mumkin.

So'nggi guruhga kiruvchi bolalar muloqotga kirishishlari mumkin. Lekin bu muloqotga kirish jarayoni juda qiyin amalga oshadi. U juda ham dilozor va ta'sirchan bo'ladi. Birovning fikriga tez beriladigan bo'ladi. Bu autizmning yengil turi hisoblanadi.

II guruh: Bolalar autizmi (2-14 yoshdagi bolalar).

Bolalar autizmida ham ilk yoshdagi bolalar autizmida uchraydigan belgilar kuzatiladi. Ular bir so'z yoki musiqani doimiy ravishda takrorlab yurishadi, ko'nikma va malakalarni egallashga juda qiynalishadi.

III guruh: O'smirlar autizmi (14-18 yoshdagi bolalar).

Bu yoshdagi bolalar eng oddiy muloqot ko'nikmalariga ega bo'lishadi. Lekin ko'proq yolg'iz qolishni xohlashadi. Ko'p hollarda ular ruhiy tushkunlik holatida bo'ladilar.

IV guruh: Kattalar autizmi (18 yoshdan keyin).

Kattalar autizmida shaxsda ruhiyatning jiddiy buzilishi kuza-tiladi. U butunlay o'z olamida yuradi, tashqi olamdagi voqea va hodisalarga bee'tibor bo'lishadi.

Autizmga chalingan insonlar xarakteri 5 guruhga ajratiladi:

- shaxs atrof-muhit bilan umuman muloqotga kirishmaydi.

- shaxs atrofdagilar bilan faqatgina ba'zi hollarda muloqotga kirishadi.

- shaxs bemalol muloqotga kirishadi, lekin xulqida xudbinlik alomatlari ko'zga tashlanadi.

- autizm bilinmasdan o'tadi. U odam og'ir-bosiq, lekin tez xafa bo'ladigan bo'ladi. Barcha qonun qoidalarni qoldirmasdan bajaradi.

- aniq fanlarga qobiliyatli bo'ladi.

Autizm sindromli insonlarning so'zlariga qaraganda, ular uchun tashqi olam bu ular tushinishlari qiyin bo'lgan insonlar, voqealar va narsalarning tartibsiz joylashuvidan tashkil topgan makon. Atrof - muhitni tushinishdagi qiyinchiliklar ularda kuchli xavotir hissini uyg'otadi.

Birinchi navbatda, autizm sindromli insonlar uchun qolgan odamlarni tushunish va ular bilan aloqa qilish katta qiyinchilik tug'diradi. Shuning uchun oila a'zolari bilan bo'ladigan doimiy muloqot va boshqa tadbirlar ular uchun og'ir kechadi. Leo Kanner autizm sindromli shaxslarda yuzaga keladigan muammolarni 3 ta asosiy guruhga ajratdi:

- Ijtimoiy muloqot bilan bog'liq muammolar

- O'zaro ta'sir bilan bog'liq muammolar
- Tasavvur bilan bog'liq muammolar.

Ijtimoiy muloqot bilan bog'liq muammolar. Autizm sindromli insonlar uchun mimika va his-hayajonni ifodalash xuddi qadimgi yunon tilida gaplashilgandek begona nutqqa o'xshab tuyuladi. Ular verbal va noverbal nutqda qiyinchilikka duch keladilar. Ular ovoz tonini. yuz ifodasini, hazillar, ibora va maqollarni tushuna olish- maydi.

Ba'zi autist insonlar umuman suhbatlasha olishmaydi yoki ularning nutq boyligi chegaralangan bo'ladi. Lekin ular ham, odatda, boshqa odamlar gaplarini tushunishadi. Bunday insonlar boshqalarga imo-ishora nutqi, kompyuterda yozish kabi alternativ muloqot uslublari yordamida o'z fikrlarini bildirishni o'rgana oladilar. Ular to'g'ri, aniq, to'xtamlarga rioya qilib suhbatlashuvchi insonlar bilan oson muloqotga kirisha oladilar.



Foydalanilgan adabiyotlar:



1. Иксанова С. В. Система диагностико-коррекционной работы с аутичными дошкольниками. — СПб.: ООО «Издательство «детство-пресс», 2011.—208 с.
2. Лебединская К.С., Никольская О.С., Баенская Е.Р., Либлинг М.М. и др. Дети с нарушением общения. М.:Просвещение,1994.
3. Никольская О. С, Баенская Е.Р., Либлинг М.М. Аутичный ребенок. Пути помощи.М.:Теревинф,1997.
4. Соломко А.Д. Формирование игровых навыков и эмоционально-перцептивной сферы у детей с расстройствами аутистического спектра средствами физического воспитания: автореф. дисс. ... канд. псих. наук. - Краснодар, 2012. – 24 с.
5. Л.Р.Муминова Аутизм сабаблари. турлари ва бартараф этиш методикалари. Тошкент. 2015.
6. Axrova, S. (2019). Медико-педагогические и психологические основы подготовки детей с синдромом аутизма к социальной жизни. Scienceweb academic papers collection.
7. Axrova, S. (2021). Ранний детский аутизм и работа по развитию речи. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (2). извлечено от <https://matinfo.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1788>
8. Axrova, S. (2021). Игра как средство коррекции аутистического поведения у детей теория и практика терапии игрой. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 1(1). извлечено от <https://matinfo.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/710>
9. Axrorova, S. (2021). Autizm sindromiga chalingan bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarni oldini olish va korreksiyalash. Zamonaviy ta'limda Pedagogika Va Psixologiya Fanlari, 1(3). Retrieved from <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/4061>
10. Axrorova, S. (2021). F 84 bu qanday tashxis? Muammolar va yechimlar. Zamonaviy ta'limda Pedagogika Va Psixologiya Fanlari, (2). Retrieved from <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/2907>
11. Akhrorova S. (2022) Pedagogical and psychological correctional work in children with autism. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(1), 655-660.

ERTAKLARDAN FOYDALANGAN HOLDA BOLALARNING IJODIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

GULBAHOR ABDULLAYEVNA GAYNAZAROVA
Qo‘qon universitri PhD, dotsent

Annotatsiya. Maqolada xalq ijodiyoti janri - ertaklardan foydalangan holda bolalarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish usullari muhokama qilinadi. Ijodiy fikrlashning xususiyatlari va uning bola shaxsini rivojlantirishdagi ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Ijodiy fikrlashning amaliy rivojlanish usullari taklif etiladi.

Kalit so‘zlar. Ijodiy fikrlash, qobiliyat, fantaziya, xalq amaliy san'ati, bolalar folklor janrlari, uslub.

Fikrlash tabiatini psixologik o‘rganish hissiy va oqilona bilimlarni ajratish hamda fikrlash va idrok o‘rtasidagi farqdan kelib chiqadi. Ikkinchisi atrofdagi dunyoni tasvirlarda aks ettiradi, dunyo ob'ektlari tashqi, hissiy jihatdan ishonchli xususiyatlari tomonidan idrok etiladi. Fikrlash hissiy bilim allaqachon yetarli bo‘lmagan yoki hatto kuchsiz bo‘lgan joydan boshlanadi. Fikrlash hislar va tasavvurlarning kognitiv ishini davom ettiradi va rivojlantiradi, ularning chegaralaridan tashqariga chiqadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoev ta’kidlaganidek: – “Har qaysi xalqning azaliy tarixi va madaniyati eng avvalo uning og‘zaki ijodi – fol’klor san’atida, doston va eposlarida mujassam topgan bo‘lib, ular millatning o‘zligini anglash, uning o‘ziga xos milliy qadriyatlari va an’analarini saqlash va rivojlantirishda bebaho manba hisoblanadi”.

Ertak — xalq og‘zaki poyetik ijodining asosiy janrlaridan biri; to‘qima va uydirmaga asoslangan sehrli sarguzasht va maishiy xarakterdagi epik badiiy asar. Asosan, nasr shaklida yaratilgan. M. Koshg‘ariyning «Devonu lug‘otit turk» asarida etuk shaklida uchraydi va biror voqeani og‘zaki tarzda hikoya qilish ma’nosini bildiradi. Ertak

Surxondaryo, Samarqand, Farg‘ona o‘zbeklari orasida matal, Buxoro atrofidagi tuman va qishloqlarda ushuk, Xorazmda varsaqi, Toshkent shahri va uning atrofida cho‘pchak deb ataladi. Ertak hayot haqiqatining xayoliy va hayotiy uydirmalar asosida tasvirlanganligi, tilsim va sehr vositalariga asoslanishi, voqea va harakatlarning ajoyib-g‘aroyib holatlarda kechishi, qahramonlarning g‘ayritabiiy jasorati bilan fol’klorning boshqa janrlaridan farq qiladi. Ertaklarda uydirma muhim mezon bo‘lib, syujet voqealarining asosini tashkil etadi va aynan mana shu me‘zon bolalar ijodiy tafakkurini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalq ertaklari uzoq asrlardan beri fol’klorshunoslar, adabiyotshunoslar, tilshunoslar, tarixchi, etnograf va boshqa soha vakillarini o‘ziga jalb qilib kelgan. Shuning uchun ham ko‘plab taniqli olimlar ertaklarni to‘plash va ilmiy asosda o‘rganish ishlari bilan shug‘ullanganlar. XIX asrning oxiri XX asr boshlarida A.N.Samoylovich, N.P.Ostroumov, A.A.Divaev, V.V.Bartol’d kabi sharqshunos olimlar ertaklarni to‘plash va nashr etish sohasida dastlabki qadamlarni qo‘ygan bo‘lsalar, keyinchalik bu ish o‘zbek

fol'klorshunoslari tomonidan muvaffaqiyatli davom ettirildi.

Keyingi yillarda o'zbek xalq ertaklarini to'plash, nashr etish va ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishda o'zbek fol'klorshunosligida salmoqli ishlar amalga oshirildi. Jumladan, taniqli fol'klorshunos M. Afzalovning «O'zbek xalq ertaklari haqida» deb nomlangan monografiyasi ertaklar haqida yaratilgan dastlabki yirik tadqiqot bo'lib, olim unda ertak turlari va uning o'ziga xos xususiyatlari haqida qimmatli fikr-mulohazalari yuritgan. O'zbek xalq prozasi bo'yicha chuqur izlanishlar olib borgan olim K. Imomovning «O'zbek satirik ertaklari» (1974) deb nomlangan monografiyasi ham fol'klorshunoslikdagi muhim tadqiqotlardan biri bo'lib, unda ertaklarning janr xususiyatlari o'rganilgan. Shuningdek, fol'klorshunos G'. Jalolovning «O'zbek xalq ertaklari poyetikasi» (1976), X. Egamovning «Sayyor syujetlar» kabi tadqiqotlari ham o'zbek xalq ertaklarini turli jihatdan o'rganishga qaratilgan.

Paydo bo'lgan savollarning javobini odam o'zi qidirib topsa, qo'yilgan vazifalarni odam o'zi hal qilsa, odamning ongida yangi hukmlar va tushunchalar paydo bo'lsa, bunday hollarda ijodiy tafakkur paydo bo'ladi.

Inson faoliyatining hamma turlarida uning ehtiyojlari sababli savollar paydo bo'laveradi, faoliyat jarayonining o'zida bizda yangi savollar tug'iladi, yangi vazifalar qo'yiladi.

L. A. Grigorovichning fikricha, tafakkurning o'ziga xosligi quyidagilardan iborat:

- tafakkur ob'ektiv dunyoning chuqur mohiyatini, uning mavjudligi qonunlarini tushunishga imkon beradi;

- faqat tafakkurda o'zgaruvchan, rivojlanayotgan dunyoni anglash mumkin;

- fikrlash kelajakni bashorat qilish, yuqori

potensial bilan ishlash, amaliy faoliyatni rejalashtirish imkonini beradi [3]

Tafakkur insonning tabiat va jamiyatning umumiy qonuniyatlari haqidagi bilimlariga asoslanadi. Fikrlash jarayonida inson oldingi tajribalar asosida allaqachon o'rnatilgan umumiy qoidalar to'g'risidagi bilimlardan foydalanadi, bu esa atrofda dunyoning eng umumiy aloqalari va qonuniyatlarini aks ettiradi.

Turli bolalarda tafakkurning individual xususiyatlari, birinchi navbatda, ularda aqliy faoliyatning turli va bir-birini to'ldiruvchi turlari va shakllari o'rtasidagi turli munosabatlar mavjud bo'lganligida namoyon bo'ladi. Ijodiy fikrlash boshqalarning fikrlarini baholash bilan emas, balki tubdan yangi bilimlarni kashf qilish, o'zining asl g'oyalarni yaratish bilan bog'liq. Ularni amalga oshirish shartlari qarama-qarshidir: yangi ijodiy g'oyalarning avlodi har qanday tashqi va ichki taqiqlardan butunlay xoli bo'lishi kerak; bu g'oyalarni tanqidiy tanlash va baholash, aksincha, o'ziga va boshqalarga nisbatan qat'iylikni talab qiladi va o'z g'oyalarni ortiqcha baholashga yo'l qo'ymaydi.

A. N. Luk ijodiy tafakkurni tafakkur deb ta'riflagan, buning natijasida inson ilgari hech qachon hal qilmagan yangi muammoni muvaffaqiyatli hal qiladi va bu muammo odam ilgari ishlatmagan g'ayrioddiy, o'ziga xos tarzda yechiladi. Fikrlashning har qanday asosiy turlari ijodiy bo'lishi mumkin: vizual-samarali, vizual-majoziy va og'zaki-mantiqiy.

Ijod bolada jonli fantaziya va jonli tasavvurni paydo qiladi. Ijodkorlik o'z tabiatiga ko'ra, ilgari hech qachon qilinmagan yangi narsalarni qilish yoki hech bo'lmaganda ilgari mavjud bo'lgan narsani o'zgartirish istagiga asoslanadi. Boshqacha aytganda, insondagi ijod

hamisha oldinga, yaxshilikka, taraqqiyotga, komillikka va, albatta, go'zallikka intilishdir. [4]

Shaxsdagi ijod san'at bilan tarbiyalanadi, u insonda ijodiy tasavvurni uyg'otishning ajoyib qobiliyatiga ega bo'lib, inson tarbiyasining murakkab tizimini tashkil etuvchi barcha xilma-xil elementlar orasida birinchi o'rinni egallaydi. Binobarin, ijod muhitida bilish jarayoni rivojlanuvchi xususiyat kasb etishi tabiiydir.

Insoniyat tarixining dastlabki bosqichlaridan boshlab, odamlar nafaqat o'z mavjudligini saqlab qolish haqida qayg'urgan, balki o'z qabilasini, urug'ini ham saqlab qolishga intilgan. Kuchli, epchil, zukko shaxsni tarbiyalashga xizmat qilgan barcha narsa: allalar, topishmoqlar, ertaklarning mazmuniga aylangan. Hayotiy tajriba, kattalarning donoligi, o'ziga xos ta'limotlar bolalarga sodda va tushunarli shakllarda taqdim etilgan.

Bolalar xalq og'zaki ijodi asarlari har bir bolaning shaxsini shakllantirish va rivojlantirishda, ularning oldingi avlodlar madaniy boyliklarini o'zlashtirishida katta ahamiyatga ega.

Xalq og'zaki ijodi bolalik davrida inson taraqqiyotining kelib chiqishini ochib beradi, yorug'lik va qorong'ulik tamoyillari qarama-qarshiligida shaxs qanday shakllanganligini ko'rsatadi, dunyoning quvonchi va achchiqligini, uning uyg'unligi va ziddiyatlarini idrok etishga imkon beradi. Bolalar folklor asarlari bolaning yoshiga bog'liq aqliy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda dunyoga bo'lgan alohida qarashlarini badiiy shaklda ifodalashi uchun zarurdir. Bolaning atrofidagi dunyo, tengdoshlari va kattalar bilan o'zaro munosabati bolaning tug'ilishidan o'smirlik davriga qadar o'zgaradi.

Shuning uchun ham bolalik dunyosi bilan bog'liq xalq amaliy san'ati sohasi juda boy va noyobdir. Bolalar folklori tarbiyaviy funktsiyani bajaradi va xotirani rivojlantirishga yordam beradi: og'zaki xalq ijodiyoti asarlarida takrorlashlar ko'p bo'lib, bu ularning mazmunini yaxshiroq eslab qolishga va keyin qayta tiklashga yordam beradi. Bolalar folklori bolaning tarbiyasi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan ko'plab fazilatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Bolalikda ijodiy fikrlashni rivojlantirish usullaridan biri ertakdir.

Ertaklar bolalarning tasavvurini, ijodkorligini va xotirasini rivojlantirishga yordam beradi. Bola dunyo, inson va tabiat o'rtasidagi bog'liqlik haqida bilim oladi, shuningdek, ertak qahramonlariga hamdard bo'ladi. Ko'pgina psixologlarning ta'kidlashicha, ertaklar bolaning shaxsiyatini shakllantirish, mehribonlik, sezgirlik, o'zaro tushunish, mas'uliyat, hamdardlik kabi fazilatlarni singdirishda katta ahamiyatga ega.

Ertaklar bolalarni yaxshi qahramonni yomondan ajratishga o'rgatadi. Ularni qo'rquv va mardlik, yaxshilik va yomonlik, mehnatsevarlik va dangasalik kabi fazilatlar bilan tanishtiradi. Bolaning erta yoshidan boshlab, tasavvurni rivojlantirish uchun katta ahamiyatga ega.

Zamonamiz muammolari nafaqat realistik asarlarga, balki adabiy ertaklarga ham kirib boradi. U janr sifatida o'zgartirilgan, ammo baribir insoniylik, mehr-oqibat va rahmshafqat g'alabasiga umidni o'z ichiga oladi, bu ham ma'naviy, ham samarali harakatlarni talab qiladi.

Ertaklarni tahlil qilib, tadqiqotchilar ularning to'liqligi, aniqligi va dinamik rivojlanishi bilan ajralib turadigan syujet tuzilishini qayd etadilar. Ertak tugallangan

shaklga, doimiy kompozitsion xususiyatlarga ega: epizodlarning boshlanishi, takrorlanishi, uch bosqichli syujet tuzilishi, tugashi. Ertaklar har doim aql bovar qilmaydigan narsa haqida gapiradi, lekin shu bilan birga, fantastika odatda giperbolik tasvirlarda amalga oshiriladigan ma'lum bir g'oyani o'z ichiga oladi: yaxshilik va yomonlik doimo kurashadi. [6]

Ertak bolalarni yovuzlikka, dushmanga qarshi kurashishga, ezgulik va adolatni himoya qilishga undaydi. Unda hayotning axloqiy qonuni tasdiqlanadi, axloqiy tamoyillar, me'yorlar va estetik ideallar juda aniq ifodalanadi. Ertak o'z-o'zidan emas, balki, sx qiyinchiliklarni yengib, yovuzlikka qarshi kurashda g'alaba qozonadigan yaxshilik kuchiga ishonishga yordam beradi. Bundan tashqari, N.I.Kravtsov va S.G.Lazutinlar o'z tadqiqotlarida ta'kidlaganidek, ertak rivojlangan estetik tamoyilga ega bo'lib, u ijobiy qahramonlarni ideallashtirish, mo'jizaviy hodisa va hodisalarni tasvirlashda namoyon bo'ladi [5].

Ertak o'ziga xos lingvistik uslubga ega bo'lib, u ohangdorlik va turli iboralarning takrorlanishi bilan ajralib turadi. Bu xususiyatlarning barchasi ertaklarni turli yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish va tarbiyalashning ajralmas vositasiga aylantiradi. Ertak olamiga sayohat bolalarning tasavvur va fantaziyasini rivojlantiradi, ularni yozishga undaydi [6].

Dastlab, ertaklar xalq tomonidan yaratilgan, shuning uchun ular har qanday yoshdagi bolalar tomonidan osongina eslab qolinadi, takrorlanadi va dramatisatsiya qilinadi. Ertak aytish bolalar nutqini rivojlantirish vazifalari bilan bevosita bog'liq. Bolalar uchun ertaklar bu ko'p narsalarni o'rgatishi mumkin bo'lgan cheksiz hayoliy dunyodir.

Tarbiyachilar ishida qo'llaniladigan bolalar ertaklari yordamida bolalarda ijodiy fikrlashni rivojlantirish usullaridan foydalanishga bir nechta misollar keltirishimiz mumkin:

1. "Ertakni tugating, yangi nom yoki yangi ertak o'ylab toping."

Ertakni oxirigacha o'qimasdan, siz bolani davom ettirishga taklif qilishingiz kerak. Bola o'ylayotganda, uydirma hikoyani "yashash" kabi ko'rinadi va ertak voqealarini ongli ravishda boshdan kechirish, mahorat bilan tasavvur qilish bilan tugaydi. Agar bolaga qiyin bo'lsa, siz unga bir nechta variantni taklif qilishingiz mumkin, ular orasidan u o'zi yoqtirganini tanlaydi. Misol uchun, "Tulki va turna" ertaki qahramonlar yaxshi do'st bo'lib qolishi bilan yakunlanishi mumkin.

Bolalar bajonidil fantaziya qilishadi va har qanday ertak uchun yangi nomni xursandchilik bilan o'ylab topishlari mumkin.

Tarbiyachilar bolalar bilan yangi ertak o'ylab topishga harakat qilishi mumkin. Ertakni tarbiyachi yozishni boshlab, bolani davom ettirishga undash lozim. O'z tasavvuridan foydalanib, bola uning hissiy holatini va ichki dunyosini, uning qanchalik xotirjam va baxtli ekanligini yoki aksincha, har qanday qo'rquv va shubhalar bilan qiynalayotganligini tushunishga imkon beradigan ajoyib hikoyani o'ylab topishi mumkin.

2. "Qo'l mehnati va suratlarda ertaklarni tasvirlash".

Bolalar ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda bolalar bilan aplikatsiya, rasm chizish, modellashtirish va dizayn bo'yicha mashg'ulotlar muhim rol o'ynaydi. Bola ertakni o'qib bo'lgach, rasm chizish, modellashtirish, aplikatsiya qilish va hokazolarda ijodiy qobiliyatlarini qo'llashi mumkin. Masalan,

bosh qahramonni chizish yoki haykaltaroshlik qilish yoki ertak syujetini tasvirlash uchun aplikatsiyadan foydalanish mumkin. Farzandingizdan ushbu hunarmandchilikdagi qahramonlarning xarakterini aks ettirishini va ertakning "kayfiyatini" ko'rsatishini so'rang. Shunday qilib, bu vazifani bajarish orqali bolalar nafaqat qahramonlarning tashqi ko'rinishini, balki ularning fe'l-atvori, xatti-harakatlari va munosabatlarini ham ochib berishni o'rganadilar.

3. "Bolalar ertaklarini teatrlashtirish".

Bu tasavvurni, nutqni va ijodiy idrokni rivojlantirishning eng qiziqarli usuli. Bir guruh bolalar odatda ertakni drammatizatsiya qilishda qatnashadilar, bu esa jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantiradi. Bolalar, shuningdek, qahramonlar uchun kostyumlar tayyorlashda ishtirok etishlari mumkin. Bunda murakkab kostyumlarni tikish shart emas, qahramonning xarakteri va mohiyatini aks ettiradigan ba'zi atributlar yetarli. Misol uchun, qog'ozdan yoki boshqa qulay materiallardan niqoblar qilish mumkin.

Bolalar bezaklarni tayyorlashda ishtirok etishni ham yoqtirishadi. Bolalar uchun ertaklarni sahnalashtirishning eng keng tarqalgan varianti - qog'irchoq teatrlaridan foydalanish (barmaq, qog'oz va boshqalar).

Bola o'zini ertak qahramoniga aylantirib, o'z iste'dodi va qobiliyatini eng aniq namoyon qila oladi. Bola o'zini ertak qahramoni kabi his qilishi uchun tarbiyachi unga sehrli muhitni yaratib berishi kerak, u erda ko'p rangli chiroqlar yonadi, ekran bir-biridan ajralib turadi, mos musiqa yangraydi, ertaklar olamining sehri va siri bolaga o'zini his qilishiga yordam beradi.. Bolani qiziqitirish uchun bir nechta qoidalarni o'ylab topish mumkin. Misol uchun, uzoq Qirollikka borish

uchun bola "ertak" shlyapasini kiyadi, sehrli so'zlarni aytadi, ko'zlarini yumadi va o'zi tanlagan qahramoni bilan sayohat qiladigan ertak olamiga "tashiladi".

Bu uning fantaziyasi va tasavvurini, diqqatni muayyan harakatlar va vazifalarga jamlash qobiliyatini rivojlantiradi, qat'iyatlilik va sabr-toqatni rivojlantiradi, bu esa kelajakda unga yangi sharoitlarga osonroq moslashishga yordam beradi.

Xalq va o'ziga xos ertaklarda ertak ob'ekti - "sehrli tayoqcha" qo'llaniladi, bu bolaga o'yin davomida ertak qahramonini yomonlikdan yaxshilikka, zaifdan kuchliga aylantirishga imkon beradi va bolaning ongini rivojlantiradi. Shu bilan birga, bolalar uchun ertaklarni ixtiro qilish ancha oson, ular syujetda bevosita ishtirok etib, mustaqil ravishda harakat qilishadi. Qahramonlarning "jonlanishi" ayniqsa bolalar uchun qiziqarli.

Shuningdek, amaliyotda rangli kartochkalar-ramzlar qo'llaniladi. Ertak qahramonini tasvirlashda bola xarakterga mos keladigan va vaziyatni tasvirleydigan ma'lum bir rangdagi kartani oladi. Masalan:

- qizil rang - tashvish, qo'rquv;
- yashil - xotirjamlik, quvonch;
- sariq - yordam berish, saqlash istagi;
- oq - adolat, haqlik ifodasi;
- ko'k - achinish hissi; - qora - adolatsizlik.

Misol uchun, "Zumrad va Qimmat" ertagidan Qimmatni tasvirlashda, bola qizil kartochna oladi, chunki bu belgi uni tashvish va qo'rquvga olib keladi. Va ertakning oxirida, Zumrad sovg'alar bilan uyiga qaytganida, bola yashil va oq kartalardan foydalanishi mumkin.

Muayyanrangningertakqahramonlarixatti-harakatlari va turli vaziyatlarning xususiyatlari bilan bog'liqligi bolada ijodiy qobiliyatlar va qahramonlarning xatti-harakatlarini taqqoslash

O'QUV ME'YORIY XUJJATLARNING O'QUV JARAYONIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISHGA TA'SIR ETADIGAN NAZARIY ASOSLAR VA TA'LIM-TARBIYAVIY PRINSIPLAR

MIRZAYEV SH.

Annotatsiya. Bu maqola o'quv jarayonida samaradorlikni oshirishga oid nazariy asoslar va ta'lim-tarbiyaviy prinsiplarni o'rganishni maqsad qiladi. O'quvchilarning o'quv faoliyatiga qiziqtirish va ularga motivatsiya berish uchun o'quv me'yoriy xujjatlarning o'quv jarayonida o'rnini tushuntiradi. Maqolada o'quv me'yoriy xujjatlarning murakkabligi, o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarishi, ularga o'ziga xos imkoniyatlar yaratish, bilimlarni amaliyotga yo'naltirish, ijtimoiy aloqalarni rivojlantirish va o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi hamkorlik va kommunikatsiya kabi asosiy asoslar va prinsiplar ko'rsatiladi. Maqolada ta'lim-tarbiyaviy prinsiplar deb o'quv jarayonida o'quvchilarning aktivlik darajasini oshirish, o'quvchilarni ijodiy va tahliliy fikrlashga o'rgatish, o'quvchilarga murojaat qilish va ularga qiziquvchanlik bilan o'qishni ta'minlash, qonuniy va axloqiy tartibga rioya qilish, o'quvchilarni doimiy ravishda o'rganishga rag'batlantirish kabi prinsiplarni qamrab oladi.

Kalit so'zlar. O'quv me'yoriy xujjatlar (darsliklar, audio-visual vositalar, interaktiv vositalar va boshqa texnik vositalar), samaradorlik, nazariy asoslar, ta'lim-tarbiyaviy prinsiplar, qiziquvchanlik, birlashtirilgan o'qitish, amaliyotga asoslangan o'rganish, o'zlashtirish, mustaqil fikrlash va muhokama.

Аннотация. Данная статья направлена на изучение теоретических основ и воспитательных принципов повышения эффективности образовательного процесса. Объясняет место образовательных нормативных документов в образовательном процессе, чтобы заинтересовать и мотивировать студентов в их учебной деятельности. В статье показаны сложность образовательных нормативных документов, самоуправление студентов, создание для них уникальных возможностей, ориентация знаний на практике, развитие социальных отношений и сотрудничества между студентом и преподавателем и основные принципы и принципы, такие как общение. В статье учебно-воспитательные принципы включают в себя повышение уровня активности обучающихся в образовательном процессе, обучение обучающихся творческому и аналитическому мышлению, обращение к обучающимся и обеспечение того, чтобы они читали с интересом, правовую и этическую регламентацию, включают такие принципы, как приверженность, побуждение учащихся к непрерывному обучению.

Ключевые слова. Образовательные нормативные документы (учебники, аудиовизуальные средства, интерактивные средства и другие технические средства), эффективность, теоретические основы, принципы обучения, любознательность, интегрированное обучение, обучение на основе практики, мастерство обучения, самостоятельное мышление и обсуждение.

O'quv me'yoriy xujjatlar o'quv jarayonida o'quvchilarning o'ziga xos vaqtida, mutaxassislik va talabalik darajasiga mos ravishda ta'lim-tarbiyalash jarayonini boshqarishga yo'naltirilgan. Bu me'yoriy xujjatlar ta'lim olishni oson va samarali qiladi, o'quvchilarga biror mavzuga oid qo'llanmalar, darsliklar, ma'ruzalar va boshqa materiallar ko'rsatadi. Bu esa o'quvchilar o'quv jarayonida ularga mos keladigan ta'lim usullarini va

uslublarini rivojlantirishga imkoniyat beradi.

Bu maqolada o'quv me'yoriy xujjatlarning o'quv jarayonida samaradorlikni oshirishga ta'sir etadigan nazariy asoslar va ta'lim-tarbiyaviy prinsiplarni ko'rib chiqamiz:

1. Individual o'quv tizimi: O'quv me'yoriy xujjatlar o'quvchilarning o'ziga xos ta'lim usullari va individuallashtirilgan o'quv yo'llari bilan ta'minlaydi. Har bir o'quvchi o'zining o'ziga xos o'quv usulini va temposini

belgilaydi. Bu esa o'quvchilarning o'zlarini qanday o'rganishlari va ma'lum bir mavzuni o'zlashtirishlari haqida o'z vaqtida tushunishlari va o'rganishlari imkonini yaratadi.

2. Amaliyotga asoslangan o'quv: O'quv me'yoriy xujjatlar o'quv jarayonida nazariy bilimlarni amaliyotga asoslaydi. O'quvchilarga teorik bilimlarni o'rganish bilan birga, ularning o'zlashtirishlari va ularni amaliyotga o'tishlariga ham yordam beriladi. Amaliyotga asoslangan o'quv jarayoni o'quvchilarning o'zlashtirish va yaxshi tushunishlarini oshiradi.

3. Aloqadorlik va qiziqishlarni oshirish: O'quv me'yoriy xujjatlar o'quvchilarning qiziqishlarini o'zlashtirish uchun ba'zi o'quvchi-mutaxassislik bo'yicha aloqador masalalarni qo'llab-quvvatlaydi. Bu esa o'quvchilarning o'zlarini qiziqtiradigan mavzularga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi va ularning o'quv jarayonida samaradorlik darajasini yuqoriga ko'taradi.

4. Ta'lim materiallarini modernizatsiya qilish: O'quv me'yoriy xujjatlar o'quv jarayonida foydalaniladigan materiallarni hamda usullarni doimiy ravishda yangilaydi va rivojlantiradi. Bu esa o'quvchilarning so'nggi texnologiyalardan foydalanishlarini, yangi vaqt talablari va kasblarni o'rganishlari bilan bog'liq malakalarini oshiradi.

5. Talabalar qo'mitasini o'zlashtirish: O'quv me'yoriy xujjatlar o'quv jarayonida talabalarning o'zlashtirishini, ijtimoiy qatnashishini va faoliyatini rag'batlantirishga intiladi. Bu esa o'quvchilarning o'quv jarayoniga aktivlik bilan qatnashishini ta'minlaydi va ularning o'zlashtirishlarini oshiradi.

6. Mustaqil o'zlashtirishni ta'minlash: O'quv me'yoriy xujjatlar o'quvchilarni o'zlashtirish jarayoniga mustaqil qatnashishga ko'maklashadi. O'quvchilarga o'z fikrlarini ifodalash, muhokama qilish va talabalik faoliyatida mustaqil tanlovlarni qo'llash imkoniyatini beradi. Bu esa o'quvchilarning o'z

fikr-mulohazalarini rivojlantiradi va ularning o'zlarini boshqalariga qo'shganligini his qilishlari bilan bog'liq maqsadlarni qo'llashga yordam beradi.

7. Formativ baholash va muloqotlar: O'quv me'yoriy xujjatlar o'quvchilarning o'zlashtirishini va o'quv jarayonidagi rivojlanishlarini ko'rib chiqish uchun formativ baholash va muloqotlarga katta e'tibor beradi. Bu baholar o'quvchilarning qanday o'rganishlarini o'zlashtirishlari va bilimlarini rivojlantirishlarini tushunishga yordam beradi. Shuningdek, o'quvchilar bilan o'qituvchilar orasidagi muloqotlar o'quvchi-mutaxassislik hamkorligini rivojlantiradi va o'quv jarayonida samaradorlikni oshirishga qo'shimcha yordam beradi.

Bu maqolada ta'riflangan o'quv me'yoriy xujjatlarning o'quv jarayonida samaradorlikni oshirishga ta'sir etadigan nazariy asoslar va ta'lim-tarbiyaviy prinsiplar o'quvchilar va o'qituvchilar uchun samarali ta'lim-tarbiyalashni ta'minlaydi va o'quv jarayonida mustaqil va samarali o'rganish imkonini yaratadi.

O'quv jarayonida o'quv me'yoriy xujjatlarning samaradorlikni oshirishga ta'sir etuvchi nazariy asoslar va ta'lim-tarbiyaviy prinsiplar, ta'lim-tarbiya sohasidagi tadqiqotchilar va o'qituvchilar tomonidan uzun muddatli tadqiqot va tajriba asosida aniqlangan. Bu maqolada, o'quv jarayonida samaradorlikni oshirishga ta'sir etadigan eng muhim nazariy asoslar va ta'lim-tarbiyaviy prinsiplar haqida muloqot bo'ladi.

1. Individual o'quvga muvofiqlash: Mashhur Amerikalik psixolog Jerome Brunerning "menejerdagi o'qish" konsepsiyasi va Lev Vygotskiyning nazariyasi, birinchi navbatda, o'quvchilarning o'ziga xos yondashuvlari va o'z-o'zini boshqarishlarini o'rganishga imkon beradigan "individual o'quvga muvofiqlash"ga e'tibor berish zarur. O'quvchilarning ma'lum bir konseptni, masalan,

matematikani yoki tilni o'rganishlarida, ularning o'ziga xos o'zlashtirilgan usullardan foydalanishlari o'quv jarayonini samarador qiladi.

2. Kooperativ o'quv: Kooperativ o'quv prinsipi, o'quvchilarning bir-birlari bilan hamkorlik qilishini ta'minlashga qaratilgan. Ushbu prinsip asosida o'quvchilar o'zaro fikr almashish, jamoatchilikni rivojlantirish, bir-biriga qo'llab-quvvatlash va masalalar yechishda o'zaro hamkorlik qilish o'quv jarayonini samarador qiladi.

3. Birlashgan o'quv: Birlashgan o'quv prinsipi, ta'lim dasturlarini bir-biriga birlashtirish va amalga oshirish asosida o'quv jarayonini tashkil etishga asoslangan. Masalan, matematika va ilmiy fanlar birlashgan o'quvning qulayliklaridan biridir. Ushbu prinsip asosida o'quvchilar o'quv jarayonidagi ma'lum bir fan yoki ko'nikmadan o'zgaruvchanlik ko'rsatishga erishishadi.

4. Nazariy va amaliy bilimlarni birlashtirish: O'quv jarayonida nazariy va amaliy bilimlarni birlashtirish samarador o'quvning muhim asosiy prinsiplaridan biridir. O'quvchilarga faqat nazariy bilimlarni o'rgatish, balki ularni amaliyotga o'tish imkonini berish, teoriyani amaliyotga joriy

etish o'quvchilar uchun ko'proq samarador bo'ladi.

5. O'quv jarayonini qiziqarli va jismoniy faoliyat bilan bog'lash: O'quvchilarning o'quv jarayoniga qiziqish va jismoniy faoliyat bilan bog'lashlari o'quvning qiziqarli va samarador bo'lishiga olib keladi. O'quvchilar faoliyat va amaliyot yolu bilan o'rganish orqali qiziqishlarini kamaytirish, o'quv jarayoniga qiziqishlarini oshirish mumkin.

6. O'quvning maqsadga muvofiq ta'lim-tarbiyaviy tezlanishi: O'quv jarayonining maqsad va vazifalariga muvofiq, o'quvchilarning o'ziga xos tezlanishi va ta'lim-tarbiyaviy yo'nalishlarga rioya qilinishi zarur. O'quvchilar o'zlariga yoqadi, ularni rivojlantiradi va o'quv jarayonini yuqori darajada samarador qiladi.

Xulosalash: O'quv jarayonida samaradorlikni oshirishga ta'sir etadigan nazariy asoslar va ta'lim-tarbiyaviy prinsiplar, o'quvchilarning o'ziga xos xususiyatlari va talabaliklari qaror qilish, bir-biriga ta'sir qilish va faol ishtirok etish imkonini beradi. Bu prinsiplar o'quv jarayonini yanada qiziqarli, o'quvchilar uchun manfaatli va o'rgangan bilimlarni amaliyotga joriy etishda yordam beradi.



Foydalanilgan adabiyotlar:



1. Ismoilov, Turobjon. "The development of physical qualities of the pupils of primary forms of secondary schools through mobile activities in the process of study." Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology 2.11 (2020): 391-394.
2. Turgunov, S. T., Daniyarov, B. K., Umaraliev, M. A., Shodmonova, S. S., Turgunova, S. M., & Tojiboeva, H. M. (2012). Development of professional skills and competencies of teachers. Tashkent" Sano-standart". Tashkent.–2012.
3. Djurayev, R. X., & Turg'unov, S. T. (2006). Ta'lim menejmenti: O'quv qo'llanma. Toshkent: Voris, 264.
4. Ismoilov, T. I. "Human factor in the spiritual development process." Мировая наука 5 (14) (2018): 43-44.
5. Ismoilov, Turobjon. "The importance of outdoor games in the upbringing of a harmonious young generation." Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology 1.11 (2019): 257-261.
6. Ismoilov, Temurbek Islomovich. "Special aspects of formation of youth's life strategy." Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology 2.9 (2020): 214-219.
7. Ismoilov, T. I. "The importance of forming youth life strategy in an informed society." EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR) 6.8: 536-538.

O'QITUVCHILARNING MEDIAKOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOSINI YECHISH YO'LLARI

KADIROV TULKIN BAXRIDINOVICH,

Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada tadqiqotchi olimlarning o'qituvchining mediakompetentligini rivojlantirish, mediata'lim, tushunchalariga berilgan ta'riflari, ularning ilmiy-nazariy asoslari tahlil qilinadi. Mediakompetentlikni rivojlantirishning asosiy bosqichlari, mohiyati va xususiyatlari ochib beriladi. Mediakompetentlikning tarkibiy qismlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar. Axborotlashtirish, intellektual qobiliyat, uzluksiz kasbiy rivojlantirish, mediakompetentlik, mediata'lim, mediaxabar.

Абстрактный. В статье анализируются определения, данные учеными-исследователями понятиям развития медиакompetentности педагога, медиаобразования, и их научно-теоретические основы. Выявлены основные этапы, сущность и особенности развития медиакompetentности. Рассмотрены компоненты медиакompetentности.

Ключевые слова: Информация, интеллектуальные способности, непрерывное профессиональное развитие, медиакompetentность, медиаобразование, медиасообщение.

Abstract. The article analyzes the definitions given by research scientists to the concepts of the development of media competence of a teacher, media education, and their scientific and theoretical foundations. The main stages, essence and features of the development of media competence are revealed. The components of media competence are considered.

Key words: Information, intellectual abilities, continuous professional development, media competence, media education, media message.

Zamonaviy jamiyatda ta'lim sifatini oshirish etakchi ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Shu munosabat bilan pedagogik yangiliklarning samaradorligi masalasi tobora dolzarb bo'lib qolmoqda. Bunda hal qiluvchi vazifa o'qituvchi shaxsiga yuklanadi. Qanday sohada bo'lmasin, yuqori bilimga ega mutaxassislar ilmiy-tadqiqot ishlanmalari bilan shug'ullanish, yangi mahsulot turlarini yaratish va texnologiyalarni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Jahondagi globallashuv jarayonlari va kompaniyalar o'rtasidagi mavjud chuqur raqobat muhiti mutaxassislarni ham favqulodda shunga tayyor bo'lishlarini talab etadi. Ular nafaqat o'z g'oyalarni rivojlantirish va yaratilgan nazariy modellarini amalda joriy etish

uchun qulay sharoitlarni ta'minlaydilar, shu bilan birga, iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi uchun ham muhim intellektual omil hisoblanadilar.

Bugungi kunda jahonda texnologiyalar va axborotlashtirish jarayonlarining rivojlanishi davrida yuqori malakali kadrlarni egallash va yollash uchun kompaniyalar o'rtasida raqobat kurashi birmuncha oshdi. Bu nafaqat tijorat tashkilotlariga, balki ilmiy-tadqiqot markazlari, o'quv yurtlariga ham tegishlidir. Shunday ekan, zamonaviy ta'lim sifati to'g'risidagi masala birinchi navbatda hal qilinishi kerak bo'lgan muammo hisoblanadi. Aynan, maktab o'qituvchilarining aniq kasbiy sohasida bilimlarini shakllantiradi.

Davlat taraqqiyoti va jamiyat ravnaqi

ko'p jihatdan uning intellektual potentsiali bilan belgilanadi. Chunki ilmiy potentsiali yuqori darajada rivojlangan mamlakat barcha sohalarda doimo ilg'or bo'ladi. Shuning uchun mamlakatimizda ta'lim tizimini tubdan isloh qilish davlat ahamiyatiga molik bo'lgan ustuvor vazifa sifatida yondashilib, katta e'tibor qaratilmoqda. Yuqori malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlashga erishish uchun ta'lim jarayonini tashkil qilish va boshqarishning o'ziga xos talablari mavjud. Birinchidan, o'quvchi-talabalarning kasbiy bilimlarni o'zlashtirish darajasi davlat ta'lim standartlari talablariga mosligini ta'minlash. Ikkinchidan, o'quvchi-talabalarning mustaqil ijodiy faolligini davlat ta'lim standartlarida belgilangan bilim, ko'nikma va malakalar doirasini to'liq qamrab olishga erishish. Jamiyatning bu tarzda jadal rivojlanishi, yuqori malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyoj – o'qituvchidan intellektual qobiliyatlarini namoyon qilgan holda, ijtimoiy talablarni qondirishni taqozo etmoqda.

Ijodiy faoliyatga qodir, rivojlanuvchan ta'limiy-tarbiyaviy jarayonni va shu bilan birga o'zining kasbiy kompetentligi hamda mediakompetentligini boshqara oladigan pedagoglarga jamiyatning barkamol shaxsga bo'lgan talabini qondira oladi. Hozirgi kunda shu qadar katta ahamiyatga ega bo'lgan mediakompetentlikning ma'nosi, uning shakllanganlik darajasi, mezonlari va komponentlari to'g'risida yagona bir ta'rif yo'q. Turli pedagog-olimlar turlicha ta'rif keltiradilar, uning tarkibiy tuzilishiga ham turlicha yondashadilar.

Media – lotinchada vosita, o'rtada turuvchi, degan ma'nolarni beradi. U ma'naviy (axborot, bilim) ehtiyojlarini qondirish vositasi. Shifokorning qo'lidagi pichoq

bemorni sog' qiladi. Jinoyatchining qo'lidagi pichoq esa sog'ni bemor qiladi. Olovning yo'g'i odamni muzlatsa, ko'pi kuydiradi. Ko'p suv g'arq qilsa, suvsizlik qaqratadi. Media ham shunday. Agar me'yorda, kompetentli foydalanilsa, media donolar uchun – bilimlar manbai. Nodonlar uchun – balolar manbai [1;2]. Demak, gap mediada emas, undan foydalanuvchilarda, aniqrog'i – har bir yigit-qizning mediama'naviyatiga bog'liq bo'lib chiqayapti.

Dunyoda mediakompetentlikni rivojlantirishning asosiy bosqichlari sifatida quyidagilar e'tirof qilinadi:

1. Mediakompetentlikning (atamaning o'zini kiritmasdan turib) birinchi marta 1920-yilda tilga olingan, shu yili Moskvada dunyoda birinchi kino maktabi (Hozirda Butunrossiya davlat kinematografiya instituti –VGIK) ochilgan. XX-asrning 30-yillarida mediata'lim (matbuot, foto va kino materiallari asosida) umumta'lim maktablarida rivojlanib borgan[3].

2. Rossiya maktablarida ta'limda mediakompetensiyaning shakllanish harakati XX-asrning 60-70-yillarida faol rivojlandi. Bu mediakompetentlik tiklanishi va rivojlanishining ikkinchi bosqichi bo'ldi. Bu davrda kino ta'limi va audiovizual savodxonlik ustuvorlik qildi. Pedagogika fanlari akademiyasining Badiiy tarbiya instituti ekran san'ati laboratoriyasi shu yillari faol ish olib bordi. Mediata'lim muammolariga bag'ishlangan dastlabki nomzodlik dissertatsiyalari XX-asrning 60-yillarida talabalarning kinota'limi (O.A.Baranov – 1968; A.S.Karasik – 1966; Yu.M.Rabinovich – 1966 va R.G.Rabinovich 1966), radioeshitirish (V.I.Saperov – 1969), televideniyaning mediata'limdagi roli

(S.N.Penzin –1967 va boshq.) sohasida ham bajarildi[3;4].

XX-asrning 70-yillarida audiovizual mediata'lim g'oyalarini rivojlantirishga bag'ishlangan nomzodlik dissertatsiyalari muvaffaqiyatli himoya qilindi (N.V.Goncharova – 1970, S.V.Sokolova – 1971, I.S.Levshina – 1974, S.M.Ivanova–1978, V.A.Monastirskiy – 1979 va boshq.) [3].

3. XX-asrning 80-yillarida Rossiyada mediata'lim (matbuot, kinometografiya va televideniya materiallari asosida) bo'yicha eksperimentlar amalga oshirila boshlandi. Ta'limda mediakompetensiyani tadqiq qilish rivojining uchinchi bosqichi kuzatildi. Mediata'lim tadqiqotlarining chuqurlashishi, sof pedagogik tajribani tavsiflash va umumlashtirishdan mazkur fenomenning psixologik va ijtimoiy (sotsiologik) qatlamlarini aniqlashga o'tish jarayoni yuz berdi[3].

Mediata'lim muammolari (asosan, kino, matbuot yoki televideniye bilan bog'liq xususiy, alohida aspektlarda) ko'plab olim va mutaxassislarning tadqiqot ob'ektini tashkil qilgan.

Mediata'lim va mediamadaniyatga oid ilmiy adabiyotlar tahlili o'rganilayotgan muammoning quyidagi yo'nalishlarini aniqlash imkonini berdi:

– qayd qiluvchi harakterdagi tadqiqotlar, ularda turli yoshdagi shaxslar mediamatnlarni idrok qilishiga oid xususiyatlar haqida ma'lumot keltirilgan (I.S.Levshina, Yu.N.Usov, A.V.Fedorov, A.V.Sharikov, S.A.Shein va boshq.);

– umumnazariy harakterdagi tadqiqotlar, ularda mediata'lim va mass-media konsepsiyalari, modellari va metodlari ilgari

surilgan va tahlilga tortilgan (L.S.Zaznobina, L.Masterman, S.N.Penzin, A.V.Spichkin, K.Tayner, Yu.N.Usov, A.V.Fedorov, A.V.Sharikov, E.Hart va boshq.);

– mediata'limning muayyan (aniq) metodikasi bilan bog'liq tadqiqotlar (L.M.Bajenova, O.A.Baranov, Ye.A.Bondarenko, K.Bezelget, D.Bekingem, K.Vorsnop, D.M.Djusbaliyeva, D.Konsidayn, S.N.Penzin, Yu.M.Rabinovich, K.Tayner, Yu.N.Usov, A.V.Sharikov va boshqalar). I.G.Zaharova, I.V.Robert, Ye.I.Sokolova, A.V.Fedorov, O.K.Filatov, A.V.Sharikov, Ye.N.Yastrebeva va boshqalarning tadqiqotlarida media vositalarini qo'llash pedagoglarning mediakompetentligini media vositalari asosida oshirishga imkon beradigan, shu bois ularni tayyorlashda alohida ahamiyat kasb etadigan axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash bilan bevosita bog'liqligi ko'rsatib o'tilgan[5].

Fedorov A.V. tomonidan Veber V., Kyubi R., Dj.Potter yondashuvlari asosida, shuningdek, britaniyalik yetakchi mediapedagoglar Dj.Bouker, D.Bukingem, E.Hart va boshqalar tomonidan asosiy sifatida ajratilgan oltita tushunchaga tayanib, shaxs mediakompetentligining tarkibiy qismlari (komponentlari) tasnifi (klassifikatsiyasi) ishlab chiqilgan.

Bu oltita asosiy tushuncha quyidagilardan iborat:

1) media agentliklari (mediamatn yaratuvchilarning ishi, vazifalari va maqsadlarini o'rganish);

2) media kategoriyalari (media/mediamatnlar tipologiyasi: turlari va janrlarini o'rganish);

3) media texnologiyalari (mediamatn

yaratish usullari texnologiyalarini o'rganish);

4) media tillari (media tillari, ya'ni mediamatnlarning verbal, audiovizual, montaj qatorini o'rganish);

5) media reprezentatsiyalari (mediamatnlarda voqelikni tasavvur (taqdim) qilish, qayta anglash usullari, mualliflik konsepsiyalari va h.k. ni o'rganish);

6) media auditoriyalari (auditoriya tipologiyasi, mediaidrok tipologiyasini o'rganish)[5].

Mediapsixologiya psixologiya fanining yangi, jadal rivojlanayotgan sohasi bo'lib, uning predmetini dunyo madaniyatining dinamik tarzda rivojlanayotgan sohasi sifatida zamonaviy mediamadaniyat kontekstida qaraladigan shaxs tashkil qiladi. Mediapsixologiyaning asosiy vazifalari sirasiga quyidagilar kiradi:

- shaxsning individual va ommaviy kommunikatsiya vositalari ta'siridagi xulq-atvorini o'rganish;

- shaxsiy va guruhli mediaeffektlarni tadqiq qilish;

- mediamuhitning sub'ekt rivojlanishi, shaxsning tiklanishi va insonning psixologik o'zini o'zi his qilishiga ta'sirini tahlil qilish;

- shaxsning mediahimoyalanganligi va mediakompetentligini shakllantirish bo'yicha dasturlarni ishlab chiqish.

Shaxsning mediaxabarlarini idrok qilish va qayta ishlashda namoyon bo'ladigan himoya mexanizmlarini tadqiq qilish, axborotning ortiqcha miqdorini qayta ishlash va informatsion pressing natijasida yuzaga keladigan “axborotdan toliqish sindromi”ni o'rganish mediapsixologiyaning muhim yo'nalishi hisoblanadi[6].

Yana bir rossiyalik media bo'yicha yetakchi olim Fedorov A.V. “Pedagogik

oliy ta'lim muassasalari talabalarining mediakompetentligi va tanqidiy tafakkurini rivojlantirish” nomli yozilgan monografiyasida[7], pedagogik oliy ta'lim muassasalari talabalarining mediakompetentligi va tanqidiy tafakkurini rivojlantirish masalalari (“Mediata'lim” mutaxassisligi, davlat ro'yxat raqami № 03.13.30 doirasida) mediata'lim va mediasavodxonlikning umumiy muammolari kontekstida o'rganilgan.

Yuqorida keltirilgan fikrlarni inobatga olgan holda shuni ta'kidlash mumkinki, bizning fikrimizcha, pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlarida uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursi tinglovchilarining mediakompetentligini rivojlantirishning eng qulay usuli bu – “Axborot-kommunikatsion texnologiyalari va mediasavodxonlik” kursini o'qitish jarayonida axborot texnologiyalari, multimedia-texnologiyalar vositasida rivojlantirishdir. Multimedia asoslariga oid, mediakompetentlik darajasini oshirishga qaratilgan maxsus kurslar, nazarimizda, o'qituvchilarga nafaqat uzluksiz kasbiy rivojlantirish kurslarida ta'lim olish, balki keyingi pedagogik faoliyatlarida ham mediakompetentlikning yuqori darajasini namoyish qilish imkonini beradi.

Bu kurslar multimedia-texnologiyalardan foydalanish sohasida ta'limni davom ettirish uchun ish metodlari, bilish mustaqilligi, tadqiqotchilik faoliyatiga qiziqish, guruhda ishlash malakalarini rivojlantirish, o'zini o'zi nazorat qilish va mas'uliyatini oshirishga ko'maklashadigan ta'lim muhitini tashkil qilish imkoniyatini beradigan printsiplar asosiga qurilishi lozim. Bunda o'qituvchilar axborot-kommunikatsion texnologiyalarini

OLIJ TA'LIM MUASSASALARINING HARBIY TAYYORGARLIK O'QUV BO'LINMALARIDA HARBIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI

ZARIFBOY JABBAROV

O'zbekiston Milliy universiteti harbiy tayyorgarlik o'quv markazi dotsenti

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston Respublikasi Oliy o'quv yurtlari qoshida ochilgan harbiy tayyorgarlik o'quv markazlari kursantlarining shaxsiy va kasbiy rivojlanishi muammosi ko'rib chiqiladi. Harbiylik sohasida ishlaydigan bo'lajak ofitserning harbiy kasbiy faoliyati kursantdan bir qator muhim xususiyatlarni, shu jumladan Oliy harbiy ta'lim muassasasida o'qish davrida shakllangan yuqori darajada rivojlangan, barqaror harbiy xizmat motivatsiyasini talab qiladi. Yuqori darajadagi harbiy kasbiy yo'nalish va ta'lim va kasbiy motivatsiyaning mavjudligi yaxshi moslashishni, harbiy-kasbiy rivojlanishni va bo'lajak harbiy mutaxassisning psixologik resurslarini amalga oshirishni ta'minlaydi. Bundan tashqari, maqolada olimlarning "kasbiy rivojlanish" tushunchasining mazmuni haqidagi nazariy qarashlari qisqacha ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: harbiy ta'lim tizimi, kasbiy harbiy ta'lim, kasbiy harbiy ta'lim markazlari, o'quv jarayoni.

Аннотация. В статье рассматривается проблема личностно-профессионального развития курсантов военно-учебных центров, открытых при высших учебных заведениях Республики Узбекистан. Военно-профессиональная деятельность будущего офицера, работающего в военной сфере, требует от курсанта ряда важных характеристик, в том числе высокоразвитой, устойчивой мотивации к военной службе, формируемой в период обучения в высшем военном учебном заведении. Наличие высокого уровня военно-профессиональной ориентации и образования и профессиональной мотивации обеспечивает хорошую адаптацию, военно-профессиональное развитие и реализацию психологических ресурсов будущего военного специалиста. Кроме того, в статье кратко рассмотрены теоретические взгляды на значение понятия «профессиональное развитие».

Ключевые слова: система военного образования, профессиональное военное образование, центры профессионального военного образования, образовательный процесс.

Abstract. The problem of personal and professional development of cadets of military training centers opened at the higher educational institutions of the Republic of Uzbekistan in a previous article is considered. The military professional activity of a future officer working in the field of military requires a number of important features from the cadet, including a highly developed, stable military service motivation, which was formed during his studies at a higher military educational institution. The presence of a high level of military professional orientation and educational and professional motivation ensures good adaptation, military-professional development and the implementation of the psychological resources of the future military specialist. In addition, the article briefly examines the theoretical views of scientists on the content of the concept of "professional development".

Keywords: professional development, cadets of the higher military aviation school, military career path, personal qualities, education and professional motivation.

Kirish. Zamonaviy sharoitda harbiy ta'lim tizimini o'zgartirishning asosiy ustuvor yo'nalishi harbiy ta'lim muassasalarida kasbiy harbiy ta'limni rivojlantirishdir. Zamonaviy sharoitda harbiy ta'lim muassasalarining o'quv faoliyatining ustuvor yo'nalishlari kadrlar tayyorlash mazmunini yangilash, professor-o'qituvchilarning

malakasini oshirish va qulay ta'lim muhitini yaratishdir.

Muammoning o'rganilganligi darajasi. Zamonaviy sharoitda O'zbekiston milliy xavfsizligini ta'minlashning muhim elementlaridan biri bu xavfsizlik va mudofaa sohasida kadrlar tayyorlash va o'qitishdir. Ushbu normalar: O'zbekistonning Harbiy xavfsizlik strategiyasi; O'zbekistonning Strategik Mudofaa axborotnomasi; O'zbekiston Qurolli kuchlari Bosh shtabining qarashlari va boshqa harbiy ta'lim tizimining faoliyatini tartibga soluvchi milliy xavfsizlik va mudofaa bo'yicha. qonunchilik va me'yoriy hujjatlar darajasida belgilangan mazkur yondashuv harbiy ta'lim tizimini milliy ta'lim tizimi, xususan, oliy ta'lim bilan chambarchas integratsiyalashuvini, shuningdek, ta'limning ilg'ortendensiyalarini joriy etishini ta'minlaydi.

Harbiy ta'lim tizimini rivojlantirishning asosiy manbai sifatida Yevropa va Rossiya ta'limi bo'lib, buni Respublikamisdagi Oliy ta'limni rivojlantirish strategiyasi tasdiqlaydi. O'zbekistonda oliy ta'limni xalqarolashtirishning ustuvor vazifalaridan biri sifatida: harbiy ta'lim tizimining alohida tarkibiy qismi sifatida oliy harbiy ta'limni rivojlantirish nazarda tutiladi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da, "O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi"da kasbiy harbiy ta'limni, harbiy mutaxassislarning kasbiy darajasini oshirish va kasbiy malakalarga ega bo'lish maqsadida harbiy ta'limning tegishli darajalarida ta'lim dasturlari orqali olinadigan ixtisoslashtirilgan harbiy ta'limi sifatida belgilaydi. Rasmiy (jangovar) funksiyalarning bajarilishini ta'minlaydigan, shu bilan birga, kasbiy harbiy ta'lim kurslari doirasida harbiy ta'limning tegishli darajalarini (taktik, tezkor, strategik) egallanishini ta'minlanishi me'yoriy

ravishda belgilanadi. Ular asosida oliy ta'lim darajalari (bakalavr, magistr) diplomlarini "Harbiy fanlar pedagogalari", "Milliy xavfsizlik", "Davlat chegarasi xavfsizligi" va boshqa yo'nalishlari bo'yicha olishlari mumkin.

Respublikamiz hududida harbiylarni tayyorlaydigan bilim yurti va universitetlardan tashqari, universitetlar qoshida ochilgan harbiy tayyorgarlik o'quv markazlari ham mavjud. Ushbu markaz kursantlariga berilayotgan habiy bilim va ko'nikmalar bugungi kunda bo'lajak ofitserlarning harbiy, kasbiy tayyorgarligi sifatini oshirish muammosi alohida ahamiyatga ega. Harbiy ta'limni tashkil etishning o'ziga xos xususiyati uning davlat xavfsizligi, mudofaa va ta'lim sohasidagi davlat siyosatiga, shuningdek, harbiy fan va texnika rivojlanishining zamonaviy darajasiga qanchalik mos kelishidadir. Bizning fikrimizcha, bo'lajak ofitserlarning oliy harbiy ta'lim muassasalarida o'qishi davrida yuqori kasbiy tayyorgarligini ta'minlash, ular kelajakdagi ish faoliyatlarida o'z zimmlariga yuklatilgan vazifalarni muvaffaqiyatli va samarali bajarishlari zarur.

Kasbiylashtirish deganda biz kasbiy shaxsni shakllantirishning uzluksiz jarayonini tushunamiz, bu uni tashkil etishning o'ziga xos tomonlari, ya'ni mazmuni va dinamikasi jihatidan bir-biridan farq qiluvchi ketma-ketlik bosqichlarga ega xususiyatlaridir. Shaxsning kasbiy rivojlanish jarayoni bilan bog'liq ko'plab qarashlar mavjud (E.A.Klimov, T.V.Kudryavtsev, V.D.Shadrikov, N.V.Kuzmina, L.M.Mitina, T.K.Yadrishnikova va boshqalar). V.D. Shadrikovning fikricha, kasbiy rivojlanishning butun jarayonini uch bosqichga bo'lish mumkin. Kasbiy kompetensiyaning bevosita shakllanishi kasbiy rivojlanish jarayonida sodir bo'ladi,

deb olim ta'kidlaydi. Yana, Kudryavtsevaning fikriga ko'ra, insonning kasbiy rivojlanishi to't bosqichga bo'lingan, ulardan biri kasbiy ta'lim jarayoni, ya'ni ta'lim muassasasida o'qish davrida tanlangan kasbiy faoliyatga maqsadli tayyorgarlikdir. Oliy harbiy ta'lim muassasasi harbiy mutaxassisning kasbiy vakolatlarini rivojlantirish nuqtai nazaridan aniq vazifalarni hal qilishga qaratilgan kasbiy rivojlanish bosqichidagi muhim, ammo oraliq bo'g'indir. Bizning fikrimizcha, harbiy-professional faoliyat faol harbiy-professional rivojlanishni nazarda tutadi, uning doirasida mutaxassisning barqaror harbiy-professional yo'nalishini shakllantirish amalga oshiriladi. Harbiy-professional yo'nalishning yuqori darajasi kasbning tez o'zgaruvchan va tobora murakkablashib borayotgan talablariga muvofiqligini, harbiy-professional rivojlanish yo'lidan bosqichma-bosqich ko'tarilib, yangi cho'qqilarni zabt etishni ta'minlaydi, bu esa o'z navbatida mavjud psixologik resurslarni to'liq ro'yobga chiqarishni anglatadi.

Respublikamizning yetuk olimlari: Sh.A.Akramova, A.A.Xoliqov va boshqalar, hamda MDH olimlari: B.G. Ananayev, S.I.Arangel'skiy, Yu.K.Babanskiy, asarlarida va A.A.Bodalyev, V. P. Bepalkov, V. A. Krutetskiy, N.V.Kuzmina, Yu. N. Kulyutkin, A. N. Leontev, S. L. Rubinshteyn, A. T. Rostunov, L.A.Rudkevich, V.D.Shadrikov, V.A.Yakunin va boshqalarning asarlarida kasbiy shaxsni shakllantirish sohasida olib borilgan ko'plab nazariy va empirik tadqiqotlariga qaramay, ushbu muammoni o'rganishning dolzarbligi saqlanib qolmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri bu ilmiy muammoning harbiy ta'lim sohasida ko'p o'rganilmaganligidadir. Shuning uchun hozirda bunday tadqiqotlarga ehtiyoj bor.

O'rganishlarimiz natijasida biz R.S.Samarov, B.S.Abdullaeva, Sh.A.

Akramova va boshqa olimlarning nuqtayi nazarini qo'llab quvvatlaymiz. Darhaqiqat, pedagogik-psixologik nuqtai nazardan, kasbiy shakllanish – bu o'zaro bog'liq bo'lgan kasbiy muhim faoliyat tizimida shaxs rivojlanishining dinamik va uzluksiz jarayoni bo'lib, u ma'lum vaqt ichida shaxsga ijtimoiy ta'sir ko'rsatish usullaridan foydalanishni o'z ichiga oladi. Bilim va ko'nikmalarning umumlashtirilgan tizimi, kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan fazilatlar, xulq-atvor shakllari va individual usullarni shakllantirish uchun turli kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan (kognitiv va kasbiy ta'lim, shu jumladan maxsus tayyorgarlik va boshqalar) faoliyatga kiritishni nazarda tutadi.

Bizning fikrimizcha, oliy harbiy ta'lim muassasalarining bo'lajak ofitserlarining bilim, ko'nikma va malaka darajasi kasbiy mahoratga bog'liq. Shuningdek, amaliy tajriba, ijtimoiy faollik, aqliy faoliyat, axloqiy, psixologik-pedagogik va jismoniy tayyorgarlik, shuningdek, kasbiy faoliyatning turli holatlarida yuzaga keladigan xavf-xatarlar, xavfga muvofiq harakat qilish qobiliyati - uning kasbiy vakolatlarini rivojlantirishiga bog'liq.

N.N.Tolipov: "Kasbiy ta'lim jarayonida kasbiy (maxsus) ko'nikma va malakalar ta'limning turli texnik vositalari yordamida o'qitish, o'qitish usullari va ularning kompleksi – o'qitishdan foydalangan holda shakllanadi", deb ta'kidlaydi.

Oliy harbiy ta'lim muassasasi kursantlarining malakasini oshirish jarayoni bir necha bosqichlarga bo'linadi: umumiy rivojlanish, umumiy kasbiy, ixtisoslashgan. Har bir bosqich yakunida kursant nazariy va amaliy tayyorgarligini kasbiy ko'nikma va sifatlarini shakllantirishning yangi bosqichiga o'tishi kerak.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, oliy harbiy ta'lim muassasasi

ESHITISHDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR BILAN ISHLASHDA OG'ZAKI NUTQNI RIVOJLANTIRISHDA ARIFMETIK AMALLARNING AHAMIYATI

ABDULLAYEVA NARGIZA O'KTAMOVNA

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti Pedagogika-psixologiya fakulteti,
Maxsus-pedagogika kafedrası Stajyor o'qituvchi

Annotatsiya: Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarga og'zaki nutqni rivojlantirishda arifmetik amallarni bajarishga o'rgatishda o'yinli texnologiyalarni qo'llanilishini o'rganish jarayoni, o'yinlar bolalarning jismoniy yetuk bo'lishi, aqliy va axloqiy jihatdan tarbiyalanishlari uchun munosib zamin sifatida ekanligini o'rganish; matematik malakasini egallash darajasiga, matematika shakllantirish, muntazam ravishda aniq maqsadga yo'naltirib borish yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Eshitishda nuqsoni bo'lgan shaxs, eshitish qobilyati, mimik imo-ishoralari, mantiqiy tafakkur, og'zaki nutqni rivojlantirish usullari, O'zbekiston Karlar Jamiyati (O'zJ),

Abstract: The process of studying the use of game technologies in teaching children with hearing impairment to perform arithmetic operations in the development of oral speech, games as a suitable ground for children's physical maturity, mental and moral education learning that; to the level of acquiring mathematical skills, the formation of mathematics, regular orientation to a specific goal is highlighted.

Key words: Hearing impaired person, ability to hear, facial expressions, logical thinking, methods of speech development, Deaf Society of Uzbekistan (UzJ),

Аннотация: Рассмотрен процесс изучения использования игровых технологий при обучении детей с нарушением слуха выполнению арифметических действий в развитии устной речи, игр как подходящей основы физического взросления детей, их умственного и нравственного воспитания; уровню приобретения математических навыков, становления математики, выделяется регулярная ориентация на конкретную цель.

Ключевые слова: Слабослышающий человек, способность слышать, мимика, логическое мышление, методы развития речи, Общество глухих Узбекистана (УзЖ),

Jahon maxsus ta'lim muassasalarida eshtishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarga og'zaki nutqni rivojlantirishda arifmetik amallardan foydalanishning mexanizmlari, kommunikativ va reflektiv texnologiyalari amaliyotga tatbiq etilgan. YUNESKO xalqaro tashkiloti tomonidan qabul qilingan Inchxon deklaratsiyasi, "Ta'lim hamma uchun" dasturi asosida eshtishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarga og'zaki nutqni rivojlantirishda arifmetik amallardan foydalanishning samarali o'rgatish orqali inklyuziv ta'limga erishish, eshtishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarga og'zaki nutqni rivojlantirishda arifmetik amallarni

takomillashtirish, eshtishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarga og'zaki nutqni rivojlantirishda arifmetik amallarni rivojlantirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jahon eshtishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarga og'zaki nutqni rivojlantirishda arifmetik amallarni rivojlantirish, maxsus ta'lim muassasa ishtirokchilari faoliyatini diversifikatsiyalash, eshtishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarga og'zaki nutqni rivojlantirishda arifmetik amallardan foydalanishni amaliyotiga metodik tayyorlash texnologiyalarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Yetakchi davlatlar AQSH, Xitoy, Yaponiya, Fransiya,

Germaniya, Singapur, Rossiyada eshtishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarga og'zaki nutqni rivojlantirishda arifmetik amallardan foydalanishni amaliyotiga tayyorlashda interfaol usullardan samarali foydalanish, eshtishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarga og'zaki nutqni rivojlantirishda arifmetik amallardan foydalanishning didaktik ta'minotini yaratish, pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish, shuningdek, alohida ehtiyojli bolalami arifmetik amallardan foydalanish samarali texnologiyalarini tizimlashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda.

Eshtishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarga og'zaki nutqni rivojlantirishda arifmetik amallardan foydalanishganlik darajasini o'rganish.

Ta'kidlovchi tajriba-sinov vazifalari sifatida quyidagilarni belgiladik:

- eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalaming nutqiy unli tovushlar, bo'g'inlarni arifmetik amallardan foydalanishning shakllanganlik xususiyatlarini o'rganish;

- eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalaming nutqiy undosh tovushlar, bo'g'inlarni arifmetik amallardan foydalanishning shakllanganlik xususiyatlarini o'rganish;

- eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni so'zlarni arifmetik amallardan foydalanishning shakllanganlik xususiyatlarini o'rganish;

- eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni so'zlarni arifmetik amallardan foydalanishning shakllanganlik xususiyatlarini o'rganish.

Eshtishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarga og'zaki nutqni rivojlantirishda arifmetik amallardan foydalanishganlik darajasini o'rganish maqsadidagi tajriba-sinov ishlariga Jizzax viloyati Zarbdor tumanidagi 2-son zaif eshituvchi bolalar

maktab-intematning 68 nafar 1-4 sinf o'quvchilari jalb etildi.

Eshtishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarga og'zaki nutqni rivojlantirishda arifmetik amallardan foydalanishganlik darajasini tadqiq etuvchi maxsus topshiriqlar to'plami taklif etildi, yuqori bo'lishi, jumladan, so'zlar boyligi, tilning grammatik tuzilishi va talaffuz etish ko'nikmalarni egallashi hisoblanadi. Topshiriqlar mazmuni to'rt bosqichda tizimlashtirildi:

1-bosqich eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalaming nutqiy unli tovushlar, bo'g'inlarni arifmetik amallardan foydalanishning shakllanganlik xususiyatlarini o'rganish;

2-bosqich eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalaming nutqiy undosh tovushlar, bo'g'inlarni arifmetik amallardan foydalanishning shakllanganlik xususiyatlarini o'rganish;

3-bosqich eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni so'zlarni arifmetik amallardan foydalanishning shakllanganlik xususiyatlarini o'rganish;

4-bosqich eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni so'zlarni arifmetik amallardan foydalanishning shakllanganlik xususiyatlarini o'rganish.

1 -Bosqich: Nutqiy tovushlarni (undosh tovushlar) labdan o'qish darajasini o'rganish.

Labdan o'qiydiganlarga taqdim etilgan bo'g'inlar va bo'g'in birikmalari ro'yxatini keltiramiz.

2 -Bosqich: Nutqiy tovushlarni (unli tovushlar) labdan o'qish darajasini o'rganish.

Labdan o'qiydiganlarga taqdim etilgan bo'g'inlar va bo'g'in birikmalari ro'yxatini keltiramiz.

Yuqorida keltirilgan barcha bo'g'inlar va bo'g'in birikmalari labdan o'qiyotganlarga bo'lib-bo'lib berilgan.

Eshtishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarga

ogʻzaki nutqni rivojlantirishda arifmetik amallardan foydalanishganlik darajasini oʻrganish maqsadidagi tajriba-sinov ishlarida boʻgʻin va boʻgʻin birikmalarining labdan oʻqiydigan boshqa-boshqa shaxslarga berish tartibi bir xil bodmagan: seansdan seansga bu tartib har safar oʻzgarib borgan. Agar nutqiy materialning ketma-ketligi barcha labdan oʻqiydiganlarga bir xil boʻlganida, unda birinchi boʻlib idrok qilinayotgan boʻgʻin va boʻgʻin birikmalar keyingilariga nisbatan afzalligi pastroq sharoitlarda boʻlib qolishi mumkin edi, chunki eksperiment boshida labdan oʻqiyotganlarga yangi shaxs tomonidan talaffuz etilayotgan uncha odatiy bodmagan nutqiy materialni idrok qilishga moslashish zarurligi tufayli tovushlarni idrok qilish darajasi pastroq bodishi mumkin.

Nutqiy materialning hajmi kattaligi uchun biz uni birinchi soʻzlovchi uchun toʻrt teng qismga va ikkinchi soʻzlovchi uchun - uch qismga boʻldik, va ularni labdan oʻqiydiganlarga dam olishga tanaffuslar bilan berdik. Birinchi soʻzlovchi shunday tanaffuslar bilan ishladi: birinchi va ikkinchi, hamda uchinchi va toʻrtinchi qismlar oʻrtasida tanaffuslar 5 daqiqadan; ikkinchi va uchinchi qismlar oʻrtasida - 10 daqiqa belgilandi.

Ikkinchi soʻzlovchi ikki tanaffus bilan ishladi: birinchisi - 5 daqiqa; ikkinchisi - 10 daqiqa. Bir eksperimentning ish davomiyligi, yaʼni labdan oʻqishga sarflanadigan bevosita vaqt, birinchi soʻzlovchi bilan ishlashda oʻrtacha 1 soat 20 daqiqa, ikkinchi soʻzlovchi bilan ishlashda - 1 soatga teng boʻldi. Eshtishda nuqsoni boʻlgan bolalar maktabda matematika taʼlim jarayonida dasturiy talablar asosida oʻquvchilarga taʼlim berishda matematik tushunchalarning xayotiy materiallar asosida oʻzlashtirishni nazarda tutadi. Bu esa matematika darslarida oʻquvchilar oʻzlashtirishi lozim boʻlgan

tushuncha va qoidalar amaliyotga xizmat qilishni xayotiy ehtiyojlar natijasida vujudga kelganligini oʻquvchilarga etkazib berish imkonini beradi xamda fan va amaliyot orasidagi aloqalami toʻgʻri tushunishiga asos yaratadi.

ENB boalarga matematika taʼlimini berishni ularda tafakkur, diqqat, xotira ijodiy tasavvur etish, kuzatuvchanlikni rivojlantirishga yordam beradi.

Shuningdek matematika taʼlim oʻquvchilarning mantiqiy fikrlash malakalarini oshirish ulaming uz fikrlarini aniq toʻgʻri va tushunarli bayon etishni uchun zamin xozirlaydi.

Oʻquvchining vazifasi bolalarga matematikaning oʻqitishda bu imkoniyatlardan samarali foydalana olishdan iborat.

ENB bolalarga taʼlim jarayonida arifmetik amallarni bajarishni oʻrganishdan oldin, oʻquvchilarni bu arifmetik amallarni bajarishga tayyorlash va ularda maʼlum darajada koʻnikma va malakalar xosil qilish lozim.

Buning uchun oʻqitishning birinchi kundan boshlab oʻquvchilarda birinchi oʻnlik sonlari misolida natural qatorning xar bir keyin keladigan soni qanday bilishini oydinlashtirish, qatorining soni va undan oldin yoki keyin keladigan xamma sonlar orasidan bogʻlanish oʻrgatiladi.

Oʻquvchilarni sonlarni takkoslash usullari bilan tanishtiriladi, ular ikki son yigʻindisini topishni oʻrganishlari yaʼni oldin narsalarning toʻplamlarini birlashtirish va xosil boʻlgan toʻplamlar elementlari sonini sanash asosida topish, keyin esa bittalab yoki guruxlab koʻshib sanash va boshqa usullardan foydalanish asosida matematik tushunchalar berish shu orqali oʻquvchilarda arifmetik amallarni bajarishga zamin yaratib beradi.

Birinchi yarim yillikda ENB o'quvchilar matematik amallar nomlari tarkibiy qismlari bilan tanishtiriladi.

Bundan tashqari o'quvchilar matematik bilimlarning bazi elementlari amal ishoralari (plyus - qo'shish, minus - ayirish) munosabat belgilari (katta, kichiq, teng) bilan tanishtirish xamda $2+6$ (2 va 6 sonlari yig'indisi) $9-2$ (9 va 2 sonlari ayirmasi) va boshqa shunga uxshash eng sodda matematik ifodalarni o'qish va yozishni o'rganib oladi.

Shuningdek enb o'quvchilar arifmetik amallarning bazi muhim xulosalari va ulardan kelib chiqqan natijalar ya'ni yig'indining o'rin almashtirish guruxlash xossalarni amaliy usullar asosida tanishtiradilar ENB o'quvchilar ta'lim jarayonida 10 gacha, 100 gacha bo'lgan bilan qo'shish va ayirish amallarni 100 ichida sonlarni xonadan o'tmasdan qo'shish va ayirish amallarini bajarishlarni ohganadilar va 100 ichida sonlarni qo'shish va ayirishga oid amallarni bajarishdan oldin sonni yig'indiga, sungra yig'indini songa qo'shishning xar xil usullari amalda misollar echishadi.

O'quvchilar yig'indi va ayirmaning asosiy xossalarnidan kelib chiqadigan qoidalar bilan tanishtiradilar.

Arifmetik amallarni bajarishda enb o'quvchilarni nutqqa e'tibor bergan xolda xisoblashlarning ravon va tez bo'lishiga katta e'tibor berish kerak.

Shu bois qo'shish va ayirishga u yoki bu misolning echishni mufassal tushuntirishda o'quvchi yul qo'ygan xatoliklarni e'tiborga olishi lozim.

Ko'paytirish va bo'lishni ohganishga tayyorgarlik ishlari 2-sinfda birinchi yarim yillig'ida boshlanadi.

Ko'paytirish va bo'lish amali o'quvchilarga tushuntirishda bir xil qo'shuvchilar yig'indisini topi shva sonni bir xil qo'shiluvchilarga yoyish buyiga dasturida

nazarda tutgan mashklarni turli shakllarda misoliar va masalalar echish asosida amaliy ishlarni bajarib borish foydali xisoblanadi.

Matematik ta'lim jarayonida ko'paytirish va bohishga oid ko'nikma va malakalarni xosil qilish orkali, o'quvchilar ko'paytirish va bohish amaliga jadvallarni tuzish, ko'paytirish va bo'lish amaliga oid uzviy boghanish tushunchalarni xosil qilinadi.

ENB o'quvchilarda matematik ta'lim jarayonida arifmetik amallarni o'qitish uziga xosligi shundaki bu bolalarda eshtish imkoniyati etarli emasligi nutqning rivojlanmaganni matematik tushunchalarni tushuntirishda arifmetik amallarni bajarishga misol maslalar echishda bir qator qiyinchilik va muamolar keltirib chiqaradi.

Shu sababli uktuvchilar o'quvchilarga matematik ta'lim berishda o'quvchilarning rivojlanish xususiyatlari va nutqiy imkoniyatlarni xisobga olganda dars utish jarayonlarni tashkil etib borish lozim.

Arifmetik amallarni xar bimi tushuntirishda amallarni bajarishni uziga xos xususiyatlarni e'tiborga olgan xolda dasturiy talablarni xisobga olgan xolda tushuntirilib boriladi.

Qo'shish va ayirish amallarni birinchi beshta son ohganib boshlangich va bolalar predmetlar guruxlari bilan ishlashda tajriba xosil kilgach bajaradilar.

Birinchi bo'lib qo'shish amali ohgatiladi kohgazma taxtasiga shakllarning ikki to'plarni joylashtiriladi: 3ta doira va yana bitta 1 ta doira ularning ustiga 3 va 1 rakamli kartichka kuyiladi.

Darslar birlashtirilib, o'ngga surab qo'yiladi xammasi bo'lib qancha ekanligi aniqlanadi. blarning tepasiga 4 rakami kuyiladi mazkur mashk yana takrorlanadi. Ish jarayonida ko'rgazma taxtasiga kesma rakam va amal belgilari yordamida $3+1=4$

tenglik joylashtiriladi qo'shish belgisi tepasiga va = belgini tepasiga «qo'shish» va «bo'ladi» suzli kartochkalar joylashtiriladi.

Tenglik ukituvchi yordamida ukiladi xudi shu ish $2+2$ va $1+3$ misollari bilan xam utkaziladi.

Ayirish amali xuddi shu tarzda o'rgatiladi u qo'shishga teskari xolatdagi ish xarakati sifatida karaladi qo'shish va ayirishga doir misollarda sonni tarkibining turlicha vaziyatlari aks etgan bo'lishi lozim.

O'quvchilarda ko'paytirishni o'rgatish uchun eng avvalo ulami bir xil bo'lgan qo'shiluvchilar yig'indisini topishga o'rgatish lozim .

Bu topshiriqlar matematika va predmetli amaliy ta'lim darslarga kiritiladi .

Amaliy faoliyat darslarida guruxlab sanash keng ishlatiladi guruxlab sanashda bolalar berilgan songa ikkitadan uchadan va turtadan son ko'shib sanashni o'rganadilar.

Amaliy topshiriq amalda quyidagi misollar tuzish asosida o'rgatiladi.

To'rtburchakni ikkitadan 3marta oling misolni yozing va eching $2+2+2=6$

Qo'ziqorinni 3 martadan 4 marta chizing misolni yozing va yeching $3+3+3+3=12$

Shunga o'xshash misollarni yechish va o'quvchilar bilan savol-javob qilish orqali savolarni guruxlab qo'shish orqali ko'paytirish amali haqida tushuncha xosil qiladilar ya'ni $2+2+2=6, 2*3=6, 3+3+3+3=12, 3*4=12$

Bunda qo'shish va ko'paytirish amallarni usuli keng qo'llanish orqali keyingi darslarda xam oddiydan murakkab usullarni qo'llashga oid amaliy ishlar bajarib boriladi.

Bo'lish amalining aniq mazmuni predmet to'plamlari ustida bir nech amaliy ishlarni bajarish yordamida ochib beriladi.

Amaliy masala ko'rib chiqiladi 9 ta doirani oling va uni teng 3 qismga bo'ling

arimetik xar qismda nechtadan doiracha bor?

Keyin esa o'qituvchi masalani amaliy bajarish usuliga e'tiborini qaratadi.

Doskaga yechimi yoziladi:

9 doiracha : $3=3$ doiracha

Demak xar bir qismda doiracha bor deb tushuntiriladi.

Mustaxkamlash uchun yangi masalani aytadi 8ta olmani oling uni 2ta vazaga teng qilib ajrating xar bir vazada nechtadan olma bor? 8ta olma: $2=4$ dan olma.

O'quvchilarga yukoridagi usullar yordamida bajarilgan amaliy ishlar orqali bo'lish amali xaqida dastlabki tushunchalar xosil qilinib boriladi.

Bundan keyingi darslar jarayonida arimetik amallarning o'ziga xos xossalari misollar yechishning turli usullari bilan tanishtirilib boriladi.

Matematik ta'lim berishda o'quvchilarga ko'paytirish va bo'lish amallarini jadvali xaqida tushunchalar berib borilishi e'tiborga olinidi.

O'quvchilarning ko'paytirish jadvalini o'rganishlarida ko'paytirish va bo'lish amallarining komponentlari va natijalari orasidagi mavjud aloqani kurib chiqish muhim belgilaridan xisoblanadi.

Ko'paytiruvchilar bilan ko'paytma orasidagi munosabat va aloqalar ko'paytirishni va unga teskari bo'lgan bo'lish amallariga doir misollarni echish jarayonida echiladi.

Agar $6*2$ va $12:2$ misollari berilsa birinchi ishni echishdan avval ko'paytuvchilar va ko'paytma aytiladi.

Ikkinchi misol bilan takkoslagandan sung 12 soni birinchi misolda ko'paytma 2 soni ikkinchi ko'paytuvchi va 6 soni esa birinchi ko'paytuvchi ekanligi ma'lum bodadi $12:2$ bo'lishi amali bajarilib birinchi misolning birinchi ko'paytuvchisi topiladi.

O'quvchilar shunga o'qish misollarni echish jarayonida xulosaning to'g'ri ekanligiga ishonch xosil kiladilar.

Bimi songa ko'paytirish tushunchasini shakllantirishda «Itadan doirachani 3marta oling misolni yozing» kabi bir qator mashklar bajariladi.

Misollarning echishni kuydagi shaklda ifodalanadi: $1*3=1+1+1=3$

Misollarning xar birida ko'paytuvchi va ko'paytma takkoslanib kuydagicha xulosa chiqariladi, ya'ni javobdagi son kaysi songa ko'paytirilgan bo'lsa, ushanga teng bo'lib chiqadi.

Bu darsda sonni birga ko'paytirish usuli xech qanday tushuntirishlarsiz maxsus usul sifatida o'rganiladi. Bunda ko'paytirish amalining uzi yuk, chunki bittigina qo'shiluvchidan yig'indi xosil qilib bo'lmaydi Iga ko'paytirish usuli bilan tanishtirilib ukituvchi kuydagicha misollarni echib kursatadi.

$6*4=24$ $6*3=18$ (6 ga kam) $6*2=12$ (6 ga kam) $6*1=6$ (6 ga kam) ya'ni 1 sanaga ko'paytirilgan sonning aynan uzi.

Sonlarni Iga bo'lishda ko'paytirish va bo'lish orasidagi aloqalar ishlatildi ko'paytirish misollaridan ($1*3=3$, $1*4=4$, $1*6=6$) bo'lishga doir misollar tuzuladi. ($3:1=3$, $4:1=4$, $6:1=6$)

Bo'linuvchi va bo'luvchilar takkoslanib xulosada ulaming bir xilligi aniqlanadi.

10 ga ko'paytirish va 10 ga bo'lish jarayoni xam bir dars ichida kurib chiqiladi. Masalan 10 ni 2 ga ko'paytirishda kuydagi tartibda fikr yuritiladi: 10-bu 1-o'nlikdir 1-o'nlikdan 2marta olsak 2ta o'nlikni xosil kilamiz yoki 20ni demak $10*2=20$

SHu misolni asos qilib olib, ko'paytirishning urin almashtirish xossasi va ko'paytirish bilan bo'lishning uzaro munosabatlarigi asoslangan xolda yana 3 misol xosil qilinadi: $2*10=20$ $20:10=2$

$20:2=10$ IOga ko'paytirishning boshka xislatlarini o'quvchilar mustakil tarzda bajaradilar.

Eshtishda nuqsoni bo'lgan bolalarga dars jarayonida arifmetik amallarni bajarishga o'rgatish va ularda ko'nikma va malakalar xosil qilish amallarni yozma usullarini ohgatib borish IOOlik sonlarni ichida xam amallarni bajarishni shakllantirilib boriladi.

O'quvchilar qo'shish va ayrishning yozma usullarni yaxshi o'zlashtirilib olsalar kup xonali sonlar bilan qo'shish va ayrish amallarni bajara olishadi.

Qo'shish va ayrish aloxida - aloxida o'rganiadi qo'shish amalining bir turi o'zlashtirilgach unga teskari bo'lgan ayirish amali o'rganiladi.

ENB bolalarda arifmetik amallarni bajarish usullari shakllantirishda ulaming imkoniyatlarini xisobga olib amallarni ohganishda xam bir necha usullarni qo'llash orkali tushuntirilib boriladi.

Jumladan qo'shishga oid misollarni uch guruxga bo'lingan xolda tushuntirish mumkin.

Birinchi gurux misollarida xar bir xona birlikning yig'indisi 10 dan kichiq bo'ladi.

Ikkinchi guruxdagi misollarda bir yoki ikki xona birliklari yig'indisi 10 teng bo'ladi.

Uchunchi guruxda esa IOdan katta bo'ladi

435 450 408

214 236 561

649 686 969

Bu misollarni bajarilishini tushuntirishda o'quvchilarga avval ogzaki qo'shish, sungra yozma usulda qo'shish, xamda qo'shish amalini ustun shaklda qo'shish qo'layligini tushuntirish lozim.

Sonlarni qo'shish jarayonida o'quvchilardan qo'shish usullari xakida suralib turuladi bu usulni so'zlashuv nutqini rivojlanib borishga xam yordam beradi.

Ayrish amali ustida xuddi qo'shish amali singari ishlanidi .

Ayirmaning turli xollarni bajarishni 3 guruxga bo'lish mumkin.

1)386 686

234 450

2)590 608 600 1000

153 292 413 321

3) 563 835 742

438 264 259

Xar bir gurux misollari ulrga mos bo'lgan qo'shish amallari singari echiladi.

Ayirish natijasi qo'shish orkali tushuntiriladi qo'shishni ayirish bilan tekshirish usuli bolalar ayirish usullarini puxta o'rgangandan sung tushuntiriladi.

1000 soni ichida ko'paytirish usullami o'rganib 1000.000 ichida ko'paytirish algoritmini egallashga xar tomonlama yordam beradi.

SHuning uchun o'quchilar mazkur mavzuni o'rganish davomida xisoblash ko'nikmalarni puxta egallashlari zarur.

1000 soni ichida yozma ko'paytirishni bajarish uchun kuydagi tartibda ish olib boriladi

1 Ko'paytiruvchining xar xonasini bir xonali songa ko'paytirganda natija 10 dan kichiq bo'ladi masalan $321 \cdot 2 = 642$

2 Kupatuvchi birlikning songa ko'paytmani 10 ga teng bo'ladi masalan $135 \cdot 2 = 270$

3 Ko'paytuvchi o'nlikning bir xonali songa ko'paytmasi 10 ga teng bo'ladi.

4 Ko'paytuvchi birligining songa ko'paytmasi 10 dan katta

5 Ko'paytuvchi o'nlikning songa ko'paytmasi lOdan katta

6 Ko'paytuvchi birligi va o'nlikning songa ko'paytmasi 10 dan katta masalan $186 \cdot 2 = 372$

Ko'paytirish amalini enb o'quvchilarga tushuntirishda yukoridagi tartibda bajarishni

ko'nikma va malakani shakllantirish orkali ularda ko'paytirish amalini bajarishni uziga xos taminlash ohgati boriladi.

ENB o'quvchilarga bortish amalini yozma usullami o'rgatish ular ustida misollar echish asta-sekinlik o'rgatiladi va muayyan tartibda ohganiladi.

1) Xona o'quvchilarning xar biri bir xonali songa tula bo'linuvchi sonlami bo'lish masalan $248:2=124$

2) O'nliklami bir xonali songa tula bo'1 inmaydigan sonlami bo'lish masalan $642:3=214$

3) YUzliklami bir xonali songa tula bodinmay digan sonlami bodish masalan $348:2=174$

4) YUzliklami va o'nliklami bodish okibatida kolgan koldiklami past xona birliklarini xosil kiluvchi sonlami bodish masalan $936:4=234$

5) Tarkibida 0 rakami bor bo'lgan sonlami bodish masalan $480:2=240$
 $309:3=103$

Bodish amaliga oid yukoridagi tartibda misollarni echish orkali ularda bodish amaliga oid ko'nikma va malakalar xosil qilinib boriladi.

Agar har bir tovush alohida ko'rib chiqilsa, ularning ayrimlariga nisbatan aniqlash mumkinki, undoshlar unilarga qaraganda yaxshiroq idrok qilinadi. Undosh tovushlarga qaraganda faqat ikki unililar - "a" va "o" yaxshiroq idrok qilinadi. Qolgan unililar, ayniqsa boshqa undosh tovushlar vakillariga qaraganda yomon idrok qilinadi: n unli /biroz past keladi, i unli /, p, sh ga past keladi va hokazo. Biroq biz hozir barcha tovushlami qiyosiy idrok qilish natijalarini tahlil etmaymiz. Biz boshida undoshlami ma'lum guruhlarga birlashtirib, ulami idrok qilishni tahlil etamiz, keyin esa alohida tovushlami, shu hisobda, unli tovushlami idrok qilishni kohsatamiz. Shunday qilib,

ERTA YOSHDAGI RIVOJLANISH ORTDA QOLAYOTGAN BOLALARNI LUG'AT KAMCHILIGINI DIAGNOSTIKA QILISHDA NUTQIY MOTIVATSIYANI OSHIRISH

TOSHTURDIYEVA ZOYIRA DUSMUROD QIZI

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti Maxsus pedagogika kafedrası
stajiyor o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada nutqni rivojlantirishning umumiy darajasi intellektual rivojlanish bilan uzviy bog'liqligi. Nutq bola rivojlanishining eng kuchli omillari va stimullaridan biridir. Erta yoshdagi ruhiy va nutqiy rivojlanish orqada qolayotgan bolalarni lug'at kamchiligini diagnostika qilishda nutqiy motivatsiyani oshirish bo'yicha metodik tavsiyalar berish tafsilotlari bayon qilingan.

Kalit so'zlar. Nutq, ilk yosh, sog'lom avlod nutqiy kamchilik, intellektual rivojlanish, tushunish qobiliyati, diagnostika, stimullar.

Абстрактный. В данной статье общий уровень речевого развития неразрывно связан с интеллектуальным развитием. Речь является одним из наиболее мощных факторов и стимулов развития ребенка. Подробно описаны методические рекомендации по повышению речевой мотивации при диагностике дефицита словарного запаса у детей, психическое и речевое развитие которых отстает в раннем возрасте.

Ключевые слова: Речь, ранний возраст, здоровое поколение, речевой дефицит, интеллектуальное развитие, способность к пониманию, диагностика, стимулы.

Abstract. In this article, the general level of speech development is inextricably linked with intellectual development. Speech is one of the most powerful factors and stimuli of child development. The details of methodological recommendations for increasing speech motivation in diagnosing vocabulary deficiency in children whose mental and speech development lag behind at an early age are described.

Keywords: Speech, Early age, healthy generation, speech deficiency, intellectual development, understanding ability, diagnosis, stimulus

Nutq bola rivojlanishining eng kuchli omillari va stimullaridan biridir. Nutqni rivojlantirishning umumiy darajasi intellektual rivojlanish bilan uzviy bog'liq. Nutqning rivojlanishi shaxsning, irodaviy fazilatlarining, xarakterning, munosabatning, e'tiqodning shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Bolaning nutqida ijtimoiy muhit aks etadi va o'sadi. Nutqda nuqsoni bo'lgan bolalarning maktabga moslashish jarayoni bir oz qiyin kichadi. "Talim to'g'risida "gi Qonunda o'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama yetuk shaxs bo'lib yetishishlari muhim vazifa sifatida belgilangan bo'lib, maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom va yetuk maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish

maqsadini ko'zlashini, bu maktabgacha ta'lim muassasiga murakkab va ayni damda muhim vazifani yuklashini ma'lum qiladi. Maktabgacha ta'lim muassasalari oldiga qo'yilgan muhim vazifalardan biri bolalarni maktab tayyorlash hisoblanadi.

Respublikamizda davlatimiz tomonidan so'nggi yillarda bolalarning nogiron bo'lib tug'ulishi yoki kasallikka chalinishi natijasida biror nuqson ortirilishini oldini olish, uni erta aniqlash va tashxis qo'yish bo'yicha keng qamrovli va samarali ishlar olib borilmoqda.

Nutq bola rivojlanishining eng kuchli omillari va stimullaridan biridir. Nutqni rivojlantirishning umumiy darajasi intellektual rivojlanish bilan uzviy bog'liq. Nutqning rivojlanishi shaxsning, irodaviy

fazilatlarining, xarakterning, munosabatning, e'tiqodning shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bolaning nutqida ijtimoiy muhit aks etadi va o'sadi.

Nutqda nuqsoni bo'lgan bolalarning maktabga moslashish jarayon biroz qiyin kechadi. Sog'lom avlodning samarali ta'lim olishga tayyorlashning asosiy ko'rsatkichlaridan biri esa-to'g'ri yaxshi rivojlangan nutqdir. Shuning uchun ham bolalarda nutqning o'z vaqtida shakllanishini haqida uning so'z va to'g'riligi haqida qayg'urish bola qaysi tilda nutqi nutqi shakllanayotgan bo'lsa mana shu til me'yorlarida namoyon bo'luvchi turli nuqsonlarni oldini olish va to'g'rilash muhim hisoblanadi. Respublikamizda davlatimiz tomonidan so'nggi yillarda bolalarning nogiron bo'lib tug'ulishi yoki kasallikka chalinishi natijasida biror nuqson ortirilishini oldini olish, uni erta aniqlash va tashxis qo'yish bo'yicha keng qamrovli va samarali ishlar olib borilmoqda. Hech kim jismoniy yoki boshqa kamchiligi bor bolani xohlamagan bo'lar edi. Biz farzandimizning sog'lom, chiroyli, aqlli bo'lishini, jamiyatda yutuqlarga erishishini, bizga tayanch bo'lishini kutamiz. Biz, hattoki, kichkintoylar orasida chiroylilar tadbirini o'tkazamiz

Nuqsonli bolaga sog'lom bola singari uni sevishlari qanday bo'lsa shundayligicha barcha muammo va qiyinchiliklari bilan qabul qilishlari lozim. Bolani tan olish u bilan o'zaro aloqani o'rnatishdir.

Bolani yosh xususiyatlariga qarab, uning ikki yoshga to'lgunicha o'tadigan har bir yarim yillik mobaynida bajariladigan vazifalarning konkret mazmuni ham har xil bo'ladi. Bir yosh-u olti oylikkacha bo'lgan bola bilan ishlashda kattalar nutqini tushunishni rivojlantirish birinchi o'rinda turadi. Bolani odamlarni, buyumlarni (kiyim-kesaklar, mebellar, idish-tovoqlar

va hokazolar), jamlalar yordamida kattalar bolaga syujetlarning mazmunini tushuntiradi, topshiriqlar beradi, topshiriqlarning hamda ularni bajarishning ma'nosini tushunib olishlariga yordam beradi. Faol nutqning qaror topishida taqlid qilish qobiliyatining rivojlanib borishi muhim o'rin tutadi.

Bolani tovush birikmalari va butun – butun so'zlarni taqlid qilib takrorlashga o'rgatib borish zarur. SHuningdek, bola o'zi idrok etgan so'zlarni bilish bilan cheklanib qolmay, balki bu so'zlarni mustaqil ravishda, tashabbusi bilan ham aytadigan bo'lishi ham kerak. 1.5 yoshdan boshlab esa bolaning faol nutqini rivojlantirish asosiy vazifa hisoblanadi, kattalar nutqini tushunishni rivojlantirish davrm ettiriladi

Bolaning faol nutqida so'z boyligi ancha kengayib, ko'payib qolganligi kuzatiladi: bola ilgari ma'nosini tushunib o'zlashtirib olgan barcha so'zlarni asta-sekin ishlata boshlaydi. Eng muhim vazifa ularni uch va undan ortiq so'zdan iborat gap tuzishga o'rgatishdir. Tevarak-atrofdagi kishilar bilan aloqa qilishning asosiy vositasi sifatida nutqni o'stirib borishda bolani har xil sabablar bilan kattalarga va tengdoshlarga murojaat qilishga, savollar berishga, ilgari olgan taassurotlarni (ko'rgan, eshitgan narsalarni) bir-ikki og'iz so'z bilan, oddiy jumlar bilan ifoda etishga o'tgatis zarur.

Yuqorida aytilganlardan shunday xulosa chiqarish mumkin-ki, 2 yoshga to'layotgan bolaning nutqni tushunishda va faol nutqida muhim o'zgarishlar sodir bo'ladi. Buning uchun kattalar bola bilan gaplashayotganda ularning yoshi va individual rivojlanishi, shuningdek o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiquvchi nutq imkoniyatlarini, albatta, hisobga olish shart. Ilk yoshdagi bola bilan konkret sharoitlarda aloqaga kirishish vaqtida nutq o'stirishning savol berish, takrorlashni iltimos qilish, topshiriq berish singari har xil

usullardan foydalanish muhimdir.

Bola bilish faolligining rivojlanib borayotganligini ko'rsatish uchun unga: «Bu nima?», «Bunisi-chi?» singari savollar berib ko'riladi. Bu savollarni berishdan maqsad biror narsaning yoki harakatning faqat nominigina aniqlashdan iborat bo'lib qolmay, balki bolada paydo bo'ladigan bilish istagi – o'sha narsa bilan nimalar qilish mumkinligini bilish istagini ham qondirishdan iboratdir. Agar kattalar bergan savollarga bola o'zi ayta oladigan so'zlar bilan javob qaytaradigan bo'lsa, undan javob olishga erishish, sabr-toqat bilan uning javobini kutish, ayrim hollarda esa unga yordamlashib, ba'zi so'zlarni aytib yuborish kerak.

Ilk yoshdagi bola narsalar olamiga o'zaro turlicha munosabatda bo'ladi: bola katta yoshli kishining harakatlarini kuzatib turib, kundalik maishiy turmushga taalluqli bo'lgan yirik-yirik narsalar bilan tanishadi; bola faqat o'ziga tegishli narsalar (bola mebeli, kiyim-kechaklar, idish-tovoqlar va hokazolar) bilan harakat qilar ekan, u kundalik turmushda ishlatiladigan narsalardan qanday foydalanish kerakligiga o'rganib boradi, nihoyat, u o'zi o'ynayotgan o'yinlarda ilgari shunga o'xshash o'yinchoqlar (mebel, kiyim-kechaklar, idish-tovoqlar va hokazolar)ni o'ynagan vaqtida o'zlashtirib olgan xatti-harakatlarni aks ettiradi. Ko'chada bolalarning ko'zi tushgan har bir narsa kattalarning ular bilan muloqotga kirishishi uchun bahona hisoblanadi.

Bola 1,5 yoshdan oshgach, u bilan yaqin o'tmishda ko'rganlari, tajribasida nimalar esida qolganligi haqida so'zlashishi mumkin va lozim. Bunday bo'lishi tasodifiy emas, chunki 2 yoshga qadam qo'ygan bola katta kishilarning harakatlarida, real hayotda ko'rgan narsalarini o'yinda aks ettiradilar. Bolaning o'yin faoliyatida odatda, maxsus nutqni rivojlantirish vazifasi qo'yilmaydi. Biroq, harakat usullariga o'rgatish

jarayonining o'zi nutqni rivojlantirishga yordam beradi, chunki katta kishi bunday ta'lim jarayonini nutq orqali amalga oshiradi. Buning natijasida bolada faqat harakatlarga emas, so'zlarga ham taqlid qobiliyati rivojlanib boradi, bolaning tashabbusi bilan biror gapni aytish uchun shart-sharoit vujudga keladi.

Nutqning rivojlanishi birinchi galda bolaning aqliy jihatdan yanada rivojlanishiga yo'l ochadi. Hayotning 3-yilida quyidagi vazifalar hal etilishi kerak:

1. Atrofdagilar nutqini yanada ko'proq tushunish – kelasi, hozirgi, o'tgan zamonni tushuna olishni, aniq ko'rinib turgan vaziyatdagina emas, undan tashqarida ham nutq ma'nosini tushuna olishni ta'minlab berish;

2. Bolalarning faol nutqini mukammallashtirib borish – so'z boyligini boyitib, barcha so'z turkumlaridan foydalangan holda jumlar tuza olishga o'rgatish, nutqning grammatik tuzilishini mukammallashtirib borish, talaffuzni yaxshilash va nutqning emotsional ohangdorligini kuchaytirish;

3. Nutqdan foydalanish layoqatini kengaytirib, o'z taassurotlarini so'zlar bilan ifodalay olish, savollar berish va savollarga javob berish, katta yoshli odamlar va bolalar bilan nutq vositasida aloqa bog'lashni kengaytirib borish;

4. Tevarak-atrofdagi mo'ljal olishni kengaytirish;

5. Umumlashtirish layoqatini rivojlantirib bolalarda tabiat hodisalari, hayvonlarning hayoti, ijtimoiy hayotning bolalar tushuna oladigan ba'zi hodisalari, kattalar mehnati, vaqt, sana, fazoviy munosabatlar, buyumlarning vazifasi va boshqalar to'g'risida oddiy tushuncha va tasavvurlar hosil qilish va hokazo;

6. Nutq idroki va eshituv diqqat-

e'tiborini yaxshilash – katta odam nima gapirayotganini yaxshilab tinglash, kichikroq hikoya, she'r eshitish ko'nikmasini hosil qilish;

7. Madaniy nutq malakasini (ovozni baland ko'tarmasdan, shoshmasdan ohista gapirish va gapirayotgan vaqtda qo'llarni keskin silkitmaslik) tarbiyalab borish.

Mana shu vazifalarni amalga oshirishda hammadan avval turmushdagi tabiiy shart-sharoitlardan, hamda uyin, sayr, ovqatlanish, uyquga yotish vaqtida bolalarning o'zaro amalga oshiradigan munosabatlaridan foydalaniladi. Bolalarda yaxshi taassurot qoldirish hamda ularning mustaqil faoliyatini to'g'ri tashkil etish yo'li bilan bolalarning hissiy tajribasini boyitib borish zarur. Qanday bo'lmasin, biror hodisa yoki kattalarning hatti-harakatini sayr vaqtida, uyda kuzatayotganda, rasmlarni ko'zdan kechirib, bolalarga biror narsani ko'rsatayotganda, o'yin to'g'risida biror narsani gapirayotganda ayrim buyum va harakatlarni tilga olib o'tishdan tashqari ularni tushuntirib berish, ayrim dalillar o'rtasidagi bog'lanishlarni ko'rsatish, narsalarning xossa va vazifasini aytib berish zarur. Idrok qilingan narsani bolaning o'tmish tajribasi bilan bevosita bog'lab borish zarur.

Hayotining uchinchi yilida bolalar nutqi anchagina rivojlanib qolgani uchun ular bilan odatdagicha murakkab, grammatik jihatdan to'g'ri tuzilgan nutq bilan aloqa qilib borish kerak. Biroq bola uchun tushunarli bo'lmagan jummalarni ishlatish yaramaydi. Bolaning kattalarga taqlid qilib uncha tushunmaydigan so'z va hatto jummalarni takrorlayverishdan hech bir foyda yo'q. Ko'pincha ota-onalar bolalarga ular tushuna olmaydigan she'r va ertaklarni yodlatishga harakat qiladilar, bu shak-shubhasiz zararli hamdir. Bolalar bularni tez yod oladilar, lekin asosiy mazmunini tushuna olmaydilar. Jummalarni tushunmasdan takrorlayverish mashqlari

bolada taqlib qilish layoqatini rivojlantiradi, nutqning asosiy funktsiyalarini rivojlanishiga yordam bermaydi.

Uch yoshga qadam qo'ygan bolalarning hammasi ham «R» va boshqa ba'zi jarangli tovushlarni to'g'ri talaffuz qila olmaydi. Ahyon-ahyonda so'zlardagi tovushlarning o'rni almashib qolishi ham mumkin. Biroq 3 yoshga endigina qadam qo'ygan bola atrofda qilarning hammasi uchun tushunarli ravishda gapirishi kerak. Ota-onalar, shuningdek, shifokor, pedagog, katta tibbiyot hamshirasi bolalarning nutqi hamda tovushlar talaffuzini diqqat bilan kuzatib borishi, xatolarni tuzatib turishi, o'zlari esa barcha so'zlarni hamisha aniq va to'g'ri talaffuz qilishi, bolaga uning uchun qiyin so'zni uyinlar yordamida ko'p marta takrorlashga erishish kerak.

Talaffuzda birmuncha qo'pol xatolarga yo'l qo'yilaveradigan, nutq rivoji anchagina orqada qoladigan bo'lsa, maslahat uchun otoloringolog yoki logopedga vaqtida murojaat qilish kerak. Uch yoshga qadam qo'ygan bolalar, asosan, nimalarni hissiy idrok etsalar, ya'ni ular nimalarni ko'rsalar, nimalarni o'zini, rasmi yoki o'yinchoqlarini ko'rsatish mumkin bo'lsa, ular bilan shu narsalar haqida gaplashish kerak. Shu bilan bir vaqtda ayrim elementlari bolalarning o'tmish tajribasidan tanish bo'lgan, lekin jamuljam shu holda ilgari hech qachon idrok etilmagan hodisalar to'g'risida ham bolalar bilan gaplashib turish mumkin va xatto lozim. Masalan, «Mosh» degan mushukchani devordan sakrab o'tayotganida yiqilib tushib, oyog'i lat yegani to'g'risida yoki biror-bir bolaning koptogi yo'qolib qolganligi va uni o'rtog'i topib berganligi to'g'risida so'zlashib turish kerak va hokazo.

Atrofdagi kattalarning bolalar bilan tabiiy o'zaro munosabatlar jarayonida ular hayotining har xil paytlarida tez-tez

BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'RGATILADIGAN OG'ZAKI HISOB USULLARI, ULARNING NAZARIY-METODIK JIHATLARI

USMONOVA ZULFIYA ILXOMOVNA

Buxoro davlat pedagogika instituti “Boshlang‘ich ta‘lim“ kafedrası
o‘qituvchisi

Annotatsiya. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘rgatiladigan har bir hisob usulini nazariy asosi bor. O‘quvchilarga o‘rgatiladigan har bir nazariy material bola bilim saviyasiga mos holda o‘quvchi tilida bayon qilinishi maqsadga muvofiq. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda o‘rgatiladigan og‘zaki hisob usullari, ularning nazariy-metodik jihatlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: hisob usuli, og‘zaki usul, yozma usul, yuzlik konsentri, yig‘indi, ayirma, son tarkibi, kki xonali sonlar.

Аннотация. Каждый арифметический метод, преподаваемый ученикам начальной школы, имеет теоретическую основу. Каждый теоретический материал, преподаваемый учащимся, должен быть объяснен на языке учащегося в соответствии с уровнем его знаний. В данной статье рассматриваются методы устной арифметики, преподаваемые в начальных классах, их теоретические и методические аспекты.

Ключевые слова: метод счета, устный метод, письменный метод, сантиметр, сложение, вычитание, состав чисел, двузначные числа.

Abstract. Each arithmetic method taught to elementary school students has a theoretical basis. Every theoretical material taught to students should be explained in the student's language in accordance with the child's level of knowledge. This article discusses the methods of oral arithmetic taught in elementary grades, their theoretical and methodological aspects.

Key words: calculation method, oral method, written method, centimeter, addition, subtraction, composition of numbers, two-digit numbers.

Milliy dasturga asoslangan 2- sinf matematika darsligi I- bobida “100 ichida qo‘shish”, II-bobida “100 ichida ayirish” mavzulari kiritilgan [4; 12-51-b]. Qo‘shish uchun 18 soat, ayirish uchun ham 18 soat vaqt ajratilgan. Unda 100 ichida sonlarni qo‘shish va ayirishning ham og‘zaki va ham yozma usullari o‘rgatilishi rejalashtirilgan.

Albatta nazariy ma‘lumotlarni ilmiy-nazariy atamalarda emas, balki o‘quvchi tushunadigan metodik tilda bayon etilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Masalan “ko‘paytirishni qo‘shishga nisbatan distributiv qonuni” demasdan, “ko‘paytirishni qo‘shishga nisbatan tarqatish qoidasi” yoki “sonni yig‘indiga ko‘paytirish qoidasi”

deb talqin qilinsa, shu qonun o‘quvchilarga tushunarli holda yetkaziladi.

Yuzlik konsentrida qo‘shish va ayirish hollari- hisob usullari keyingi konsentrlarda sonlarni qo‘shish va ayirish bo‘yicha o‘quvchilarda shakllanadigan malakalar uchun asos bo‘ladi. Quyida biz 100 ichida sonlarni qo‘shish va ayirishga xos hisoblash usullarini keltiramiz.

1) $50 + 40$, $60 - 10$ - yaxlit o‘nliklarni qo‘shish va ayirish usuli. Bu usul 10 ichida sonlarni qo‘shish va ayirish usullariga tayaniladi. Ushbu hisoblashda o‘quvchilarning 10 ichida hisob malakalariga asoslaniladi.

$$50 + 40 = 5 \text{ o‘nl} + 4 \text{ o‘nl} = 9 \text{ o‘nl} = 90$$

$$60 - 10 = 6 \text{ o‘nl} - 1 \text{ o‘nl} = 5 \text{ o‘nl} = 50$$

2) $37 + 2$ – to‘la ikki xonali songa bir xonali sonni qo‘shish. Ushbu hisob usulini bajarishda ikki xonali sonni o‘nli tarkibi, yig‘indiga sonni qo‘shish, 10 ichida jadvali qo‘shish misolida tushuntirib bajarish.

$$37 + 2 = 30 + (7 + 2) = 30 + 9 = 39$$

Ushbu hisob usulini sharhlar ekanmiz, 37 soni ikki xonali son 3 o‘nlik va 7 birlikdan tashkil topgan. Bu songa 2 ni qo‘shish uchun 7 birlikka 2 birlikni qo‘shaman ($7 + 2$). 9 birlik chiqdi. 3 o‘nlik bu 30 birlik yana 9 birlik jami 39 birlik hosil bo‘ldi.

3) $50 + 14$ - yaxlit ikki xonali son bilan to‘la ikki xonali sonlar yig‘indisi. Bu hisoblash usulida songa yig‘indini qo‘shish, ikki xonali sonni o‘nli tarkibiga doir o‘quvchi malakasi kerak bo‘ladi.

$$50 + 14 = 50 + (10 + 4) = (50 + 10) + 4 = 64$$

O‘nliklar o‘nliklarga qo‘shiladi.

4) $47 - 2$ - to‘la ikki xonali sondan bir xonali sonni ayirish usuli.

$$47 - 2 = (40 + 7) - 2 = 40 + (7 - 2) = 40 + 5 = 45$$

Ushbu hisob usulida to‘la ikki xonali sonni xona qo‘shiluvchilar yig‘indisi ko‘rinishida ifodalash, yig‘indidan bir xonali sonni ayirish qoidasi, birliklardan birliklar ayriladi qoidasidan foydalanib bajariladi.

5) $47 - 20$ - to‘la ikki xonali va yaxlit ikki xonali sonlar ayirmasi usuli.

$$47 - 20 = (40 + 7) - 20 = (40 - 20) + 7 = 20 + 7 = 27$$

Bu hisob usulida 47 sonini xona qo‘shiluvchilar yig‘indisiga ajratib, o‘nliklardan o‘liklar ayrilib natijaga 7 birlikni qo‘shamiz.

6) $32 + 15$ – to‘la ikki xonali sonlarni qo‘shish usuli

$$32 + 15 = (30 + 2) + (10 + 5) = (30 +$$

$$10) + (2 + 5) = 40 + 7 = 47$$

Bu hisob usulida ikki xonali sonini xona qo‘shiluvchilar yig‘indisiga ajratish, yig‘indini yig‘indiga qo‘shish qoidasiga asoslangan amallar bajarilgan. O‘quvchilarga “o‘nliklar o‘nlikka, birliklar esa birliklarga qo‘shiladi” deb tushuntiriladi.

7) $38 - 17$ - to‘la ikki xonali sonlarni ayirish usuli

$$38 - 17 = (30 + 8) - (10 + 7) = (30 - 10) + (8 - 7) = 20 + 1 = 21$$

Bu hisob usulida ikki xonali sonini xona qo‘shiluvchilar yig‘indisiga ajratish, yig‘indidan yig‘indini ayirish qoidasiga asoslangan holda natija hisoblangan.

O‘quvchilarga “o‘nlikdan o‘nlikni, birliklardan birliklarni ayiramiz” deb aytishadi.

$38 - 17$ ayirmani topish uchun boshqa hisob usulini ham tadbiq etish mumkin. Unda sondan yig‘indini ayirish qoidasidan foydalaniladi.

$$38 - 17 = 38 - (10 + 7) = (38 - 10) - 7 = 28 - 7 = 21$$

8) $78 - 38$ - ikki to‘la ikki xonali son ayirmasi yaxlit son hosil bo‘ladigan hisob usuli

Ushbu ayirmani og‘zaki hisoblashning bir necha variantlari bor. Ularda yig‘indidan yig‘indini ayirish, sondan yig‘indini ayirish xossalariga asoslangan holda hisoblash usulidan foydalaniladi.

$$1\text{-variant: } 78 - 38 = (70 + 8) - (30 + 8) = (70 - 30) + (8 - 8) = 40 + 0 = 40$$

$$2\text{-variant: } 78 - 38 = 78 - (30 + 8) = 78 - 30 - 8 = 48 - 8 = 40$$

9) $69 - 64$ - ikki xonali sonlar ayirmasi bir xonali son hosil bo‘luvchi hisoblash usuli

Bu hisob usulida yig‘indidan yig‘indini ayirish xossasidan foydalanib hisoblash

bajariladi.

$$69 - 64 = (60 + 9) - (60 + 4) = (60 - 60) + (9 - 4) = 0 + 5 = 5$$

Sondan yig'indini ayirish xossalariga asoslangan holda ham hisoblash mumkin.

$$69 - 64 = 69 - (60 + 4) = (69 - 60) - 4 = 9 - 4 = 5$$

10) $46 + 4$ – ikki xonali va bir xonali son yig'indisi to'la yaxlit ikki xonali son hosil bo'ladigan hisob usuli

$$46 + 4 = (40 + 6) + 4 = 40 + (6 + 4) = 40 + 10 = 50$$

Bu hisoblashda yig'indiga sonni qo'shish xossasidan foydalanib hisob usuli keltirildi. Unda yig'indiga sonni qo'shish, o'n ichida sonlarni qo'shish, ikki xonali sonlarning o'nli tarkibiga doir o'quvchilarning bilim va malakalari talab etiladi.

11) $50 - 4$ - yaxlit ikki xonali sondan bir xonali sonni ayirish usuli

Bu misol yechilishida o'n ichida son tarkibi, yig'indidan sonni ayirishga doir o'quvchilar bilimiga tayangan holda ish ko'riladi.

$$50 - 4 = (40 + 10) - 4 = 40 + (10 - 4) = 40 + 6 = 46$$

12) $38 + 42$ – ikki to'la ikki xonali son yig'indisi yaxlit son hosil bo'ladigan hisoblash usuli

Bu hisob usulida yig'indiga yig'indini qo'shish, songa yig'indini qo'shish, yig'indiga sonni qo'shish sonlarni qo'shishni maxsus usullaridan foydalanib yig'indini topish mumkin. Hisoblashning ayrim variantlarini keltiramiz:

$$a) 38 + 42 = (30 + 8) + (40 + 2) = (30 + 40) + (8 + 2) = 70 + 10 = 80$$

$$b) 38 + 42 = (30 + 8) + 42 = (30 + 42) + 8 = 72 + 8 = 80$$

$$c) 38 + 42 = 38 + (40 + 2) = (38 + 40) +$$

$$2 = 78 + 2 = 80$$

$$d) 38 + 42 = (38 + 2) + (42 - 2) = 40 + 40 = 80$$

13) $50 - 27$ - yaxlit ikki xonali sondan to'la ikki xonali sonni ayirish

Bu hisob usulida sondan yig'indini ayirish xossasidan ahamiyatli.

$$50 - 27 = 50 - (20 + 7) = 50 - 20 - 7 = 30 - 7 = 23$$

14) $54 + 46$ – to'la ikki xonali sonlar yig'indisi 100 soni hosil bo'lgan holdagi hisob usuli. Bunda yig'indiga yig'indini qo'shish, songa yig'indini qo'shish, yig'indiga sonni qo'shish xossalaridan foydalanib hisoblashni bajarish mumkin.

$$a) 54 + 46 = (50 + 4) + (40 + 6) = (50 + 40) + (4 + 6) = 90 + 10 = 100$$

$$b) 54 + 46 = (50 + 4) + (40 + 6) = (50 + 40) + (4 + 6) = 90 + 10 = 100$$

$$c) 54 + 46 = 54 + (40 + 6) = (54 + 40) + 6 = 94 + 6 = 100$$

$$d) 54 + 46 = (54 - 4) + (46 + 4) = 50 + 50 = 100$$

O'quvchilar uchun qiyinroq hisob usullaridan biri bu 100 sonidan bir xonali, ikki xonali sonlarni ayirish usullaridir.

15) $100 - 8$ hisob usulida yig'indidan sonni ayirish 10 ichida son tarkibiga doir bilimlar kerak bo'ldi.

$$100 - 8 = (90 + 10) - 8 = 90 + (10 - 8) = 90 + 2 = 92$$

$100 - 28$ - hisob usulida yig'indidan yig'indini ayirish xossasidan foydalanib hisoblash bajarilishi maqsadga muvofiqdir.

$$100 - 28 = 100 - (20 + 8) = 100 - 20 - 8 = 80 - 8 = 72$$

XULOSA. Ikki xonali sonlarni o'nlikdan o'tib qo'shish va ayirish usullarini og'zaki hisoblash mumkin. Unda arifmetik amal xossalari, son tarkibi, ikki xonali sonlar

MAKTABGACHA YOSHDAGI AQLIY RIVOJLANISHIDA MUAMMOSI BO'LGAN BOLALARNING MAKTAB TALIMIGA YETUKLIGINI O'RGANISGA QARATILGAN ISHLAR

TOSHPULOVA NODIRA

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti Pedagogika-psixologiya fakulteti Maxsus pedagogika kafedrası stajyor o'qituvchi

Anatatsiya: Maqolada, uzluksiz ta'lim tizimida, maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta'lim turlarida katta o'zgarishlar yuz berdi. Ta'lim tizimini muntazam isloh etish, o'qitishning zamonaviy usul va vositalarini takomillashtirish, ta'lim mazmunini boyitib borish, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotga oid chuqur o'zgarishlar kundalik turmushimizga kirib kelishi yuzasidan ma'lumotlar berilgan

Kalit so'zlar: Aqli zaiflik, yetuklik, nuqsonli bolalar, jismoniy, shaxsiy (ruxiy), aqliy maxsus tayyorgarlik, kognitiv faoliyat, barqaror ijobiy hissiy munosabatlar, topshiriqni taqdim etish shakllari (ob'ektiv, majoziy, mantiqiy), og'zaki ifodalash, faoliyatni og'zaki dasturlash, operativ tomondan o'z-o'zini nazorat qilish.

Аннотация: В статье в системе непрерывного образования, дошкольного образования, общего среднего образования, среднего специального, профессионального образования, высшего образования, повышения квалификации и переподготовки кадров, внешкольного образования произошли серьезные изменения в типах почв. Предоставляется информация о регулярном реформировании системы образования, совершенствовании современных методов и средств обучения, обогащении содержания образования, глубоких изменениях в социальной, политической, экономической и культурной жизни, входящих в нашу повседневную жизнь.

Ключевые слова: Умственная отсталость, незрелость, дети с ограниченными возможностями здоровья, физическая, личностная (умственная), психическая специальная подготовка, познавательная деятельность, устойчивые положительные эмоциональные отношения, формы предъявления задач (предметная, образная, логическая), речевое выражение, вербализация программирования деятельности, самообразование контроль с оперативной стороны.

Abstract: In the article, in the continuous education system, preschool education, general secondary education, secondary special, vocational education, higher education, personnel qualification improvement and retraining, extracurricular education There have been major changes in the types of soil. Information is provided on the regular reform of the education system, improvement of modern teaching methods and tools, enrichment of educational content, deep changes in social, political, economic, and cultural life entering our daily life.

Keywords: Mental retardation, immaturity, children with disabilities, physical, personal (mental), mental special training, cognitive activity, stable positive emotional relationships, forms of task presentation (objective, figurative, logical), verbal expression, verbalization of activities programming, self-control from the operative side.

O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim to'g'risidagi Nizomga muvofiq bola maktabgacha ta'limni uyda, ota-onalarning mustaqil ta'lim berishi orqali yoki doimiy faoliyat ko'rsatadigan maktabgacha ta'lim muassasalarida, shuningdek maktabgacha ta'lim muassasalariga jalb qilinmagan bolalar

uchun maktabgacha ta'lim muassasalarida, maktablarda, maxallalarda tashkil etilgan maxsus guruxlar yoki markazlarda oladi. Bu yerda ular haftada 2-3 marta shug'ullanishadi. Ota-onalarga maktabgacha ta'lim shaklini tanlash xuquqi beriladi.

Aqli zaif bolalar maktabga borganda bir

tomonda bilim faoliyatining rivojlamaganligi bilan, ikkinchi tomondan yangi bolalar jamoasiga kirishib ketishi uchun psixologik tayyorgarlikning yoʻqligidan qiynaladilar. Kattalar va tengdoshlari bilan muloqot vositalarining yoʻqligi, moʻljal olishning shakllanmagan yangi, muammoli vaziyatlar echimini tushunmasligi, aqli zaif bolalarning koʻpchilik hollarda bolalar jamoasidan chetga chiqib qolishiga, shu bilan muloqotga imkoniyatsizligiga, shaxsda turli xususiyatlarning, yangi faoliyatdan voz kechish, indamaslik, hatto agressiv boʻlish kabi holatlarni paydo boʻlishiga olib keladi. Aqliy rivojlanishida muammosi boʻlgan 5-6 yoshli bolaning maktab taʼlimiga tayyorligini aniqlashda maktabgacha yoshdagi bolalar taʼlim-tarbiyasi bilan shugʻullanuvchilar asosiy shart hisoblanmish – bolaning maktabga tayyorligi maktabgacha va maktab davridagi hayot tarzi hamda faoliyati uchun koʻprik vazifasini utashini, oila yoki maktabgacha taʼlim muassasadagi taʼlim-tarbiya sharoitlarida maktab taʼlimiga ozorsiz oʻtkazishni taʼminlash zarurligini hisobga olishlari lozim.

Maktabgacha yoshdagi bolaning maktab taʼlimiga oʻtishi hamisha uning hayoti, ahloqi, qiziqishi va munosabatlarida anchayin jiddiy oʻzgarishlarni yuzaga chiqaradi. Shuning uchun bolani yoki uydayoq maktab taʼlimiga tayyorlash, uni uncha qiyin boʻlmagan bilim, tushuncha, koʻnikma va malakalar bilan tanishtirish kerak boʻladi. Yetakchi mutaxassislarning fikriga koʻra «Maktabga tayyorgarlik» tushunchasi bolani maktabga tayyorlashning quyidagi yunalishlarini oʻz ichiga oladi:

- jismoniy,
- shaxsiy (ruxiy),
- aqliy
- maxsus tayyorgarlik.

Jismoniy tayyorgarlik bolaning sogʻlomligi, harakat koʻnikmalari va sifati, qoʻl mushaklari va koʻrish-motor muvofiqligi rivojlanganligi bilan izohlanadi. Shaxsiy tayyorligi, atrof-muxitga, kattalarga, tengdoshlariga, oʻsimliklar

dunyasiga, tabiiy hodisalarga, shaxsiy madaniyatni shakllanganligini nazarda tutadi. Aqliy tayyorgarlik bola obrazli va mantiqiy fikrlashi, tasavvoʻrning, odamiylikning, bilimga qiziqishning, mustaqilligining, oʻzini-oʻzi nazorat qilishga, hamda oʻquv faoliyatini kuzatish, eshitish, eslab qolish, solishtirish kabi asosiy turlarini bilishni oʻz ichiga oladi. Bolaning maktabda taʼlim olishi samarasi uning ona tilini bilishiga va nutqni kanchalik rivojlanganligiga koʻproq bogʻliq boʻladi. Chunki butun oʻquv faoliyati shularga, yaʼni nutqiy mantiqiy rivoji, bolaning kattalarning yordamisiz mustaqil fikrlashi, til rivojlanganligi yutuklarida erkin foydalana olishi, hikoya qilish, mulohaza yuritish, oʻz tasavvurini izohlay olish, tushunarli qilib bayon etish kabi omillar asosiga quriladi.

Shuningdek, bolaning maktabda taʼlim olishi uchun amaliy intellekt rivoji yaʼni, uning namunani chizish, aytib turiladigan bayoniy topshiriqni bajarishi ham muhim sanaladi. Va nihoyat, maxsus tayyorgarlik bolani savodxonlikka oʻrgatish va uning maktabning 1- sinf oʻquv dastur materialini yetarli darajada egallash haqidagi tushunchasini shakllantirishni nazarda tutadi. Bolalarni maktabda oʻqitishning samaradorligini kup jihatdan ularning tayyorgarlik darajalariga bogʻliq boʻladi. Maktabda oʻqishga tayyorgarlik – maktabgacha taʼlim muassasasi va oilada maktabgacha tarbiya yoshidagi bolaga kuyadigan talablar orqali aniqlanadi. Bu talabalarning oʻziga xos tomoni oʻquvchining yangi sotsial psixologik oʻrni, u bajarishga tayyorlangan boʻlishi lozim. Yangi vazifa va burchlardan kelib chiqadi.

Maktabga kirish bola hayotidagi odatiy turmush tarzi, atrof-dagilar bilan munosabat sistemasining oʻzgarishiga aloqador muhim davrdir. Bola hayotida birinchi bor markaziy oʻrinni ijtimoiy ahamiyatga ega boʻlgan oʻquv faoliyati egallaydi. Unga odatiy boʻlgan erkin oʻyin faoliyatidan farqli oʻlaroq, endi taʼlim majburiy boʻladi va birinchi sinf oʻquvchisidan 4 ta jiddiy munosabat talab qilinadi.

Taʼlim faoliyatining yetakchi turi sifatida

bolaning kundalik hayot jarayonini qayta quradi: kun tartibi o'zgaradi, erkin o'yinlar vaqti qisqaradi. Bolaning mustaqilligi va uyushganligi, uning ishchanligi va intizomlilikka talablar jiddiy ravishda ortadi. Maktabgacha yoshdagi bolalikka nisbatan o'quvchining o'z xatti-harakati, majburiyatlarini bajarishga shaxsiy ma'suliyati ancha-muncha ortadi.

Bolalarni maktabga tayyorlash, birinchidan bolalar MTTsida tarbiyaviy ishni maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni umumiy, xar tomonlama rivojlantirishning yukori darajasini ta'minlaydigan, ikkinchidan bolalarni maktabning boshlangich sinflarida o'zlashtirishlari lozim bo'lgan o'quv fanlarini egallashga maxsus tayyorlashni ta'minlaydigan qilib tashkil etilishini nazarda tutadi. Shunga ko'ra zamonaviy psixologik-pedagogik adabiyotda tayyorgarlik tushunchasi bola shaxsining rivojlantirish sifatida aniqlanadi va ikkita o'zaro boglangan jihatlarida:

«Maktabga o'qishga umumiy psixologik tayyorgarlik» va «Maxsus tayyorgarlik» tarzida ko'rib chiqiladi. Maktabga umumiy tayyorgarlik MTTsining maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni xar tomonlama tarbiyalashga oid davomli, maqsadga muvofiq ta'lim-tarbiyaviy ishning muhim yakuni sifatida namoyon bo'ladi. Maktabga umumiy tayyorgarlik bolaning maktabga borish vaqtiga kelib aqliy, ma'naviy, estetik va jismoniy rivolanishda erishgan shunday darajasidirki, u bolaning maktab ta'limining yangi sharoitlariga va o'quv materialining ongli egallashga faol kirib borishlari uchun zarur asosni yaratadi.

Aqliy rivojlanishda bolaning hissiy holati alohida ahamiyatga ega. Tuyg'ular - bu boshdan kechiriladigan ruhiy jarayonlar va holatlarning alohida sinfidir turli shakl insonning predmetlarga munosabati va voqelik hodisasi. Og'zaki intellekt darajasi, e'tiborning beqarorligi, o'quv faoliyatiga e'tibor qaratish va aqliy zaif bolalarning hissiy-irodaviy sohasi o'rtasida sezilarli bog'liqliklar mavjud. Emotsional-irodaviy sohaning

rivojlanmaganligi aqliy zaif bola tizimli ta'limga o'tganda o'zini namoyon qiladi.

Aqli zaif bolalar bilim va malaka jihatidan maktabga borishga tayyorgarligi sust bo'ladi. Ular asab tizimining zaiflashgan holati bilan kuchayadigan o'rganishda qiyinchiliklarga duch kelishadi - ular asabiy charchoqni boshdan kechirishadi, buning natijasida tez charchash, yomon ishlash holati kuzatiladi.

1-darajali. Bola faoliyatda faol ishtirok etadi, u kognitiv faoliyatga barqaror ijobiy hissiy munosabat bilan ajralib turadi, topshiriqni taqdim etish shaklidan (ob'ektiv, majoziy, mantiqiy) qat'i nazar, og'zaki ifodalashga qodir, faoliyatni og'zaki dasturlaydi; operativ tomondan o'z-o'zini nazorat qilishni amalga oshiradi.

2-darajali. Vazifalar kattalar yordamida amalga oshiriladi, o'z-o'zini nazorat qilish usullari shakllanmaydi, bola faoliyatni dasturlashtirmaydi. Ushbu darajadagi xususiyatlardan kelib chiqqan holda, bilimlarni o'zlashtirishning umumiy qobiliyatini shakllantirish bo'yicha bolalar bilan pedagogik ishning yo'nalishlarini ajratib ko'rsatish mumkin: kognitiv faoliyatga barqaror ijobiy munosabatni shakllantirish, jarayonda o'z-o'zini nazorat qilish usullari. faoliyati.

3-daraja. Barcha tarkibiy qismlar uchun optimal yosh ko'rsatkichlaridan sezilarli darajada orqada qolish. Bolalar vazifalarni bajarish uchun tashkiliy yordam etarli emas. Bolalarning xulq-atvori reaktivdir, ular topshiriqdan xabardor emaslar, ular ob'ektiv ravishda berilgan natijaga erishishga intilmaydilar, ular bo'lajak faoliyatni og'zaki shaklda dasturlashtirmaydilar. Ular o'zlarining amaliy harakatlarini nazorat qilish va baholashga harakat qilishadi, lekin umuman olganda, faoliyatning barcha bosqichlarida o'z-o'zini tartibga solish mavjud emas.

4-daraja. Psixologik jihatdan u bolalarning optimal yosh ko'rsatkichlaridan yanada sezilarli kechikishini ifodalaydi. Ish mazmuni mavjud emas.

5-daraja. Bolakattalarning ko'rsatmalaridan

faqat faoliyat shaklini - chizish, aytib berishni ushlaydi.

Umumiy tayyorgarlik bola maktab ta'limiga o'tish davriga kelib erishadigan psixik rivojlanishning muayan darajasi bilan ifodalanadi. Psixologik tayyorgarlik tushunchasi maktab ta'limi no'qitainazaridan 1 sinfga borayotgan bola psixik rivojlanishidagi muhim sifat ko'rsatkichlarini muvoffakiyatli jamlaydi. Maktab ta'limiga psixologik tayyorgarlik bolaning o'qishga intilishi o'quvchi bo'lish ishtiyokida bilish faoliyati va tafakkur operatsiyalarining yetarlicha yukori darajasi bolaning o'quv faoliyati elementlarini egallashi iroda va ijtimoiy rivojlanishning muayan darajasida namoyon bo'lishda asoslangan tayyorlikni o'z ichiga oladi.

Bolani maktabga psixologik tayyorgarligining barcha komponentlari bolani sinf jamoasiga olib kirish maktabda o'quv materialini ongli faol egallash keng doiradagi maktabga oid majburiyatlarni bajarishni qamrab oladi.

Bolani maktabga maxsus ravishda tayyorligi maktabda o'qishga umumiy psixologik tayyorligiga qo'shimcha dir u bolada matematika va ona tili kabi o'quv fanlarini urganish uchun zarur bo'lgan maxsus bilim, ko'nikma va malakalarning mavjudligiga ko'ra aniqlanadi.

Maktabgacha ta'lim muassasada bolalarda eng oddiy matematika tasavvurlarini tarkib toptirish, nutqni ustirish hamda savodni egallashga tayyorlanish yuzasidan o'tkaziladigan jadal ish bolalarni maktabda o'qishga maxsus tayyorlashning zarur darajasini ta'minlaydi. Maktabga qatnaydigan bola yangi turmush tarziga kishilar bilan o'zaro munosabatning yangi sistemasiga, faol aqliy faoliyatga tayyorlangan bo'lishi darkor. U yangi jiddiy majburiyatlarni uddalashi uchun jismoniy rivojlanishda muayan darajaga erishgan bo'lishi kerak. Bolaning maktabda (o'qishga ahloqiy-irodaviy tayyorgarlik) umumiy tayyorligi mazmunida bir necha o'z aro boglangan jihatlar mavjud bo'lib, ulardan

muhimlari ma'naviy, irodaviy, aqliy, jismoniy tayyorgarlikdir.

Rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimida Course lab, ispring, autoplay, Automax, Adobe dreamweaver kabi dasturiy ta'minotlaridan foydalanish, san'at fanlarni rivojlanishi, innovatsion texnologiyalarni joriy qilish orqali ta'lim jarayoni takomillashtirish bo'yicha amaliy ishlar olib borilmoqda. Shuningdek, jahonda fan va texnologiyani rivojlantirishga bo'lgan e'tiborning ortib borishi san'at sohasida zamonaviy texnologiyalar imkoniyatlaridan keng foydalanish, darslarda dasturiy mahsulot hamda elektron darslik, kreativ texnologiyalarni tatbiq etishga asos bo'lmoqda. Hozirgi zamonaviy ta'lim muassasalarida yangi dasturiy mahsulotlar va multimedia grafik kontentlar, ko'rgazmali virtualstendlar hamda majmualar bilan to'ldirilmoqda. Zamon rivojlanishi natijasida kundalik hayotimizga turli hil innovatsion texnologiyalar hamda gadjetlar kirib keldi va ular yildan-yilga mukammallashib bormoqda. Bular inson hayoti mazmuniga aylanib qolganligi, ularsiz bir kunini ham tasavvurqila olmaydiganlarning mavjudligini ham inkor qilib bo'lmaydi. Albatta, ta'lim jarayonini innovatsion texnologiyalar bilan boyitish o'qitish sifatini oshirishga, qiziqarli,

rang-barang qilishiga allaqachon amin bo'lganmiz va hozirda har bir o'qituvchi ulardan foydalanadi. Shu o'rinda, dasturiy mahsulotlar hamda elektron o'quv darslik va qo'llanmalarga to'xtalib, ularning yutuq va kamchiliklarini ko'rib chiqsak.

Elektron darslik va qo'llanmalar maxsus qurilma yoki dasturiy ta'minot bo'lib, ta'lim jarayonida an'anaviy qog'oz kitob o'rnini bosadi. Bugungi kunga kelib elektron kitob tushunchasiga turlicha ta'riflar mavjud. Ayrim manbalarda ular an'anaviy qog'oz kitoblarning elektron ko'rinishi deyilsa, boshqalarda matnlardan tashqari, o'quvchilarga taqdim qilish uchun ta'limiy multimedia materiallariga hamda markaziy manba tomonidan yangilanib turuvchi, bilimlarni nazorat qiluvchi interaktiv blokga ega elektron qurilmalardagi murakkab dasturlar yig'indisi deya ta'riflanadi. Elektron darsliklarning so'nggi vakillari ustida qayta ishlash jarayonlari olib borilayotganligi sababli zamonaviy elektron darsliklar asosan tasvirli matnlardan iborat. Deyarli barcha o'qituvchilar ularning o'quvchilar tomonidan oson qo'llanilishi, texnik qurilma yordamida fanga bo'lgan qiziqish va motivatsiyaning ortgani, darsda va uyda maroq bilan foydalanishlari haqida ta'kidlaydi.

Dasturiy mahsulotlar hamda elektron darslik va qo'llanmalar bilan o'qitish orqali yetuk mutaxassis bo'lib yetishishning nazariy va amaliy jihatlari bilan ajdodlarimiz ham yosh avlodni kasb-hunar o'rgatish, ustozshogird tizimida tarbiyalab, yetuk, tarbiyali, el-yurt taraqqiyoti uchun xizmat qiluvchi inson bo'lib yetishishiga katta ahamiyat berishgan. O'rganilayotgan muhim muammo bilan xorijiy olimlar ham o'zlarining tadqiqotlarida ko'plab ta'riflar berganlar. Matthew D. Barton, August Namuth, Bruce Chase, Atiyah Curmally, A Nurwijayanti,

Budiyono, L.Fitriana, Lee, Choon-Sig, A. B. Кайсина, М.Белоусов kabilar bunday elektron adabiyotlar talabalarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish imkonini berishini ta'kidlaganlar.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda xalqaro ta'lim standartlariga uyg'un holda oliy ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonlarining samaradorligini oshirish, kadrlar tayyorlash sifatini hamda raqobatbardoshligini ta'minlash, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng tadbqiq etishning samarali metodlarini ishlab chiqilmoqda. Shuningdek, o'quv jarayonida virtual va multimedia texnologiyalar asosida yaratilgan yangi avlod o'quv adabiyotlaridan foydalanish jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Bu borada, "uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ta'lim muassasalarini qurish, ularni zamonviy o'quv va laboratoriya asboblari, kompyuter texnikasi va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan jihozlash orqali ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash yuzasidan maqsadli choratadbirlarni ko'rish, ilmiy tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish" [3] ustuvor vazifalar etib belgilangan. Bu esa, hozirgi kundagi global o'zgarishlar, oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarini tayorlashda dasturiy mahsulotlar hamda elektron o'quv adabiyotlarining yangi avlodlarini yaratish va ularni qo'llash metodikasini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. Shuningdek, so'nggi yillarda taniqli olim va tadqiqotchilarning fikriga ko'ra Interaktiv ta'limning o'quv jarayoniga faol kirib kelishi natijasida pedagogikada Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dastur", "Dasturiy mahsulotlar davlat reestri", "interaktiv o'quv majmuasi",

“Interaktiv o‘qitish vositasi” va “interaktiv elektron darslik va o‘quv qo‘llanma” kabi atamalar paydo bo‘ldi. [7; 5-b, 8; 5-b, 9; 6-b].

Ta’limga dasturiy mahsulotlar hamda elektron o‘quv darslik va qo‘llanmalarni joriy etish, xususan, elektron o‘quv adabiyotlarini yaratish usullari va texnologiyalarini ishlab chiqish hamda ta’lim tizimida keng foydalanish muammolari bo‘yicha Respublikamiz olimlari F.J.Toxirov, M.Z.Qambarov, I.I.Umirov, X.A.Umarov, A.A.Isxaqov, M.A.Tursunov, G.V.Sharapova, M.S.Usmonov, S.G‘. Siddiqova, J.X.Donaeva, X.X.Muratov, E.A.Mo‘minov, G.A.Botirbekova va boshqalar o‘z ishlarida tadqiq qilganlar. F.J.Toxirov oliy ta’lim muassasalarida talabalarning dasturlashga oid algoritmik fikrlashini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish [4; 6-b]; M.Z.Qambarov ta’limni axborotlashtirish sharoitida bo‘lajak muhandislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish [5; 5-b]; I.I.Umirov elektron ta’lim vositalari yordamida talabalarda texnologik kompetensiyani rivojlantirish metodikasi [6; 6-b]; X.X.Muratov elektron ta’lim resurslari va multimediali elektron o‘qitish vositalari orqali ta’lim muhitining rivojlanishi [12; 1132-b] kabi muammolar ustida tadqiqotlar olib borganlar.

Elektron darsliklar innovatsion texnologiyalarning turi sifatida va ta’lim sifatini oshirish masalalarida bir qancha olimlar: G.A.Botirbekova [13; 799-b], X.X.Muratov [11; 21-b], F.M.Tadjieva [14; 39-b], J.X.Donaeva [10; 55-b], D.S. To‘xtasinova va V.S.Xamidovlar elektron o‘quv adabiyotlarini yaratish va rasmiylashtirish [15; 11-b], innovatsion elektron darsliklarga bag‘ishlangan ilmiy-tadqiqotlarida o‘rganganlar.

Malakali pedagog olim D.S.To‘xtasinova va V.S.Xamidovlar tibbiy ta’lim muassasalari

pedagoglar uchun uslubiy qo‘llanmasi ham biz tadqiq etayotgan muammo bo‘yicha dolzarb masalalarga bag‘ishlangan bo‘lib, elektron o‘quv adabiyotlar bilim oluvchilarning tasavvurini kengaytirishga, dastlabki bilimlarini rivojlantirish va chuqurlashtirishga, qo‘shimcha ma’lumotlar bilan ta’minlashga mo‘ljallangan bo‘lib, ko‘proq chuqurlashtirib o‘qitiladigan fanlar bo‘yicha yaratiladi. Uzluksiz ta’lim tizimida fan va texnologiyalar rivojlangan sari mazmuni tez o‘zgaruvchan, chuqurlashtirilib o‘qitiladigan, umumkasbiy va maxsus fanlar bo‘yicha kam adadli elektron o‘quv adabiyotlari tayyorlashga bo‘lgan ehtiyoj ortib bormoqda. [15; 5-b].

Tadqiqotchi S.G‘.Siddiqovanning “Professional ta’limda maxsus fanlardan elektron ta’lim resurslarining yangi avlodini yaratish va amalda tatbiq etish metodikasi” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi Professional ta’lim tizimida maxsus fanlarni o‘qitishda elektron ta’lim resurslarining yangi avlodini yaratish va ulardan foydalangan holda o‘quv mashg‘ulotlarini takomillashtirish mexanizmlari va metodlari yetarlicha ilmiy asoslanmaganligi, professional ta’lim amaliyotida joriy etish muammolarining dolzarbligligi va pedagogik jihatdan to‘liq tadqiq qilinmaganligi, o‘z yechimini kutayotgan muammolardan ekanligidan dalolat beradi. [9; 7-b].

Turli soha pedagog olimlarining ta’kidlashiga ko‘ra, talabalarga fanlardan shunday elektron darsliklar yaratish kerakki, undan mustaqil foydalanganda professor-o‘qituvchilar talabaning bajarayotgan barcha amallarini nazorat qila olishi lozim. Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalaridagi axborot ta’lim muhitiga o‘zaro axborotli ta’sir muhiti sifatida qaralib, talabalar, magistrantlar hamda ilmiy izlanuvchilarning axborotga, maxsus apparat va dasturiy

vositalarga bo'lgan talab-ehtiyojlarini qondirish maqsadi ko'zda tutiladi. Mazkur axborotli o'zaro aloqa tarkibiga: insonlararo kommunikatsiya vositalari (elektron pochta, telefon aloqasi, chatlar, forumlar, videokonferensiyalar va boshqalar), tashqi va ichki axborot resurslariga ulanish, shuningdek, o'quvchilarga taqdim etiladigan axborot resurslarining o'zi kiradi. Oliy ta'lim muassasalari asosiy axborot resurslarini turli fanlarni o'rganishga oid elektron darsliklar tashkil etadi. Elektron darslik deyarli barcha axborotli materiallarni yagona axborot majmuasiga jamlash imkonini beradi. Bundan tashqari, unda hozirgi kunda talab etiladigan zarur interaktivlik, ko'rgazmalilik, mobillik, ixchamlik va ularni ko'paytirishda kam xarajat sarflash, ko'p variantlilik, ko'p bosqichlilik hamda tekshirish uchun topshiriqlar va testlar hajmining ko'p bo'lishini ta'minlaydi. Zamonaviy elektron darsliklarining afzalligi, avvalo, o'quv jarayonida o'quvchilarning mustaqillik va faollik rolini samarali tashkil etishdan iborat. Ta'lim jarayoniga elektron darslikni joriy etish talabalarga fan bo'yicha axborotning to'liq manzarasini namoyish etish, o'quv materialini mustaqil o'zlashtirishini ta'minlash, o'qitishni individuallashtirish, nazorat va o'z-o'zini nazoratni takomillashtirish, o'quv jarayonini natijaviyligini oshirishga yordam beradi. Bundan tashqari, zamonaviy elektron darsliklarning afzalligiga dars jarayonining yanada qiziqarli o'tishini ta'minlash xususiyatini kiritish mumkin. [11; 20-b].

Shuni alohida e'tirof etish kerakki, o'qitishning interaktivligini ta'minlash, o'quv fanlarini o'qitishning o'ziga xos tomonlarini inobatga olgan holda, ma'lum bir tartibda bajarilishi kerak. Elektron darslik o'rganuvchiga takroriy o'quv-mashq amallarini bajarish va nazorat

qilishning turli xil imkoniyatlarini yaratishi lozim. Elektron darslik yordamida amalga oshiriladigan elektron muloqotni tashkil etish tadbirlariga, asosan, amaliy mashg'ulot shaklida o'qitish jarayonini shakllantirish, nazorat qilish, tanlangan javoblarning ma'qulligini tekshirish, matematik hisob, javoblarning to'g'riligini tekshirish, grafik ma'lumotlarning kiritilishini nazorat qilish, cheklanmagan shaklda analitik ifoda kiritilishining nazorati kabilar kiradi. Ta'lim jarayonida qo'llaniluvchi elektron darslik qaysi darajaga taalluqli bo'lishidan qat'i nazar, uning yaratilishi konkret tamoyillar asosida amalga oshirilishi lozim. Uslubiy adabiyotlar tahlili dasturiy mahsulotlar orqali o'qitishdagi faoliyatining muammolari nazariy jihatdan ancha chuqur ishlab chiqilganligini ko'rsatdi. Biroq, oliy ta'lim tizimida bo'lajak pedagog kadrlarni kasbiy tayyorlash masalalariga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar hali yetarli darajada tadqiq qilinmagan va u bugungi kunda yechimini topishi kerak bo'lgan sohalardan biridir. Tadqiqotimizning yo'nalishini to'g'ri belgilab olish uchun dasturiy mahsulotlar tushunchasini aniqlab olishimiz kerak bo'ladi. Zamonaviy falsafiy, pedagogik, psixologik, didaktik va uslubiy adabiyotlarda o'quvchilar va talabalar elektron adabiyotlarning turli jihatlari ko'rib chiqilgan. Biroq, ba'zi muammolarni hal qilishda ma'lum qiyinchiliklar mavjud. Shuning uchun "Dasturiy mahsulot" tushunchasining yagona talqini yo'q.

Ushbu masalani aniqlashda fikrlar turlicha bo'lishining sabablari quyidagicha: ba'zi mualliflar dasturiy mahsulotlar orqali o'qitish usullariga bog'laydilar (Зарубина В.С., Белоусов М.Г., Торлопова Н.И. va boshqalar). Shuningdek, dasturiy mahsulotlar orqali o'quv faoliyatining bir turi sifatida ham talqin qilinadi. Ba'zi tadqiqotchilar esa

o'qitish vositasi sifatida qaraydilar (Tadjieva F.M., Кайсина А.В., Алексеева Т.В., Губина Л.В. va boshqalar).

Dasturiy mahsulotlar, o'quv jarayoniga kiritilgan talabalarning ishi – o'qituvchining bevosita ishtirokisiz, lekin uning topshirig'iga binoan, ma'lum belgilangan vaqtda bajariladigan ish bo'lib, bunda o'quvchilar ongli ravishda o'z kuch-g'ayratlarini ishga solib, aqliy yoki jismoniy (yoki har ikkala) harakatlarining natijasini u yoki bu shaklda ifodalab, topshiriqda qo'yilgan maqsadga erishishga intilishlaridir. Elektron adabiyotlar dars jarayonida o'qituvchining roli, uning bevosita ishtiroki ham muhim bo'lib, u talabaning ijodiy faolligini takomillashtirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Ta'limda uzluksizlikni ta'minlash, metodik tizim deb ataluvchi maqsad, mazmun, metod, vosita, shakl kabi uning tarkibiy qismlari orasidagi uzviy aloqalarga bog'liq. Shu o'rinda hozir fanlarni o'qitish uchun tuzilgan o'quv fanlari davr talabiga javob bera oladimi? degan savol tug'iladi. Ta'limda xamma vaqt mazmun va metodlar muammosi mavjud bo'lib, bu muammolar bir-biri bilan uzviy bog'langan. Ta'lim metodlaridagi muammolar "kimni qanday o'qitamiz?" degan savol bilan bog'liq bo'lib, bundan ta'lim metodlarini ishlab chiqish uning mazmuniga bog'liq ekanligidan kelib chiqadi. Bu ikki muammo bir-biriga qarama-qarshilikda bo'lib, bir-birini to'ldirib boradi. An'anaviy o'qitish metodikasining kamchiliklari to'g'risida pedagogika sohasidagi ko'pgina adabiyotlarda fikrlar mavjud. Jumladan, V. I. Onishenko va M.N.Gendinlarning fikricha, xozirgi vaqtda ma'ruza – bu umumlashtiruvchi jarayonni bildirib, bir tomondan o'qituvchining ma'lumotlar berishini ta'minlasa, ikkinchi tomondan, u talabalarning qabul qilish

jarayonini ifodalaydi.

Dars jarayonida elektron nusxada berilgan o'quv-materiallardan o'quvchilarga beriladigan nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lab borish, bunda muammoli nazariyalarni vujudga keltirish, qo'yilgan muammoli o'quvchilar bilan birgalikda yechish, ularda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi, o'tilgan mavzu mohiyatini tushunib olishlariga yordam beradi. Ushbu muammoli o'qitish va o'quvchilarning mustaqil ishlashini tashkil qilish uchun axborot-pedagogik texnologiyalarga asoslangan multimediali elektron darsliklarning yaratilishi ayni muddaodir. Axborot texnologiyalarining multimedia vositalari asosida o'qitish jarayonini tashkil qilish metodikasi an'anaviy o'qitish uslubidan tubdan farqlanib, u pedagog xodimlar va o'quvchi-talabalar uchun: o'quv materiallarini obrazlar ko'rinishida taqdim etish; differensial va individual o'qitish jarayonini tashkil qilish; o'qitish jarayonini baxolash, teskari aloqa bog'lash; o'z-o'zini nazorat qilish va tuzatib borish; o'rganilayotgan fanlarni namoyish etish va ularning dinamik jarayonini ko'rsatish; fan mavzularida animatsiya, grafika, multiplikatsiya, ovoz kabi kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanish; o'quvchi-talabalarda fanni o'zlashtirish uchun strategik ko'nikmalar xosil qilish; o'quvchilarning mustaqil ishlashlari uchun yangi sharoit yaratish; masofadan o'qitish tizimini o'quv adabiyotlari sifatida qo'llash; ta'lim tizimida o'quv-laboratoriya ishlarini bajarishda tejamkorlikka erishish kabi imkoniyatlarni yaratadi. [18; 289-b].

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, ta'lim tizimi virtuallasuvi an'anaviy ta'limda uchraydigan ko'plab muammolarga yechim bo'lib, biz ta'lim uchun sinf xona, qat'iy belgilangan vaqt,

yo'l ovvoragarchiligi, zerikarli, bir tempdagi ma'ruza, o'tkazib yuborilgan mashg'ulot kabi masalalarga samarali yechim sifatida ko'riladi. Qolaversa, o'quvchining tanqidiy, ijodiy tafakkurlashiga asos bo'la oladi. Shuning uchun faqat bir fikr, men virtual va

global ta'lim hayotimizga zarardan ko'ra ko'proq foyda keltirganiga ishonaman, lekin u yuzma-yuz o'qitishning o'rnini bosmasligi kerak, aksincha, Sizga nima ko'proq yoqsa siz o'shani tanlab o'z ustingizda ishlash uchun harakat qilishingiz kerak.



Foydalanilgan adabiyotlar:



1. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 47 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 485 bet.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 4947-son Farmoni. // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 6-son. 70-modda.
4. Toxirov F.J. Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning dasturlashga oid algoritmik fikrlashini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish p.f.f.d. (PhD) dis.avtoref. Qarshi.-2022.
5. Qambarov M.Z. Ta'limni axborotlashtirish sharoitida bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish p.f.f.d. (PhD) dis.avtoref. Toshkent.-2023.
6. Umirov I.I. Elektron ta'lim vositalari yordamida talabalarda texnologik kompetensiyani rivojlantirish metodikasi p.f.f.d. (PhD) dis.avtoref. Jizzax.-2022.
7. Sharapova G.V. Immunologiya fanini o'qitish samaradorligini oshirishda elektron ta'lim resurslardan foydalanish metodikasini takomillashtirish p.f.f.d. (PhD) dis.avtoref. Chirchiq.-2023.
8. Usmonov M.S. Multimediyaviy texnologiyalar asosida interaktiv elektron o'quv kurslardan foydalanish metodikasini takomillashtirish p.f.f.d. (PhD) dis.avtoref. Jizzax.-2023.
9. Siddiqova S.G'. Professional ta'limda maxsus fanlardan elektron ta'lim resurslarining yangi avlodini aratish va amalda tatbiq etish metodikasi p.f.f.d. (PhD) dis.avtoref. Toshkent.-2023.
10. Donaeva J. X. Elektron darslik – ta'lim jarayoni unumdorligini oshirish vositasi. Современное образование (Uzbekistan), no. 6, 2015.
11. Muratov X.X. Elektron darsliklar – talabalar mustaqil ta'lim olishlarining muhim omili. Mug'allim ham yzliksiz bilimlendirio'. №3 2021 jyl, ISSN 2181-7138.
12. Muratov X.X. Elektron ta'lim resurslari va multimediali elektron o'qitish vositalari orqali ta'lim muhitining rivojlanishi. Academic research in educational sciences, vol. 2, no. 1, 2021, doi:10.24411/2181-1385-2021-00150.
13. Botirbekova G.A. Elektron darsliklar innovatsion texnologiyalarning turi sifatida. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, vol. 1, no. 10, 2021.
14. Tadjieva F. M. "The role of modern electronic literature in education". Current Research Journal of Pedagogics, vol. 4, no. 08, Aug. 2023, pp. 37-43, doi:10.37547/pedagogics-crjp-04-08-08.
15. D.S. To'xtasinova, V.S. Xamidov. Elektron o'quv adabiyotlarini yaratish va rasmiylashtirish uchun uslubiy qo'llanma
16. Д.С.Тўхтасинова, В.С.Хамидов. Электрон ўқув адабиётларини яратиш ва расмиллаштириш. Тиббий таълим муассасалари педагоглари учун услубий қўлланма.
17. Xolmuratovich, M. X. (2020). Tasviriy san'at fanidan mustaqil ta'limni tashkil etish va boshqarishda "ispring" dasturiy ta'minotining ahamiyati. Педагогика ва психологияда инновациялар, 10(3).
18. F.Yuldasheva. Multimedia vositalari asosida interaktiv elektron o'quv kurslar yaratish va undan foydalanish metodikasi. Образование и инновационные исследования (2021 год №6).

PEDAGOGIK KVALIMETRIYAGA KIRISH VA UNING O'RTA MAKTAB (10-11-SINF) O'QUVCHILARINING BILIMLARINI BAHOLASHDAGI ROLI

ABDULXAFIZOV BUNYOD XAKIMJONOVICH

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi
Bilim va malakalarni baholash agentligining Namangan viloyatidagi bo'limi
boshlig'i

Annotasiya. Bu ilmiy maqolada pedagogik kvalimetriyaning o'quvchilarning bilimlarini baholashdagi roli va unga kirishning o'rtacha maktab darajasida (10-11-sinf) o'quvchilarga ta'siri o'rganiladi. Maqolada kvalimetriyaning tadqiqotlar, tahlillar, vaqtiy baholashning o'quvchilarni o'zlashtirish, ta'lim jarayonini yaxshi boshqarish, o'qituvchilarning dars berish usullarini takomillashtirish, talabalar orasidagi qat'iy va tashqi baholarni amalga oshirish, va ta'limning sifatini oshirishda o'z ta'siri haqida gaplar keladi. Maqolada pedagogik kvalimetriyaning tuzilishi, asosiy tushunchalari, o'ziga xos xususiyatlari, o'quvchilarning o'zlashtirish jarayonida qanday yordam berishi va o'rtacha maktabning 10-11-sinf o'quvchilarining bilimlarini baholashda qanday rol o'ynashi to'g'risida tahlil qilinadi. Ushbu maqola o'quvchilarni o'zlashtirish va ta'lim sifatini oshirishda pedagogik kvalimetriyaning qanday muhim rolni o'z ichiga olganligini o'rgatadi.

Kalit so'zlari: pedagogik kvalimetriya, o'quvchilar, bilimlar baholash, o'rtamaktab (10-11-sinf), ta'lim jarayoni, ma'lumot tahlili, o'zlashtirilgan bilimlar, ta'lim muvofiqiyati, ta'lim metodlari, baholash usullari, tadqiqot, o'rganish, maqsad va vazifalar, pedagogik amaliyot, o'qituvchi o'quvchilar munosabati.

Аннотация. В этой научной статье исследуется роль педагогической квалиметрии в оценке знаний учащихся и влияние доступа к ней на учащихся на уровне средней школы (10-11 классы). В статье рассказывается о влиянии исследований, анализа, временных оценок квалификаций на усвоение учащимися знаний, лучшее управление учебным процессом, улучшение методов преподавания учителей, проведение строгих и внешних оценок среди учащихся, а также на повышение качества образования. В статье анализируется структура, Основные понятия, особенности педагогической квалиметрии, как она помогает учащимся в процессе усвоения и какую роль играет в оценке знаний учащихся 10-11 классов средней школы. В этой статье рассказывается, какую важную роль играет педагогическая квалиметрия в обучении учащихся и повышении качества образования.

Ключевые слова: педагогическая квалиметрия, учащиеся, оценка знаний, средняя школа (10-11 класс), образовательный процесс, анализ данных, усвоенные знания, соответствие образования, методы обучения, методы оценки, исследования, обучение, цели и задачи, педагогическая практика, отношение учителя к ученикам.

Annotation. This scientific article explores the role of pedagogical qualimetry in assessing students' knowledge and the impact of access to it on students at the secondary school level (grades 10-11). The article describes the impact of research, analysis, and time assessments of qualifications on the assimilation of knowledge by students, better management of the educational process, improvement of teaching methods of teachers, conducting rigorous and external assessments among students, as well as improving the quality of education. The article analyzes the structure, basic concepts, features of pedagogical qualimetry, how it helps students in the learning process and what role it plays in assessing the knowledge of students in grades 10-11 of secondary school. This article describes the important role that pedagogical qualimetry plays in teaching students and improving the quality of education.

Keywords: pedagogical qualimetry, students, knowledge assessment, secondary school (grades 10-11), educational process, data analysis, acquired knowledge, education conformity, teaching methods, assessment methods, research, training, goals and objectives, pedagogical practice, teacher's attitude to students

Kirish. Pedagogik kvalimetriya, o'quv vosita sifatida kuzatiladi. Bu tizimning eng jarayoni va ta'lim tizimi taraqqiyotini baholash muhim qismi, o'quvchilarining bilim va va boshqarish uchun muhim metodologik ko'nikmalarini baholashdir. Maqolamizda

pedagogik kvalimetriyaning o'quvchilarning bilimlarini baholashdagi roli va uning o'rtacha maktab (10-11-sinf) bosqichidagi ahamiyati haqida gaplashamiz. O'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholashning maqsadi. Pedagogik kvalimetriya, o'quvchilarning o'zlashtirilgan ma'naviy va intellektual potentsialini aniqlash va uni rivojlantirish uchun muhim usullardan biridir. 10-11-sinf o'quvchilari o'z ta'lim yo'nalishlarida chuqur bilim va ko'nikma olishlari kerak. Pedagogik kvalimetriya, ularga bu yo'lga yo'naltirish va rivojlantirishda katta yordam beradi[1]. Bu baholash jarayoni, o'quvchilarni amaliy ravishda yaxshi tahlil qilish, ularga yo'nalish berish va ularni rivojlantirishning juda muhim qismini tashkil qiladi. Pedagogik kvalimetriya, o'quvchilarning xususiyatlari va yetenekliliklari haqida malumot to'plash uchun kerakli vositalarni o'z ichiga oladi. Bu, o'quvchilarning o'qish, yozish, matematika, fanlar va boshqa ko'nikmalar bo'yicha bilimlarini aniqlashni o'z ichiga oladi.

O'quvchilarning o'zlashtirilgan ko'nikmalarini (sifatlarini va qobiliyatlarini) baholash, ularning nima yaxshi qilishlari va nima yaxshi qilmayotganlarini aniqlash uchun muhimdir. Bu, o'quvchilarga o'zlarining yaxshi yo'nalishlarini aniqlash imkoniyatini beradi. O'quvchilarning kuchli va zaif yonlarini aniqlash, ularni ta'lim yo'nalishlariga yo'naltirish uchun asosiydir. Bu, o'quvchilarni ularga qiziqish, ularga maqbul talabalarni aniqlash va ularga kerakli yo'nalishni tanlashda yordam bera olish uchun foydalaniladi. Pedagogik kvalimetriya o'quvchilarni rivojlantirish jarayonini yaxshi tahlil qilish uchun qo'llaniladi. Bu, ularning ko'nikma va talablarini o'rganish va ularga yo'nalishlariga mos ravishda yordam bera olishni ta'minlaydi.

Pedagogik kvalimetriya, har bir o'quvchi uchun individual ravishda yo'nalish belgilash va ularning ma'lumiyatlarini oshirish uchun

yordam beradi. Bu, o'quvchilarni o'zlarining potentsialini maksimal darajada rivojlantirish imkoniyatini yaratadi. Pedagogik kvalimetriya, o'quvchilarning o'z bilim va ko'nikmalarini oshirishga qiziqishlarini oshirish va ularga maqsadlarini qo'yimoqda yordam beradi. Bu, o'quvchilarning o'zlarining o'qishni yaxshi ko'rishlari va rivojlantirishlari uchun motivatsiyasini oshirish uchun juda muhimdir[2]. Pedagogik kvalimetriya o'quvchilarning ta'lim va rivojlantirish jarayonini natijali va maqsadga mos ravishda boshqarish uchun juda muhim usuldir. Bu, o'quvchilarning o'zlarining potentsialini kuchaytirish va ularga o'zlarining hayot yo'nalishlarini topish va rivojlantirishlari uchun qulaylik yaratadi.

Ma'lumot olish jarayoni: Pedagogik kvalimetriya o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini o'rganish jarayonini amalga oshiradi. Bu jarayon o'qituvchilar uchun o'quvchilarning qanday ma'lumot olishlari, boshqarishlari, va rivojlantirishlari kerakligini aniqlashda yordam beradi. Pedagogik kvalimetriya, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini o'rganish va boshqarish jarayoni, o'qituvchilar uchun o'quvchilarning o'zlarining davom etadigan o'qish, o'rganish, va rivojlantirish jarayonlarini nazorat qilishga yordam beradi. Bu jarayon o'qituvchilar uchun quyidagi vazifalarni bajarishda yordam beradi. Ma'lumot olish: O'qituvchilar, o'quvchilarning joriy darajasini, bilimlari va ko'nikmalarini o'rganish uchun muhim ma'lumotlarni olishadi. Bu, sinovlar, topshirishlar, dars notlari, o'quv dasturlari va boshqa mazkur ma'lumotlar orqali amalga oshiriladi.

O'qituvchilar, o'quvchilarning qanday ma'lumot olishlari va o'rganishlari kerakligini tushunishadi. Bu, har bir o'quvchi o'z o'rganish uslubini, o'qituvchidan olish maqsadini, dars jarayonida ishtirok qilishini va ma'lumotni qanday boshqarishini aniqlashni o'z

ichiga oladi. O'qituvchilar, o'quvchilarni o'rganish jarayonida boshqarish uchun kerakli taqiqllovchi va muhokama qilish tajribasini olib boradi. Bu, o'quvchilarning qanday yordam olishi, ma'lumotlarni qanday mustahkamlashlari, o'rganish va yozish jarayonlarini boshqarishni o'z ichiga oladi. O'qituvchilar, o'quvchilarning o'rganishni yanada rivojlantirish uchun tavsiyalar va dasturlar taklif qilishadi[3]. Bu, o'quvchilarning ma'lumotlarini va ko'nikmalarini yanada yuqori darajada oshirishga yordam beradi.

Pedagogik kvalimetriya, o'quvchilarning o'rganish va rivojlantirish jarayonini o'z ichiga oladi va o'qituvchilar uchun o'quvchilarni yaxshi o'rganish va rivojlantirish uslublarini aniqlash va amalga oshirishda qo'llaniladi. Bu, o'quvchilarning o'zlarini mustahkamlashiga va o'rganishlarining natijalarini ko'rib chiqishga yordam beradi, shuningdek o'quvchilar va o'qituvchilar uchun o'quvni o'rganish va boshqarish uslublarini yanada yaxshi tuzishga yordam beradi.

Baholash va tahlil: Pedagogik kvalimetriya o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholash va tahlil qilishda foydalaniladi. Bu natijada, o'quvchilarning ma'lumot darajalari, rivojlanayotgan ko'nikmalar va tayyorliklari aniqlanadi. Bu ma'lumotlar asosida o'quvchi individual ta'lim yo'nalishini o'qituvchilarga yaxshi tushuntirish uchun qo'llaniladi. Pedagogik kvalimetriya o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholash va tahlil qilishning o'qituvchilar uchun muhim bir usuli. Bu usul, o'quvchilarning o'zlarining bilim, ko'nikma, va tayyorliklarini aniqlashda yordam beradi va ularning individual ta'lim yo'nalishini o'qituvchilarga yaxshi tushuntirish imkonini yaratadi. Quyidagi bosqichlarda bu jarayonning baho va tahlili haqida ko'proq ma'lumot berilgan.

O'quvchilarning bilim darajalari va

ko'nikmalari, sinflar yoki darslar bo'yicha o'qituvchilar tomonidan boshqarilgan imtihonlar, sinovlar, vazifalar, yozma va monolog ta'lim mashg'ulotlari yordamida o'qituvchilar tomonidan to'plangan ma'lumotlar asosida baholashga tayyorlanadi. To'plangan ma'lumotlar tahlil qilinadi va o'quvchilarning amaliyotlari va yeteneklari tahlil qilinadi. Bu tahlil o'quvchilarning har birining qo'shimchayordam va tushunchalarini aniqlashda yordam beradi. Ma'lumotlar, o'quvchilarning bilim, ko'nikmalar va tayyorliklarining turli ko'rsatkichlariga (masalan, fanlar, mavzular, amaliyotlar) bo'linadi[4]. Bu tasnif o'quvchilarning qanday ta'lim yo'nalishiga yo'naltirilishi kerakligini aniqlashda o'qituvchilarga yordam beradi. O'quvchilarning yoshini va ta'limning individual xususiyatlarini qondirish uchun baho va tahlil ma'lumotlari o'qituvchilarga o'quvchilarning qanday tarzda o'rganishlari va yoshlarini qo'llashlari kerakligini aniqlashda yordam beradi.

Tahlil natijalariga ko'ra, o'quvchilarning yaxshi yoki yomon yonlari aniqlanadi. Bu natijalar o'quvchilarni ko'rib chiqish va ularga eng optimal ta'lim yo'nalishini topishda yordam bera olish imkonini yaratadi. Baho va tahlil natijalari asosida o'qituvchilar o'quvchilarni qo'llash, ularning kuchlarini rivojlantirish va ularning tayyorliklari bo'yicha individual ta'lim yo'nalishini tayyorlashlari mumkin. Bu o'quvchilarning mahoratlarini oshirish va ularning o'zlarining hujjatlarini takomillashtirish imkonini beradi. Pedagogik kvalimetriya o'quvchilarning boshlang'ich ma'lumotlaridan boshlab, ularga eng optimal ta'limni taqdim etishda yordam bera olish uchun quyidagi amallarni o'z ichiga oladi. Bu usul, ta'lim tizimini o'quvchilarning zarur talabaliklariga moslashtirish va ularga eng yaxshi ta'limni taqdim etishda muhim o'zgarishlarni amalga oshirish uchun foydalaniladi.

Pedagogik kvalimetriya natijalariga asoslangan holda, o'quvchilarning ko'nikmalarini rivojlantirish va o'quvchilarning ta'limni mustahkamlash uchun maxsus dasturlar va tadbirlar tuziladi. Bu, 10-11-sinf o'quvchilarning o'zlarining eng yuqori potentsiallarini chiqarishga imkon beradi. O'quvchilarning ko'nikmalarini rivojlantirish va o'quvchilarning ta'limni mustahkamlash uchun pedagogik kvalimetriya natijalariga asoslangan holda maxsus dasturlar va tadbirlar tuzish uchun quyidagi yo'nalishlarga e'tibor bering. O'quvchilarning yoshlariga va qobiliyatlariga mos keladigan maqsadlarni qo'yganingizdan emin bo'ling[5]. Bu maqsadlar o'quvchilarning unvonlarini oshirish, ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirish va o'zlarining eng yuqori potentsiallarini chiqarishni o'z ichiga olishi kerak.

O'quvchilarni individual ravishda baholash va ularga maxsus ta'lim dasturi tuzishda pedagogik kvalimetriyadan foydalaning. O'quvchilarning tashqi va dahriy sohalarida qanday ko'nikmalarini rivojlantirish kerakligini tushuning va ularga mos ta'limni tuzing. Bir xil ta'lim metodlarini ishlatish o'quvchilarni qo'llab-quvvatlab bo'lmaydi. O'quvchilarning har biriga mos ta'lim usullarini o'rganing va ularni amaliy tatbiq qiling. Masalan, amaliyotlar, tajriba, darslar, seminarlar va boshqa pedagogik usullardan foydalaning. O'quv vaqti samarali va foydali o'tkazilishi lozim. Ta'lim vaqtini eng yaxshi foydalanish uchun o'quvchilarni qiziqarli darslar, yarim soatlik faoliyatlar, diskussiyalar va boshqa ma'ruzalar orqali o'rganishga o'zgartirish.

O'quvchilarning o'zlarini o'zlashtirish uchun ta'limiy dasturlarni o'zgartirish lozim. O'quvchilarni qiziqtirish, ilmiy tadqiqotlar olib borish va ijtimoiy faoliyatga qo'shish imkoniyatlarini ta'minlash kerak. O'quvchilarni ko'nikmalarni rivojlantirishda muhim ta'sir qiladigan taqiqlovlarni yo'qotish

lozim. Bu, ta'lim dasturlarini taqribiy, nazariy yoki amaliy taqiqlovlardan ozod qilishni o'z ichiga oladi. O'quvchilarning ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonida monitoring va baholashni joriy eting[9]. Bu, o'quvchilarning natijalarni ko'rib chiqish, ularning rivojlanishini o'rnatish va ta'lim dasturlarini ozod qilishga yordam beradi. O'quvchilarni ko'nikmalarni rivojlantirish uchun qo'shimcha resurslardan foydalaning. Bu, texnik vositalar, kutubxona imkoniyatlari, mehnat taqdimoti va boshqa pedagogik tashkilotlarni o'z ichiga oladi.

O'quvchilarni o'zlarining eng yuqori potentsiallarini chiqarish uchun o'zlarining shaxsiy maqbuliyatlarini oshirishga yordam bering. Bu, ularning texnologiya, san'at, sport va boshqa sohalar bo'yicha qiziqishlarini oshirishni o'z ichiga oladi. O'quvchilarning o'zlarining o'zini baholash va o'zlashtirish jarayonida ishtirok etishga imkon berish. Ularga o'z muloqotlari va topshirishlari orqali o'zlarini o'zlashtirishga yordam bering. Bu ta'lim dasturlarini va tadbirlarni tuzish orqali, o'quvchilarni rivojlantirish va o'zlarining eng yuqori potentsiallarini chiqarish imkoniyatini oshirishingiz mumkin[8]. Bu jarayonni o'qituvchilar va tashkilotlar o'rtasida birgalikda amalga oshirish juda muhimdir.

O'quvchilarning o'z-o'zini baholash tajribasi: Pedagogik kvalimetriya, o'quvchilarning o'zlarining o'z-o'zini baholash va o'zlashtirilgan ma'naviy rivojlanishlarini e'tirof etish uchun hamda mustaqil o'qish va o'rganishni qo'llab-quvvatlash uchun keng imkoniyatlar yaratadi. O'quvchilarning o'z-o'zini baholash tajribasi va ularning o'zlashtirilgan ma'naviy rivojlanishlarini e'tirof etishning pedagogik qiyofalariga yondashuvlar berishning bir qismi quyidagicha bo'lishi mumkin. O'quvchilarning o'z-o'zini baholash uchun, ularning o'zlashtirilgan ma'naviy rivojlanishlarini tushunish va baholash uchun yetarli malumot olish kerak.

AQLI ZAIF BOLALARDA NUTQ NUQSONLARINI KORREKSIYALASHNING AHAMIYATI

SUVANKULOVA SHAXNOZA KARIMKULOVNA
JDPU Maxsus pedagogika kafedrası o`qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada aqli zaif bolalarni nutqini korreksiyalashning ahamiyatlari, aqliy rivojlanishi zaif bolalarning aqliy jarayonlarida nutqni rivojlantirish bo'yicha ishlarning samaradorligini oshirishga ilmiy yondashuvlar asosida nutq faoliyati motivatsiyasini boyitish.

Tayanch so'zlar va iboralar: Aqli zaif bolalar, nutqni rivojlantirish jarayonlari, tuzatish, muloqot, psixologik o'rganish, ta'lim, hissiy aloqa, artikulyar apparatlar va fonemik eshitish, tahlil va sintez.

Аннотация: В данной статье рассмотрены особенности речевого развития умственно отсталых дошкольников, обогащение мотивации речевой деятельности на основе научных подходов к повышению эффективности работы по развитию речи в психических процессах умственно отсталых детей.

Ключевые слова и фразы: Дети с задержкой психического развития, процессы речевого развития, коррекция, общение, психологическое обучение, воспитание, сенсорное общение, артикуляционный аппарат и фонематический слух, анализ и синтез.

Abstract: In this article, the features of the speech development of mentally retarded preschool children, enrichment of the motivation of speech activity based on scientific approaches to increase the effectiveness of work on speech development in the mental processes of mentally retarded children.

Key words and phrases: Children with mental retardation, speech development processes, correction, communication, psychological learning, education, sensory communication, articulatory apparatus and phonemic hearing, analysis and synthesis

Bugungi kunda O'zbekistonda maxsus ta'limga o'zgartirishlar kiritilishi milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, rivojlangan mamlakatlar tajribasiga asoslanib, maxsus uyushtirilgan ta'lim-tarbiya orqali aqli zaif bolalarning nutqini o'stirish, ularni ijtimoiy hayotga moslashtirish, faollashtirish imkoniyatini yaratadi. Aqli zaif bola nutqini egallashning o'ziga xosliklarini tekshirish, ular bilan ishlash mazmuni va usullarini aynan maktabgacha yoshda, ya'ni nutqini egallash uchun eng ma'qul bo'lgan davrda o'rganish muhimdir. Rivojlanishida nuqsoni mavjud bolalar bilan me'yorida rivojlanayotgan tengdoshlari orasidagi xarakterli farqlardan biri — ruhiy jarayonlarning yetarli rivojlanmasligi hisoblanadi. Rivojlanishi orqada qolgan bolalarning umumiy tavsifi uning verbal imkoniyatlari doimo past ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, bolanutqining rivojlanish darajalari va uning intellekti orasida o'zaro murakkab munosabatlar hukm suradi. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan va me'yoridagi bolalar

asosiy nutqiy o'sish bosqichlarini turli yosh davrlarida o'tadilar. Nutqning orqada qolishi bola rivojlanishida qator kamchiliklarning yuzaga kelishiga zamin yaratadi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi aqli zaif bolalarda nutq o'stirish muammosiga bag'ishlangan ko'pgina ilmiy tadqiqotlarda ko'rsatilishicha, bu xildagi nuqsonli bolalarda dastlabki nutqiy ko'rinishlar gugulash davrining bo'lmasligi yoki kechikishi (bu keyinchalik nutqni egallash uchun zarurdir); dastlabki so'zlarning kechikib hosil bo'lishi; so'z birikmalarini egallash davrining sekin va qiyinchilik bilan kechishi; so'zlardan sodda gaplarni tuzish uchun uzoq vaqt talab etilishi; nutqiy ijodiyotda mustaqillikning yetishmasligi; fonetik kamchiliklarning uchrashi; nutqiy faollik darajasining pastligi; nutqiy muloqot kambag'alligi kuzatiladi. Nutqning bunday kech paydo bo'lish sabablarini qayd etgan ko'pgina tadqiqotchilar aqli zaif bolalarda ruhiy jarayonlarning umumiy rivojlanmasligi va aqliy rivojlanishning kechikishi xos xususiyat ekanligini ta'kidlaganlar. Buning

natijasida tovushlarni idrok etish hamda ularni o'zaro farqlash kabi murakkab psixik faoliyat, ya'ni fonematik eshituv rivojlanmaganligi ko'rsatiladi. Fonematik eshituvning rivojlanmasligi tovushlarning ko'pincha buzib talaffuz etilishi va nutqning kechikib rivojlanishiga olib keladi. Aqli zaif bolalar nutqini o'stirish qiyin kechsa-da, ta'lim-tarbiya jarayonida nutq hamisha diqqat markazida turishi lozim. Nutq tarbiyasi ta'lim asosini tashkil qiladi. Shuning uchun ham aqli zaif bolalar nutqini o'rganish dolzarb masalalardan biridir. Bolalarda nutqning o'sishiga yordam beradigan vositalarni yoki uni orqada qolish sababini aniqlash bujarayonga muvofiq pedagogik ta'simi tashkil etishning kaliti bo'lib xizmat qiladi. Aqli zaif bolalar nutqidagi kamchiliklar ularning bog'lanishli nutqini shakllantirishda bir qator muammolarni keltirib chiqaradi. Materialning ma'nosini anglash qiyinchiliklari, hodisalarning mantiqini tushuna olmaslik, vaqt haqidagi tassavvurlarning yetishmasligi, mavzudan chalg'ib ketish, shuningdek, tevarakatdagi predmet va hodisalar haqidagi yetarli ma'lumotga ega emasliklari oqibatida ularning so'z boyliklari kambag'allashadi va muloqotga kirishishni qiyinlashtiradi. Umumiy va maxsus pedagogikadagi mavjud ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, me'yorida rivojlanayotgan bolalarning kamolot bosqichi davrlarini, nuqsonga ega bo'lgan tengdoshlari ham, albatta bosib o'tadilar, lekin bu jarayonlar ularda kechikibroq kechadi. Bunga aqli zaif bolalarning bosh miyasining organik jarohatlanishi natijasida bilish faoliyatining turg'un buzilishi sabab bo'ladi. Bu holat aqli zaif bolaning nutqiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, aqli zaif bolalar nutqining fonetik tomonidan rivojlanishi sezilarli darajada orqada qoladi, nutq ma'no tomonidan o'ziga xos shakllanadi, gaplar tuzishda grammatik jihatdan xatolarga yo'l qo'yadilar. Maxsus maktabgacha tarbiya muassasalarining oldida bolalar nutqini o'stirish vazifasi turadi. Bunda aqli zaif bolalarga o'z fikrini, istak-orzusini, hissiyatini

aniq ifoda etish, ona tilida kishilar bilan aloqa o'rnatishda, hayotga o'rganish jarayonida foydalanishga o'rgatish, aqliy jihatdan kamchiliklarini bartaraf etish, ijtimoiy hayotga moslashtirish, hamda yordamchi maktab ta'limiga tayyorlashdan iborat. Defektolog bolalar nutqini atrofdagi hayot bilan, oilaviy turmush, bolalar bog'chasining hayoti bilan, mamlakatimizning ijtimoiy hayotidagi voqea va hodisalar, o'zbek xalqining mehnati, jonli va jonsiz tabiat bilan tanishtirish asosida o'stirib boradi. Maxsus usullar yordamida bolalarni faqat lozim bo'lgan so'zlarning ma'nosini tushuntiribgina qolmasdan, balki undan o'z nutqlarida faol qo'llashga o'rgatib boriladi. Bilish faoliyatining holati, atrofdagilar bilan bolaning muloqotga kirishish imkoniyati, odob-axloq normalarini o'zlashtirish, ijtimoiy adaptatsiyaning muvaffaqiyatli bo'lishi ko'p jihatdan bola nutqining rivojlanish darajasiga bog'liq. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarni o'qitish va tarbiyalash tizimining asosiy vazifasi - ularning nutqini rivojlantirish yuzasidan ishlash hisoblanadi. Maxsus bolalar bog'chasining ta'lim va tarbiya jarayonida aqli zaif bolalar nutq o'stirish bo'yicha quyidagi bilim, ko'nikma, malakalar bilan qurollantiriladi: Nutq o'stirish kursi aqli zaif bolalarni ma'lum bilim va malakalarni o'zlashtirib olishlarinigina emas, balki idrok, xotira, tafakkur, tassavvur kabi bilish qobiliyatlarini rivojlantirishni ham nazarda tutadi. Bu yo'nalishda olib boriladigan ish ularga aqliy faoliyatining muhim usullarini o'rgatish, analiz, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, konkretlashtirish kabi aqliy operatsiyalarni bajarishga imkon beradi. Bunda korreksion-pedagogik ishning ahamiyati muhimdir. Korreksion pedagogik ishda aqli zaif bolalarning yoshi, psixik xususiyatlari, oilaviy sharoitlari, ona tilining o'ziga xos tomonlarini hisobga olgan holda nutqini o'stirishga qaratilgan maxsus usullardan foydalanish va ularni hayotga moslashtirish imkoniyatini ta'minlaydi.

Maxsus tashkil qilingan mashg'ulotlar tizimi negizidagina maktabgacha yoshdagi aqli

zaif bolalar nutqining rivojlanishiga erishish mumkin. Nutqning tovush madaniyatiga doir bir qancha vazifalarni: tovush talaffuzi, sur'ati, diksiya, tasviriylilik va boshqalarni amalga oshirishdagi asosiy yo'l ishning frontal shaklidir. Bundan bolalar bog'chasining hamma guruhlarida foydalaniladi. Bu ish avvalo mashg'ulot shaklida amalga oshiriladi va unga har xil mazmundagi mashqlar kiritiladi. Tovush talaffuzi, nutqda nafas olish, eshitish mashqlari har kuni olib boriladi. Ba'zi mashqlar nutq o'stirishga oid boshqa mashg'ulotlar jumlasiga kiritiladi. Kichik guruhlarda bolalar bilan olib boriladigan ishlar ommaviy tarzda hamma bolalar bilan o'tkaziladi. Shuningdek, yakka tartibda ham olib boriladi. Bolalar bilan yil davomida undosh tovushlardan p, b, m, n, t, d, q, g, f, v, n; sirg'aluvchi s, z, sh, j, ch; unli tovushlardan a, o, u, i, o', e larni tallafuzi nutq orqali nafas olish, eshitish idrokini, nutq apparatining harakatini, nutq apparatini rivojlantiruvchi ishlar bilan olib boriladi. Tovushlarni mustahkamlash mashqlarini boshqa mashg'ulotlarga qo'shib olib borib, uning tarkibiy dementi yoki maxsus qismi sifatida kiritish mumkin. Masalan: mashg'ulotlarning birinchi qismida «Qo'g'irchoqni uxlatamiz» didaktik o'yin o'ynalsa, ikkinchi qismida eshitish idrokini o'stiradigan mashqlar bajariladi. «Ovozidan top» o'yin o'ynaladi (4-5 daqiqa), eshitish nutqini, diqqat bilan eshitishni, nafas olishni, nutq apparatining harakatini rivojlantiruvchi mashqlar ertalabki, kechki soatlarda, sayr vaqtlarida o'tkaziladi. O'rta guruhda qiyin tovushlarni talaffuz qilishga o'rganish maxsus mashg'ulotlari bir necha qismdan iborat, bir mazmunga birlashgan holda tuzib o'tkazish yaxshi natija beradi. Masalan: mashg'ulotlarning birinchi qismida bolalar oldiga o'quv vazifasi qo'yiladi. -sh tovushni aytishga o'rgatish: bunda tovush artikulyatsiyasi ko'rsatiladi, tushuntiriladi va bolalarga mashq qildiriladi. Mashg'ulotning ikkinchi qismida esa bolalar shu tovushning talaffuzini so'zlarda (shamol, shahar, eshik, mushuk, bosh, tosh, yo'ldosh) mashq qiladilar.

Bu qism didaktik o'yin, dramalashtirilgan hikoya shaklida berilishi ham mumkin. Nutqning tovush madaniyati ustida ishlash katta va tayyorlov guruhlarida davom ettiriladi. Tizimli ravishda olib borilgan ishlar natijasida maktabga tayyorlov guruhidagi barcha bolalarda ona tilidagi hamma tovushlarni to'g'ri talaffuz etadigan bo'lishlari lozim. Lekin shunga qaramay, katta va tayyorlov guruhlarida ham mashg'ulotlar hamma bolalar bilan frontal tarzda o'tkaziladi. Bunda maxsus mashg'ulotlarning maqsadi o'zgaradi. Bunda bolalar tovushlarni to'g'ri talaffuz etishni mashq qiladilar va ularda nutqdagi tovush madaniyatining boshqa tomonlari (turli ovoz kuchidan, turli nutq sur'atidan foydalana bilish) tarbiyalanadi. Aqli zaif bolalarga turli nutq tovushlari: she'r o'qish, tez aytish, maqollar, suratlarni qayta hikoya qilish, ifodalash asosida tovushlarni to'g'ri talaffuz etishni mashq qildirib borish lozim. Katta guruhlarda haftada 2-3 marta mashg'ulotlardan tashqari vaqtda jamoa bo'lib o'ynaladigan harakatli, nafas, eshitishni rivojlantiruvchi takroriy o'yinlar o'tkaziladi. Katta guruhlarda frontal ishdan tashqari tovush talaffuzida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan yakka tarzda qo'shimcha mashg'ulotlar joriy qilinadi. Tekshiruvlar o'tkazilgach talaffuzdagi nuqsonlariga qarab bolalar guruhchalarga ajratiladi. Masalan: Anvar, Nasiba, Dilbar «r» tovushini talaffuz eta olmaydilar. Tarbiyachi bu bolalar bilan bir haftada 2—3 marta qo'shimcha mashg'ulotlar o'tkazadi (ertalabki yoki kechki soatlarda). Bu mashg'ulotlarning har biri 10—12 daqiqa davom etadi. Masalan: To'g'ri gapirishni o'rganishning zarurligi haqida suhbat. Tovush artikulyatsiyasini ko'rsatish va tushuntirish. Shu tovushni talaffuz etishni bolalardan so'rash. Eshituv idrokini shakllantirish. Nutqning tovush tomonini o'zlashtirishda eshitish boshqaruvchi analizator hisoblanadi. Fonematik eshituvning rivojlanishi bolaning ona tilidagi tovushlarni, ayniqsa, so'zning tovush tizimini tez va to'g'ri o'zlashtirib olishlarida muhim ahamiyat kasb etadi. So'zning tovush tarkibini to'g'ri idrok qilish uni to'g'ri eslab qolishning asosiy

KO'RISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARDA SHAXMATNI O'YNASHDA TASAVVURLARNI SHAKLLANTIRISH

ARIFXODJAYEV G'ULOM SAYYOROVICH

JDPU Maxsus pedagogika kafedra tibbiyot fanlari nomzodi

ISAROVA SHOIRA BOZORBEOVNA

Maxsus pedagogika, Defektologiya (Logopediya) mutaxassisligi 2- bosqich
magistri

Annotatsiya. Ushbu ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarda shaxmatni o'ynashda tasavvurlarni shakllantirish bo'yicha ishlarning samaradorligini oshirishga ilmiy yondashuvlar asosida nutq faoliyati motivatsiyasini boyitish.

Tayanch so'zlar va iboralar: Shaxmatni o'ynashda tasavvurlarni shakllantirish ko'rishda nuqsoni bo'lgan insonning muhim hayotiy ehtiyoj, sezgi, emotsional ko'tarinkilikni oshirish, psixofiziologik va psixologik-pedagogik uslub, jismoniy va funktsional rivojlanish harakatli o'yin.

Аннотация. Обогащение мотивации речевой деятельности на основе научных подходов для повышения эффективности работы по формированию воображения при игре в шахматы у детей с нарушениями зрения

Ключевые слова: Формирование воображения при игре в шахматы – важная жизненная потребность человека с нарушением зрения, повышение интуиции, эмоциональный подъем, психофизиологический и психолого-педагогический метод, физическое и функциональное развитие – подвижная игра.

Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarni ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda birinchi navbatda bolani yotoqxona, sinf xonasi, maktab va maktab hovlisida yo'nalishni belgilash harakatlanishga o'rganish kerak. Shuningdek shu yoshda ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarni jamoat joylarida transport harakatlanish malakasi, yashaydigan shahri mahallasi haqida tasavvurga ega bo'lish kerak. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan o'quvchini ma'lum to'qnashuvlarda yuzaga keladigan himoya vositalari va yo'lovchi yordamida foydalanishga hali o'rganish lozim.

Ma'lumki ko'zi ojiz bolalarda shaxmatni o'ynashda tasavvurlarni shakllantirish va harakatni o'rgatish jarayonida atrofdagi ob'ektlarga ular haqidagi tasavvurlarga tayangan holda fazoni, makonni idrok etish amalga oshadi. Bir nechta olimlarimiz o'z fikrlarini aytib o'tishgan shulardan A.I.Komlon. K.T.Morozova ko'zi ojiz bola sezgi kompleksiga harakat analizatorini

kiritadilar. Ularni fikricha muskul sezgilari ko'rishda nuqsoni bo'lgan shaxslarga ob'ektlar oralig'i baholash fazoda yo'nalish belgilash bo'yicha tasavvur shakllanish imkonini beradi.

V.A.Feokmistova ko'rishda nuqsoni bor bolalarni shaxmatni o'ynashda tasavvurlarni shakllantirish jarayonida muhim deb ta'kidlaydi. Buni ko'rishni qisman yoki butunlay yo'qotish sababli eshitish atrofdagi ob'ektlarni idrok etishdagi asosiy analizator bo'lib qolishdir deb e'tirof etadi. Eshitish sezgi va idrok yordamida ko'rlar ovoz manbai bo'lgan ko'rishayotgan shaxmatni lakomizatsiya qilish uni yo'nalishni aniqlash imkoniyatga ega bo'ladi. Ko'chadagi transport harakatining tezligi fazoviy shaxmatlarning kattaligi haqida eshitish orqali ma'lumotga ega bo'ladi. Ovoz lokatsiyasi yordamida eshitish orqali makonda yo'nalish belgilash yopiq tipdagi binolarda va ochiq tabiat maydonlarida amalga oshirish mumkin.

Shaxmatni o'ynashda tasavvurlarni

shakllantirish ko'rishda nuqsoni bo'lgan insonning muhim hayotiy ehtiyoji hisoblanadi. Ko'r va zaif ko'ruvchilarning shaxmatni o'ynashda tasavvurlarni shakllantirish malakasi qobiliyatini shakllantirish va takomillashtirish ularning butun hayotiy faoliyati davomida amalga oshiriladi.

Shaxmatni o'ynashda tasavvurlarni shakllantirish harakatlanishga o'rgatishning perspektiv maqsadi ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar makonda erkin yunaltira olish va mustaqil harakatlanish imkonni beruvchi malakalarni shakllantirish bilan belgilanadi. Makonda yo'nalishni belgilashga o'rganish ta'lim mazmuni asosini ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarni kichik maktab yoshidanoq makonida harakatlanish zarurligini ta'kidlovchi yo'nalishda davom etadi.

Bu holatda xatoliklarni gapirish orqali tuzatish lozim. Korreksiyalash so'zlari ozgina chapga, ozgina o'ngga, orqaroqqa oldinga, tepaga bo'lish mumkin. So'zli korreksiya ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarni sport bilan shug'ullanayotganlarida qo'llash mumkin. Makonda yo'nalishni belgilash bo'yicha mashg'ulotlarda ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarni quyidagi sezgi idroki malakalarini egallashi kerak.

- Ko'zi ojiz bola atrofdagi shaxmatlarni sezgi orqali aniqlash.
- Ko'zi ojiz bola atrofdagi shaxmatlar o'rtasidagi aloqani sezish.
- Yo'l sxema yo'l kartalarini mustaqil tayyorlash bola harakatlanganda ovoz signalizatoriga tayanadi.

Shaxmatni o'ynashda tasavvurlarni shakllantirish ko'rishda nuqsoni bor insonlarning muhim hayotiy ehtiyoji hisoblanadi. Bu mo'ljallar uchun stol, stul? Shaxmatasboblari va boshqalarkiradi. Shaxmat o'ynashda bolalarning sensor rivojlanishini ta'minlaydi. Fazoviy fikrlash aqliy, intellektual faoliyat hisoblanadi. Bolalarning shaxmatlarni o'ynash xususiyatlarini bilish muhimdir. Shakli kattaligi, rangi, qanchalik bolalar ko'p

shaxmatlarini bilsa, shunchalik bilim doirasi sezgisi, xotirasi hamda mo'ljal olish yengil kechadi.

Ko'rish qobiliyatini rivojlantirish mashg'ulotlarini tashkil etishda psixofiziologik va psixologik-pedagogik uslublardan foydalanish samara beradi. Bu metodlar ko'rishda nuqsoni bor bolalarni barcha faoliyati va sensor apparatlarining rivojlanishida muhim ahamiyatga ega, psixofiziologik metodlar orqali shaxmatning asosiy qirralari "tomonlari" o'rganiladi.

Masalan: shaxmatning shakli kattaligi rangi.

Psixologik pedagogik metodlarga;

- kattaligi;
- shakli;
- o'ynash tartibi;

Shaxmatli metodlar bolalarning ko'ruv faoliyatini shaxmatli amaliyotini mashqlar va o'yin davomida rivojlantirishga qaratiladi. Shaxmatli amaliy mashg'ulotlar perdmatlarni modellashtirish, qurish-yasash turli shaxmatlarni o'z ichiga oladi.

Bolalar shaxmatlarni idrok etishga uning shakli, kattaligini, rangini analiz qilib chiqishga o'rganadilar. Ko'rish qobiliyatini rivojlantirishda turli tasvirlardan foydalanib kelinmoqda. Masalan: oq qora, rangli, konturli, shtrixli tasvir. Shu o'rinda Vitaliy Pavlovich Ermakov ya'ni pedagogika fanlari doktori tomonidan yaratilgan ko'ruvni rivojlantirish va mashq qildirish tekshirish uchun mo'ljallangan polixromatik tablitsalardan foydalanib kelinmoqda. Bu test va tablitsalar Rossiya va Yaponiya, Hitoy davlatlarida foydalanib kelinmoqda.

Ko'rishda nuqsoni bor bolalar uchun davlatimiz tomonidan g'amho'rlik qilinmoqda. Ko'rishda nuqsoni bor bolalarga ta'lim va tarbiya berishda umumta'lim bilimlar bilan birgalikda maxsus korreksion mashg'ulotlar olib boriladi. Korreksion mashg'ulotlarda shaxmatning axamiyati qanday? Shu savolga javob topishimiz lozim.

Korreksion mashg'ulotlarga shaxmatning: davolovchi jismoniy tarbiya, ritmika, nutqiy etishmovchilikni tuzatish, ko'rish qobiliyatini rivojlantirish bo'yicha olib boriladigan ishlar kiradi. Korreksion bolalarning umumiy rivojlanishi xususiyatlari hisobga olinadi. Korreksion mashg'ulotlar bolalarning umumiy rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratib beruvchi ta'lim tarbiya bilan uzviy bog'langan holda olib boriladi.

Korreksion mashg'ulotlar o'quv rejasi va dasturi bilan hamkorlikda olib boriladi.

Ko'rishda nuqsoni bor bolalarga ta'lim-tarbiya berishda, shaxmat o'ynashga tayyorlashda nuqsonlarni korreksiya qilishga yo'naltirish:

Shaxmat o'ynash asosida harakatlar butun holda yoki qisman bajariladi. Shaxmatni rivojlanishi harakat faoliyatining zarur sharti hisoblanadi. Harakat hissini yaxshi his qiluvchi inson harakatlarining ritmik xususiyatini yaxshi tushunadi va o'zlashtiradi.

Shaxmat o'ynashlari organizmni bilim, xotira qobiliyatini oshiradi, sog'liqning mustahkamlanishini, jismoniy rivojlanishi nuqsonlarini va harakat buzilishlarini korreksiyalashni ta'minlaydi, harakat tempini boshqaradi. Ular harakatlariga ishonch uyg'otadi. Shaxmat o'ynashlarda bolalar bilim, xotira, diqqat, tezlik bilan harakatlarini o'zlashtiradilar.

Bu metodik usullarning sodda turi hisoblanadi. Bunga qo'l harakati mashqlari, diqqat kiradi. Bunday mashqlar nafaqat sur'at hissini, balki nafasni ham rivojlantiradi. Maxsus mashqlar murakkablashuv darajasiga qarab belgilanadi.

Harakat va musiqa bog'liqligidagi mashqlar. Bu bo'limda bajariladigan har bir mashq musiqa asosida bajarishga tayanadi. Turli harakatlarning takomillashishi jarayonida o'qituvchi bolalarda mashqlarni bajarish bo'yicha texnik malakalarni tarbiyalaydi. Ular ichida eng asosiylari: musiqa boshlanishi bilan qo'zg'alishni boshlash, harakatga kerakli ifoda

kiritish, musiqa yakunlanishi bilan harakatni to'xtatish bo'lib hisoblanadi.

Bu shaxmat o'ynashda harakat buzilishlarini korreksiyalashga, xarakat sifatini rivojlantirishga jismoniy va funktsional rivojlanishini tashkil etishga yo'naltirilgan umumrivojlantiruvchi maxsus mashqlarni o'z ichiga oladi.

Ko'rish nuqsoni bo'lgan bolalarning jismoniy rivojlanishi va harakat tayyorgarligini o'z ichiga oluvchi ikkilamchi vazifani amalga oshirishni taqozo etadi.

Shaxmat o'ynash kompleksining to'g'ri tanlanishi, ko'rishda nuqsoni bor bolalar bilan korreksion ishlashda muvaffaqiyat keltiradi.

LFK mashg'ulotlari tayyorlov, asosiy boshlanuvchi bosqichlardan iborat.

Tayyorlov bosqichining vazifasiga umumiy organizmni mustahkamlash; jismoniy yuklamaga adaptatsiya ,ya'ni moslashish;

nafas olish va yurak-qon tomir sistemasining faoliyatini faollashtirish;

umurtqa pog'onasini mustahkamlash; emotsional ko'tarinkilikni oshirish kabilar kiradi.

Ushbu davrda bosh hamda ta'na uchun maxsus umumrivojlantiruvchi mashqlarni bajarish talab etiladi. To'g'ri nafas olish va to'g'ri nafas chiqarishga katta e'tibor qaratiladi. Bundan tashqari tovonni mustahkamlovchi maxsus mashqlar bajariladi. Yuqorida ko'rsatilgan mashqlar gimnastik shaxmatlar bilan birgalikda bajarish mumkin (maxsus tayoqlar to'plar) tayyorlov davrda nafaqat gimnastik mashqlar, shuningdek turli harakatli o'yinlarni o'ynash tavsiya etiladi. Ushbu o'yinlar bolalarda kayfiyatni ko'tarishga hamda organizmni umumiy sog'lomlashtirishga ko'mak beradi.

Boshlang'ich bosqichda bajarilgan umumrivojlantiruvchi, nafas mashqlaridan tashqari maxsus ko'z mashqlari bajariladi. Maxsus ko'z mashqlari ko'zning tashqi muskuli va akkomodatsiya muskulini

BOSHLANG'ICH SINFLARDA STEAM FANLARNI O'QITISHNING DIDAKTIK XUSUSIYATLARI

XODIYEVA GULHAYO HASAN QIZI

Navoiy davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada dunyoda miqyosida integrativ ta'limning rivojlanishi ijtimoiy hamda axborot kommunikatsiya sohalarining o'zaro tizimli aloqadorligi, integrativ yondashuvning ilmiy-amaliy imkoniyatlari, integrativ ta'lim tizimi bo'yicha olib borilayotgan izlanishlar va dasturlar, zamonaviy boshlang'ich ta'limda STEAM ta'limi, uning o'quv samaradorligiga ta'siri, o'ziga xosligi, o'quvchilarda shahkllanadigan ko'nikmalar, o'quvchilar bilimlarining amaliyotda qo'llanishi, boshlang'ich sinflarda integrativ yondashuv asosida o'qitish va o'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish, ijodiy, tanqidiy-tahliliy hamda mantiqiy fikrlashlarini rivojlantirish finlandiya ta'lim tizimi misolida muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Zamonaviy o'qituvchi, integratsion dars tizimi, integrativ yondashuv, ijodiy fiklash, tanqidiy-tahliliy yondashuv, STEAM, zamonaviy metodlarni integrasialash.

Аннотация. В данной статье развитие интегративного образования в мире, межсистемная связь социальной и информационно-коммуникационной сфер, научные и практические возможности интегративного подхода, исследования и программы, проводимые по системе интегративного образования, STEAM-образование в современном начальном образовании, его влияние на эффективность обучения, уникальность, умения, формируемые у учащихся, применение знаний учащихся на практике, обучение на основе интегративного подхода в начальных классах и развитие способностей учащихся, творческое, критико-аналитическое и логическое развитие мышления обсуждается на примере финской системы образования.

Ключевые слова. Современный учитель, интегрированная система урока, интегративный подход, творческое мышление, критико-аналитический подход, ПАР, интеграция современных методов.

Abstract: In this article, the development of integrative education in the world, the inter-systemic connection of the social and information communication spheres, the scientific and practical possibilities of the integrative approach, the researches and programs carried out on the integrative education system, STEAM education in modern primary education, its influence on educational efficiency, uniqueness, skills formed in students, application of students' knowledge in practice, teaching based on an integrative approach in primary classes and development of students' abilities, creative, critical-analytical and logical development of thinking is discussed on the example of the Finnish education system.

Keywords: Modern teacher, integrated lesson system, integrative approach, creative thinking, critical-analytical approach, STEAM, integration of modern methods.

Bugun dunyo miqyosida zamonaviy dinamik ijtimoiy-madaniy sharoitida kuchli sarmoyaviy resurs – inson salohiyatidan maksimal darajada foydalanishga ehtiyoj oshib bormoqda. Ushbu tendentsiya shaxsning nazariy-metodik tayyorgarligi muammosini yanada dolzarb qilib qo'yadi. Chunki nazariy-metodik tayyorgarlikka ega mutaxassisgina ta'limda yangi sifatiga erishish uchun resurslarni taklif etishi, ilmiy faoliyatni rivojlantirishi mumkin. Mazkur

jarayon boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun nihoyatda zarurdir, binobarin, pedagog kadrlarning ilmiy uslubiy tayyorgarligi kelajak avlodni o'quv-tarbiyaviy istiqbollarini belgilaydi, jamiyatning ilg'or rivojlanishiga xizmat qiladi.

Integrativ ta'limning rivojlanishi ijtimoiy hamda axborot kommunikatsiya sohalarining o'zaro tizimli aloqadorligi, ilm-fanning istalgan yo'nalishida kuzatilayotgan integrativ jarayonlarning barchasi jamiyatning

zamonaviy ta'lim oldiga qo'ygan talablarini qondirishga qaratilgan o'quv-tarbiya jarayonni samarasini ta'minlashning ustuvor strategiyasini belgilaydi. O'qituvchilarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi darajaga olib chiqqan ta'lim muassasalari jumladan, Garvard Oliy ta'lim maktabining "Project Zero" tadqiqotchilari turli xil sharoitlarda fanlararo aloqadorlikni o'rganib kelmoqda. Ular fanlararo bog'liqlik, integratsion ta'lim tizimini zamonaviy fikrlaydigan bo'lg'usi boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari uchun juda muhim ekanligini ta'kidlab o'tishadi. Shuningdek, "UC Berkeley Web Research Environment" (WISE) bilimlarni integratsiyalash nazariyasiga muvofiq o'z dasturlarini ishlab chiqishgan. Bu esa dunyo ta'lim tizimi oldida bo'lg'usi boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari tafakkurini rivojlantirish, ularni nazariy metodik faoliyatga tayyorlashda integrativ yondashuvning ilmiy-amaliy imkoniyatini belgilab beradi.

Didaktik jarayonning integratsiyalashuvi nafaqat nazariy va metodik o'quv jarayonni bir butun sifatida amalga oshirishni, balki jarayonning samarali olib borilishini ham ta'minlaydi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim jarayonining serqirra va o'ziga xosligini inobatga olgan holda, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda metodik fanlarni integratsiyalash nazariy-metodik tayyorgarlik jarayonining samarali kechishini ta'minlaydi. Turli fan elementlarini yaxlit holda birlashtiruvchi hamda o'ziga xos o'rganish predmetini o'z ichiga olgan holda fanlarni xususiyatlariga ko'ra bog'lovchi darslar integratsiyalashgan darslarning mazmunini anglatadi.

Bugungi kunda rivojlangan davlatlar STEAM integratsion ta'lim texnologiyasiga katta ahamiyat bermoqdalar. STEAM bu -tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika kabi barcha beshta sohani yagona ta'lim jarayonida

integratsiyalashuviga asoslangan. Uning asosiy g'oyasi shundan iboratki, amaliyot nazariy bilimlar singari muhimdir. Ya'ni, o'rganish paytida biz nafaqat miyamiz bilan, balki qo'limiz bilan ham ishlashimiz kerak.

Faqat sinfda o'rganish tez o'zgaruvchan dunyo bilan hamqadam emas. Integrativ yondashuvning ilmiy-amaliy imkoniyatini shundaki, bolalar turli xil mavzularni muvaffaqiyatli o'rganish uchun ham miyani, ham qo'llarini ishlatadilar. Ular olgan bilimlarini o'zlari "uqib oladilar". STEAM ta'limi nafaqat o'qitish usuli, balki fikrlash tarzi sifatida faqat bitta fan doirasida bilimga tayanish yetarli emasligiga, murakkab masalalarni faqat turli sohalardagi bilimlarga tayanib va birgalikda ishlash orqali hal qilish mumkinligini tushunishga asoslanadi. O'quvchilar o'zlarining irodasini, ijodkorligini, moslashuvchanligini rivojlantirish, boshqalar bilan hamkorlik qilishga o'rgatish zaruriyati, nazariya va amaliyotni birlashtirishning mantiqiy natijasi sifatida STEAM Amerikada yaratilgan. Fan, texnologiya, muhandislik va matematika kabi fanlarni birlashtirgan holda unga san'atni (Art) qo'shib o'qitish STEAMning mohiyatini tashkil etadi.

So'nggi o'n yilliklardagi o'zgarishlar samarali, ammo shu bilan birga bizni xavotirlantirishi tabiiy, yaunki yangi narsalarning ixtirolar qilinishi bilan odamlar ilgari duch kelmagan ko'plab yangi muammolar duch kelishmoqda. Har kuni yangi ish turlari va hattoki butun kasbiy sohalar paydo bo'ladi va zamonaviy o'qituvchilar zamonaviy bilimlari va kasbiy mahoratini davr talablariga mos tez o'zlashtirishni talab etadi.

Agar biz an'anaviy ta'limning asosiy maqsadi bilimlarni o'rgatish va bu bilimlardan fikrlash va ijod qilish uchun foydalanish deb aytsak, STEAM yondashuvi bu bilimlarni haqiqiy ko'nikmalar bilan birlashtirishga

o'rgatadi. Bu maktab o'qituvchilariga nafaqat g'oyalarga ega bo'lish, balki ularni amalda qo'llash va amalga oshirish imkoniyatini beradi. Hayotda ishlatish mumkin bo'lgan bilimgina haqiqatdan qadrli hisoblanadi. STEAM yondashuvining eng mashhur namunasi — Massachusetts Texnologiya Instituti (MIT). Ushbu dunyo universitetining shiori “Mens yet Manus” (Aql va qo'l) bo'lib, ko'pchilik davlatlar ta'lim tizimida u ustivorlik kasb etadi. Buning sababi yaqin kelajakda dunyoda va O'zbekistonda ham muhandislar, yuqori texnologiyali ishlab chiqarish mutaxassislariga talab juda yuqori bo'ladi. Tabiiy fanlar bilan birgalikda texnologiya va yuqori texnologiyali ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan kasblar, bio va nanotexnologiya mutaxassislariga talab katta bo'ladi. Mutaxassislar texnologiya, tabiiy fanlar va muhandislikning turli sohalaridan keng qamrovli ta'lim va tajribaga muhtoj bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili

STEAM -ta'lim o'quvchilar ilmiy usullarni amalda qanday qo'llashni tushunishga kirishadigan aralash muhitni nazarda tutadi. Integrativ yondashuv asosida shakllantiriladigan STEAM dasturlarida rivojlangan davlatlarda o'quvchilar, matematika va fizika bilan bir qatorda, o'z robotlarini va ishlab chiqarish robotlarni o'rganadilar. Darslarda maxsus texnologik uskunalar vositasida tashkil etiladi. Bundan maqsad o'quvchilarni kasbga yo'naltirish, ularning ijodiy hamda tanqidiy-tahliliy, mantiqiy fikrlashlarini o'stirishi, kasbiy iqtidorlarini to'g'ri shakllantirishga xizmat qilishi hamda amaliy hayotda dars jarayonida olinadigan bilimlarning samarali qo'llanilishi bilan belgilanadi. 2014-yilda Quddusda bo'lib o'tgan “STEAM forward” xalqaro konferensiyasida bolalarni STEAMga jalb qilish, bu ta'limni maktabgacha yoshdan boshlash kerakligi, shuning uchun STEAM

dasturlarini bolalar bog'chalariga kiritish; fan tili sifatida ingliz tilini chuqur o'rganishni yo'lga qo'yish; qizlar uchun STEAM -ta'lim dasturlarini yaratish (ilm-fan sohasidagi qizlar, ularning tartibiligi tufayli, o'g'il bolalar qila olmaydigan narsalarni qilishlari mumkinliga asoslanib); ilm-fanni egallash jarayoni quvnoq bo'lishi ya'ni u o'quvchilar uchun qiziqarli va o'ziga jalb qiluvchi bo'lishi kerakligi hojalari ilgari surildi.

Shuni ta'kidlashni istardikki, an'anaviy o'qitish uslublari bilan taqqoslaganda, o'rta maktabdagi STEAM yondashuvi bolalarni tajribalar o'tkazishga, modellar tuzishga, mustaqil ravishda musiqa va filmlar yaratishga, o'z g'oyalarni haqiqatga aylantirishga va yakuniy mahsulotni yaratishga undaydi. Ushbu ta'lim yondashuvi bolalarga nazariya va amaliy ko'nikmalarni samarali tarzda birlashtirishga imkon beradi va universitetga kirish va keyingi o'qishni osonlashtiradi. STEAM yondashuvining asosiy g'oyasini amaliyot nazariy bilim kabi juda muhimdir degan fikr tashkil etadi. STEAM o'quvchilarda quyidagi muhim xususiyatlar va ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

- Muammolarni keng qamrovli tushunish
- Ijodiy fikrlash
- Muhandislik yondashuv
- Tanqidiy fikrlash
- Ilmiy metodlarni tushunish va qo'llash

STEAM - hozirgi kunda dunyo ta'lim tizimining eng asosiy zarur bo'lgan innovasion metodlardan biri hisoblanib, ushbu metod yordamida fanlar alohida tarmoqlarda emas, balki integrasiyalashgan holda umumiy bog'liqligini ko'rsatib o'rgatiladi. Bugun dunyoni texnologiyasiz tasavvur etishning iloji yo'q, STEAM ko'nikmalari esa bu-rivojlanishning asosi bo'lib hisoblanadi. STEAM muhitida bolalar kashfiyotchilar va olimlar sifatida tadqiqotlar olib borishadi, texnologiyalarning imkoniyatlarini

bilishadi, muhandislar sifatida ijod qilishadi, matematiklar kabi fikrlashadi va albatta bolalar bo'lib zavqlanib o'ynashadi.

STEAM fanlarining ommalashayotganini va samaradorligini hisobga olgan holda prezidentimiz tashabbusi bilan prezident maktablarida STEAM fanlari darslik sifatida o'qitila boshladi. STEAM bolalarning intellektual qobiliyatlarini ilmiy va texnologik ijodkorlikka jalb qilish imkoniyati bilan rivojlantiradi. U bolalarning aniq tabiiy fanlarga bo'lgan qiziqishlarini rivojlanishiga qaratilgan o'quv dasturiga asoslanadi.

Shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar faoliyati rivojlantirish maqsadida til va nutq; ilm- fan va tabiat; san'at; qurish-yasash va konstruksiyalash; syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirishni rivojlantirishga e'tibor qaratilmoqda.

STEAM ta'limida fanlararo aloqa va loyihalash metodi birlashtirilgan bo'lib, uning asosida tabiiy fanlarni texnologiyaga, muhandislik ijodiyotga va matematikaga integrasiya qilish yotadi. Bunda muhandislik bilan bog'liq kasblarga bo'lgan tayyorgarlik amalga oshiriladi. STEAM ta'lim tizimi quyidagi afzalliklarga ega:

-ilmiy-texnik bilimlarni real hayotda qo'llash. STEAM – ta'limida amaliy mashg'ulotlar yordamida, bolalarga ilmiy-texnik bilimlaridan real hayotda foydalanish namoyish qilinadi. Har bir darsda o'quvchilar zamonaviy industriya modellarini ishlab chiqadi, quradi va modelni rivojlantiradi;

-tanqidiy tafakkur ko'nikmalarini rivojlantirish va muammolarni yechish. STEAM –dasturi, bolalar kundalik hayotlarida duch keladigan qiyinchiliklarni yengishda zarur bo'ladigan tanqidiy tafakkur va muammolarni yechish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Masalan, bolalar tez yuradigan mashina modelini yig'adilar, so'ngra uni sinovdan o'tkazadilar. Birinchi sinovdan so'ng, kutilgan natijaga erishilmasa uning

sabablari haqida o'ylaydilar va topadilar. Balkim, g'ildiraklarining kattaligi yoki aerodinamikasi to'g'ri kelmagandir. Har bir sinovdan so'ng ular kamchiliklarni bartaraf etib boradilar;

-o'z kuchiga ishonish hissining ortishi. Bolalar ko'prik qurish, mashina va samolyot modelini ishga tushirishda har safar maqsadiga yaqinlasha boradilar. Har bir sinovdan so'ng modelni takomillashtiradilar. Oxirida barcha muammolarni o'z kuchlari bilan engib maqsadiga erishadilar. Bu bolalar uchun ruhlanish, g'alaba va quvonch demakdir. Har bir g'alabadan so'ng ular o'z kuchlariga yanada ishonadilar;

-faol kommunikasiya va komandada ishlash. STEAM–dasturi faol kommunikasiya va komandada ishlash bilan farqlanadi. Muloqat davrida o'z fikrini bayon qilish va bahs-munozara olib borish uchun erkin muhit vujudga keltiriladi. Ular gapirishga va taqdimot o'tkazishga o'rganadilar. Bolalar doimo muloqotda bo'ladilar chunki jarayonda faol qatnashsalar, mashg'ulotni yaxshi eslab qoladilar;

-texnik fanlarga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantiriladi. Boshlang'ich ta'limda STEAM – ta'limning vazifasi, o'quvchilarni tabiiy va texnik fanlarga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirishdan iborat. Bajaradigan ishini sevib bajarish, qiziqishlarini rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. STEAM – mashg'ulotlari juda dinamik va qiziqarli bo'lganligidan bolalar mashg'ulot paytida zerikmaydilar va vaqtning qanday o'tganligini sezmay qoladilar;

-loyihalarga kreativ va innovasion yondashuv. STEAM–ta'limi oltita bosqichdan iborat: savol (vazifa), muhokama, dizayn, qurish, sinovdan o'tkazish va rivojlantirish. Bu bosqichlar tizimli loyihalash yondashuvining asosi hisoblanadi.

-ta'lim va karera orasidagi ko'prik. Turli xil baholashlarga ko'ra hozirgi kunda talab

eng ko'p bo'lgan o'nta mutaxassislikdan to'qqiztasida aynan STEAM bilimlari zarur bo'ladi. Bunday kasblarga: muhandis – kimyogar; neft bo'yicha muhandislar; kompyuter tizimlari analitiklari; muhandis–mexaniklar; muhandis–quruvchilar; robototexniklar; yadro meditsinasi kiradi;

-bolalarni texnologik innovasion hayotga tayyorlash. STEAM –ta'limi bolalarni texnologik rivojlangan dunyoda yashashga tayyorlaydi. STEAM dasturlari 7-14 yoshdagi o'quvchilarning muttasil ravishda o'tkaziladigan mashg'ulotlarga qiziqishlarini orttiradi. Masalan, fizika darslarida yerning tortish kuchi o'rganilganda, doskada formulalarni yozib tushuntirilsa, STEAM to'garaklarida raketalar, samolyotlar, parashyutlar qurib, ishgatushiribo'z bilimlarini mustahkamlaydilar. O'quvchilar o'zlari ko'rmagan yoki yeshitmagani atamalarni har doim ham tez anglab yetmaydilar. Masalan, temperatura ortishi bilan bosimning yoki hajmning ortishi. STEAM mashg'ulotlarida ular qiziqarli yeksperimentlar o'tkazganlarida bu atamalarni osongina tushunib olishlari mumkin;

-korreksion ta'lim — materialni o'zlashtirishdagi umumiy barqaror muammolar bilan bog'liq. Masalan, bu ta'lim tilni tushunmaslik yoki eslab qolish, matematik qobiliyatining yaxshi emasligi, yoxud ba'zi bolalarning assosial xatti-harakatlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Korreksion ta'lim kichik guruhlarda yoki individual tarzda o'tkaziladi;

-amaliyot. "Yohayotgatayyorlaymiz, yoki — imtihonlarga. Biz birinchisini tanlaymiz", - deydi finlar. Shuning uchun Finlyandiya'dagi maktablarda imtihonlar yo'q. Nazorat ishlari va oraliq test sinovlari - o'qituvchining qaroriga qarab belgilanadi. Umumta'lim maktabini tugallashda faqat birgina majburiy standart test o'tkaziladi. SHunisi diqqatga sazovorki, o'qituvchilar uning

natijalari uchun alohida qayg'urishmaydi, test natijalari uchun birovning oldida javob ham berishmaydi, bolalar ham unga maxsus tayyorgarlik ko'rishmaydi. Masalan: Finlyandiya maktablarida hayotda kerak bo'ladigan bilimlar beriladi. Masalan, biror bir qurilmaning tuzilishi ularga kerak bo'lmaydi, uni o'rganishmaydi ham. U yerdagi bolalar bolalikdan portfolio, shartnoma, bank kartasi nima ekanini yaxshi bilishadi. Merosdan soliq fozini yoki kelgusidagi daromadlarini hisoblay olishadi, internetda tashrif saytini yarata olishadi va h.k.;

-ishonch. Birinchidan, maktab xodimlari va o'qituvchilar uchun turli tekshiruvlar yo'q, o'quvchilarga ta'lim berishga doir turli uslublarni o'rgatuvchilar ham yo'q. Mamlakatda ta'lim dasturi yagona, faqat umumiy tavsiyalar bor, xolos. Har bir pedagog o'zi to'g'ri deb bilgan uslubni qo'llaydi. Ikkinchidan, bolalarga bo'lgan ishonch: darslarda o'quvchi o'zini qiziqtirgan ish bilan shug'ullanishi mumkin. Masalan, adabiyot darsida o'quv filmi namoyish etilayotgan bo'lsa-yu o'quvchiga buning qizig'i bo'lmasa, u kitob o'qib o'tirishi mumkin. O'quvchi o'zi uchun nima foydali ekanini o'zi tanlaydi;

Xulosa

Keyingi 60 yil davomida texnologiyalar jadal darajada rivojlandi. STEAM maktab dasturlarida qo'shimcha sifatida qo'llaniladi. STEAM mashg'ulotlarini tashkil etish, o'quvchilarga yo'nalishlar berish, seminarlar tashkil etish maqsadga muvofiqdir, chunki mamlakatimizning yuksalishi uchun ta'limning sifat samaradorligini yanada oshirish uchun eskicha an'anaviy metodlardan voz kechib, darslarni xalqaro metodlardan foydalanib tashkil etish muhimdir. Ta'limdagi yuksalish uchun avvalo bugungi xalqaro standart talablariga javob bera oladigan dasturlardan, zamonaviy dizayn va mazmunga ega darsliklardan foydalanishimiz kerak. O'z o'rnida esa ushbu darsliklarda berilgan

FRIDRIX FREBELNING DIDAKTIK TIZIMI - STEAM TA'LIM MODULI SIFATIDA.

NORQO'ZIYEVA MANZURA ABDURAXMONOVNA
 JDPU Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrası v/b dotsenti
 MUSURMONOVA SARVINOZ
 Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: STEAM dasturida bolaning intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada milliy ta'lim tizimida STEM paydo bo'lishi hamda Fridrix Frebelning didaktik tizimi haqida so'z yuritilmoqda.

Kalit so'zlar: ta'lim tizimi, mustaqil, erkin tajribalar, yuqori texnologiyalar, milliy ta'lim tizimi, ilmiy rivojlanish, tamoyillar, faol pozitsiya, integratsiya.

Аннотация: В программе STEAM большое значение имеет развитие интеллектуальных способностей ребенка. В данной статье рассматривается появление STEM в отечественной системе образования и дидактической системы Фридриха Фребеля.

Ключевые слова: система образования, самостоятельный, свободный опыт, высокие технологии, национальная система образования, научное развитие, принципы, активная позиция, интеграция.

Abstract: In the STEAM program, the development of the child's intellectual abilities is important. This article discusses the emergence of STEM in the national education system and the didactic system of Friedrich Froebel.

Key words: educational system, independent, free experiences, high technologies, national education system, scientific development, principles, active position, integration.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini isloh qilish borasida islohotlar amalga oshirilmoqda. "Zamonaviy maktablarni tashkil etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori, "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Prezident Qarori, "Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Qarori va boshqa ko'plab respublikamizdagi ta'lim tizimini dunyodagi yetuk ta'lim tizimlariga tenglashtirish borasidagi islohotlarni ta'kidlab o'tish mumkin. Ushbu maqsadlarni bajarish uchun 2016-yildan boshlab milliy ta'lim tizimida STEAM paydo bo'lishi haqida so'z yuritilmoqda. Hozirgi kunda STEAM ta'lim tizimi dunyo miqyosida keng tan olinmoqda. Ba'zi mamlakatlarda ushbu ta'lim tizimi milliy ta'lim tizimi etib tayinlangan. 2016-yil natijasiga ko'ra STEAM ta'lim tizimi bo'yicha maktabni tamomlaganlar taqsimotiga ko'ra yuqori texnologiyalar bo'yicha jadal tarzda rivojlanib borayotgan Xitoy birinchi

o'rinni, AQSH va Rossiya munosib ravishda 3 va 4 o'rinni egalladi.

Adabiyotlar tahlili.

STEAM so'zi ingliz 4 so'zning bosh harflaridan tashkil topgan abreviatura bo'lib, unda: S – Science –Fan, T – Technology – Texnologiya, E – Engineering –Injinerlik, M – Mathematics – Matematika. Yaqin kunlarda ushbu apreviaturaga A - Art – San'at bo'limi ham qo'shilgan.

Ya'ni STEAM tizimida ta'lim ushbu 4 yo'nalishga urg'u bergan holda, undan tashqari ularning bir-biri bilan bog'liqligini ko'rsatgan holda olib boriladi. STEAM - maktabgacha va maktab yoshdagi bolalarni tarbiyalash dasturidir.

Dasturda bolalarning bilimlarini qat'iy tartibga solish va o'qitishda bolalarni har tomonlama qolipga solinmagan. Faqatgina mustaqil, erkin tajribalarga asoslanib, o'zi bajarib ko'rib, his etib, fikrlab, idrok etib bajarish kerak bo'ladigan tamoyillarga tayanadi.

Dastur L.S.Vygotskiyning "to'g'ri tashkil etilgan ta'lim – bolani rivojlanish sari

yetaklaydi” ilmiy rivojlanish tamoyillariga asoslangan. STEAM dasturida maktabgacha ta’lim tashkilotlaida maxsus laboratoriyalar tashkil etib, faoliyat davomida bolaning intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

STEAM dastur doirasida mualliflar bir qator taniqli rus va xorijiy psixologlar va o’qituvchilar tomonidan shakllantirilgan printsiplarga tayangan. Ushbu yondashuv o’z ahamiyatini saqlab qoldi, chunki zamonaviy sharoitda aqlni rivojlantirish uchun maktabgacha yoshdagi ta’lim muassasasidan ko’tarilishi kerak bo’lgan faol pozitsiyani talab qiladi.

STEAM dasturi maktabgacha va boshlang’ich maktab yoshidagi bolalar uchun moslashtirilgan asosiy ta’lim dasturlari, shuningdek, nogiron bolalar uchun moslashuvchan, asosiy universal dastur bo’lib, ularning integratsiyasi psixologik va pedagogik tuzatish amaliyotida keng qo’llanilishi mumkin.

Fridrix Frebelning pedagogik tizimi Bolalar bog’chasining paydo bo’lishi tarixi 1837-yilga borib taqaladi, bolalar bog’chasining asoschisi deb taniqli nemis pedagogi - Fridrix Frebel hisoblanadi. Aynan u Germaniyaning Bad Blankenburg shahrida bolalar uchun tashkil qilingan muassasasini “bolalar bog’chasi” deb atadi va ushbu atama butun dunyoda umumiy tarzda qabul qilindi.

Yana bir taxmin shundan iboratki, nemis pedagogi Sorbixdagi “Saroy bog’ida” deb nomlangan sobiq mehmonxonada “bolalarni parvarishlash bo’yicha birinchi muassasa”ni ochgan. Farzandlarini muassasaga olib borar ekan, shaharcha aholisi boqqa ketayapmiz, deb aytgan. Chunki bolalar bog’chasi o’zining dizayniga ko’ra gullar va daraxtlarga o’ralgan bog’ bo’lgan. Frebelning bolalar bog’chalari shuningdek, vaqtincha oila o’rnini bosish va ota-onalarga tarbiya ishlariga yordamlashish uchun tashkil qilingan: onalar bilan bolalar birga kelishi, ular bilan o’ynashi va bog’bon qizlardan o’rganishi mumkin bo’lgan. Shu tarzda, F.Frebelning katta xizmati bolalar bog’chasining ochilishi, shuningdek maktabgacha ta’lim

uslubiyotining yaratilishi bo’ldi. Uning asosini bolalarga bo’lgan cheksiz mehr tashkil qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

STEAM dasturida 3 yoshdan 11-yoshgacha bo’lgan bolalarning bilim va ko’nikmalarini shakllantirish, maktabda texnik va tabiiy fanlar bo’yicha ta’limni davom ettirish uchun shart-sharoitlarni laboratoriyalarda amaliy yaratish tamoyiliga ham tayanadi.

Bolalar tarbiyasiga katta e’tibor qaratar ekan, Frebel o’yinlarni o’z uslubiyotining asosi deb bilgan, bular: ijodiy, harakatli, fantaziyali, taqlidli va h.z. o’yinlar. Shuni ta’kidlash kerakki, aynan Frebel didaktik o’yinlar tizimini yaratishga asos solgan. U didaktik o’yinlar va turli tuman mashg’ulotlarni o’tkazish bo’yicha uslubiy ko’rsatmalarni ishlab chiqqan. Olim olib borgan ishlar unda shunday e’tiqodni shakllantirdiki, «bolalar o’yini - bu turmush ko’zgusi va ichki olamning erkin namoyishi»dir. U ilk yoshdagi va maktabgacha yoshdagi bolalar nutqining rivojlanish bosqichlarini batafsil ko’rsatib bergan hamda buyum bilan tanishishni uning nomini atashdan boshlash kerak, degan talabni ilgari surgan. Nemis pedagogining fikricha, turli materiallar bilan ko’plab mashqlar bajaruvchi bolalar boshqa bolalardan ancha avval so’zlay boshlaydi. Frebel xilma-xil bolalar faoliyati turlari va mashg’ulotlarni taklif etgan, bular: mozaika, munchoqlar, cho’plar, qog’ozlar, bo’yoqlar bilan ishlash, rasm chizish, qog’ozdan to’qish, qog’ozni qirqish, loydan narsalar yasash. Origamiga katta e’tibor qaratilgan (ya’ni qaychidan foydalanmasdan turib, qog’ozdan shakllar yasash). Shuningdek, olimning bog’chasida arqonli o’yinlar; qum o’ynash, konstruksiyalar yasash uzviy mashg’ulotlar hisoblagan. Bular ijodiy qobiliyatni o’stirish, intellektni shakllantirish, dunyoni abstrakt holda qabul qila olish, noan’anaviy qarorlar qabul qilish layoqatini rivojlantirishga ko’maklashadi.

O’yin jarayonida bolalar bilan suhbatlashish

ham ko'zda tutilgan. Suhbat mavzusi Frebelning fikricha, avvaldan tayyorlanib, bolaning faoliyat bilan shug'ullanish va boshqa bolalar bilan muloqot qilishga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun, uni tengdoshlari jamoasida tarbiyalash kerak. Ushbu g'oyani u chuqur pedagogik asos bilan mustahkamladi va uni keng ommalashtirish bo'yicha ko'p ishlarni amalga oshirdi. Frebel jamoaviy tarbiyani insoniyat asosi, deb bilgan. Shu sababli u bolani majburiy tartibda jamoaviy faoliyatga jalb qilish, ya'ni uning bolalar bog'chasiga qatnashi zarur, deb hisoblagan. U bolaning tanasini rivojlantirish zarur, tashqi hissiyot sezgilarini mashq qildirish, ularni odamlar va tabiat bilan tanishtirish kerak, deb hisoblagan. Shu kabi o'yin jarayonida bolani maktabga tayyorlash, bog'dagi o'simliklar kabi, ularga rivojlanishida yordamlash kerak, deb bilgan. Ayni paytda har bir bolaning individualligini yodda tutishga da'vat etgan. Shu sababli bog'da katta gullar to'plami bo'lgan, bolalar gullarni guruh bo'lib parvarish qilgan, ayni paytda bitta bolaga biriktirilgan o'simlik ekilgan tuvak ham bo'lgan. F.Frebel uslubiyotining g'oyasi - barcha narsalar bolalarga. Olim bolalarga hayvonlar haqidagi voqealarni aytib bergan, zero bolalar hayvonlarni yaxshi ko'rishini tashungan. So'ngra bolalarning gullarga mehri balandligini anglagan. Shu sababli uning tarbiyalanuvchilari gullarni mustaqil parvarishlay boshlagan. Asta-sekin musiqaning bolalarga ijobiy ta'sir ko'rsatishini sezgan. Shundan kelib chiqib, bolalar ashula ayta boshlagan va «bog'bon qizlar»ning (ya'ni, tarbiyachilarning) ashularini tinglagan.

F.Frebel jazolarga, bolalarga nisbatan har qanday shavqatsizlik namoyishlariga qarshi bo'lgan. Fridrix Frebel haqida so'z ketganda uning «tuhfalarini» alohida eslatish kerak.

«Frebel tuhfalari» - bu olim tomonidan ishlab chiqilgan didaktik material bo'lib, bolani ilk yoshda rivojlanishiga mo'ljallangan. Bu bolaning turli ko'nikmalari va layoqatlarini mashq qildiruvi o'yinchoqlar tizimidir. Har bir o'yinchoq bolani rivojlantirishga

ko'maklashadi hamda undan foydalanishda muayyan qoidalarni ko'zda tutadi.

Shu tarzda Frebel bo'yicha bolalar bog'chasining maqsadi va tamoyillarini quyidagilar tashkil qiladi:

- faoliyatning 3 ta turiga - o'yin, o'quv, mehnatga yo'naltirilganlik;
- bola hissiyotlarini rivojlantirish;
- bolaning tanasi va ruhini mustahkamlash;
- ko'rgazmali usul yordamida tabiat bilan tanishish va dunyoni anglash;
- odamlar bilan muloqot qilish;
- bolaning tabiiy xislatlarini rivojlantirish;
- bolalarga cheksiz mehr-muhabbat ko'rsatish.

F.Frebelning ulkan yutuqlari bilan birga, tarixdan ma'lumki, uning pedagogik yondashuvlari K.D.Ushinskiy, E.A.Flyorina, G.N.Vodovozova kabi olimlartomonidan tanqid qilingan. Frebel nazariyasida kamchiliklar ham bor, va ular, avvalo, quyidagilar:

- bolaning bevosita atrofdagi olam bilan tanishuvi «tuhfalar» tizimiga almashtirilgan;
- bolaning hayoti didaktik material bilan chegaralanadi;
- bolaning hayoti haddan ziyod tartibga solinadi;
- bolaning erkin ijodi cheklanadi va h.z. Shunga qaramay, F. Frebel fanga katta hissa qo'shgan, zero u nazariya va amaliyotni birlashtirdi, uning maqsadi - bolaning ijodiy salohiyatini namoyon bo'lishiga ko'maklashadigan sharoitni ta'minlovchi muhitni yaratish bo'lgan. Ayni paytda bu bolada noan'anaviy ijodiy fikrlash qobiliyatini, fantaziyani rivojlantiradi, masalalarni hal etishga noan'anaviy yondashuvni shakllantiradi.

Taxlil va natijalar.

STEAM dasturida asosiy g'oya - "hech qanday so'z yoki vizual tasvirlar aqlning rivojlanishi uchun asos bo'la olmaydi. Bola barchasini laboratoriyada bajarib ko'rishi kerak". STEAM dasturi orqali tashkil etiladigan faoliyatlarda bola faol bo'ladi.

Chunki faoliyatda manipulyatsiyalash va integratsiyalashgan haqiqiy zamonaviy muhit va uning axborot-kommunikatsiya qismi, jumladan, programlanadigan robot qurilmalari bilan tajriba o'tkazish bolani jalb etadi. STEAM dasturida bolalar bilan tajribalar tashkil etish elementar faoliyatlar orqali tashkil etilib, oddiydan murakkabga qarab boradi. Shu tamoyilga amal qilinsa, bola qiyin tajribalarni tashkil etishda, laboratoriyada mustaqil ishlay olishga qiynalmaydi. Tarbiyalanuvchilarda STEAM ko'nikmalari shakllangach, bolaning borliq, bizni o'rab turgan dunyo bilan intellektual xarakterga ega bo'lgan bilimlar jamlanmasi tobora rivojlanib boradi.

Dastur zamonaviy strategik prinsipga, Rossiya ta'lim tizimi-maktabgacha va maktab bosqichlarida asoslanib ikki ijtimoiy institutlarning, ya'ni oila va ta'lim tashkilotining hamkorligi tamoyiliga tayanadi.

Maktabgacha tarbiya g'oyasini targ'ib etish va bolalar bog'chalarini ommalashtirish yo'lida ulkan ishlarni amalga oshirdi. Olim bolalarning

yoshlariga mos ravishda ishlash usullarini ishlab chiqish orqali maktabgacha tarbiya amaliyotini jiddiy boyitdi. Ko'plab mamlakatlarda bolalar bog'chalari maktabgacha tarbiya tizimida yetakchi o'rinni egalladi.

Xulosa

Frebel maktabgacha tarbiya tarixida birinchi bo'lib ijtimoiy maktabgacha tarbiyaning yaxlit, uslubiy ishlab chiqilgan, amaliy qo'llanmalar bilan boyitilgan tizimini yaratdi. Maktabgacha ta'lim sohasi vujudga kelishida 1918-yilda Fridrix Frebel kursi qoshida Petrograd Maktabgacha ta'lim institutining tashkil etilishi muhim voqea bo'ldi. Bu ta'lim maskanida Maktabgacha ta'lim bo'yicha mutaxassis kadrlar tayyorlangan, shu bilan bir qatorda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan. 1919-yilda xaq maorifi kommisariyati tomonidan "Maktabgacha ta'lim" bo'yicha butun ittifoq anjumani bo'lib o'tdi. Bunda ijtimoiy Maktabgacha ta'lim sohasini tashkil etish, bola tarbiyasining nazariy-amaliy masalalari o'rin oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-yanvardagi "Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-
 1. I.V. Grosheva, L.G.Yevstafeva, D.T.Maxmudova, Sh.B.Nabixanova, S.V. Pak, G.E.Djanpeisova "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi T: 2018. 1-81-b;
 2. Ermolaeva-Tomina LB Badiiy ijod psixologiyasi: Universitetlar uchun darslik. - M.: Akademik loyiha, 2003y. 304 b
 3. Образовательный модуль «Дидактическая система Фридриха Фрёбеля». Маркова В. А., Аверин С. А. — М., 2018.
 4. Musurmonova A. Pedagogik texnologiyalar-ta'lim samaradorligi omili. Monografiya.-Toshkent. Yoshlar nashriyoti uyi. 2020-yil. 184 bet.
- Internet materiallari:
- 1.<http://www.altshuller.ru/triz/>
 - 2.www.tdpu.uz
 - 3.www.pedagog.uz

THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN TEACHING ENGLISH

ESANBOYEVA MUSHTARIY ALIJON QIZI
Teacher of Tashkent Medical Academy

Annotation: The article deals with the necessity and the importance of applying innovative technologies to foreign language lessons. This article discusses using innovative technologies in project method of teaching foreign language. This article provides various guidelines, corresponding to different stages of training and deals with the examples of activities and lessons with interactive boards, computers and tablets for teaching language.

Key words: innovative, teaching foreign language, innovative technologies, interactive board, tablet, I pad, computer, educational apps

In today's world thousands of people speak a foreign language as secondary language at work and study and know it as mother tongue. The foreign language has gained its importance in the 21st century because it has become the language of science and technology. Foreign language is a world wide spread international language. Foreign language nowadays is used in all spheres of international relations, scientific-techniques, mass-media and business. Foreign language is a key object of information technologies and computer science.

Nowadays, new conditions of society development make the system of higher education face new challenges of creating a whole new level of training qualified specialists, which would contribute to their development and becoming creative personalities possessing their own thinking style, as well as the capability to solve the tasks they face creatively and on their own. Intentional development and systematic reforming of higher education implies special role of language education, developing communicative competence of a person capable of using a foreign language as a means of communication. In development of students, speaking in foreign languages such tasks are solved: correct usage of innovational

materials in teaching, using modern innovational techniques, training students to communicate in foreign languages, to have an individual approach to each student, using dictionaries and vocabularies in translation, to develop the interest of studying language. There are several teaching techniques that are highly evaluated: modular technology, problem teaching, accelerated learning, and individual approach, informational teaching, training according to the level of students, games and communicational technology. In recent years the problem of application of new information technologies at high school is even more often brought up. It is not only new technical means, but also new forms and methods of teaching, new approach to training process. The main objective of training foreign languages is formation and development of communicative culture of school students, training in practical acquisition of a foreign language. The development of education is organically connected with increase of level of its information potential today. This characteristic feature in many respects defines both the direction of evolution of the education, and the future of all society. The most successful orientation in world information space requires

mastering pupil's information culture, and also computer and screen culture as the priority in information search on the Internet. As information system, the Internet offers users variety of information and resources. The basic set of services can include:

- e-mail (e-mail);
- teleconferences;
- videoconferences;
- possibility of publication of an own information, creation of an own homepage (homepage) and its placement on the Web server;
- access to information resources:
 - help catalogs
 - search engines
 - conversation in a network

These resources can be actively used at a lesson.

In a process of teaching English language the role of innovative technologies is significant. By using them we can make the study more effective. There are various kinds of innovative technologies as interactive board, tablet, iPad, computer, speakers, linguaphone, head-phones and also internet which are used for different ways of teaching English.

Interactive boards

These days interactive boards are quite popular at schools. So probably most of the teachers already have their favourite ways how to use it. I will try to show some ideas and sites that are useful for me.

First of all an interactive board is perfect if we want to show something to the whole class at once. We can listen to stories, watch presentations or educational films or play class games.

One of the best games sites is ESL Games Plus, it offers interactive online games for learning and teaching English as a Second Language. The learning games are mostly suitable for teaching ESL kids and teenagers. There are activities for teaching and practicing

English grammar, vocabulary, sentences, listening and pronunciation skills. It is helpful for CLIL lessons about countries because we can find there a lot of games with capitals, flags and continents, which are perfect for 10-minute revisions.

Very good reading site is Oxford Owl – an award-winning website to help support children's learning, both at home and at school. Here we can read stories and information books for free, and what is more for those books are prepared interactive activities which are checking understanding.

Computers

Computers can be used for instance for Art classes. Besides own to them pupil can have dictionaries and books which are useful for learning.

Paint is a program used to draw, color, and edit pictures. You can use Paint like a digital sketchpad to make simple pictures and creative projects or to add text and designs to other pictures, such as those taken with your digital camera.

If we have the program installed in English that's perfect if not we can use oral instructions in English. It is never-ending source of colours, shapes, adjectives etc. and commands like: cut, draw, paint, paste, colour, fill in and many others. To make it more challenging and fun lately in my class we asked students to design a new logo for their school. Before we talked about logos around us and that some logos of cars, fast food restaurants, airlines, football clubs are known worldwide. Children got really involved in the activity, they worked individually. They have learned what is a logo, how to design one, new English vocabulary and they have revised Paint skills. Below I show some works of 7 year olds:

Speakers, head-phones and linguaphones

Speakers are very useful in listening section of English lessons. They help us in doing listening tasks during the English lessons as

because of them we can listen the conversations of the tasks. Head-phones are also helpful in this way. However it has one advantage, benefit that pupil or student can listen the audios separately but with the aid of speakers students have to listen all together. The linguaphones are useful for translating. Owing to them students can translate the texts or conversations at the same time, simultaneously.

Tablets

Tablets or I pads are my favourite tools because of their unlimited opportunities. Planning a lesson with a tablet it is good to consult IT teacher at school and try all the procedures ourselves before. If we need some pictures we can save them on our device and send them for example by Bluetooth to our students, it is always safer than letting them search the internet, especially young ones. It takes a lot of time and it is difficult to control them.

SimpleMind 'Free for Android is a mind mapping tool that turns your android phone or tablet into a brainstorming, idea collection and thought structuring device. The Free version comes with basic but powerful Mind Mapping features. This app is extremely useful in CLIL lessons. It can be used for brainstorming with the whole class, groups or pairs as well as organizing thoughts individually. It is very clear and intuitive in use so we can propose it to younger and older students. Below two examples of using SimpleMind is shown, one easier and one a little bit more complex:

FarFaria offers thousands of storybooks, songs, and nursery rhymes for children. New stories are released every week. FarFaria will help students to develop a love for books and will encourage them to read.

In this app except from storybook we can find a lot of information books about animals, nature, universe etc. Those books are advantageous during our CLIL units. Children

can listen to books and follow the text or can read themselves. A teacher can choose a book in advance because it is easy to find if by title when needed. It can be a perfect homework introducing or summing up the topic. One book a day is for free and to me it is sufficient, if we want to read more we need to pay. It is also very attractive visually, because pupils are searching books by islands. Below there are some pictures of this app:

Puppet Pals – This is fun and simple animation app. For free, you are provided with a limited collection of 'puppets' or cartoon characters and some backdrops. You can then act out scenes, move them around, record audio. The completed scene can then be exported to the camera roll. The extended version costs 5.99\$ for I pads. For Androids there is an equivalent app called

Scribble Press, 'with the tools provides, kids can draw and write their own books, either for fun or for class projects. Scribble Press for iPad includes 50 story templates, over 500 drawing tools, stickers, your own photo library, and book layout tool. They can share the finished books via email, or iBook, which will give them a real sense of accomplishment. Not many creative apps offer so many options. With so many tools available, kids can let their imagination go wild, and create professional looking products they will be proud of. This app unfortunately is available only for I pads and costs 3,99\$. When I was working in a classroom where each student had their own I pad it was my favourite app.

For example during unit about vehicles – one page is about different types of transport from the past, one – from the present, one- from the future. Another pages are for example about number of wheels they have, another about place they can move – air, water and land.

Summing up, one of the favorable features of innovative technology training is an activity

BO'LAJAK MAKTABGACHA TA'LIM TARBIYACHILARINING NUTQ MADANIYATINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

XAMRAYEVA E'ZOZXON MUZAFFAROVNA,
Jizzax davlat pedagogika univertiteti, Maktabgacha ta'lim metodikasi
kafedrasimustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining nutq madaniyatini innovatsion texnologiyalar asosida rivojlantirish asoslari va ahamiyati to'g'risida fikr yuritilgan.

Аннотация В данной статье рассматриваются основы и важность развития речевой культуры будущих воспитателей дошкольного образования на основе инновационных технологий.

Annotation: This article discusses the foundations and importance of developing the speech culture of future preschool teachers based on innovative technologies .

Tayanch so'zlar: Konsepsiya, kompetensiya, kommunikativ, kreativ, innovatsiya, empatiya, gumanistik, motivatsion, kontekst, kasbiy madaniyat, nutq madaniyati.

Ключевые слова: Концепция, компетентность, коммуникативное, креативное, инновационное, эмпатийное, гуманистическое, мотивационное, контекстное, профессиональная культура, речевая культура.

Key words: Concept, competence, communicative, creative, innovative, empathic, humanistic, motivational, contextual, professional culture, speech culture.

Jahon miqyosida jamiyat rivojining turli sohalarida innovatsion texnologiyalar asosida ta'lim samaradorligini oshirish, ta'limni axborotlashtirish sharoitida pedagoglar nutqini o'stirish va tafakkurini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, innovatsion texnologiyalar asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'limiy faoliyatni amalga oshirish, tarbiyalanuvchilar nutqini o'stirish va tafakkurini rivojlantiruvchi integrativ o'zaro uyg'unligini ta'minlash alohida dolzarblik kasb etmoqda.

Zamonaviy ta'lim maqsadlariga erishish ko'p jihatdan tarbiyachilarning shaxsiy salohiyati, uning umumiy va kasbiy madaniyati bilan bog'liq. Bo'lajak tarbiyachining umumiy va kasbiy madaniyatining o'zgarish tarkibiy qismi, bizning fikrimizcha, nutq madaniyatidir.

Respublikamizda Prezident Sh.M.Mirziyoevning "Maktabgacha ta'lim sohasi uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblanib, u har tomonlama

sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi" – degan fikrlari asosida tarbiya va o'qitish usullari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda xorijiy tillarni puxta o'zlashtirgan, ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalariga ega professional oliy ma'lumotli tarbiyachilarni tayyorlash, maktabgacha ta'lim tizimidan boshlab ta'limga raqamli texnologiyalarni joriy etish, innovatsion texnologiyalar asosida zamonaviy ta'lim texnologiyalarining integratsiyasini ta'minlash pirovardida tarbiyachilarning nutq madaniyatini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida maktabgacha ta'lim faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish" kabi muhim vazifalar belgilandi. Bu esa, globallashuv sharoitida innovatsion

texnologiyalar asosida bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari nutq madaniyatini rivojlantirish yanada dolzarb ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

Bugungi kunda bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining nutq madaniyatini rivojlantirish ijtimoiy ahamiyatga ega talab bo'lib xizmat qiladi. Jamiyat tarbiyachilar, pedagoglar va ota-onalar bilan to'liq aloqani amalga oshirish uchun yuqori kasbiy darajaga ega, o'quv jarayonida qulay kontekst yaratishga qodir, nutq madaniyatining yuqori darajasiga ega bo'lgan tarbiyachiga muhtoj. Ushbu muammoni ishlab chiqish uning alohida tomonlarini ochib berishga nazariy yondashuvlarni tahlil qilmaslik mumkin emas va ushbu kontekstda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar bir qator yo'nalishlar bo'yicha olib borilganligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Bir qator pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish va bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining nutq madaniyatini rivojlantirish muammolari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar natijasida quyidagi qarama-qarshiliklar aniqlandi:

- jamiyatning turli xil o'quv jarayonlarida maktabgacha yoshdagi bolalar bilan to'liq aloqani tashkil etishda mutaxassislariga bo'lgan ehtiyoji va bo'lajak mutaxassislarning nutqiy tayyorgarligining haqiqiy darajasi;

- universitetlarning o'quv jarayonida talabalarining nutq madaniyatini rivojlantirish uchun imkoniyatlarning mavjudligi va uning rivojlanishi uchun sharoit yaratishga yetarlicha e'tibor berilmaganligi.

Shu asosda ta'lim amaliyotida mavjud bo'lgan qarama-qarshiliklar bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining nutq madaniyatini innovasion texnologiyalar asosida rivojlantirishning ahamiyati qay darajada dolzarbligiga olib keladi va bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining nutq madaniyatini kasbiy pedagogik madaniyatning tarkibiy qismi sifatida rivojlantirish samarali

bo'ladi. Bunda quyidagi vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- nutqiy va psixologik pedagogik bilimlarni birlashtirish amalga oshiriladi;

- o'qitishning innovasion usullari muammoli va madaniy yo'nalishga ega, bolajak tarbiyachilarning maktabgacha yoshdagi bolalar va ularning ota-onalari bilan muloqotni tashkil etish ko'nikmalarini rivojlantirishni ta'minlanadi;

- talabalarining muloqotdagi subyektiv tajribasini aktallashtirish-bu bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining nutq madaniyatini rivojlantirishni o'z-o'zini rivojlantirish rejasiga o'tkazish mexanizmi hisoblanadi;

- bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining nutq madaniyatini rivojlantirishni o'z-o'zini rivojlantirish rejasiga o'tkazish mexanizmi bo'lgan talabalarining muloqotdagi subyektiv tajribasini yangilash.

Maktabgacha ta'lim sohasining bo'lajak tarbiyachining nutq madaniyatini rivojlantirishni nazariy tahlili tarixiy retrospektivda ham, zamonaviy ilmiy didaktik va pedagogik asarlarda ham taqdim etilgan, asosiy tushunchalar aniqlangan bo'lib, maktabgacha ta'limning bo'lajak tarbiyachilarining nutq madaniyatining mohiyati ijtimoiy pedagogik hodisa sifatida ochib berish, maktabgacha ta'limning bo'lajak tarbiyachilarining nutq madaniyati modeli ishlab chiqish bo'lajak tarbiyachilarning nutq kompetensiyalari to'plami to'ldiradi. Bunda maktabgacha yoshdagi bolalar va ularning ota-onalari bilan muloqot qilish uchun bo'lajak tarbiyachilar uchun zarur bo'lgan nutq madaniyatini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari aniqlash maqsadga muvofiqdir.

Nutq madaniyati tarkibida ajralmas shaxsiy ta'lim sifatida uning ikkita tarkibiy qismini ajratish mumkin. Birinchi komponent tarbiyaning qadriyatlarini va motivlari tizimini o'z ichiga oladi. Ikkinchi komponent nutq

madaniyatining namoyon bo'lishini uning o'zini o'zi anglashi bevosita aloqalarni belgilaydi, nutqning kommunikativ fazilatlaridan foydalanish ko'nikmalarini o'z ichiga oladi. Nutq madaniyatining tarkibiy qismlari o'zaro bog'liqdir, chunki faoliyatining har qanday shaklida motivatsiya, bilim, ko'nikma va xatti-harakatlar mavjud. Bundan tashqari, yetakchi o'rinni innovatsion texnologiyalar egallaydi, bu nafaqat ma'lum motivlarning mavjudligini oldindan belgilab beradi, balki tarbiyachilarning bolalar bilan bevosita aloqada bo'lgan harakatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, shuningdek bo'lajak tarbiyachidan bilim olish va nutq ko'nikmalarini yaxshilashga bo'lgan ehtiyojning paydo bo'lishini rag'batlantiradi. Shundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion texnologiyalar asosida bo'lajak tarbiyachilar nutqini o'stirishning muhim jihatlari bizning nazarimizda quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- o'quv-tarbiyaviy faoliyatni rejalashtirishda ta'lim sharoitlariga bog'liq holda integratsiya, xilma-xillik va moslashuvchanlik mexanizmlari mazmunini motivatsion, zamonaviy universal ta'lim, integratsion yondashuv, xalqaro hamkorlik tamoyillari asosida optimallashtirishning ilmiy - amaliy asoslarini aniqlash;

- maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yillik mavzuviy reja va haftalik rejasi mazmunini xalqaro me'yorlar va davlat standartlarini implemintatsiya qilish asosida integratsiyalashtirilgan zamonaviy axborot ta'lim bazasini ishlab chiqish;

- o'quv faoliyati jarayonlariga zamonaviy ta'lim dasturlari va innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish orqali o'quv-metodik resurslarning samaradorligini aniqlash;

- o'quv faoliyati natijalariga ko'ra maktabgacha ta'lim tashkilotlari

tarbiyachilarining bilim, malaka va ko'nikmalarining sifat va samaradorligini innovatsion baholash tizimini aniqlash.

Bizning fikrimizcha, tarbiyachilarning kasbiy qadriyatlari sifatida muloqotga bo'lgan ehtiyojni qondirish bilan bog'liq qadriyatlar hamda o'zini takomillashtirish bilan bog'liq qadriyatlar ajralib turadi va bu asosiy ta'limining gumanistik yo'nalishi, uning umumiy madaniyatining asosini tashkil etuvchi va shaxsning nutq madaniyatining tarkibiy qismi bo'lgan qadriyatlar tizimida nomoyon bo'ladi.

Tarbiyachining nutq madaniyatini rivojlantirishda kreativ yondoshuv muhim o'rin tutadi. Tarbiyachining nutq madaniyatining ahamiyatini, uning shaxsiyati va bola shaxsini shakllantirishdagi rolini anglashi nutq fazilatlarini va nutq qobiliyatlarini o'z-o'zini takomillashtirishga ijobiy turtki beradi buning uchun ma'lum miqdordagi bilim talab etiladi, aniq mavjud bilimlar asosida tarbiyachi o'zining nutq xatti-harakatlarini baholaydi, uni namunali bilan taqqoslaydi, natijada nutq madaniyatini rivojlantirish va takomillashtirish yo'llarini belgilaydi. Bunday holda, bu bilim pedagogik, nutq madaniyati nazariyalari, aloqa nazariyalari va boshqalarda nomoyon bo'ladi. Bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachisining nutq madaniyatining asosiy tarkibiy qismi bu tarbiyachi shaxsining gumanistik yo'nalishi bo'lib, u qiymat yo'nalishlarini, nutq madaniyatini rivojlantirish asoslarini o'z ichiga oladi. Bu yerda nutq madaniyati haqidagi bilimlarga bo'lgan ehtiyojlar ustunlik qiladi, uning mohiyatini tushunish va uning shaxsiyati va bola shaxsini rivojlantirish uchun ahamiyatini anglash va nihoyat tarbiyachining o'zini o'zi anglashida tarbiyachining kasbiy o'zini o'zi rivojlantirishning asosiy shaxsiy boshqaruvi sifatida aks etadi. To'g'ridan-to'g'ri muloqotda o'zini namoyon qiladigan nutq madaniyatining tarkibiy qismi nutqning

kommunikativ fazilatlaridan foydalanish bo'yicha nutq qobiliyatlari va ko'nikmalarini o'z ichiga oladi. Har qanday kompetensiya singari, nutqning kommunikativ fazilatlaridan foydalanish qobiliyati nutq madaniyatining nazariy asoslarini, nutqning asosiy kommunikativ fazilatlarini bilish, nutq odob-axloq qoidalarini bilish va pedagogik nutq uchun asosiy talablarni bilish kabi tegishli bilimlar tizimiga asoslanadi.

Kompetensiyalar haqida so'z ketganda, tarbiyachining kasbiy ahamiyatli fazilatlarini e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi, chunki ularning o'zaro ta'siri tarbiyachi uchun va pedagogik jarayon uchun muhim ahamiyatga ega. Bo'lajak tarbiyachi nutq kompetensiyasining yuqori darajada egallashi va natijada uning bolalar bilan samarali muloqotiga hissa qo'shadi. Muloqotning samaradorligi va samaradorligi haqida gapirganda, biz u (aloqa) va bolalar rivojlanishi uchun qulay muhit yaratishini nazarda tutamiz bizning fikrimizcha, tarbiyachi aks ettirish va empatiya kabi fazilatlarga ega bo'lishi kerak va bizning nuqtai nazarimizga ko'ra, aks ettirish bolani tushunishga, empatiya esa uni qabul qilishga yordam beradi bundan tashqari, bu tarbiyachining bolalar bilan pedagogik jihatdan mos munosabatlarni o'rnatishni ta'minlaydi. Nutq madaniyatining qiymat-motivatsion komponenti tarbiyachining qadriyatlari va motivlari tizimining birligi sifatida qaraladi ushbu komponent tarbiyachining nutq madaniyatini rivojlantirish bo'yicha maqsadli ishlarga munosabatini nazarda tutadi uning mazmuni tarbiyachining motivatsion sohasini tavsiflovchi shaxsning gumanistik qadriyatlari bilan bog'liqdir.

Nutq madaniyatining tarkibiy qismi umumiy madaniy, lingvistik va psixologik-pedagogik bilimlarning integratsiyasi bo'lib, ularning eng muhimi nutqning asosiy fazilatlarini, maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy va nutqni rivojlantirish

qonuniyatlari, maktabgacha ta'limning maqsadlari, vazifalari, shakllari va usullarini bilishdir. Nutq madaniyatining hissiy tarkibiy qismi tarbiyachi tomonidan empatiyaning namoyon bo'lish darajasi va uning o'zini o'zi qadrlash darajasi bilan ifodalanadi. Nutq madaniyatining operatsion tarkibiy qismi tarbiyachi va bola o'rtasidagi aloqa darajasini ta'minlaydigan nutq qobiliyatlarini o'z ichiga oladi. Ulardan eng ahamiyatlisi-maktabgacha yoshdagi bolaning nutq rivojlanishining xususiyatlarini hisobga olish va maktabgacha yoshdagi bolalar bilan aloqa mavzusining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, tinglash va tushunish qobiliyati, mantiqiy, tizimli, aniq, ifodali, majoziy va hissiy jihatdan ifoda etish qobiliyati, mazmuni, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun turli xil uslub va janrlarni moslashtirish qobiliyatini tarkib toptirishdir.

Bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachisining nutq madaniyatining ushbu tuzilishini aniqlash universitetning o'quv jarayonida uning rivojlanish yo'llarini belgilashga imkon beradi. Nutqni rivojlantirishning uslubiy darajasining maqsadi talabalarning ijodiy faoliyatini tashkil etish, uning davomida nazariy darajada o'rganilgan bilimlarni qo'llash, maktabgacha yoshdagi bolalar va ularning ota-onalari bilan muloqotni tashkil etish uchun zarur bo'lgan nutq ko'nikmalarini takomillashtirish uchun asos yaratiladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, maktabgacha ta'limning bo'lajak tarbiyachilarining nutq madaniyatini innovatsion texnologiyalar asosida rivojlantirishda o'zaro bog'liq tarkibiy qismlar qiymat-motivatsion, mazmunli, hissiy va operatsion, uning rivojlanishining yuqori darajasiga erishish uchun zarur bo'lgan shaxsiy fazilatlar, psixologik holatlar, bilim va nutq qobiliyatlari to'plamini aks ettiradi. Maktabgacha ta'limning bo'lajak tarbiyachilarining nutq madaniyatini

НОДАВЛАТ МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТИ ПЕДАГОГЛАРИНИНГ КОРПОРАТИВ МАДАНИЯТИНИ ТАКО- МИЛЛАШТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК МАЗМУНИ

БУРАНОВА ШОХНОЗА АБДУРАЗАКОВНА

педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), в.б. доцент, ЖДПУ

Аннотация: Ушбу мақолада нодавлат мактабгача таълим ташкилоти педагогларининг корпоратив маданиятини такомиллаштиришнинг педагогик мазмуни, асосий элементи, хусусиятлари, муҳим жиҳатлари ёритилган.

Ключевые слова: корпоратив маданият, касбий фаолият, инновацион ривожлантириш истиқболлари.

Annotation: This article describes the pedagogical content, main element, characteristics, and important aspects of improving the corporate culture of pedagogues of a non-governmental preschool education organization.

Key words: corporate culture, professional activity, innovative development prospects.

Жаҳонда шиддат билан ўзгараётган даврда жамият ҳам тараққий этар экан, инсонлар ҳам замон билан ҳамнафас бўлишга ҳаракат қилишади. Тадқиқотлар шуни кўрсатадики, барча ривожланаётган компаниялар сиёсати албатта ташкилот муваффақиятининг гарови сифатида корпоратив ҳақида тасаввурларни ўз ичига олади. Бундан ташқари, ташкилот маданияти ва унинг даромад даражаси, аксиялар қиймати, соф фойда миқдори каби ишлаб чиқариш кўрсаткичлари ўртасида алоқалар миқдорий эмпирик далиллари пайдо бўлди. Таълим муассасалари фаолияти самарадорлигининг муҳим шартлардан бири, бошқа ташкилотлар каби, корпоратив маданият орқали бошқариладиган компания миссиясига эришиш учун ходимларнинг саъй-ҳаракатларини бирлаштиришдир. Ҳар бир корпоратив маданиятнинг асосий элементи, корпорациялар корпоратив маданиятининг асосий хусусиятларини аниқлаш учун унинг асосий қийматларини аниқлашдир. Компанияларнинг шаклланиши

глобаллашув жараёни доирасида, ижтимоий-иқтисодий ёки замонавий восита сифатида қаралиши мумкин. Корпоратив маданият жаҳон бўйлаб иқтисодий, сиёсий, маданий ва диний интеграция ва бирлашув жараёнидир.

Жаҳонда кўп мактабгача таълим ташкилотлари маданий яқдилликка эга эмаслар, аммо фарқли ўлароқ, корпоратив маданий хилма-хилликни кадрлашди ва ташкилот салоҳиятини оширишнинг таъкидлашади. Мактабгача таълим ташкилотини корпоратив маданиятли бошқаришда синергетик ёндашув қўлланилади.

Бу шунингдек, Ғарб, Марказий ва Шарқий Европа кўплаб мамлакатлардан келган тажрибалар, замонавий бошқарув, мактабгача таълим соҳасида ва олий таълим муассасаларининг бўлажак мутахассисларда корпоратив маданиятни ёдда тутиш лозим. Демократик давлатни барпо этиш учун таълим дастурлари талабаларда ташкилот келажакини ривожлантиришда корпоратив маданият

муҳитига мўлжалланган бўлиши керак.

Дунё мамлакатларида корпоратив маданиятга қизиқиш анча олдинроқ пайдо бўлган бўлиб, қуйидаги сабаблар билан изоҳланади. Мактабгача таълим ташкилоти фаолиятининг натижалари самарадорлигига корпоратив маданият таъсирини бошқарув соҳаси томонидан тушунилиши, иқтисодий ислоҳотлар натижасида амалга ошди. Бунда ислоҳотларнинг иқтисодий дастаклари қанчалик аҳамиятли бўлмасин етарли ҳисобланмайди ва корпоратив маданиятсиз қўтилган натижага эришиб бўлмайди. Корпоратив маданиятни ўрганиш зарурати қуйидаги асосий сабабларга асосланади: маданият феномени реал ва у бутун жамият ташкилотлари, гуруҳлар ва ҳаттоки алоҳида олинган шахс учун муҳим аҳамият касб этади. Ушбу турдаги аҳамиятга эга бўлган ҳар қандай ҳодиса ўрганилиши лозимдир, шахснинг ва бутун бир ташкилотнинг ишлаб чиқариш фаолияти, шунингдек, инсонларнинг ташкилотга бўлган муносабатини корпоратив маданиятсиз тушуниб бўлмайди. Кўпгина тадқиқотлар бугунги кунда ҳар қандай компаниянинг фаолияти корпоратив маданиятнинг турига ёки кучига боғлиқлигини тасдиқлайди. Корпоратив маданият тушунчасини кўпинча ташкилий муҳит, фалсафа, услуб ёки инсонларни бошқариш усули тушунчалари билан адаштиришади. Агар ушбу ҳодисани жамият, инсон ва ташкилот равнақи мақсадида фойдаланмоқчи бўлсак, уни ушбу ўхшаш туюлган тушунчалар қаторидан ташқарисида ўрганишимиз керак. Корпоратив маданият таъсирлар кучли ҳисобланади, муайян моделларга риоя қилишни, шунингдек тақлид қилишни ва прогнозлашни талаб этади.

Мамлакатимизнинг ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий тизимларидаги ислоҳотлар ҳаётнинг барча жабҳаларида таркибий ўзгаришларга олиб келди, бу эса бир томондан мамлакат учун янада ривожланиш истиқболларини очди, бироқ бошқа томондан, бир қатор янги муаммоларни яратди. Мактабгача таълим тизимини ислоҳ қилиш, келажакда педагог касбини эгаллайдиган янги авлодни юкори касбий маданият, ижодий ва ижтимоий фаоллик, ижтимоий - сиёсий ҳаётда эркин, мустақил фаолият кўрсата олиш, юксак даражадаги педагогик маҳоратга эга бўлишга йўналтирилган. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 майдаги “Ўзбекистон Республикаси мактабгача таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида” ги қарори мисолида кўрсак, мазкур концепция мактабгача таълим тизимини янада такомиллаштириш, болаларнинг сифатли мактабгача таълимдан тенг фойдаланишини таъминлаш, мактабгача таълим хизматларини ривожлантириш, бир сўз билан айтганда, мактабгача таълим тизимини ривожлантиришнинг мақсадли вазифаларини қамраб олган бўлиб, жараённинг устуворликлари ва босқичларини белгилаб берди. Мактабгача таълим ташкилотлари учун педагог ва бошқарув кадрларини тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва салоҳиятини ошириш борасида ҳам ижобий ўзгаришлар кузатилмоқда. Концепция тасдиқлангандан сўнг ўтган бир йилдан ортиқ вақт мобайнида мактабгача таълим тизимида янги Қонун қабул қилинди, янги лойиҳалар, ислоҳотлар босқичма-босқич амалга оширилиб келинмоқда. Ушбу соҳадаги давлат сиёсати Ўзбекистон Республикасининг “Мактабгача таълим ва тарбия тўғриси-

да” ги Қонунида ўз аксини топган бўлиб, у мактабгача таълимнинг янги тизимини куришга қаратилган бўлиб, унинг марказида боланинг шахсий ривожланиши ўз аксини топган.

Иқтисодиётдаги ва жамиятдаги туб ўзгаришлар, “Инсон қадри учун” тамойили асосида халқимизнинг фаровонлигини янада ошириш, фаол фуқаролик жамиятини шакллантиришга қаратилган ислохотларнинг устувор йўналишларидан бири мактабгача таълим тизимида таълим сифатини янги босқичга олиб чиқиш этиб белгиланди. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон Фармонининг 39-мақсадида мактабгача таълим тизимида таълим сифатини янги босқичга олиб чиқиш, мактабгача таълим тизими ходимларининг профессионал тайёргарлиги ва маҳоратини ошириб боришнинг такомиллаштирилган тизимини жорий этиш, мактабгача таълим-тарбия жараёнларини илмий асосланган ёндашувлар асосида такомиллаштириш каби вазифалар белгиланган.

Республикамиз таълим тизимида амалга оширилаётган ислохотлар жамиятимизнинг иқтисодий, ижтимоий, сиёсий, маданий ва маърифий жиҳатдан жаҳоннинг энг ривожланган мамлакатлари қаторидан ўрин олишида ўзининг ижобий натижаларини бермоқда. Мана шундай ўзгаришлар барча жабҳаларда бўлгани сингари мактабгача таълим ва тарбия тизимида ҳам изчиллик билан амалга оширилмоқда.

Мустақилликка эришгач, қадриятларимизни тиклаш, ўзлигимизни англаш, мактабгача таълим тизимини қайта ку-

риш, ҳар томонлама етук, замонавий талабларга жавоб берадиган мутахассис кадрларни тайёрлаш бош вазифа қилиб қўйилди. Бу эса мактабгача таълим ташкилотининг имиджи ва ижтимоий барқарорлигини шаклланишини таъминлаш, ташкилот педагогларининг корпоратив маданиятини ривожлантириш имкониятлари, муаммолар ва ҳал этилмаган масалаларни аниқлаш ва шу асосда, корпоратив маданиятли мактабгача таълим тизимини замонавий халқаро стандартлар асосида инновацион ривожлантириш истиқболларини белгилаш ҳисобланади. Ушбу диссертацияда корпоратив маданиятнинг назарий жиҳатлари, чунончи, ушбу масаланинг тарихи, ташкилот маданиятини шакллантиришда педагогик ёндашувлар кўриб чиқилади, шунингдек, корпоратив маданият бажарадиган функциялар батафсил баён этилади.

“Корпоратив маданият” тушунчаси ривожланган мамлакатларда йирик фирмалар ва корпорациялар ичидаги муносабатларни тартибга солиш ҳамда иқтисодий, тижорий ва саноат муносабатларининг инфратузилмасида ўз ўрнини топиш учун зарур бўлган сўнгги асрнинг йигирма йилларида ишлатилган. Корпоратив маданият – демократик ҳодиса асосида ходимларнинг ўзлари иштирокида ишлаб чиқилган ва онгли равишда риоя этиладиган қоидалар мажмуидир. Корпоратив маданият мактабгача таълим ташкилотининг қанчалик самарали ёки самарасиз ишлашини белгиловчи муҳим таркибий қисми бўлиб, таълим сифатини таъминловчи асосий восита ҳисобланади. Шунинг учун ҳам мактабгача таълим педагогларининг корпоратив маданиятини ўрганиш энг жадал ривожланаётган илмий йўналишлар-

дан биридир.

Қуйида “корпоратив маданият” тушунчасига тегишли айрим муаллифларнинг фикрлари келтирилган. Корпоратив маданият: у ташкилот муваффақияти ва фаровонлиги учун ички ва ташқи тўсиқларни бартараф қилишни ўргатиб, хулқ атвор нормалари, артефактлар, қадриятлар, тасаввур ва тушунчалар мажмуидир; муаммони ечиш тажрибасини ўзида мужассам этган ижтимоий яратилган ҳақиқатлардир. Ушбу таъриф корпоратив маданиятнинг асосида ўзгарувчан реаллик шароитида ижтимоий ўзаро таъсир натижасида эгалланган билим олиш жараёни эканлигини таъкидлайди; моддий ва маънавий қадриятлар тизими бўлиб, ижтимоий ва ташқи муҳитда намоён бўладиган ташкилот индивидуаллиги, ўзлигини тан олиши ва бошқаларнинг ўрнини англашдир. бунинг натижасида ташкилот атроф - муҳитдаги хулқ-атвори, ҳамкорлиги, ўзлигини идрок этишни аниқлайди. Корпоратив маданият иш берувчининг хоҳиши ёки ташкилот бошқаруви орқали яратилади, ташкилотнинг барча ходимлари учун мажбурий бўлган қоидалар тўпламидир. Корпоратив маданият – демократик ҳодиса асосида ходимларнинг ўзлари иштирокида ишлаб чиқилган ва онгли равишда риоя этиладиган қоидалар мажмуи бўлиб, бироқ ушбу қоидалар қатъий бажарилиш талабига эга эмасдир.

Корпоратив маданиятнинг икки хилдаги даражаси ажратилади: ташқи ва ички. Корпоратив маданиятнинг ташқи даражаси (аниқ ифода этилган, кузатилган) – қонунлар, қонунларни ташкил этишда расман фаолият юритувчи янги технологияларни қўллаш ва ишлаб чиқариш. Корпоратив маданиятнинг ички да-

ражаси (кўзга ташланадиган, яширин) – инсонларнинг ички дунёсини ўз ичига олади: уларнинг ғоялари, фикрлари, қадриятлари, эътиқоди, атроф оламни ҳис қилиш йўллари. Хулқ-атвор нормалари ва инсонлар хатти-ҳаракатини тартибга солувчи яширин қоидалар ўзлаштирилган ички жараёнларни акс эттиради. Бу икки босқични кузатиб бориш осон, лекин ажратиш деярли мумкин эмас, чунки улар ажралмас бирлашманинг икки қисмини ифодалайди ва бир-бирини такрорлайди.

Корпоратив маданиятнинг Ғарб ва Шарқ моделлари марказида АҚШ ва Япония асосий етакчилик ўрнини эгаллаган. Ушбу мамлакатларнинг етакчилик ҳолати энг аввало, юқори иқтисодий кўрсаткичлар, нисбатан барқарор механизм, иқтисодиётининг ривожланиш даражаси юқори эканлигини намойиш этиши билан изоҳланади. Бундан ташқари, бу мамлакатларда ташкилотдаги корпоратив маданият муваффақияти ва самардорлигининг сабаблари режа асосида ва онгли равишда унинг лойиҳасини ишлаб чиқиш, мослашувчанлик, ўзгаришлар учун очиклик, доимий янгиланиш ва бошқарув тамойилларини такомиллаштириш ҳисобланади.

Америка корпоратив маданиятининг қуйидаги ҳислатларини айтиб ўтамиз: бошқарувга капиталистик ёндашув Ғарб корпоратив маданият вариантыда инсон фақат ташкилотнинг мақсадларига эришиш воситаси сифатида кўриб чиқилади, бу мақсадларнинг асосийси фойда олиш ҳисобланади; индивидуализмга асосий эътибор; рақобат ва мусобақа руҳини қўллаб-қувватлаш; муносабатларда дангаллик, оммавий танқиддан қочиш.

Япония мактабгача таълим ташки-

KAR VA ZAIF ESHITUVCHI BOLALAR TARBIYASIDA QURISH-YASASH VA UNING TUTGAN O'RNI

TEMUROVA GULCHEHRA XUDOYKULOVNA

Jizzax davlat pedagogika universiteti Maxsus pedagogika kafedrası (PhD)
v.b.dotsenti

Annotatsiya: Maqolada kar va zaif eshituvchi bolalar tarbiyasida qurish-yasash va uning tutgan o'rni orqali nutq nuqsonlarini bartaraf etish va korreksiyalash haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: nuqson, zaif eshituvchi, kar, nutq nuqsoni, korreksiyalash, mehnat, predmetli amaliy ta'lim, konsruksiyalash, qurish, elementlar

Аннотация: В статье представлена информация об устранении и коррекции дефектов речи с помощью конструкции и ее роли в воспитании глухих и слабослышащих детей.

Ключевые слова: дефект, слабослышащий, глухой, дефект речи, коррекция, работа, предметно-практическое занятие, конструкция, конструкция, элементы.

Abstract: The article provides information on the elimination and correction of speech defects through construction and its role in the education of deaf and hard of hearing children.

Key words: defect, hard of hearing, deaf, speech defect, correction, work, subject-based practical education, construction, construction, elements

Ma'lumki, bugungi o'quvchi kelajakda ishchi, xizmatchi, dizayn konstruktor, muhandis, shifokor, o'qituvchi, yurist yoki harbiy mutaxassis yoki biron bir sohani yaratuvchisi bo'ladilar. Ularni har biri uchun rasm chizish, undan foydalanish lozim bo'ladi. Hatto uy bekasi ham rasmni ko'ra olishi, tushunishi, bu zamoning eng zarur faoliyatidir. Hozirgi davrda har bir erkak zoti mashina haydashni, texnika bilan shug'ullanishiga, uy bekalarini esa dazmol, tikuv mashinasi, radio, televizor, kir yuvish mashinaliri, muzlatgich, elektr plita, sut, qaymoq olish mashinalari kabi yuzlab texnik buyumlar bilan shug'ullanadilar.

Qurish-yasash lotin tilidan olingan bo'lib, turli predmetlarni, qism va elementlarni ma'lum bir holatga keltirish degan ma'noni bildiradi. Kar va zaif eshituvchi bolalar qurilish materiallaridan, qog'ozdan, karton, daraxt va boshqa materiallardan turli xil o'yinchoqlar yasashga o'rgatiladi. O'z harakteriga ko'ra kar va zaif eshituvchi bolalarning qurish-yasashi

ko'pincha tasviriy va o'yin faoliyati bilan o'xshashdir va u tevarak-atrofdagi aks etadi. Kar va zaif eshituvchi bolalarning yasagan narsalari asosan amaliyotda ishlatiladi. Masalan. archa yasatish va onalarga sovg'a uchun o'yinchoqlar.

Qurish-yasash faoliyati—amaliy faoliyat bo'lib, oldindan belgilangan, biror maqsadga qaratilgan real voqelikdir. Qurish-yasash faoliyatiga o'rgatish jarayonidakar va zaif eshituvchi bolalarda aqliy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasi shakllana boradi hamda tevarak-atrofdagi predmetlarni tahlil qilish ko'nikmasi, mustaqil fikrlash, badiiy did, shaxsning irodaviy sifatlaridan (maqsadga intilish, qat'iylik va xakazo...) tarkib topa boshlaydi, bularni barchasi kar va zaif eshituvchi bolalarni maktabda o'qishga tayyorlaydi.

Qurish-yasash materiallarining turlari. Maktabgacha ta'lim muassasalarida kar va zaif eshituvchi bolalarga qurish-yasash faoliyatini o'rgatishda qurilish materiallari,

konstruktor, qog'oz, tabiiy va tashlandik materiallardan foydalaniladi.

Qurilish materiallari mayda va yirik geometrik figuralardan (kub, silindr, prizma va hokazo...) iborat. Mashg'ulotlarda qurilish materiallarining turli to'plamlaridan foydalaniladi. Masalan. Mazmunli to'plamlar: «Kosmodrom», «Temir yo'l vokzali» va boshqalar. Mashg'ulot paytida materiallar ko'p bo'lishi kerak. Tarbiyachi qurilish materiallaridan qurish-yasashni faoliyatini tashkil etayotgan odam, hayvon, o'simlik va transport vositalarining ifodalovchi mayda o'yinchoqlarni tanlashi maqsadga muvofiqdir.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi kar va zaif eshituvchi bolalar tevarak-atrofdagi konkret narsalarni, ya'ni quyon uchun uy, mashinalar va yo'lovchilar uchun ko'prik yasaydilar. O'yinchoqlarni qurish-yasashda ishlatish muhim ahamiyatga ega. U o'yin faoliyatini rivojlantirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Qurilish materiali ma'lum bir shkaflarda tartib bilan saqlanadi.

Konstruktorlar. Maktabgacha yoshdagi kar va zaif eshituvchi katta bolalar mashg'ulotdan tashqari konstruktorlardan (taxtali, plastmassa, metall va keramika) foydalanadilar. Bu to'plamlar orqali turli konstruktsiyalar yasash mumkin. Tarbiyachi rahbarligida kar va zaif eshituvchi bolalar oddiy birlashtirish usulidan suratlar bo'yicha turli xil harakatli konstruktsiyalar yasaydilar. Asosiy diqqat kar va zaif eshituvchi bolalarni ma'lum qismlarni birlashtirish malakalarini shakllantirishga qaratiladi. Bunda kar va zaif eshituvchi bolalarning qo'llari, muskullari ishtirok etadi. Negaki bu yoshda ularning qo'l muskullari hali yaxshi rivojlanmagan bo'ladi. Tarbiyachi avval konstruktor yig'ishni metodik ko'rsatmalarini o'rganadi. Shundan

so'ng qurilish materiali va konstruktorlar kar va zaif eshituvchi bolalarga ketma-ket beriladi.

Maktabgacha yoshdagi kar va zaif eshituvchikattabolalarmashg'ulotdantashqari vaqtda yog'ochli, platmassali va metaldan tayyorlangan turli xil konstruktorlardan foydalanadilar. Bu to'plamlar yordamida detallarning joylashtirilishi ancha murakkab bo'lgan qurilmalar yasaydilar. Tarbiyachi rahbarligi ostida kar va zaif eshituvchi bolalar rasm va chizmaga qarab yangi birlashtirish yo'llari va turli xil harakterdagi konstruktsiyalarni yasashga o'rganadilar. Bu ishlarni kar va zaif eshituvchi bolalarga taklif etishdan oldin tarbiyachining o'zi bu konstruktorlar, ularga berilgan metodik ko'rsatmalar bilan yaxshilab tanishib chiqishi zarur. Qurilish materiallari va konstruktorlar to'plami hammasi kar va zaif eshituvchi bolalarga birdaniga berilmaydi, balki asta-sekin, ketma-ket o'zlashtirishlariga qarab beriladi.

O'yinchoqlar bolalarni qurishga undaydi. Bolalarning qurilish materiallari qismlari nomini yaxshi o'zlashtirishlari uchun tarbiyachi mashg'ulotdan keyin materiallarni stolga birma-bir qo'yib, har birining nomini aytadi. Qurish-yasash faoliyatining yanada qiziqarli o'tishi uchun tarbiyachi ertak va topishmoq she'rlardan keng foydalanishi lozim. Bu tarbiyachining maxoratiga bog'liq. Tarbiyachi qurish-yasash jarayonida bolalarning ishlarni to'g'ri bajarishlarini, materialdan to'g'ri foydalanishlarini ko'zatib boradi. Agar tarbiyachi bolalarning biron bir xatolarini ko'rsa, qaytadan tushuntirib, ko'rsatib berishi mumkin. Bolalarning ish faoliyatini tahlil qilganda tarbiyachi faqatgina natijalarnigina emas, balki namunani qanday

ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИНИНГ КЛАСТЕРЛИ ЁНДАШУВ АСОСИДА ҲАМКОРЛИК ФАОЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ

Ш.П.ПЎЛАТОВ

Низомий номидаги ТДУ, “Таълим менежменти” кафедраси доценти, п.ф.н.
доцент. Ўзбекистонда хизмат кўрсатган ёшлар мураббийси

Аннотация. Таълим ташкилотларининг кластерли ёндашув асосида ҳамкорлик фаолиятини ривожлантириш, кластерли ёндашув мавжуд интеллектуал ресурсларни педагогик таълимни ривожлантиришнинг долзарб муаммолари, таълим ташкилотини кластерли ёндашувининг аҳамияти, таълим ташкилотини кластерли ёндашуви педагогика соҳасига иктисодий моделларни татбиқ қилиш, ҳамкорлик фаолиятни ривожлантиришда инновацион бошқарувни аҳамияти.

Таянч сўзлар: Методологик жиҳатлари, “эркин шахс”, модернизация, интеллектуал ресурслар, тизимида интеграция, таълимни кластерлаштириш, инфраструктура.

Таълим ташкилоти инновацион жараёнларнинг назорат асослари ҳуқуқий-меъёрий ва методологик жиҳатларига мос равишда таълим парадигмаси ҳам жиддий ўзгарди, унинг мақсади, мазмуни, технологияси “эркин шахс” муаммоси ечимини топишга қаратилмоқда. Шу билан бирга, ҳаётга инновацион таълимий жараёнларни олиб кирадики, улар, ўз навбатида назарий ва методологик даражада фикр юритишни ва асослаш ни талаб этади.

Илм-фан, техника, ишлаб чиқариш ва технологиянинг жадал ривожланиши жамият ҳаётининг барча соҳаларида тараққиётининг янги истиқболларини очиб бермоқда. Жумладан таълим тизимини такомиллаштириш ва модернизациялашнинг устувор йўналишлари белгиланмоқда. Рақобатбардош таълим-тарбия бериш доимий равишда инновацияларни, замонавийликни ва талаб ҳамда таклиф мутаносиблигини талаб қилади. Бу жараёнда таълим хизматларига йўналтирилган фаолият ўсиш кўрсаткичларини намоён қилади.

Кластерли ёндашув асосида таълим ташкилотларининг ҳамкорлик фаолиятини ташкил этиш шундай тизимки, уни ташкил қилувчи компонентларнинг интеграцияси ҳар бир субъектнинг янада самаралироқ ишлашини таъминлайди ва истисно бузили-

шларга олиб келмайди. Кластерли ёндашув бир қатор таълим, илмий ва ишлаб чиқариш субъектларининг муайян ассоциацияли механик бирлашиши эмас, балки уларнинг ўзаро яқиндан таъсири ва ўзаро боғлиқлиги натижасида юзага келади.

Бундай ташкилот алоҳида компонентлар ва бутун кластерли ёндашув конвертация қилинишини таъминлайди.

Кластерли ёндашув мавжуд интеллектуал ресурсларни педагогик таълимни ривожлантиришнинг долзарб муаммолари атрофида интеграциялаш, педагогик соҳада оқилона ворисийлик тамойилини йўлга қўйиш, манфаатдор шахсларнинг қониқиш даражаси ҳақида тезкор фикр-мулоҳазалар билан бўлажак битирувчилар ва ўқитувчиларни амалий йўналтирилган ҳолда тайёрлаш билан боғлиқ муҳим масалалар атрофида фаолият олиб боради (Давыдова Н.Н., Игошев Б.М.).

Кластерли ёндашув асосида таълим ташкилотларининг ҳамкорлик фаолиятини шакллантириш ва ривожлантириш учун бир қатор муҳим шартлар талаб этилади. Бу борада биз қуйидагиларни таклиф қиламиз:

- худуднинг рақобатбардош устунликларидан фойдаланган ҳолда таълим ташкилотлари ўртасида ўзаро самара берадиган креатив ҳамкорликни йўлга қўйиш;

- хамкорлик фаолиятда олиб борилаётган бутун тизимнинг узоқ муддатли инновациялари ва бошқа стратегиясини белгиловчи етакчиларни аниқлаш;

- ички ва ташқи рақобатбардошликни таъминлайдиган таълим ташкилоти ходимларининг малака даражасини ошириш имконини берадиган илмий ташкилотларни белгилаш;

- ишонч ва ижодкорлик муҳити;

- битта худуддаги таълим ташкилотларининг умумий махсаддан келиб чиқувчи хусусий манфаатдорликнинг мавжудлиги кабиларни киритиш мумкин.

Таълим ташкилотини кластерли ёндашувининг аҳамиятини соҳалар бўйича қуйидагича таснифлаш мумкин:

- иқтисодий соҳада - самарали таълим хизматлари бозорини шакллантиришда;

- ижтимоий соҳада - педагогик таълим ташкилотлари би-тирувчиларини иш билан таъминлашда;

- маркетинг соҳасида - инновацион таълим технологияларини, таълим муассаларининг ўқув-тарбиявий ишларида янги имкониятларни оммалаштиришда;

- ҳуқуқий соҳада – кластерли ёндашув доирасида ўзаро ҳамкорликни йўлга қўйишнинг, шунингдек таълим ташкилотларини бошқаришнинг янги шаклларига ўтиш билан боғлиқ меъёрий-ҳуқуқий асосларини яратиш;

педагогика соҳасида - узлуксиз таълим тизимда салоҳиятли педагог кадрларни тайёрлашни ҳамкорликда лойиҳалаш соҳаларида кўзга ташланади. (Ш.К. Мардонов, У.Н. Хужамкулов, Ш.И.)

Умуман олганда, таълим ташкилотини кластерли ёндашуви педагогика соҳасига иқтисодий моделларни татбиқ қилиш натижасида самарадорликка эришишни назарда тутади. Уни амалга ошириш механизмлари, йўналишлари, тамойиллари, мақсад ва вазифаларини илмий асосда тавсифлаш айни пайтда соҳа мутахассислари олдидаги долзарб муаммолардан ҳисобланади. Бу борада

биз қуйидагиларни таклиф қиламиз:

1. «Таълим ташкилотини инновацион кластерли ёндашув асосида бошқариш» мавзусига илмий жамоатчиликнинг эътиборини тортиш.

2. Педагогик таълимни кластерлаштиришнинг стратегик йўналишлари ва тамойилларини ишлаб чиқиш.

3. Мавжуд меъёрий ҳужжатларга педагогик таълимни кластерлаштириш билан боғлиқ ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш.

4. Кластерли ёндашув асосида таълим ташкилотларининг хамкорлик фаолиятини ташкил этиш борасида илғор хорижий тажрибаларни ижодий ўзлаштириш.

5. Таълим ташкилотини инновацион кластерли ёндашувни амалиётга татбиқ этишнинг механизмларини ишлаб чиқиш.

Ушбу муаммоларни ечиш педагогик таълим тизимида интеграцияни таъминлаш ва самарадорликни оширишга нисбатан инновацион ёндашувни қарор топтиради.

Кластерли ёндашувни таълим ташкилоти бошқарувида қўллаш қуйидаги афзалликларни беради:

биринчидан, таълим муассасаларининг меҳнат бозори билан ўзаро ҳаракат механизмлари шаклланади, унинг алоҳида бизнес гуруҳлардан тобелигини олди олинади; иккинчидан, кадрлар инфраструктураси яхшиланади;

учинчидан, инновацион фаолиятнинг инфраструктураси ривожланади, ижобий инновацион муҳит яратилади, мавжуд имкониятлар янада кенгаяди, самарадор, эгилувчан, бошқариладиган тизими шаклланади;

тўртинчидан, таълимнинг мобиль принципларга асосланган модель тизими татбиқий базаси шаклланади, унда предметли ўқитишдан воз кечилади, фанлараро алоқалар кенгаяди;

бешинчидан, ўқувчи (талаба)ларга бозор муносабатларининг субъекти сифатида ўзининг таълим “Йўл ҳаритаси”ни мустақил шакллантиришга имкон яратилади;



олтинчидан, таълим жараёнининг юқори даражадаги интеллектуаллиги, очиқлиги таъминланади, шунингдек таълимнинг турли шакл ва воситалари жорий қилинади.

Ҳамкорлик фаолиятни ривожлантиришда инновацион педагогик таълим кластерли ёндашувга қуйидагилар хосдир:

- кластерли ёндашув республика (туман, шаҳар, вилоят) миқёсида шакллантирилиши мумкин;
- бир хил даражадаги ўқув муассасалари битта кластерли ёндашувга асосланган

таълим ташкилотига бириктирилиши мумкин;

- кластерли ёндашувга турли даражадаги ўқув муассасалари, масалан, профессионал таълим – олий таълим муассасасига бирлашиши мумкин;

- кластерли ёндашув таркибига турли профилли ва турли даражали ўқув муассасалари, корхона ва ташкилотлар киритилиши мумкин;

- соҳа бўйича бир профилли ўқув муассасалари, корхона ва ташкилотлари кирити-

лади;

- ўқув муассасалари битта марказ атрофида бирлаштирилиши (таълим ташкилоти, илмий тадқиқот институти ва олий таълим муассасалари) мумкин;
- инновацияларни жорий қилиш мақсадида бириккан ташкилот, корхона, таълим ташкилотлари мазмунини ҳам кластерли ёндашув сифатида баҳолаш мумкин (Ходжамкулов У.Н.)

Инсониятнинг давлат ва жамият қурилишига доир асрий тажрибалари ижтимоий муносабатларни янгича ёндашувлар асосида тартибга солиш борасидаги илғор ёндашувларнинг қарор топтирилишига олиб келди. Мазкур ёндашувнинг моҳияти сўнгги йилларда умумий тарзда “модернизациялаш”

тушунчаси ёрдамида ифодаланиб келинмоқда.

Таълим тизимининг модернизацияси – жамиятнинг ижтимоий, иқтисодий ва маданий эҳтиёжларини, унинг малакали кадрларга, шахснинг эса сифатли таълим олишга бўлган талабини қондириш, таълим тизимини барқарор ривожланишини таъминлаш мақсадида мавжуд механизмнинг қайта ишлаб чиқилиши ёки такомиллаштирилиши. Фалсафий талқинда ифода этганда миқдор ўзгаришлари туб сифат ўзгаришларига айланади. Масалан: ўрта асрларда аграр характер касб этган жамият илм-фан, техника, саноат ва ишлаб чиқаришнинг ривожланиши билан индустриал жамиятга айланади.

XXXXXXXXXXXXXXXXXXXXXXXXXXXX

Адабиётлар:

XXXXXXXXXXXXXXXXXXXXXXXXXXXX

1. Давыдова Н.Н., Игошев Б.М. и др. Образовательный кластер как системообразующий компонент региональной модели непрерывного педагогического образования. // Педагогическое образование в России, 2014, №10. -С. 73-76.
2. Ш.К. Мардонов, У.Н.Хужамкулов, Ш.И. Ботиновавабошқалар The end to educate young people with the spirit of patriotism in the context of globalization. Journal of Critical Reviews, Malaysia, 2020, Vol.7, Issue 12, pp 166-169.
3. Пўлатов Ш.П. Таълим менжменти ёхуд таълим муассасаларини илмий-методик бошқаришга инновацион ёндашув, Т... “Yosh kuch”, 2022. 736 б.
4. Шамова Т.И. Кластерный подход к развитию образовательных систем. // Взаимодействия образовательных учреждений и институтов социума в обеспечении эффективности, доступности и качества образования региона: Материалы 10 Международного образовательного форума (Белгород. 24-26 окт. 2006 г.): в 2 ч. / БелГУ, МПГУ, МАНПО; отв. ред. Т.М. Давыденко, Т.И. Шамова. - Белгород: Издательство БелГУ, 2006. Ч. 1. -С. 24-29.
5. Ходжамкулов У.Н. Педагогик таълим инновацион кластерининг илмий-назарий асослари. Пед. фан. док. (ДСс) дисс. автореф. -Чирчиқ, 2020. - 60

KAR VA ZAIF ESHITUVCHI BOLALAR ESHITUV-NUTQIY FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING KORREKSION YO‘NALGANLIGI

MIRSAID YUNUSOV XUDAYAROVICH

Jizzax davlat pedagogika universiteti Maxsus pedagogika kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada eshitish, tovush, nutq kabi jarayonlarning bir-biri bilan chambarchas bog‘liqligi, kar va zaif eshituvchi bolalar eshituv nutqiy faoliyatini tashkil etishda korreksion ish usullari hamda topshiriqli texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha tavsiyalar berilagan.

Kalit so‘zlar: eshitish, tovush, nutq, fonematik eshituv, fonematik idrok, fonematik tasavvur, fonematik analiz, fonematik sintez, korreksiya.

Аннотация. В статье даны рекомендации по взаимосвязи таких процессов, как слух, звук, речь, методам коррекционной работы и использованию технологий задач в организации слухоречевой деятельности глухих и слабослышащих детей.

Ключевые слова: слух, звук, речь, фонематический слух, фонематическое восприятие, фонематическое воображение, фонематический анализ, фонематический синтез, коррекция.

Abstract. The article provides recommendations on the interrelationship of processes such as hearing, sound, speech, corrective work methods and the use of task technologies in the organization of hearing and speech activities of deaf and hard-of-hearing children.

Key words: hearing, sound, speech, phonemic hearing, phonemic perception, phonemic imagination, phonemic analysis, phonemic synthesis, correction.

Eshitish — odam va hayvonlar organizmining tovush tebranishlarini qabul qilish xususiyati, mexanik, retseptor va nerv tuzilmalaridan tashkil topgan eshitish analizatorlari faoliyati tufayli ro‘y beradi. Tovush ta’sirida odamda tovush signallari parametrini aks ettiruvchi eshitish sezgisi paydo bo‘ladi, buning natijasida tovush tebranishlari chastotasi tovush balandligi tarzida qabul qilinadi. Organizmlarning eshitish xususiyati ular evolyutsion rivojlanishi, yashash muhiti va tovush signallarining biologik ahamiyati bilan bog‘liq bo‘lib “bioakustika” deyiladi.

Tovush tebranishlari tashqi eshitish yo‘li (tashqi quloq) orqali o‘tib, nog‘ora pardani tebratadi. Tebranishlar o‘rta quloqdagi suyakchalar orqali ichki quloq suyuqligi (perilimfa va endolimfa)ga o‘tadi. Paydo bo‘lgan gidromexanik tebranishlar chig‘anoq to‘sig‘i (asosiy, ya’ni bazilyar membrana)ni va unda joylashgan retseptor apparat (Korti organi)ni tebratadi. Bazilyar membrananing mexanik xususiyati uning uzunligi bo‘ylab bir

xil bo‘lmaydi: yuqori chastotali tebranishlar bazilyar membrananing ichki quloq chig‘anoq‘i asosida, past chastotali tebranishlar esa uning uchki qismida maksimal amplitudaga ega bo‘lgan tebranishlarni paydo qiladi.

Shunday qilib, Korti organida tovush tebranishlari mexanik energiyasi retseptorlarni qo‘zg‘atadi, qo‘zg‘alish retseptorlardan eshitish nervlari tolalariga beriladi. Nervlarda paydo bo‘lgan bioelektr potentsiallar eshitish sistemasi markazi bo‘limiga o‘tkaziladi. Eshitish signallari faqat havo orqali emas, balki kalla suyaklari orqali ham ichki quloqqa o‘tkazilishi mumkin.

Eshitish sezgirligi eshitishning absolyut chegarasi orqali baholanadi. Bu chegara tovushning eshitish mumkin bo‘lgan minimal intensivligi ditsibal (db) hisobida belgilanadi. Qabul qilinadigan tovush tebranishlari chastotasi diapazoni E. egri chizig‘i, gers yoki kilogers bilan ifodalanadi.

Odam 10—20 gs dan 20 kgs gacha bo‘lgan tovush tebranishlarini qabul qiladi, 10 gs dan

pasttebranishli tovushlar uzluksiz tovush tarzida qabul qilinmaydi. Odamda E.ning eng quyi chegarasi 1—3 kgs chastotaga teng. Juda yuqori tebranishli tovush to‘lqinlari — shovqin (mas, 140 db og‘riq paydo qiladi; 150 db tovushga odam chiday olmaydi). Har xil hayvonlar turli diapazondagi tovush to‘lqinlarini (mas, hasharotlar 0,2 kgs — 500 kgs, baliqlar 50—100 gs — 3—5 kgs, delfinlar 100 gs —200 kgs) qabul qiladi. Umurtqali hayvonlardan qushlarning eshitish sezgirligi sudralib yuruvchilarnikidan, sut emizuvchilarniki qushlar va sudralib yuruvchilarnikidan yuqori bo‘ladi.

Tovushni farqlash imkoniyati differensial chegara, ya’ni eshitish mumkin bo‘lgan tovush o‘zgarishining minimal chegarasi (intensivligi yoki chastotasi) bilan belgilanadi. Odamda tovushni farqlash differensial chegarasi (o‘rtacha diapazonda) intensivlik bo‘yicha 0,3—0,7 db, chastota bo‘yicha 2—8 gs ga teng.

Tovush signallari kuchayishi bilan tovushni farqlash ham kuchayadi, uning differensial chegarasi esa kamayib boradi. Bunday holat nutq signallari va musiqa ohanglarini qabul qilishda ham namoyon bo‘ladi.

Odamni musiqa ohanglari absolyut balandligini aniqlay olish qobiliyati absolyut eshitish deyiladi. Boshqa begona tovushlar ta’sirida tovushni qabul qilish xususiyati yomonlashuvi, hatto butunlay yo‘qolishi mumkin. Kuchli tovushlar uzoq vaqt davomida ta’sir etganida eshitish sezgirligi pasayadi (fiziologik adaptatsiya).

Eshitish sistemasi ikkala simmetrik joylashgan qismlarining o‘zaro ta’siri tovush manbaini aniqlashga imkon beradi (binaural effekt).

Nutq — murakkab ruhiy faoliyatdir. U ruhiy jarayonlarning tarkib topishiga va bolaning umuman barkamol bo‘lib o‘shishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Nutq eshituv organlari vositasi bilan idrok etishga asoslangan bo‘lib, atrofdagilarga taqlid etish yo‘li bilan rivojlanib boradi. Og‘zaki nutqning shakllanishida eshituv analizatori, nutqni harakatga keltiruvchi

analizator ishtirok etadi. Nutqni harakatga keltiruvchi analizator eshituv analizatori bilan mahkam bog‘langan holda ishlaydi, eshituv analizatorining rivojlanish darajasi esa ko‘p jihatdan talaffuzga bog‘liq. Bola nutqining o‘sib borishi tovushlar talaffuzi, fiziologik va fonematik eshitishning kamol topib borish darajasi bilangina xarakterlanib qolmay, balki eng muhimi — o‘z nutqi va atrofdagilar nutqidagi so‘zlarning tuzilishini, tovush tarkibini farqlay olish qobiliyati bilan ham xarakterlanadi.

Nutqning fonetik–fonematik tomoni nutqning umumiy madaniyatini ko‘rsatkichi hisoblanadi va so‘zlashuv me’yoriga to‘g‘ri kelishi kerak.

Nutqning fonetik tomoni deganda, tovushlarni talaffuz etish jarayoni tushuniladi, bu nutq – harakat apparatini mutanosib ishlashining natijasi hisoblanadi.

Nutqning fonematik tomoni deganda, esa ona tilidagi tovushlar differentsatsiyasi tushuniladi. Nutq eshituv analizatorini ish faoliyati nutqning fonematik tomonini ta’minlaydi. Nutq eshituv analizatori asosan so‘zdagi tovushlarni farqlash va ularni eshitishtirish o‘rnini artikulyatsion va akustik jihatdan o‘xshash tovushlarni bir-biridan farqlaydi.

Nutq normada bo‘lishida eshitish qobiliyati katta ahamiyatga ega. Eshitish qobiliyatini rivojlanish jarayonida bolada ovoz reaksiyalari paydo bo‘ladi: turli tovushlar, bo‘g‘inlar shakllanadi.

Fonematik jarayonlar:

- Fonematik eshituv
- Fonematik tasavvur
- Fonematik idrok

L.S.Vigotskiy bolalar nutqining rivojlanish birligi fonema ekanligini isbotladi. Shuni ham takidlash lozimki, fonemalarni idrok etish nutqning tovush tomonini ham idrok etish bilan bog‘liqdir.

Fonematik eshitish quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1) Eshitish qobiliyati berilgan tovushni so‘zda bor yoki yo‘qligini aniqlash;

2) Turli ketma-ketlikda bir xil fonemalarni o‘z ichiga olgan so‘zlarni farqlash;

3) Yaqin, lekin ma'nosi jihatidan farq qiladigan so‘zlarni ajrata olish.

Fonematik idrok

a) so‘zdagi tovushlarning chiziqli ketma-ketligini aniqlash

b) so‘zdagi tovushlar sonini bilish yoki

hisoblash.

Fonematik eshitish bu so‘zning tovushlar tarkibini tashkil etuvchi fonemalarni farqlash, eslab qolish operatsiyalarini bajarishga ega bo‘lgan tizimlashtirilgan eshitish idrokidir.

Fonematik idrok bu fonemalarni farqlash va so‘zning tovushlar tarkibini o‘rnatish uchun maxsus aqliy harakatlar yig‘indisidir.

<i>Fonematik idrok</i>	<i>Ovoz tahlili(analiz,sintez)</i>
Maxsus tayyorgarlikni talab qilmaydi	Maxsus tayyorgarlikni talab qiladi
Tovushlarning xususiyatlari va tartibini farqlash qobiliyati	Tovushlarni yozma ravishda takrorlash uchun bir xil narsani ajrata olish qobiliyati
Savodxonlikka birinchi qadam 1 yoshdan 4 yoshgacha bo‘lgan davrda shakllanadi	Savodxonlik uchun ikkinchi qadam

Embrion rivojlanish bosqichida nutqiy tovushlarni idrok etish holatlari:

- Tug‘ilgandan keyin 2-4 haftaligida har qanday tovushga reksiya kirishadi
- 7-11 oylikda har bir so‘zga e‘tibor qiladi
- 1 yoshda bola har bir tovushlarga, so‘zlarga ahamiyat beradi
- 2 yoshida ona tilining barcha tovushlarini fonemik idrok etadi

Fonematik eshitishni aniqlash usullari

Fonematik jarayonlarni tekshirish uchun material tanlashda asosiy prinsip oddiydan murakkabga ketma-ket o‘tish prinsipida bo‘ladi.

Tekshiruv davomida logoped bolani rasmni diqqat bilan o‘rganib chiqishni va har bir rasmning orqasida joylashgan unga mos keladigan vazifani bajarishni taklif qiladi. Bajarilgan xatti-harakatlar bolaning nutq kartasida qayd etiladi.

Fonematik idrokni tekshirish

1. So‘zda berilgan tovushning mavjudligini yoki yo‘qligini aniqlash;

2. Berilgan tovush bilan tugaydigan so‘zni eshitish;

3. Belgilangan tovush bilan boshlanuvchi rasmlarni ko‘rsatish;

4. Paronimlar uchun juft rasmlarni moslash.

Fonematik analizni tekshirish. Fonematik tahlilni tadqiq qilish L.F.Spirova uslubiga asoslangan bo‘lib, u so‘rovni so‘z boshidagi unli tovushlarni va so‘z oxirida undosh tovushlarni tanlash bilan boshlashni tavsiya qiladi, asta-sekin yanada murakkab pozitsiyalarga o‘tadi.

So‘zdagi undosh tovushning o‘rnini aniqlash qobiliyatini tekshirish:

- Ikki tovushning tutashgan joyidan undosh tovushni tanlang;
- So‘z nechta tovushdan iborat ekanligini aniqlang;
- Tovushning so‘zdagi o‘rnini aniqlang;
- Bir so‘zda unli yoki undoshlarning sonini aniqlang;
- Ikkala so‘zda bir xil tovushlarni tanlang;
- So‘zdagi tovushlar ketma-ketligini aniqlang.

Fonematik sintezni tekshirish

Fonematik sintezni o‘rganayotganda, bolalar turli xil tovushlardan ketma-ketlikda so‘zlarni tuzish qobiliyati aniqlanadi:

1. Berilgan tovushlar sonidan so‘zlar tuzing;

2. Berilgan ketma-ketlikda berilgan

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КРЕАТИВНОСТИ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Bunday muammolarni maqsadga muvofiq ravishda hal qilish tarbiyachi bolalarning kitobxonlikka qiziqishini, uning shakllanish bosqichlarini, buning uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni oldindan belgilab, tayyorgarlik ko'rishi zarur. Ularni maktab ta'limiga tayyorlashda yoshiga mos yorqin, rangli, e'tiborga sazovor rasmlari, bosma xarfli ertaklardan tashkil topgan kitoblar yaratish ta'lim sifatini oshirishga omil bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qodirova F.R. va boshq. "Maktabgacha pedagogika" (Darslik) "Tafakkur" nashriyoti T.: 2019, 685 bet.
2. Qodirova F.R., Maxmudova D.M. "Til va nutq" rivojlanish markazlarida ta'limiy jarayonlarni tashkil etish. (Darslik) QDPU 2022, 230 bet
3. D.M.Maxmudova . Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni kitobxonlikka tayyorlash metodlari. Results of National Scientific Research International Journal 1 (6), 274-278b-2022
4. D.M.Maxmudova Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni kitobxonlikka tayyorlash metodikasini takomillashtirish //Pedagogs jurnali 1 (1), 10-16.2022y
5. D.M.Maxmudova Podgotovka detey starshego doshkolnogo vozrasta k chteniyu posredstvom skazok// International Academic Research Journal Impact Factor 7.4 1 (6), 220-225. 2022 y

ЎҚУВЧИЛАРНИНГ КАСБИЙ ТАЙЁРГАРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА МАКТАБДАН ТАШҚАРИ, УМУМИЙ ЎРТА ВА ПРОФЕССИОНАЛ ТАЪЛИМ УЗВИЙЛИГИ

Ж.Э.Пардабаев
“Янги аср” университети ўқитувчиси Phd

Аннотация. Ушбу мақолада ўқувчиларнинг касбий тайёргарлигини ривожлантиришда мактабдан ташқари, умумий ўрта ва профессионал таълим узвийлиги мазмуни ёритилган.

Калит сўзлар: Модернизациялаш, касбий тайёргарлик, излаш, узвийлик, узлуксиз, мактабдан ташқари таълим, синергизм.

Аннотирование. В данной статье освещается содержание непрерывности внешкольного, общего среднего и профессионального образования в развитии профессиональной подготовки учащихся.

Ключевые слова: модернизация, профессиональная подготовка, поиск, преемственность, непрерывность, внешкольное образование, синергизм.

Annotation. This article highlights the content of the continuity of extracurricular, general secondary and vocational education in the development of vocational training of students.

Keywords: modernization, professional training, search, continuity, continuity, extracurricular education, synergy.

Ўқувчиларда меҳнатга, касб-ҳунарга ижодий муносабатни тарбиялаш, уларни юксак маънавиятли, эркин фикрловчи шахс сифатида шакллантириш ва таълим-тарбия бериш давр тақозосидир. Ўқувчиларнинг ўйин фаолиятлари, ота-оналари ва теварак-атрофдаги кишиларга тақлид қилиши, уларнинг меҳнат ҳаракатларини такрорлашларида қизиқиш ва қобилиятлари ҳамда ижодкорлик сифатлари намоён бўлади.

Узлуксиз таълим тизими ва кадрлар тайёрлашни ривожлантиришнинг янги шароитларида ёшларнинг касбий тайёрлашнинг асосий мақсади ҳар бир мактаб, академик лицей ёки касб-ҳунар коллежи битирувчисини онгли равишда касб танлаши ва танланган соҳаси бўйича таълим олишни давом эттиришга тайёрлашдан иборатдир.

ЮНЕСКО томонидан касбий тайёргарлик тушунчаси “шахс хусусиятларини инобатга олган ҳолда, инсонга бериладиган ёрдам, уни бир томондан жамият учун керакли бўлиш, иккинчи томондан,

ўзининг шахсий ҳаракатларига эришиши, ҳаётий шароитларнинг ўзгариши давомида ўзи учун таълим ва меҳнат соҳаларини мустақил ва онгли танлай оладиган даражада ривожлантириш учун имконият яратишдир”, - деб таърифланади.

Тарбияланувчиларининг мустақил ҳаётга йўлланма олишларида педагог ходимлардан кўплаб масъулиятли тадбирларни амалга ошириш талаб этилади. Ўқувчиларнинг ҳаётий режалари, қизиқишлари, қобилиятлари, ижодкорлиги касбий тайёргарлигини ривожлантиришда муҳим омилдир.

Ўқувчилар жамиятда етук касб эгаси бўлишлари учун асос бўладиган билимларни эгаллашлари зарур. Замонавий тадқиқот методикаларини ўзлаштириш, ижодкорлик фаолияти натижалари, ўқувчилар ўзлаштирган билимлар касбий самарадорлигини оширишга хизмат қилади. Бу ҳозирги замон талабларига кўра шахснинг касбий билим, кўникма ва малакаларини шакллантиришга қаратилган тўғри йўлдир.

Вояга етаётган шахснинг ривожланиш даври – касбий тайёргарлик жараёни билан уйғунлик касб этар экан, унинг ривожланиш жараёни таълим тизимининг таъсири остида содир бўлади.

Ўқувчиларнинг касбий тайёргарлигини ривожлантириш технологияси жорий педагогик жараён бўлиб, санъат, маҳорат, кўникма, методлар йиғиндиси, муайян ҳолатни ўзгартиришга хизмат қилувчи жараён ёки амалиётга жорий қилиниши талаб этилаётган маълум бир педагогик тизим лойиҳаси сифатида талқин этилиши мақсадга мувофиқдир.

Педагогик тизим субъектлар (улар ўзаро таъсирлашиб, тизимнинг мавжудлигига асос бўлувчи мақсадга эришиш учун хизмат қилади) ва объектлар (улар билан таъсирлашув натижасида субъектлар шахсий функцияларини амалга оширади) дан ташкил топади. Бунда таълим олувчилар педагогик тизимнинг субъектлари, таълим мазмуни эса унинг объектлари бўлиб ҳисобланади. Таълим мазмуни субъект ёрдамида ўзлаштирилади ва ўзгартирилади, шахс томонидан ўқув фаолияти жараёнида дунёқарашга, қадриятлар ҳамда моҳиятлар, эътиқодлар, тасаввурлар, билим ва кўникмалар тизимига айланттирилади.

Касбий ривожланиш ва касбий тайёргарлик жараёнига турли омиллар таъсир кўрсатади: ижтимоий-иқтисодий, ижтимоий-психологик, психологик, психофизик. Шу боис таълимнинг ана шундай тузилиши билан боғлиқ ҳолда табиий савол туғилади: касбий тайёргарлик жараёнида ўқувчилар шахсни келажакдаги касбий фаолиятида шахснинг ўзини намоён қилишига имкон берувчи шахсий фазилатларни, билимларни, мотивацион муносабатларни ривожлантириш қандай амалга оширилади?. Бу албатта узликсиз таълим

жараёнида умумий ўрта ва профессионал таълимни бирлаштирувчи мактабдан ташқари таълим муассасалари орқали амалга оширилади. Мактабдан ташқари таълим муассасалари ўқувчиларда ўз қизиқишига кўра шакллантириладиган касбий тайёргарлик тизими ўқувчиларни касбга йўналтириш ва касбий ўзини ўзи белгилаш билан боғлиқ муаммоларни ҳал қилишни назарда тутди. Шу билан бирга, ҳар қандай тизим сингари, касбий тайёргарлик тизимини қўшимча равишда бир-бири билан ўзаро боғланган таркибий қисмлар-қуйи тизим сифатида тизимли таҳлилга асосланган тизимли ёндашув ёрдамида ўрганиш керак.

Шундай қилиб, умуман олганда, касбга йўналтириш ишининг тузилиши тўғрисида ягона фикр йўқ деган хулосага келишимиз мумкин. Бундан ташқари, касбга йўналтирилган тизим сифатида ўқувчиларнинг касбий тайёргарлиги тизими глобал мақсадга эга - индивидуал салоҳиятни ривожлантириш, уни касбий таълимга тайёрлаш. Тизимнинг шахсий мақсадлари сифатида қуйидагиларни ажратиш мумкин:

1. Мактаб ўқувчиларини профессионал таълимга киришига тайёрлаш.
2. Ўқувчиларнинг касбий йўналиши.
3. Профессионал таълим учун мутахассисларни тайёрлаш.
4. Профессионал таълим тизимида кадрлар тайёрлаш сифатини мониторинг қилиш. Профессионал таълим тизимининг мақсадлари ва аҳамиятлилиги уларни тизимли таҳлил асосида кўриб чиқишга асос беради. Тизимли ёндашув нуқтаи назаридан замонавий касбий тайёргарлик тизимини бир қатор қуйи тизимларни ўз ичига олган яхлит тизим сифатида кўриб чиқиш мумкин. Хусусан, касбий тайёргарликнинг асосий таркибий қисмлари

сифатида қуйидагиларни ажратиш мумкин: касбга йўналтириш тизими ва касбий мутахассисларни тайёргарлик тизими. Ушбу қуйи тизимлар функционал равишда ўзаро боғлиқ, ўзаро таъсир қилади ва умумий мақсад билан бирлашади. Ўз навбатида, ушбу қуйи тизимларнинг ҳар бири ўзаро боғлиқ ва ўзаро боғлиқ бўлган қуйи тизимлардан иборат бўлган ўз тузилишига эга.

1. Касбий йўналтириш тизими қуйидаги қуйи тизимларни ўз ичига олади:

- касбий маълумотларнинг тизимлари;

- касбий консультация тизими;

- касбий танлов тизими.

2. Ихтисослаштирилган ўқитиш тизими. Мактабдан ташқари таълим тизимининг асосий вазифаларидан бири ўқувчиларнинг қобилиятлари ва мойилликларига қараб тўғарак машғулотларни ташкил этиш, уларнинг билим даражаси ва профессионал таълим ўртасидаги зиддиятларни бартараф этишдир. Мактабдан ташқари таълим тизимида қуйидаги босқичлар амалга оширилади:

1. Ташхисий.

2. Ташкилий.

3. Таълимий.

4. Назорат.

Мактабдан ташқари таълимнинг асосий вазифаларидан бири ўқувчиларнинг қобилиятлари ва мойилликларига қараб тўғарак машғулотларни ташкил этиш, уларнинг билим даражаси, умумий ўрта ва профессионал таълим ўртасидаги узвийликни таъминлашдир. Мактабдан ташқари таълимда касбий тайёргарликни амалга ошириш қуйидаги тамойиллар асосида амалга оширилади: компетенцияга асосланган ёндашув, шахсга йўналтирилган таълим, ғоявий тамойил (ўқувчиларни тайёргарлик даражаси, қизиқишлари,

қобилиятлари бўйича ажратиш), касбга тайёрлаш таркибидаги мослашувчанлик тамойили ва бошқалар. Асосий, касбий тайёргарлик ва касбий фанларни тўлдирувчи воситаларни танлаш алоҳида ўрин тутади. Шундай қилиб, касбий тайёргарликни ташкил этишни узликсиз равишда амалга ошириш, таълим контсепциясини муваффақиятли амалга оширишга ва мойиллиги, қобилияти ва қизиқишларини ҳисобга олган ҳолда ёшларнинг касб эгаллашларига, имкониятларини яратишга имкон беради, уларнинг ҳаёти ва касбни мустақил равишда белгилаш, онгли бўлишга тайёрликни шакллантиришга имкон беради. Касбий тайёргарликни муваффақиятли амалга ошириш учун ўқув-услубий таъминотни ривожлантириш, асосий, умумий ўрта таълим мактаб дастурларини ва касб-ҳунар коллежлари дастурларни ишлаб чиқиш билан боғлиқ муаммоларни ҳар томонлама ҳал қилиш зарур.

Илмий-амалий нуқтаи назардан касб танлаш касбий тайёрланиш, ёш мутахассиснинг ишга жойлашиши ва ишидан қониқиш ҳосил қилиши, ўқиш ва меҳнат қилиш мотивациясининг шаклланишига кўп жиҳатдан боғлиқ эканлиги Э.Ғ.Ғозиев ва К.Қ.Мамедовлар томонидан эътироф этилган [1]. Тизимли ёндашув нуқтаи назаридан замонавий таълим беришда ўқувчиларнинг касбий тайёргарлиги тизимини бир қатор қуйи тизимларни ўз ичига олган яхлит тизим сифатида кўриб чиқиш мумкин.

- ҳиссий- образли босқич – бу босқичда мактабгача ёшдаги ўқувчилар касблар олами билан таништирилади, турли касб-ҳунарларга қизиқиш ва фаолиятнинг барча турларида бошланғич меҳнат кўникмалари шакллантирилади;

- дастлабки билимлар мажмуи (1-4

Баркамол авлод мактаблари ўқувчиларини касбга тайёрлаш.

Баркамол авлод мактабларида ўқувчиларини касбга тайёрлаш	Ўқувчиларнинг касбий йўналиши	Мактаб ўқувчиларини касбга тайёрлаш
Ижтимоий-социал	Муҳандислик	Техник ижодкорлик
Миллий аънаналар ва кадрятлар	Миллий хунармандчилик	Бадий ижод

синфлар), бу босқичда ўқувчиларда меҳнатсеварлик шакллантирилади, жамиятда ва инсон ҳаётида меҳнатнинг аҳамияти тушунтирилади, яқин атрофдагилар ва ота-оналар касбларига қизиқиш уйғотилади, касб танлашида амалиётга асосланган ҳолда жамиятда энг кўп тарқалган касблар ҳақида билим берилади, ўйин тарзида қизиқишлар уйғотилади.

- излаш – суриштириш (5-7 синфлар), бу босқичда касб-хунар танлаш муаммоларини ҳал қилишда ўқувчиларнинг қизиқишлари, қобилиятлари, жамиятда ўз ўринларини топишлари касбга йўналтириш билан боғлиқ ҳолда рўй беради.

- касб танлашда етуклик (8-9 синфлар), бу босқичда ўқувчиларининг мақсадлари, тасаввурлари ва кадрятларини амалий имкониятларига боғлаган ҳолда, уларнинг кўникмалари ҳамда шахсий фикрлари шакллантирилади. Бунда ўқувчилар касб-хунар танлашнинг илмий асослари бўйича зарурий кўникма ва малакаларни эгаллайдилар. Улар махсус курсларни, умумтаълим фанларини ўзлаштириш жараёнида фаолиятнинг турли соҳаларида касбий кўникмага эга бўладилар.

- ижтимоий-касбий ҳақ-ҳуқуқларини англаш (академик лицей ва касб-хунар коллежлари). Бу босқичда ўқувчиларда аввалги босқичларга мос ҳолда пайдо бўлган барқарор қизиқишлар, касбий за-

рурий сифатларни шаклланишида меҳнат натижаларини баҳолаш тарзида диққатни жамлаш, касбий режаларга тузатиш кiritиш ва назорат қилиш, ўқув предметларини чуқурлаштириб ўргатиш асосида ижтимоий-касбий мослашув мақсадида касбий фаолият амалга оширилади.

- касбий фаолиятга киришиш (таълим муассасалари ўқувчилари ва талабалари). Бу босқич меҳнат жамоасида ҳаётий фаолият малакаларини шакллантиришдаги касбий тайёрлов давридир.

- меҳнат фаолияти жараёнида касбий етукликни ривожлантириш, малака ошириш, бу босқич касбий фаолият қобилини кенгайтириш, (аҳолининг бир қисми ишлайдиган) янги мутахассисликларни ўзлаштириш.

Бошқа тадқиқотчиларнинг таъкидлашича, “касб-хунар танлаш – касбий етукликнинг аҳамиятли таркибий қисмларидан бири бўлиб, у бу жараённинг бошланғич даврларидан муваффақиятли ўтиши ва психологик мезонлари сифатида кўриб чиқилиши мумкин”.

Касбий етуклик жараёнига мурожаат шуни кўрсатадики, у 4 асосий таркибни ўз ичига олади:

- касбий мақсаднинг шаклланиши ва касб танлашни тушуниб етиш;

- касбий билим, кўникма ва малакаларни унумли ўзлаштириш;

- касбга фаол ёндашиш, ижтимо-

ий-касбий мослашув;

- касбий маҳорат ва ижодкорлик, улардан меҳнат фаолиятида тўлиқ фойдаланиш.

Шу усулда касб танлашни ҳақиқатдан шахнинг касбий шаклланиши ва ривожланишида бошланғич босқичи сифатида ҳисоблаш мумкин.

Умумий ўрта ва ўрта махсус, профессионал таълимида шахс шаклланишининг муҳим босқичи, ўқувчининг ақлий қобилиятлари, хусусан мантикий ва танқидий тафаккурининг самарали ривожланиш даври ҳисобланади. Ўқувчиларда ушбу сифатларни самарали ривожлантиришда робототехника тўғарагининг имкониятлари чексиз. Айни вақтда турли таълим босқичларида касбий тайёргарлик мазмунини етакчи педагогик ва психологик тамойилларга мувофиқ шакллантириш, таълим жараёнини амалга оширишда энг самарали шакл, усул, восита ва технологиялардан фойдаланиш, улар ўртасида узвийликни таъминлаш мақсадга мувофиқдир.

Шунингдек, ҳар бир таълим босқичлари ўртасидаги узвийликни таъминлашда илмий-педагогик, психологик асослар, шунингдек, миллий қадриятлар, бой тарихий меросига асосланиш зарурияти юзага келди. Ушбу муаммони самарали ҳал этишда ўқувчиларнинг касбий тайёргарлигининг узвийлигини таъминлаш муҳим аҳамият касб этади.

Умумий ўрта таълим мактабларига “Технология” фанининг татбиқ этилиши реал оламда назарий ва амалий масалаларни ҳал қилиш учун технологик билим ва малакаларнинг моҳияти ва заруратини таъкидлайди.

Технологик таълимнинг мақсади қуйидагилардан иборат:

- ўқувчиларни жамият ишлаб чиқари-

шида ўзгартирувчи фаолиятга тайёрлаш, уларнинг онгида оламнинг техник-технологик манзарасини (табiiй-илмiiй ва ижтимоiiй-тарихiiй) ва шахснинг ижодiiй фикрлаш ва ижодкорлик қобилиятини ривожлантириш;

- шахснинг ривожланиши ва турли хил ўқув ва меҳнат фаолиятида иштироки жараёнида ўзининг “Мени”ни топиши учун оптимал шароитларни яратиш.

Кўрсатиб ўтилган мақсадларни мактабнинг бутун ўқув-тарбиявий фаолиятида ўқувчиларнинг ўқув ва меҳнат фаолияти жараёнида амалга ошириш мумкин. Бу соҳада техник, технологик, касбий таълим муҳим ўрин эгаллайди. Бироқ технологик ва касбий тайёрлашнинг юзага келган амалиёти ўқувчиларни ривожлантиришнинг яхлитлик ва ҳар томонламалик тамойилларини тўлиқ амалга ошириш имконини бермайди ҳамда уларнинг замонавий ахборотга тўйинган яратувчилик меҳнати фаолиятига тайёрлигини таъминламайди. Ўқув фанлари бўйича тизимсиз тақсимланган политехник материал ўқувчиларда замонавий технологияларнинг яхлит манзарасини яратиш имконини бермайди, ўқувчиларнинг таълимий ва касбий тайёргарлиги ўртасида ишончли боғловчи бўғин бўла олмайди.

Умумий ўрта таълим ва профессионал таълим ўртасидаги узвийлик мактабдан ташқари таълимда ўқувчиларнинг қизиши ва ҳоҳиши асосида ташкил этилган тўғарак машғулотларида бевосита фанлараро алоқадорлик воситасида таъминланади (1-расм).


Мактабдан ташқари таълимга қўйиладиган давлат талабларига мактабдан ташқари таълим муассасалари 6 ёшдан 18 ёшгача бўлган барча “ўқувчиларга уларнинг ҳар томонлама камол топишлари ва бўш вақтларини мазмунли ўтказишлари

учун имконият яратади”¹.

Таълимда узвийлик икки хил турда қўлланилади. Биринчидан, таълим тур-

лари (бўғинлари) орасидаги узвийлик.

Бунда таълимнинг кейинги тури мазмуни аввалгисини қисман такрорлаб, мазмун



1-расм. Умумий ўрта таълим, профессионал таълими ва мактабдан ташқари таълимнинг ўзаро узвийлиги

жихатидан узвий боғланган ҳолда унинг кейинги таълим турларида давом этади. Иккинчидан, ўқув фанлари орасидаги узвийлик. Бу одатда фанлараро ёки предметлараро боғланиш орқали амалга оширилади.

Узвийлик тушунчаси узлуксиз таълим тизимининг ҳар бир турида ўқувчилар билими, кўникма ва малакаларига қўйиладиган талабларни характерлайди.

Узвийлик ўқув материалнинг муайян кетма-кетликда, тизимли жойлаштирилиши, билимларни ўзлаштиришда мавжуд билимларга таяниш, ўқув материалнинг маълум даражада навбатдаги босқичларда қўлланилиши, ўқув-тарбия жараёни босқичларининг давомийлигини англата-

ди. Мазкур ҳодиса ўқув предмети материалларини жойлаштириш ҳамда ушбу предмет (фан) асосларини ўзлаштириш фаолияти турларининг самарали танланишига ёрдам беради. Бу жараёнда қуйидаги икки омил: муайян фаннинг мазмуни, мантиғи (ўқув предметида узвийликнинг мавжудлигини аниқловчи жиҳатлар - ўқув предмети мазмунини ташкил қилувчи тушунча, қонун ва далиллар, ўзаро органик боғланувчи аввал ва кейин ўзлаштирилган муайян соҳа билимлари моҳиятини маълум кетма-кетлик асосида аста-секин очиб берилишини таъминловчи ҳаракатлар) ҳамда билимларини ўзлаштириш жараёнининг қонуниятлари (дидактик жиҳатдан қайта ишланмаган муайян соҳа билимларининг ўқув предметида тўғридан-тўғри сингдирилишига йўл қўймай-

¹ Ўзбекистон Республикаси халқ таълими вазири-нинг 2015 йил 31 мартдаги 7-мх-сон буйруғига илова.

диган ҳаракат, амал)ни инobatга олиш муҳим аҳамиятга эга.

Узвийлик таълим муассасаларининг ўқув режаларига хос бўлиб, ҳар бир таъ-

лим турида ўқувчиларнинг муайян даражада билим олишлари ва таълимнинг давомийлигини таъминлайди.



Адабиётлар рўйхати:



1. Ғозиев Э.Ғ., Мамедов К.Қ.. Касб психологияси. Тошкент: ТДАУ, 2003 й. 154 б.
2. Муллаҳметов Р.Ғ., Пардабаев Ж.Э. Тенденции преемственности среднего специального и высшего образования с производственной сферой // “ Молодой учёный” Научный журнал № 10 (12) / Россия. 2015. – Р. 1231-1233.
3. Пардабаев Ж.Э. Мактабдан ташқари таълим жараёнида ўқувчиларнинг касбий тайёргарлигини ривожлантириш технологиялари.: П.ф.ф.д. PhD дисс. – Т.: 2021. - 45 б.
4. Pardabaev J.E. “STEAM” – Education as an innovative approach to the development of vocational training for students” // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Vol. 8 No. 3, 2020. ISSN 2056-5852.
5. Пардабаев Ж.Э. Мактабдан ташқари таълимни ривожлантиришда STEAM-таълим технологияси // “Халқ таълими”. -Тошкент. 2021. № 2. Б. 85-88. (13.00.00; № 17). www.xtjurnali.zn.uz.

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINI O‘YIN TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TA’LIMGGA ADAPTATSIYA QILISHNING PEDAGOGIK MAZMUNI

SULTANOV TURDALI MUXTARALIYEVICH
Chirchiq davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Boshlang‘ich maktabda o‘qishni endi boshlayotgan o‘quvchilar bilan ishlash, ularga ta’lim berish va xulq-atvorining rivojlanishiga erishish juda katta mas’uliyat talab etadi. Bunda, pedagogika muhim ahamiyatga ega, chunki u o‘qituvchilarga sinfni tashkil qilish uchun eng yaxshi tajribalar haqida tushuncha beradi. Bu ularga turli xil o‘quvchilar qanday o‘rganishlarini tushunishga imkon beradi, shuning uchun ular o‘z darslarini ushbu ehtiyojlarga moslashtirishlari mumkin. Natijada, bu ularning o‘qitish sifatini oshiradi, chunki u talabalar tomonidan yaxshi qabul qilinadi.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari, pedagogika, sifatli ta’lim, bolalar bilan ishlash, boshlang‘ich sinf, sinf muhiti, pedagogik maslahatlar.

Аннотация: Работа с учащимися, которые только начинают ходить в начальную школу, обучение и развитие поведения требует большой ответственности. В то же время педагогика важна, поскольку дает учителям представление о лучших методах организации занятий. Это позволяет им понять, как учатся разные ученики, чтобы они могли адаптировать свои уроки к этим потребностям. В результате повышается качество их преподавания, так как оно хорошо воспринимается учащимися.

Ключевые слова: учителя начальных классов, педагогика, качественное образование, работа с детьми, начальная школа, школьная среда, педагогический совет.

Annotation: Working with students who are just starting to go to primary school, learning and developing behavior requires a lot of responsibility. At the same time, pedagogy is important because it gives teachers an idea of the best methods for organizing classes. This allows them to understand how different students learn so they can tailor their lessons to those needs. As a result, the quality of their teaching is improved, as it is well received by students.

Key words: primary school teachers, pedagogy, quality education, work with children, primary school, school environment, pedagogical council.

Boshlang‘ich ta’lim o‘quvchining turmush tarzi, tartibi, ijtimoiy holati, sinf jamoasi, oila muhitdagi ahvolini o‘zgartiradi, uning asosiy vazifasi o‘qishdan iborat bo‘lib qoladi. Yangi bilim, ko‘nikma, malakalar egallashni boshlaydi. Ta’lim o‘quvchidan muayyan darajadagi uyushqoqlikni, intizomlikni, irodaviy zo‘r berishlikni, faollikni, maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatni talab qiladi. Ixtiyorsiz xatti-harakatlar o‘rnini anglashilgan rejali, maqsadga muvofiq aqliy mehnat egallay boradi. O‘quvchi tengdoshlari bilan birgalikda muayyan bir sinf jamoasiga birlashtiriladi. Modomiki shunday ekan, sinf jamoasi va uning ahzolari bola oldiga ko‘pchilik manfaatini himoya qilish, shaxsiy istaklarini umumjamoa

intilishlariga bo‘ysundirish, o‘zaro yordam, o‘zaro hurmat, o‘zaro talabchanlik, ijtimoiy javobgarlik va burch hislarini egallash vazifasini qo‘yadi. Ta’lim jarayonida o‘quvchi oldiga qo‘yiladigan talablar tobora ortib, murakkablashib boraveradi.

Ta’lim va tarbiya jarayonlarining o‘zaro bog‘liqligi hamda aloqadorligi, yahni ularni yaxlit holda tushunish zaruriyati mboshlang‘ich ta’lim o‘quvchilari uchun tashkil etiladigan ta’lim-tarbiya jarayonlarining tizimga xos xususiyatlarga ega ekanligini tasdiqlaydi. Ayrim tadqiqotchilar ta’lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etish belgilangan maqsadlarga erishishga xizmat qiluvchi turli strukturaviy va funktsional bog‘liq bo‘lgan komponentlar majmuini

ijtimoiy tizimning turlaridan biri hisoblangan pedagogik tizim sifatida tahriflaydi¹. Demak, o‘zaro bog‘liq hisoblangan ta‘lim va tarbiya jarayonlari o‘quvchi shaxsining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi, chunki mazkur jarayonlar, birinchidan, ajdodlar tajribasining avlodlar tomonidan o‘rganilishi, ikkinchidan, o‘zlashtirilishi bo‘lib, ularning ijtimoiy hayotga qo‘shilishlarini tahminlab beruvchi yaxlit jarayon hisoblanadi. Demak, ta‘lim va tarbiya jarayonlari o‘quvchilarda shaxsiy xislatlar, insoniy fazilatlar, tushunchalar shakllanishiga hamda dunyoqarashining rivojlanishiga zarur shart-sharoitlar yaratib beradi. Demak, uzluksiz ta‘lim tizimining muhim bosqichlaridan biri sifatida umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida ta‘lim va tarbiya jarayonlari quyidagi tamoyillarga muvofiq tashkil etilishi o‘ziga xos amaliy ahamiyat kasb etadi:

- davlat ta‘lim standartlari talablarining bajarilishi majburiyligi;

- o‘quvchilarda fan asoslari bo‘yicha tizimli bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishning muhimligi bo‘yicha shaxsiy tushunchalar va ehtiyojlarni rivojlantirishning zarurati;

- ta‘lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etish va muvofiqlashtirishda uzluksizlik va uzviylikni tahminlash;

- ta‘lim-tarbiya jarayonlarida tizimli, korporativ, vaziyatli, refleksiv, tabaqalashgan va innovatsion yondashuv texnologiyalarini tatbiq etish asosida barcha uchun qulay ta‘limiy muhitni shakllantirish;

- ta‘lim va tarbiya jarayonlari ishtirokchilarining mazkur jarayon subhektlari sifatida faoliyat ko‘rsatishi zarurati, yahni ta‘lim va tarbiya jarayonlarida subhekt-subhekt munosabatlarining qaror topishi;

- ta‘lim va tarbiya jarayonlari subhektlari faoliyatining maqsadga yo‘naltirilganligi, izchilligi va o‘zaro bog‘liqligi;

- ta‘lim va tarbiya jarayonlari o‘zaro

¹ Турғунов С.Т. Таълим муассасаси раҳбарлари бошқарув фаолияти самарадорлигининг назарий асослари // Касб-хунар таълими. – 2006. – № 1. – Б. 112.

boG‘liq va aloqador bo‘lgan komponentlar majmui ekanligi;

- harakatlanish va rivojlanishga xizmat qiluvchi ichki va tashqi omillarning o‘zaro birligi;

- ta‘lim va tarbiya jarayonlari yaxlit tizim sifatida tashqi muhit va boshqa tizimlar bilan o‘zaro tahsir etish xususiyatlariga ega ekanligi.


Mazkur tamoyillarning mazmun-mohiyati, ahamiyati, ularga amal qilish zaruriyati ta‘lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etish hamda muvofiqlashtirishdan ko‘zlanayotgan maqsadning strategik ahamiyat kasb etishini ifodalaydi. Bu vazifalarni amalga oshirishdan ko‘zlanayotgan umumiy maqsad ham strategik xususiyatlarga ega bo‘lib, har bir vazifani alohida amalga oshirishdan ko‘zlangan maqsadlar ham mazmun-mohiyatan bir-biri bilan uzviy boG‘liq bo‘lgan strategik rejalar tizimini ifodalaydi. Umumiy maqsadga erishish yo‘nalishlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirish jarayonlarining tizimga xos xususiyatlar kasb etishi ta‘lim va tarbiya jarayonlarni o‘zaro bog‘liq hamda aloqador tarzda tashkil etish zaruratini belgilaydi. Demak, o‘quvchi shaxsini rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ta‘lim – mustaqil ta‘lim, tarbiya – o‘zini o‘zi tarbiya, mahlumot – mustaqil mahlumot, rivojlanish va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarining tizimga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda ularni yaxlit tizimning komponentlari sifatida inobatga olish mumkin.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning o‘yin faoliyati davrida bolaning aqliy fazilatlarini va shaxsiy xususiyatlari jadal rivojlanadi va shakllanadi. O‘yinda turli xil faoliyatlar mujasamlashadi, keyinchalik har bir faoliyat turi mustaqil ravishda o‘z mahnosiga ega bo‘ladi.² O‘yin faoliyati ruhiy jarayonlarning

² Икромов А. Бошланғич синф ўқувчиларининг ҳаракатли ўйинларни ўзлаштиришини ахборот-коммуникация технологиялардан фойдаланиб такомиллаштириш // Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси АВТОРЕФЕРАТИ. – Бухоро. БухДУ. 2021.-Б. 12.

ham shakllanishiga tahsir qiladi. Ayrim o'yin turlari bolalarning barcha bo'g'inlariga mos kelishi mumkin, yahni jismoniy sifatlarni yaxlit holda tarbiyalashga qaratilgan o'yinlar ham borki, ularda turli jismoniy sifatlari

ketma-ket rivojlanishi mumkin. O'yinlardagi bunday izchillik bolaning bilim saviyasi, dunyoqarashining kengayishi, uning katta yoshdagi odamlarning turmushiga chuqurroq kirib borishi bilan bog'liqdir.



2.1-rasm. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'yinlar texnologiyasi vositasida ta'limga adaptatsiyalashning pedagogik modeli

ОПИСАНИЕ МЕТОДИЧЕСКОЙ РАБОТЫ ПО РАЗВИТИЮ РЕЧЕВОГО ТВОРЧЕСТВА ДЕТЕЙ СТАРШЕГО ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

ТЕРЕХОВА ОЛЬГА ЕВГЕНЬЕВНА

PhD и.о. доцента кафедры «Педагогика и психология дошкольного образования» ТГПУ

Аннотация: дидактической теория характеризуется такими критериями как результативность и эффективность учебного процесса максимально приближенным к действующим концепциям и стандартам образования. Эти критерии определяются целями и задачами обучения, процесс строится на дидактических идеях и закономерностях обучения. Все это в комплексе определяет фундамент для определения методики предстоящего обучения.

Ключевые слова: обучение, воспитание, методы обучения, приемы обучения, результаты обучения, принципы обучения, средства обучения.

Annotatsiya: didaktik nazariya ta'lim jarayonining samaradorligi va samaradorligi kabi mezonlar bilan tavsiflanadi, bu ta'limning amaldagi kontseptsiyalari va standartlariga iloji boricha yaqinroqdir. Bu mezonlar o'qitishning maqsad va vazifalari bilan belgilanadi, jarayon didaktik g'oyalar va o'quv qonuniyatlariga asoslanadi. Bularning barchasi birgalikda kelajakdagi o'qitish metodologiyasini aniqlash uchun asosni belgilaydi.

Tayanch so'zlar: ta'lim, tarbiya, o'qitish usullari, o'qitish usullari, o'quv natijalari, o'qitish tamoyillari, o'qitish vositalari.

Abstract: didactic theory is characterized by such criteria as the effectiveness and efficiency of the educational process as close as possible to the current concepts and standards of education. These criteria are determined by the goals and objectives of training, the process is based on didactic ideas and learning patterns. All this together determines the foundation for determining the methodology for future training.

Key words: training, education, teaching methods, teaching methods, learning outcomes, learning principles, teaching aids.

Введение. Предлагаемая экспериментальная методическая разработка по развитию речевого творчества дошкольников путем внедрения «Программы по формированию речевого творчества у старших дошкольников»¹ и одноименной мультимедийной авторской разработкой, а также системой игр и упражнений, обусловлены новаторской педагогической теорией, а также внедряемой на государственном уровне цифровизацией обучения.

Основная часть. Согласно определению В. И. Андреева педагогическая теория

¹ Терехова О.Е. Программы по формированию речевого творчества у старших дошкольников: уч.-мет. пособие; Т.: Chinor fayzi baland, 2021. – 124 с.

есть не что иное, как научные знания о педагогических явлениях и процессах, выстроенные в систему, оформленные в виде определенных закономерностей идей, и принципов, с помощью которых представляется возможным объяснить и спрогнозировать развитие этих явлений и процессов [1]. По Андрееву, педагогическая технология представляет собой систему применения на практике соответствующих ей целей, задач, принципов, методов и средств обучения, которые обеспечат качественно высокий уровень их результативности, в том числе, при их дальнейшем использовании [2].

В теснейшей взаимосвязи с педагогической теорией находится дидактическая

теория, которая характеризуется такими критериями как результативность и эффективность учебного процесса максимально приближенным к действующим концепциям и стандартам образования. Эти критерии определяются целями и задачами обучения, процесс строится на дидактических идеях и закономерностях обучения. Все это в комплексе определяет фундамент для определения методики предстоящего обучения.

Методика обучения, согласно Андрееву, является неделимой системой планирования и организации педагогического процесса, базирующейся на дидактической теории, и комплекса методических рекомендаций, результативность которых зависит по большей части от мастерства педагога [2].

Методика работы по развитию речи у дошкольников должна выстраиваться таким образом, чтобы находиться в связке с

методами, формами и средствами формирования и развития у них речевого творчества. В этой связи с этим, предложенная нами программа создана с учетом основных принципов, методов, средств и форм, которые позволят повысить уровень развития речевого творчества дошкольников.

Данные, полученные в ходе проведенного исследования работ по проблемам творчества, показал, что целостная методическая система, позволяющая целенаправленно развивать речевое творчество дошкольников в разрезе занятий по развитию речи, еще не разработана. И представленная ниже модель имеет целью развитие творческих способностей у детей именно в контексте обогащения и активизации их словаря [3].

Данная педагогическая система базировалась на пяти принципах.

Рассмотрим схему.

Ознакомимся с целенаправленным



Схема 1. Принципы педагогической системы

прикладным значением этих принципов для данной работы.

Принцип наглядности. Как известно, развитие дошкольника — как творческое, так и любое другое, в том числе, и речевое — формируется на базе чувственной основы восприятия. В связи с этим на занятиях необходимо применять такую наглядность, которая детям хорошо знакома, это могут быть рисунки, всевозможные игрушки, предметы, фото и картинки, графические изображения и пр.

Принцип творческого сотрудничества представляет собой взаимодействие меж-

ду педагогом и воспитанником которое выражается в эмоциональном сотрудничестве, создании эмпатических связей, в результате которых ребенок будет с удовольствием включаться в работу.

Заинтересованность ребенка в выполнении творческих заданий — процесс создания таких условий, которые бы побуждали ребенка проявлять активность, заинтересованность и настойчивость в различных видах творческой деятельности, а также способствовали бы ее интенсивности.

Учет индивидуальных особенностей

ребенка [4]. Педагогу необходимо принимать во внимание индивидуальные и возрастные особенности каждого ребенка: уровень когнитивных способностей, темперамент, степень утомляемости и пр.

Установка на творческое выполнение задания подразумевает самостоятельное

выполнение ребенком предложенного задания без помощи педагога. При соблюдении этого принципа ребенок сам выбирает способы решения поставленной задачи.

С некоторых пор рассматриваются и новаторские принципы обучения. Рассмотрим схему.



Схема 2. Новаторские принципы педагогической системы

Так или иначе, как общие, так и частнометодические принципы педагогики определяют выбор инструментов обучения.

Опираясь на разработки Л. Ю. Субботиной, мы обозначили для нашей работы необходимые условия, соблюдение которых должны способствовать успешному развитию речевого творчества у дошкольников:

- речевое творчество разовьется на базе сформированных мыслительных и речевых навыков, что является основным условием.

- работа должна выстраиваться таким образом, чтобы у дошкольников возникала мотивация к разнообразным видам активной деятельности, в первую очередь коммуникативной и познавательной и впоследствии к творческой.

- весьма эффективным методом выступает метод проблемного обучения, что является целесообразным в нашем исследовании.

- процесс развития речевого творчества должен основываться на единстве воспроизводства известных способов деятельности (репродуктивная деятельность) и создании чего-то нового (продуктивная деятельность) [5].

При разработке методики развития речевого творчества учитывались компоненты, находящиеся в корреляционной зависимости: 1) целевой; 2) содержательный; 3) субъектный; 4) технологический; 5) результативный; 6) диагностический.

Целевой компонент отражает релевантность экспериментальной системы, определяется целями, дидактическими условиями, условиями функционирования

ния системы, необходимыми для развития речевого творчества детей старшего дошкольного возраста.

Содержательный компонент включает в себя механизмы и содержание развития речевого творчества дошкольников, а также формы, методы и средства работы в данном направлении.

Субъектный компонент определяет всех участников практической части педагогического процесса в ДОО.

Технологический компонент представляет собой описание примененных педагогических принципов, методов, при-

емов, средств образовательного процесса.

Результативный компонент отражает критерии и уровневые характеристики.

Диагностический компонент обнаруживает использованные диагностические методики и контрольно-срезовые задания, с помощью которых были исследованы уровни (исходный и итоговый) развития творческих способностей посредством совершенствования связной речи.

Предложенная в схеме классификация методов обучения нам кажется наиболее целесообразной.





Схема 3. Методы обучения, способствующие развитию речевого творчества у дошкольников

В соответствии с технологией реализации педагогической модели развитие речевого творчества путем обогащения сло-

варя происходило в три этапа. Рассмотрим схему.



O'RTA UMUMTA'LIM MAKTABLARI INGLIZ TILI DARSLARIDA OG'ZAKI NUTQ MASHQLARINING TAXLILI

HILOLA NADIROVA

Jizzax shahridagi Qozon Federal Universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrasini mudiri

Annotatsiya. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi-xorijiy tilda og'zaki muloqot yuritish faoliyatining tarkibiy qismi bo'lgan "gapirish va tinglab tushunish ko'nikmalari"ni shakllantirishning metodik xususiyatlarini tahlil qilish va o'rganishdir.

Kalit so'zlar: muloqot, nutq, tinglash, ko'nikma, tahlil.

Annotation. The main goal of this article is to analyze and study the methodological features of the formation of "speaking and listening comprehension skills", which are a component of the activity of oral communication in a foreign language.

Key words: communication, speech, listening, skills, analysis.

Аннотация. Основной целью данной статьи является анализ и изучение методологических особенностей формирования «умений говорения и понимания на слух», которые являются составной частью деятельности устного общения на иностранном языке.

Ключевые слова: общение, речь, аудирование, навыки, анализ.

Kirish.

Har qanday davlat taraqqiyotining eng muhim shartlaridan biri quduqdir faoliyat ko'rsatayotgan ta'lim tizimi. Sifatida ta'lim tizimi yuksak darajada shakllanishini ta'minlaydi rivojlangan, ijtimoiy va shaxsiy faollik, qobiliyat bilan yuqori darajaga ko'tara olishi kerak ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil faoliyat yuritadi. Konseptual yo'llar va aniq detallar, radikallar uchun mexanizmlar belgilab berilgan trening ta'lim tizimini isloh qilish va shaxsiy kadrlar tayyorlash.¹

Asosiy qism.

O'quvchilarni ingliz tilidan og'zaki nutqini o'stirish bola maktabga ilk qadam qo'ygan kundan, yani savod o'rgatish davridan boshlanadi. Nutq ko'nikmalari izchil va muntazam olib boriladigan amaliy ishlar natijasida namoyon bo'ladi. Shuning uchun o'qituvchi ingliz tili darsidan grammatik tushunchaga doir

har bir mashg'ulotda o'quvchilarning nutq malakasini o'stirishga e'tibor berish zarur. Bu ko'nikmaga erishish uchun, avvalo, nutqning ixcham, sodda, ravon va mazmundor bo'lishini ta'minlash lozim. Shunday ekan, boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish ingliz tili darsining asosiy vazifasi sanaladi. Boshlang'ich sinflar ingliz tilini o'qitish metodikasida bog'lanishli nutqdan mashq turlari amaliy ko'rinishga ega bo'lib, ular nazariyasiz, aniq reja asosida o'tkazilmoqda yaniy:

- aniq savolga ravon mukammal javob;
- lug'atni faollashtiradigan har xil topshiriqli mashqlar;
- kuzatish, rasm yoki berilgan mavzu bo'yich o'quvchining ijodiy hikoyasi.

Bulardan tashqari, pedtexnologiya asosidagi nutqiy mashqlardan foydalanish bolalarni mustaqil fikrlashga o'rgatadi va ularning nutqini yangi lug'at bilan boyitadi.

Boshlang'ich ta'limda ingliz tilidan berilgan bilimlarni o'quvchilar qanday o'zlashtirishini muntazam tekshirib borish

¹ X Надирова - Jamiyat va innovatsiyalar - Obschestvo i innovatsii - Jamiyat va innovatsiyalar Maxsus nashr -1, №01 (2020) / ISSN 2181-1415

didaktik talablardan biri hisoblanadi. Davlat ta'lim standartlari o'quv dasturida boshlang'ich ta'lim har bir bosqichi uchun o'quvchilarning bilim, malaka va ko'nikmalariga alohida-alohida talablar qo'yilgan. Binobarin, to'rt yilda o'quvchilar o'qish texnikasi bo'yicha bir daqiqada 40-50 so'zni, diktant yozish malakasi bo'yicha 35-40 so'zdan iborat matnni quyidagi talab asosida yoza olishi takidlanadi:

- ilmoviy xatoga yo'l qo'ymaslik
- berilgan izohlarning aniqligi
- lug'atning to'g'ri va aniq berilishi.

Bu talablar ingliz tili darsi zimmasiga mas'uliyat yuklaydi. Har bir dars o'quvchilarning bilim sifatini, o'z navbatida, shakllantirilayotgan malakalardan qay darajada foydalana olishini ta'minlaydi. Me'yoriy bilimni, ko'nikma va malakalarni izchillik bilan tekshirib borish ana shu talablar asosida amalga oshadi. Tekshirish, avvalo, o'quvchilarning yangi materialni o'rganishga tayyorligini aniqlashga, darsda qo'llanilgan usul va metodlarning samaradorligini bergilashga imkon beradi.

Maktab tajribasida o'zlashtirilgan bilimlarni tekshirishning og'zaki va yozma shakli keng qo'llanadi. Har ikki shaklda tatbiq etiladigan jihatlar ikki ko'rinishda olib boriladi:

1. Kundalik mavzu bo'yich tekshirish.

2. Yakuniy bilim va malakalarni tekshirish.

Boshlang'ich sinflarda ingliz tilidan o'zlashtirilgan bilim, malaka va ko'nikmalar og'zaki yoki yozma shaklda tekshirilsa-da, o'quvchiga bitta umumiy baho qo'yiladi. Bunda quyidagilar hisobga olinadi:

- o'quvchilar bilimidagi grammatik aniqlik
- imlo qoidalariga amal qilish darajasi
- o'zlashtirilgan bilimni yozma nutqqa (diktant) tatbiq etish.

Ingliz tilidan bilimlarni og'zaki tekshirishda savol-javob, test variant, mantiqiy o'yla, izla, top kabi usullar qo'llanilsa, yozma tekshirish uchun, asosan diktant, leksik – grammatik va so'z yasashga doir, ko'chirib yozish va ilmoga doir topshiriqlarni tashkil etib boriladi. Bundan tashqari, o'quv yili davomida mashg'ulot turining xarakteriga qarab, bir necha marta bir xil diktantlar, testlar o'tkaziladi. Davlat ta'lim standartlari o'quv dasturi tekshirish maqsadida o'tkaziladigan diktantlardagi so'zlar sonini quyidagicha ko'rsatadi:

Ingliz tilidan bilim, ko'nikma va malakalarni muntazam tekshirib borish o'quvchilar savodxonligini oshiradi, nutq madaniyatini egallash uchun tilga doir nazariy bilimlarni puxta o'rganish ko'nikmasini takomillashtirib boradi. O'quvchilarni boshlang'ich sinfda ingliz tili darslarida og'zaki nutqini o'stirishda inglizcha she'rlarni yod oldirish ham muhim o'rin egallaydi. Bolalarga she'r yodlatishning asosiy maqsadi va ahamiyati ularga she'riyatga bo'lgan muhabbatni, badiiy didni tarbiyalash, poeziyaning eng yaxshi namunalarini idrok etishni shakllantirishdir.

Shuningdek, bolalarga estetik tarbiya berishda ham she'r yod oldirishning ahamiyati benihoya kattadir. She'rlar asosan boshlang'ich sinflar uchun sodda, oson yani ularning hayotidan olingan bo'lib, ular quvnoq o'yinlar, o'yinchoqlar, uy hayvonlari, tabiat to'g'risidagi she'rlardir. She'r yod oldirishda tarbiyachi oldida bir qancha vazifalar turadi:

1. O'qilgan she'rni hamma bolalar esda saqlab qolishlariga erishish.

2. Bolalarda she'rga nisbatan qiziqish uyg'ota olish va mustahkamlash.

3. She'r mazmunini va undagi ayrim qiyin so'zlarning ma'nosini tushunib

olishlariga yorda berish.

4. Tinglovchilar oldida she'rni ifodali aytib berishga o'rgatish.

Bu vazifalarning barchasi bir vaqtda omalga oshiriladi. Yodlatish uchun she'r tanlashda o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga, esda saqlash qobilayatlariga e'tibor berish kerak. Inglizcha she'rlarni yodlatish uchun shuninhisobga olish kerakki, she'r hajmi jihatidan uncha katta bo'lmasligi, birinchi sinfda 1 banddan oshmasligi, ikkinchi sinfda 1-1,5 banddan oshmasligi, uchinchi va to'rtinchi sinflarda esa 1,5-2 banddan oshmasligi kerak.

O'qituvchi o'quvchilar bilan she'r yod oldirish mashg'ulotini tashkil etishdan avval guruhdagi o'quvchilarning qaysisi tez, qaysi biri sekin, qaysilari puxta, qaysilari bo'sh yod olishlarini aniqlab olishlari kerak. Masalan "Ayiqcha" she'rini yodlatish.

Dastur mazmuni. Bolalarni she'r mazmuni bilan tanishtirish, uning ma'nosini tushunishga va yod olishga yordam berish. O'quvchilarni o'z o'rtoqlari oldida she'r aytishga o'rgatish.

Men 31- maktabda 1 "A" sinf o'quvchilarini ingliz tili darsini kuzatib shuni guvohi bo'ldimki, o'qituvchi o'z darsiga o'quvchilarni qiziqтира olgan. O'qituvchi uchun eng asosiy narsa bu o'quvchilarni o'z faniga qiziqтира olishdir. Ingliz tili darsi juda qiziqarli tarzda olib borildi. O'quvchilar ham darsda juda faol. Sinf honasi ham juda chiroyli bo'lib, turli hildagi ko'rgazmalar bilan boyitilgan, o'qituvchi elektron televizordan foydalandi. Ingliz tili o'qituvchisining takidalshi bo'yicha o'quvchilar yozib emas balki ko'rgan, eshitgan narsasini tezda yodlab oladi deydi. Shuning uchun men o'z darsimda ko'proq elektron televizordan foydalanaman deydi. Shunday qilib,

o'quvchilar bir yilda davomida o'ndan ortiq inglizcha she'rlarni yodlay olar ekan. Shuningdek ular o'qituvchi tomonidan berilgan turli xildagi sovollarga tez va aniq javob bera olyapti.

Birinchi sinf o'quvchilari uchun shuncha narsani bilash eng katta muvofaqqiyat. O'quvchilar shu qiziqishlari bo'yicha ketsalar, maktabni bitirgunlaricha ingliz tilini mukammal egallab oladilar. Shuningdek o'quvchilarga sinonim, antonym, so'zlarni o'rgatish o'quvchilar nutqini yanada o'stiradi. Sinonimlar – talafuzzi, yozilishi har xil, birlashtiruvchi ma'nosi bir xil bo'lgan so'zlardir. Ana shunday umumiy ma'no bilan bo'g'lanuvchi so'zlar guruhi sinonimik qatorni tashkil etadi. Buday so'zlar ikki yoki undan ortiq so'zlardan iborat bo'ladi.

Masalan, Poor, needy, moneyless, penniless, bad, weak, unhappy, impoverished...

Sinonimlar tilni leksik tomondan boyitadi. Lug'at tarkibida sinonim so'zlar qancha ko'p bo'lsa, tilning ifodaliligi shuncha ortadi. Ingliz tili sinonimlarga boy. Boshlang'ich ta'limda sinonim so'zlar haqida bilimlar berilasada, biroq sinonim so'zlar haqidagi mashqlar ko'magida shakllantirish. 3-sinfdan boshlab o'quvchilar berilgan so'zlarni ma'nodosh shaklini topishga o'rgatish.

Masalan Learn, Joy, Brave kabi so'zlarni boshqa so'z bilan atalishini topish. Learn, study, read, discover, gather; delight, pleasure, happiness; strong, intrepid, unafraid deb atalishini topishadi.

Antonim so'zlarni o'rgatish, yani qarama-qarshi, zidma'noli so'zlar tushuniladi. Antonimlar nomni anglatgan, belgisini bildirgan, harakat – holatni, harakatning belgisini ifoda etgan so'zlarda uchraydi. Masalan, black-white, big-small,

poor-rich, happy-sad.

Hozirgi zamon o'qituvchisining asosiy fazilatlaridan biri – o'z kasbiga sadoqatliligi, o'z kasbini sevishi uni boshqa kasb egalaridan ajratib turadi. Chunki maktabda ta'lim – tarbiya ishining yuqori saviyada olib boriishi faqat o'qituvchiga bog'liq. O'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan muhim talablardan biri shuki, u o'zi o'qitayotgan predmetlarni chuqur bilishi, uning metodikasini o'zlashtirib olgan bo'lishi zarur. Predmetni va uning nazariyasini chuqur bilishi, uni qiziqarli qilib o'quvchilarga etkaza olishi bolalarning shu predmetga bo'lgan qiziqishini oshiradi. O'qituvchi o'z kasbini qanchalik ustasi bo'lsa, uni obro'si ham shunchalik yuqori bo'ladi. O'quvchilar o'qituvchining o'z bilimlarini bolalarga etkaza olish imkoniyatlarini qadrlabgina qolmay, balki uning fidoyiligini ham taqdirlashadi. O'qituvchining yuksak madaniyati, bilim doirasi, uning ta'lim – tarbiya ishlarining muvaffaqiyatli kechishiga yordam beradi.

O'qituvchi kasbiga hos bo'lgan muhim talablardan yana biri bolalarni sevish, ularning hayoti bilan qiziqish, har bir shxsn hurmat qilishdan iboratdir. Bolani sevgan, butun kuch va bilimni bolalarning kelajagi, ularni Vatanga sodiq fuqaro qilib tarbiyalashga safarbar qila oladigan insongina haqiqiy o'qituvchi bo'la oladi. Bolaga befarq, uning kelajagi bilan qiziqmaydigan, o'qituvchilik kasbiga loqayd inson haqiqiy o'qituvchi bo'la olmaydi.

XULOSA

O'rta umumta'lim maktabi boshlang'ich sinflari ingliz tili o'rganish jarayonida fan oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqib, o'quvchining kommunikativ kompetentsiyasi (layoqati) shakllantiriladi, ya'ni tilni nutqiy muloqot

vositasi sifatida o'rganish malakalari hosil qilinadi. Nutqiy kompetentsiya lingvistik (til bilimi), ijtimoiy-madaniy (social and cultural knowledge), nutqiy ko'nikma va malakalarga oid bilimlardan tashkil topadi. Lingvistik bilimlar lisoniy qoidalarni bilish, leksik, grammatik, talaffuz hodisalarini yaxlit tarzda egallash oqibatida nutqiy ob'ekt(o'qish va tinglab tushunish uchun berilgan matnlari)ni idrok etib tushunish va nutqiy hosila(gapirish va yozuv)ni erkin yarata olish kabilarni taqozo etadi. Ijtimoiy-madaniy sohaga oid bilim kommunikativ faoliyatni yurita olish malakalarini egallash orqali milliy, madaniy o'ziga xoslik, jumladan, madaniyatlararo muloqot hodisalarini bilish kabilardan tashkil topadi. Nutqiy ko'nikma va malakalarga oid bilimlarda o'quvchilarning til bilimi, nutqiy ko'nikma va malakani o'zlashtirishi nazarda tutiladi. Nutqiy vaziyatda til vositalarini erkin qo'llash, tasvirlash, hikoya qilish, mulohaza yuritish, o'z fikrini bayon qilish (monolog), o'zgarlar nutqini idrok etib tushunish (dialog), chet tildagi matn mazmunini payqay olish kabilarni bilish talab etiladi. Kommunikativ kompetentsiya bo'yicha o'quvchilar quyidagi amaliy bilimlarga ega bo'lishlari kerak: til materialini nutqiy vaziyatda qo'llash; tayyorlangan va tayyorlanmagan yakkanutq va juftnutqda fikr yurita olish; o'qish turlari (tanishuv, o'rganuv, kuzatuv o'qish)ni egallash, asliyatdagi va adaptatsiya qilingan matnni o'qib axborot olish kabilarni. Tadqiqotimizda endigi bildiriladigan fikrlar o'qitish maqsadlarining o'zaro bog'liqligiga doir.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'yinni ingliz tilida o'ynatishni ta'limiy tomoni kuchli ekan. Shu sababdan ingliz tilida rolli o'yinlar o'ynatish keng qo'llanilmoqda. Inglizcha rolli o'quv o'yinlari o'quvchi

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA TARBIYA FANINI O'QITISHNI METODIK TAKOMILLASHTIRISH

IBRAT ATAKAV RAJABBOYEVICH

Toshkent amaliy fanlar universiteti

mustaqil izlanuvchisi

Annatsiya: ushbu maqola Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tarbiya fani o'qitishni takomillashtirish, ta'lim-tarbiya tizimini yangicha tashkil etish, ta'lim-tarbiya berishda eng ilg'or pedagogik metodlardan foydalanish, ta'limning ko'p variantli bosqichini joriy etish va yangi texnologiyalardan foydalanishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: tarbiya, tarbiya fani, ilg'or pedagogik metod, harakatlar strategiyasi, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimi

Аннотация: в данной статье речь идет о совершенствовании преподавания образования в общеобразовательных школах, реорганизации системы образования, использовании наиболее передовых педагогических методов в образовании, внедрении многовариантного этапа обучения и направленном на использование новых технологий.

Ключевые слова: образование, педагогическая наука, передовой педагогический метод, стратегия действий, система среднего специального и профессионального образования.

Annotation: this article is about improving the teaching of education in general secondary schools, reorganizing the education system, using the most advanced pedagogical methods in education, introducing a multi-variant stage of education and aimed at using new technologies.

Key words: education, science of education, advanced pedagogical method, action strategy, secondary special and vocational education system

Kirish: Hozirgizamonjahonpedagogikasida ta'lim-tarbiya jarayoni, pedagogik fikrlar rivojlanishi hamda xalq ta'lim tizimi muassasalarida qo'llanilib kelinayotgan ta'lim-tarbiya shakli, metodi, vositalari va mazmunini o'rganish katta ahamiyatga ega. Jahonning yuqori darajada rivojlangan davlatlarida ta'lim-tarbiya ishlarining yo'lga qo'yilishi, ta'lim muassasalarida amalga oshirilganligini o'rganish orqali biz mustaqil davlatimiz milliy ta'lim-tarbiya tizimini yangicha tashkil qilishda va ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda o'z dolzarbligini yo'qotib borayotgan faoliyat shakllari va usullaridan tezroq xolos bo'lish, uni munosib tarzda yangilashda qo'shimcha manbalarga ega bo'lamiz.

Ilm-fan va texnika taraqqiyoti, yangi texnologik rivojlanish sharoitida muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsata oladigan jamiyat a'zolarini yetishtirib berish, yosh avlodni kasb-hunarga yo'naltirish hamda ta'limning ko'p variantli bosqichini joriy etish, ta'lim-tarbiya

berishda eng ilg'or pedagogik metodlar va vositalarni qo'llash, ta'limda tashabbuskorlik va ijodkorlikka keng yo'l ochish, uning eng maqbul tizimlarini yaratish kabi xorijiy tajribalarini o'rganish maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunda keng ko'lamdagi islohotlarni o'z boshidan kechirayotgan bizning ta'lim tizimimiz uchun bu katta ahamiyatga ega.

XXI asr boshlarida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va umummadaniy sohalardagi global o'zgarishlar xalq ta'lim tizimida sezilarli o'zgarishlar qilishga zamin

yaratdi. Zamonaviy davlat siyosatining muhim vazifalaridan biri O'zbekiston

Respublikasida ta'lim sifatini, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash samaradorligini oshirish hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi 2020 yil 23 sentyabrdagi qabul qilingan Qonun buning yaqqol ifodasidir. Bugungi kunda ta'lim barcha sohalarni qamrab olib, u O'zbekiston taraqqiyoti va rivojida yetakchi omil bo'lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev shuni alohida ta’kidlaydilar: “Hukumatning, tegishli vazirlik va idoralar hamda butun ta’lim tizimining, hurmatli ustoz-o‘qituvchilarning eng muhim vazifasi - yosh avlodga puxta ta’lim-tarbiya berish, ularni jismoniy va ma’naviy yetuk insonlar etib tarbiyalashdan iboratdir”¹. Biz ham shunga mos holda ta’lim va tarbiya tizimi barcha bo‘g‘inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o‘zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz². Xalq ta’limini modernizatsiya qilish nafaqat ta’lim tizimini rivojlantirishi, balki shaxs sifatini oshirish, yangi mental, madaniy dasturlarni ham qamrab olishi kerak.

Bundan tashqari, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan ta’lim sohasini tubdan isloh qilish to‘g‘risidagi ko‘pgina qaror va farmonlari ushbu yo‘nalishdagi taraqqiyot hisoblanadi. Bulardan Mazkur dissertasiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli, 2018 yil 25 yanvardagi “Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5313-sonli Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining Davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-sonli Qarori va boshqa me‘oriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan

¹ Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимидаги киришиш тантанали маросимидаги бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқи. – Т.: ЎЗБЕКИСТОН, 2016. – 14 бет.

² Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққийоти ва халқ фаровонлигининг гарови/ Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 24 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси. 7-декабр 2016 йил– Т.: ЎЗБЕКИСТОН, 2017. – 44 бет

darajada xizmat qiladi hamda mazkur sohani tubdan isloh qilishni belgilab beradi³. Ushbu Farmonga muvofiq bizning davlatimizda xalq ta’limini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari pedagogik faoliyat jarayonida oquvchilarga tarbiya berishni keng ko‘lamda yangilash uchun shart-sharoitlar belgilab olindi. “O‘zbekiston Respublikasining yanada rivojlanishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” 2017 yil 7 fevral PF–4947 sonli Farmonida; “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi 2021-yil 26-mart, PQ-5040 Qarorida; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2019-yil 31-dekabr, 1059-son Qarorida; shuningdek, ushbu faoliyatga taalluqli boshqa normativ-huquqiy xujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga sezilarli darajada xizmat qiladi.

Yoshlarni ijtimoiy amaliyotga tortishning, ijtimoiy, ilmiy, ijodiy faolligini rivojlantirish jarayonini zaruriy qo‘llab-quvatlashni ta’minlash, dasturiy ta’lim vositalari asosida tarbiya fanning o‘qitishning dolzarb muammolari bugungi kunda davlatimiz va jamiyat oldida ko‘ndalang turibdi. Ushbu muammoni ijtimoiy amaliyotning barcha shakllaridan aynan ta’lim rasmiy jihatdan emas, balki haqiqiy ma’noda hal qilishni ta’minlaydi. Ta’lim sifati siyosatining yakuni, maqsadi, samaradorlik ko‘rsatkichi, Xalq ta’lim tizimining sifati oquvchilarni shaxs sifatida yakdilligini ta’minlovchi omil bo‘lib belgilanadi. Bundan tashqari “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi” da xalq ta’lim muassasalari (keyingi o‘rinlarda XTT) ta’lim jarayonida tarbiya sifatining faqat ortib borishi

³«Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизими-ни 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси туғри-сида» ги Ўзбекистон Республикаси Президенти қаро-ри, ПҚ-5847 - Ташкент, 8 октябр 2019 йил.

⁴ O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 yil., № 6, 70 bet

ta'kidlanadi.

Demak, o'quvchi shaxsining rivojlanish jarayoni pedagoglar tomonidan qo'llab-quvvatlashga, yordam berishga muhtoj chunki ko'pchilik o'quvchilarda o'quvchi tomonidan shaxsiy ta'limning faol ishtirokchisi roli oxirigacha qamrab olinmagan. Bugungi kunda dasturiy talim vositalari asosida o'qitish, innovatsion, ilmiy va ijodiy faoliyatga qiziqishning susayishi, yoshlarni ijtimoiy-madaniy amaliyotga jalb qilinishi past darajasi, og'ir turmush sharoitiga tushib qolgan yoshlarni qo'llab-quvvatlashning yetuk tizimining mavjud emasligi kabi salbiy holatlar kuzatilmoqda. Ushbu yo'nalishlar yoshlar hayotining barcha jabhalarida – fuqarolik, professional, madaniy, oilaviy hayotda ko'zga tashlanmoqda.

Mazkur muammoning samarali hal qilinishi XTT o'quv-tarbiya tizimini modernizatsiyalash, dasturiy ta'lim vositalari asosida tarbiya fanning amaliy faoliyatini metodik takomillashtirish muammolari bilan bevosita bog'liq, bular ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi yangi ta'lim Konsepsiyasi sharoitlarida dolzarbdir. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarori va O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining buyrug'i ishlab chiqildi.

Shuni alohida ta'kidlash zarurki, zamonaviy XTT sharoitida rivojlanish jarayoni yagona ta'lim-tarbiya muhitining hal qiluvchisi sifatida qarash mumkin. Ammo, hozirgi vaqtgacha tarbiya instituti murakkab davrni boshidan kechirdi. Murabbiylarning aksariyat qismi unga qo'shimcha yuklanadigan tarbiya faoliyatini bajarishga moyilligi yo'q yoki sinf rahbari uchun belgilangan tarbiyaviy vazifalarni samarali hal qilish yo'llarini bilmaydilar. Demak, tarbiya fanini o'qitishda oquvchilarga tarbiyaviy faoliyatni yangi, zamonaviy sifatga olib chiqish, pedagogik faoliyat jarayonida tarbiya fanini dasturiy ta'lim vositalari asosida takomillashtirishning ilmiy-amaliy asoslarni ishlab chiqqan holda yetkazish zaruriyati vujudga keladi.

Pedagogika tarixiga nazar tashlar ekanmiz, yosh avlodda tarbiyalash hamma davrlarda ham vatanparvarlik milliy g'urur, tarbiya bilan uyg'un holda ifodalanganligini ko'ramiz. Xalq og'zaki ijodi, yozma adabiyotning eng qadimgi namunalari – “Avesto”, Urxun-Yenisey yodgorliklari, islomning axloqiy aqidalari ilgari surilgan Qur'oni Karim, Hadisi Sharif, buyuk allomalarimiz Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Al-Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Amir Temur, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqalarning ilmiy-pedagogik, didaktik asarlari vatanparvarlik hamda milliy g'urur asosida tarbiyalash muhim manba bo'lib hisoblanadi.

O'tgan asrning boshida yashab ijod etgan jadid ma'rifatparvarlari Behbudiy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy, Fitrat, Elbek va boshqalarning ilmiy-pedagogik va uslubiy asarlarida tarbiya milliy g'urur insonparvarlik tuyg'ulari tarkibida o'z ifodasini topgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev asarlari; Prezidentimiz tashabbusi va rahbarligida ishlab chiqilgan “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi”, “Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi”, ushbu tadqiqot uchun nazariy va metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Mustaqillik yillarida yosh avlodni tarbiyalash falsafiy (E.Yusupov, J.Tulenov, Q.Nazarov, A.Ibrohimov, X.Sultonov, N.Jo'rayev, B.Ziyomuxamedov

va boshqalar), ijtimoiy, pedagogik-psixologik (O.Musurmonova, M.Quronov,

S.Nishonova, U.Mahkamov, E.G'oziev, J.Hasanboev, O.Hasanboeva, M.E.Axmedova, A.Rejaboyev, N.Oripova, H.Aliqulov va boshqalar) tadqiqotlarda vatanparvarlik, milliy tarbiya, ijtimoiy adolat hamda vatanga e'tiqod tuyg'ularini rivojlantirish bilan tarbiyalash uyg'un holda tadqiq etilgan.

Ta'lim jaryonini metodik takomillashtirish muammosi jamiyatning ma'naviy-axloqiy madaniyati bilan chambarchas bog'liq, bu esa taniqli olim-tadqiqotchilarning ko'pgina

mehnatlarida aks ettirilgan (E.A.Anufriev, Yu.K. Babanskiy, U. R.X.Djuraev, V.S. Bibler, P.S. Gurevich, S.F. Yeliseev, E.G. Dmitrieva, M.S. Kagan, G. Kitaygorodskaya, S. Kon, N.V. Kuzmina, O.Musurmonova, Ye.M. Penkov, K.Rodjers, E.A.Seytxalilov, V.A. Slastyonin, V.A. Suxomlinskiy, N.Egamberdiyeva, B.X.Xodjaev, F.R. Yuzlikayev va boshqa.).

XX asrning ikkinchi yarimida ta'lim-tarbiya muammosiga sezilarli e'tibor qaratila boshladi. Sinf o'quvchilari bilan tarbiyaviy ishlarini kasbiy yo'nalishining rivojlanishiga uning ta'sir ko'rsatishi bilan tashkil qilishi va mazmuni tadqiqotchilar tomonidan ko'rib chiqilgan (U.Alyeuov, O.Musurmonova, M.E.Axmedova, T.Utebaev, D.Ruziyeva, Sh.Mardanov, U.Maxkamov, M.Ochilov, L.A.Bikova, L.D.Demina, A.M.Zarukina, I.B.Ignatova, M.Kadirova, N.V.Kiryeva, N.F.Kovalenko, T.M.Kurilenko, N.M.Kutepova, L.A.Litneva, T.P.Maralova, M.V.Nikolaev, O.V.Sokolovskaya, E.I.Shnibekova va boshqalar).

Ammo bugungi kunga kelib tarbiya muammosi tadqiqotchilar tomonidan XTTda amaliy tarbiya jarayonini takomillashtirish kontekstiga to'xtalib o'tadilar. Ammo tarbiya fanining amaliy faoliyatini metodik takomillashtirish yo'llarni chuqur o'rganish bilan ko'pchilik masalalar, O'zbekiston Respublikasi yangi ta'lim Konsepsiyasini hisobga olgan holda eng munosib pedagogik sharoitlar mavjud bo'lganda sust o'rganilgan holda qolmoqda, shu sababli xalq ta'lim tizimida bu so'zsiz dolzarb mavzu muammo bo'lib qolmoqda.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-6 sinflarida tarbiya o'quv jarayonini tashkil qilish hamda tarbiya fanini o'qitishga doir me'yoriy hujjatlar, o'quv-metodik va didaktik ta'minot darajasi, pedagogik shart-sharoitlarini tizimli tahlil

qilish orqali aniqlashtirish; tarbiya fanini o'qitish metodikasini hamda dasturiy ta'lim vositalari tashkiliy-tuzilmaviy komponentlarining didaktik imkoniyatlarini

takomillashtirish; dasturiy ta'lim vositalari integratsiyasi asosida umumiy o'rta ta'lim maktablarida tarbiya fanidan mustaqil o'quv topshiriqlari hamda ta'lim mashg'ulotlarini tashkil etish tuzilmasini takomillashtirish;

tarbiya fanini o'qitish metodikasini dasturiy ta'lim vositalari asosida takomillashtirish modelini, baholash mezonlarini ishlab chiqish va pedagogik tajriba-sinovishlarini o'tkazish hamda olingan natijalarni matematik-statistikishlov berish. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-6 sinflarida tarbiya fanini uzviylik va izchillik tamoyillari asosida o'qitishning (multimediya, elektron darslik, virtual namoyish va laboratoriya) dasturiy ta'minot komponentlari vositasida o'quvchilarning raqamli, umumpredmet kompetensiyalarining rivojlanganlik ko'rsatkichlari evristik yondashuvlar orqali aniqlashtirish; umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-6 sinflarida tarbiya fani dars mashg'ulotlarini o'tkazishda dasturiy ta'lim vositalarining funksional imkoniyatlarini o'quv jarayoni bilan amaliy integratsiyalashga qaratilgan (hodisalarni 3D formatda kuzatish, tajribalar o'tkazish, jarayonlarni modellashtirish) ning dasturiy o'quv-metodik ta'minot mazmunan takomillashtirish; umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-6 sinflarida tarbiya fanidan (ijodiy loyiha ishlarini bajarish, laboratoriya mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish) mustaqil o'quv topshiriqlarni tashkil etishni rivojlantirishga qaratilgan axborot-ta'lim muhiti (e-learning) sharoitida ta'limning amaliy yo'nalganligini ta'minlash orqali o'qitish metodikasi takomillashtirish; "Tarbiya" fani mavzularini o'qitishda o'quvchilarning virtual reallik qonuniyatlariga asoslangan audio va vizual materiallarni kompyuter imitatsiyasi orqali tasavvur qilish ko'nikmalarini (modellashtiruvchi, o'rgatuvchi 3Danimatsiyalar, virtualstendva laboratoriyalar)dan foydalanibrivojlantirishga oid ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish

O'quvchilarning mustaqil o'quv

ishlarni bajarish orqali tarbiya fanini o'zlashtirish samaradorligini oshirishga doir kompetensiyalarini takomillashtirish bo'yicha yaratilgan metodik ishlanmalar va tavsialarni o'quv jarayoniga tatbiq etish.

Olib borilishi rejalashtirilgan ishlari natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, xalq ta'limi tizimida Tarbiya fanini asosida o'quvchilarining bilimlarini oshirish

samaradorligini mustaqil ta'lim vositalari yordamida rivojlantirish yo'llarini asoslash, o'quvchilarning tarbiya fani bo'yicha olgan bilimlari oshganlik darajalari va mezonlarini aniqlangash bilan izohlanadi. Tarbiya fani orqali o'quvchilarining dars mashg'ulotlarida metodik ta'minotini takomillashtirishga, dars sifatining oshishiga xizmat qilish bilan asoslanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Нишонова Н. Шахс маданиятини шакллантиришнинг гуманитар технологиялари. –Т.: Фан, 2008. -128 б.
2. Орипова Н.Х. Бошланғич синф ўқувчиларида ватанга эътиқодни шакллантириш. -Пед.фан.номз. ... ёзилган дисс.авторреф. –Т.: 2008. -22 б.
3. Ортиқов Н. Маънавият: миллий ва умуминсоний қадриятлар. –Т.: Ўзбекистон, 1997. -127 б.
4. Очилов М. Муаллим – қалб меъмори / Сайланма. –Т.: Ўқитувчи, 2001. -432 б.
5. Реджабоев А.Д. Ватан ҳимояси – миллий ифтихор. –Т.: Ўқитувчи, 2004. -31 б.
6. Рўзиева Д.И. Талабаларда миллий ифтихор туйғусини шакллантириш. – Т.: Фан, 2007. -191 б.
7. Хайруллаев М.М. Ўрта Осиёдаги илк Уйғониш даври маданияти. –Т.: Фан, 1994. -80 б.
8. Чориев А. Маънавиятимиз сарчашмалари. “Миллий истиқлол” ва “Маънавият асослари” курслари учун ўқув қўлланма. –Қарши: Насаф, 2004. -92 б.
9. Шарифхўжаев М. Маънавият асослари. –Т.: Тошкент молия институти, 2005. -363 б.

TA'LIM TRAEKTORIYASINI METODIK TAKOMILLASHTIRISHDA UZLUKSIZLIKNI TA'MINLASHNING DARAJA KO'RSATKICHLARI MEXANIZMI

KURANBAYEVA HUSNORA ABDULLAYEVNA
TAFU "Pedagogika" kafedrası o'qituvchisi

ANNOTATSIYA. Ta'lim traektoriyasini metodik shakllantirish imkoniyatini yaratilishi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining lingvopedagogik kompetensiyalarini takomillashtirish, talabalarning fanga qiziqishi, hamda bir o'quv topshirig'ini bajarish asnosida bir nechta nutqiy ko'nikmani rivojlantira olish imkoniyatiga ega bo'lishi, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining topshiriqlarini amalga oshirishga ongli yondashishi, bajarishda didaktik ketma-ketlikka rioya qilishi, topshiriqlarni zamonaviy axborot manbalaridan topish uchun sun'iy intellekt bilan to'g'ri muloqot qila olishi, joriy etilishi maqsadga muvofiq ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: traektoriya, lingvopedagogik kompetensiya, didaktik, sun'iy intellekt, innovatsion mediatexnologiya, elektron resurslar, sinonimik munosabat.

АННОТАЦИЯ. Создать возможность методического формирования образовательной траектории, совершенствования лингвопедагогических компетенций будущих учителей начальных классов, интереса учащихся к науке, умения развивать несколько речевых навыков при выполнении одного учебного задания, исходя из того, что будущим учителям начальных классов желательно осознанно подходить к выполнению своих задач, соблюдать дидактическую последовательность в их выполнении, уметь корректно общаться с искусственным интеллектом для нахождения задач из современной информации источников, а также представить данные.

Ключевые слова: траектория, лингвопедагогическая компетентность, дидактика, искусственный интеллект, инновационные медиатехнологии, электронные ресурсы, синонимические отношения.

ANNOTATION. Creating an opportunity of methodically shape an educational trajectory, improve the linguistic and pedagogical competencies of future primary school teachers, have the opportunity to develop several speech skills during the implementation of one educational task, increase students' interest in science, based on the fact that it is advisable for future primary school teachers to consciously approach the implementation of their tasks, maintain a didactic sequence in their implementation, being able to communicate correctly with artificial intelligence in order to find tasks from modern information sources as well as data.

Keywords: trajectory, linguistic and pedagogical competence, didactics, artificial intelligence, innovative media technologies, electronic resources, synonymic relations.

Bugungi kunda OTM boshlang'ich ta'lim jarayoniga qaratilayotgan e'tibor bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining lingvopedagogik kompetensiyalarni takomillashtirishga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatayotgani, oliy ta'lim tizimi bo'g'inida boshlang'ich ta'limning bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining hayotida tutgan o'rnini, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining modul tizimida qanday bilimga ega bo'lishda pedagogik tuzilmani o'rganmasdan, rivojlantiriladigan bilim, ko'nikma-malaka, ijodiy faoliyat tajribasi, munosabatlarini tahlil qilish mushkul vazifadir.

Biz tadqiqotlarga tayanib, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining lingvopedagogik kompetensiyalarni takomillashtirishning pedagogik, lingvodidaktik-psixologik va pragmatik xususiyatlarini didaktik tizimni modellashtirish asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining va o'quvchi o'rtasidagi ta'lim jarayonini metodik yondashuv asosida takomillashtirish tuzilmasini quyidagicha ko'rinishda ifoda etdik.

Shuning uchun ham oliy ta'lim mazmuni va metodikasi har bir bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining lingvopedagogik

kompetensiyalarni takomillashtirishda to'la lingvodidaktik rivojlanishini, ona tili ta'limini qiynalmay davom ettirishga imkoni beradigan ta'limda bilimga oid ko'nikmalarini rivojlantirishni ta'minlashga qaratilmog'i lozim. Bugungi kunda oliy ta'limning to'rt yil muddatda davom etishi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining lingvopedagogik kompetensiyalarni takomillashtirishga nisbatan ularning sonini ortib borayotganligini ko'rsatadi. Bu masalani ongli va savodli anglamasdan turib, pedagogik-metodik faoliyatga oid yangicha qarashlarni o'zlashtirib bo'lmaydi. Bu qarashlar markazida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining lingvopedagogik kompetensiyalarni takomillashtirishda psixolingvistik rivojlanishiga ko'maklashish vazifasi va shu vazifa doirasiga nutqiy kompetensiyasini jalb etish muammosi turadi.

OTM talabalari uchun 2012-yilda nashr etilgan A.G'ulomov, M.Qodirov, M.Ernazarova, A.Bobomurodova, N.Allavutdinova, V.Karimjonovalar tomonidan yozilgan "Ona tili o'qitish metodikasi" darsligini tahlilga tortganimizda, darsliklar tarkibidagi topshiriqlari, asosan, grammatik tahlil, grammatik qonuniyatlarni o'rgatishga, mustahkamlashga, morfologik tahlil yuzasidan sof nazariy ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. lingvopedagogik kompetensiyalar boshlang'ich ta'limning nutqiy malakalarni rivojlantirishda quyida shunday topshiriq va mashqlardan namunalar keltirilgan.

Berilgan so'zlar: kitob, baxt, taxt, ozodlik, tinchlik, tuyg'u, sumalak, shodlik, chashma, bug'doy, tegirmon, muhabbat, rasm, hurriyat, mardlik, qadriyat, sadoqat. Qaysi guruh otlarini tez va to'g'ri topsa, o'yinning g'olibi hisoblanadi¹ deb, talabalarni rag'batlantirishga harakat qilingan.

M.Mirqosimova, Sh.Alimova, O.Zoitova,

¹ G'ulomov A., Qodirov M., Ernazarova M., Bobomurodova A., Allavutdinova N., Karimjonova V. Ona tili o'qitish metodikasi (Universitet va pedagogika institutlarining filologiya fakulteti talabalari uchun) Darslik. T.: T.Fan va texnologiya 2012. – 380 b.

N.Umarova tomonidan 2004 yilda rus guruhlariga uchun "O'zbek tili" o'quv qo'llanmasini tahlilga tortganimizda topshiriq bilan savollar bir xil vazifani bajarishi ma'lum bo'ldi. Oliy ta'limda, odatda, muayyan o'quv predmetiga tegishli darsliklar, dars mashg'uloti jarayonida ham, hatto dars mashg'ulotidan so'ng ham talaba va o'qituvchining shu o'quv predmeti bo'yicha bilim berish hamda ma'lumot olishning asosiy vositasi, tayanchidir. Shunday ekan, asosiy diqqatni darslikdagi o'quv materiallarining, xususan, o'quv topshiriqlarning tarkibi, savollarning tuzilishi va albatta, mazmuniga qaratilishi kerak.

Oliy ta'lim jarayonida ham muayyan bir maqsadga qaratilgan usullar va vositalar izchil belgilab olinadi. Ana shu ta'limning aniq maqsadiga eltuvchi vositalardan biri bu OTM darsliklardir. Darslik tushunchasi ham ta'limning eng muhim komponentlaridan biri hisoblanadi. Bu tushunchada bir qancha ilmiy manbalarda muayyan istilohiy ma'nolar berilgan.

Xususan, olim. "Pedagogika ensiklopediyasi"² darslik va uning paydo bo'lishi, darsliklar tarixi haqida batafsil ma'lumot berilar ekan, uni shunday ta'riflaydi: "Darslik – davlat tomonidan tasdiqlangan DTS asosida muayyan fanga doir bilim asoslarini ma'lum tartibda bayon etadigan va yuqori ma'naviy-g'oyaviy, ilmiy-uslubiy saviyada yozilgan o'quvchi va talabalar uchun mo'ljallangan o'quv adabiyotining asosiy va yetakchi turi". Bizningcha, bu istilohiy izohlar darslik va uning ta'limdagi mustaqil ahamiyati va rolini ochib berish uchun kamdek.

Shu bois bu tushunchaga pedagog olimlar J.Hasanboyev, X.To'raqulov, M.Haydarov, O.Hasanboyevlar tomonidan tuzilgan "Pedagogika fanidan tuzilgan izohli lug'at" kitobiga murojat qilamiz.

Darslik har bir o'quv predmetining mazmunini darslikda ko'rsatilgan hajmda

² Pedagogika ensiklopediyasi. I jild. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. 2015. 253

didaktik talablar asosida kitob yoziladi.

Darslik bu pedagogik tizimning axborotli modelidir. Chunki har bir o'quv darsligida talabalar bajarishi kerak bo'lgan o'quv jarayoning ma'lum bosqichlari ko'rsatilgan bo'lib, talabalar undan mavzularni o'qib, mustaqil topshiriqlarni ma'lum harakatlar ko'inishida bajarishadi, tekshiradi, yechadi, javob beraadi. Bu harakatlar darslik matnlarida ochiq yoki yashirin shakllarda berilishi mumkin³.

Darhaqiqat, bu ta'rif darslikning mustaqil ta'lim jarayonidagi mohiyatini nisbatan to'laroq ochib bergan.

Shuningdek, darslik turli xil qo'shimcha vositalar – antologiyalar, mashq va mustaqil topshiriqlar to'plamlari, lug'atlar, ma'lumotnomalar, darslikdan tashqari o'qish uchun kitoblar, atlaslar, tarixiy-geografik xaritalar va boshqalar bilan bog'liq bo'lishi to'ldirilishi kerak bo'lgan manba. Zamonaviy darsliklarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular o'quv materialini yanada kengaytirilgan rejada beradi, mustaqil ta'lim topshiriqlari asosida eng yangi ma'lumotlar, ma'lumotnoma xarakteridagi tavsiflar bilan kengaytiriladi.

Darslik bilan ishlashda lingvopedagogik kompetensiyalar asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari qo'shimcha adabiyotlar yordamida tahlil qilish, kreativ yondashish, tanqidiy yondashish, to'ldirish, ularni taqdim etish uslubi va o'rganilayotgan matnni o'zgartirishni o'rganadilar.

Boshlang'ich ta'limda topshiriqlar asosida ona tilini o'qitish metodikasiga innovatsion yondashuvlarni joriy etishga doir ishlarni faollashtirish; ona til o'qitish uchun ilmiy, metodik, psixologik va pedagogik yordam tizimini rivojlantirish ishlarni takomillashtirish; ona tili o'qitish metodikasi ta'limda o'zbek etnolingivistikaning so'nggi yutuqlaridan foydalanish muhim ahamiyatga egaligi,

³ J.Hasanboev, X.To'raqulov, M.Haydarov,O. Hasanboevalar tomonidan tuzilgan "Pedagogika fanidan tuzilgan izohli lug'at" – T.:Fan va texnologiya. 2008.73-b (480)

maqsadiga muvofiq mustaqil izlanishga undashi lozim. Bunday sharoitda darslikning eng muhim qismini nazariy ma'lumotlar bazasi emas, balki bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisiga ona tilining son-sanoqsiz imkoniyatlaridan unumli va o'rinli foydalanishni o'rgatadigan ta'lim topshiriqlarini tashkil etmog'i lozim. Chunki oliy ta'lim tizimi maqsadi faqat boshlang'ich ta'lim o'qituvchisini tayyorlash emas, til imkoniyatlaridan keng foydalana oladigan lingvopedagogik kompetensiyalar ijodiy tafakkur sohibini jamiyatga yetkazib berishdir. Boshlang'ich ta'limda topshiriqlar asosida ona tili ta'lim mazmunini takomillashtirish didaktik-pedagogik yondashuvlar asosida amaliyotga tatbiq etiladi.

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish, lug'at va matn asosida milliy tilni, milliy ma'naviyatni o'quvchi tafakkuriga singdirish, o'z o'quvchisini turli nutq vaziyatlariga tayyorlash, ijodiy tafakkur sohiblarini tarbiyalash texnologiyasini ona tili metodikasi ta'limiga samarali joriy qilish asosiy masalalardan biridir. Boshlang'ich ta'limda topshiriqlar tuzishda lingvodidaktik-pedagogik asoslarining model xaritasida boshlang'ich oliy ta'limda, odatda, muayyan o'quv predmetiga tegishli darsliklar, dars mashg'uloti jarayonida ham, hatto dars mashg'ulotidan so'ng ham bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari shu o'quv predmeti bo'yicha bilim berish hamda ma'lumot olishning asosiy vositasi, tayanchidir. Shunday ekan, asosiy diqqatni darsliklardagi o'quv materiallarining, xususan, mustaqil ta'lim topshiriqlarining tarkibi, tuzilishi va albatta, mazmuniga qaratish kerak.

Zamonaviy elektron darsliklar innovatsion mediatexnologiya kabi ko'plab axborot manbalarini o'ziga birlashtirishi, ularni tortishi, boshqarishi lozim. Mazkur jarayonda boshlang'ich ta'lim topshiriqlari innovatsion mediatexnologik o'quv lug'atlari, audio, video materiallar, mashq va topshiriqlar to'plami, testlar, ko'rgazmali vositalar, elektron resurslar orilgan vagonlarga bog'lay

olishi, ulardan foydalanishda asosiy vosita bo'lib xizmat qilishi kerak. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, boshlang'ich ta'lim topshiriqlari ya'ni mashqlarni bajarilishi, ona tili mazmunini rivojlantirishda, o'qitishda, xususan, topshiriqlarni tuzishda metodik yondashuvlardan foydalanish samaralidir. Dars mashg'ulotdagi ta'lim jarayonini hayotiy muammolarni qanday hal qilishni o'rgatishi kerak. Ona tili o'qitish metodikasi fanining boshlang'ich ta'limda topshiriqlar tuzish, lingvodidaktik-pedagogik asoslarining model xaritasida oliy ta'limda, odatda, muayyan o'quv predmetiga tegishli darsliklar, dars mashg'uloti jarayonida ham, hatto dars mashg'ulotidan so'ng ham bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining shu o'quv predmeti bo'yicha bilim berish hamda ma'lumot olishning asosiy vositasi, tayanchidir. Shunday ekan, asosiy diqqatni darsliklardagi o'quv materiallarining, xususan, boshlang'ich ta'lim topshiriqlarining tarkibi, tuzilishi va albatta, mazmuniga qaratish kerak. Zamonaviy elektron darsliklar innovatsion mediateknologiya kabi ko'plab axborot manbalarini o'ziga birlashtirishi, ularni tortishi, boshqarishi lozim. Mazkur jarayonda ta'lim topshiriqlari innovatsion mediateknologik o'quv lug'atlari, audio, video materiallar, mashq va topshiriqlar to'plami, testlar, ko'rgazmali vositalar, elektron resurslar ortilgan vagonlarga bog'lay olishi, ulardan foydalanishda asosiy vosita bo'lib xizmat qilishi kerak.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, boshlang'ich ta'lim topshiriqlari ya'ni mashqlarni bajarilishi, ona tili mazmunini rivojlantirishda, o'qitishda, xususan, topshiriqlarni tuzishda metodik yondashuvlardan foydalanish samaralidir. Dars mashg'ulotdagi ta'lim jarayonini hayotiy muammolarni qanday hal qilishni o'rgatishi kerak. Ona tili ta'limida har bir mashg'ulot asosida beriladigan savol, topshiriq va mashqlar ham xuddi shunday talaba, bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining hayotiy muammolarini yechishga yo'naltirishi lozim.

Masalan, professor-olimlar 2012-yilda nashr etilgan A.G'ulomov, M.Qodirov, M.Ernazarova, A.Bobomurodova, N.Allavutdinova, V.Karimjonovlar tomonidan yozilgan "Ona tili o'qitish metodikasi" darsligini mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar xuddi shu tarzda berilgan. Har bir savol talabani mushohada qilishga undaydi.

Ma'lumki, "O'zbek tilining izohli lug'ati" dagi so'zlarning 50-55 % foizini ot so'z turkumiga mansub so'zlar tashkil etadi. Mazkur so'z turkumini o'rganishdan ko'zlanadigan asosiy maqsad, avvalo, shu turkumga kiruvchi, ammo nutqda kam qo'llanilayotgan yoki deyarli qo'llanilmayotgan so'zlarni, nutqiy faoliyatiga olib kirish, o'quvchi va talabalarning talaffuziy va imloviy ko'nikma hamda malakalarini mustaqil kengaytirishdan iboratdir⁴.

Xulosa sifatida, tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatadiki, OTM bilan umumiy o'rta ta'lim darsliklarida berilgan topshiriqlar bir-biriga juda yaqin, boshlang'ich ta'lim topshiriqlari hamda umumiy topshiriq tuzish metodikasini o'zida to'laqonli aks ettirmaydi, ularning metodikasi mualliflarning shaxsiy salohiyatiga bog'liq bo'lib qolgan, ammo davr talabi bilan mukammal tadrijiy metodika kasb etib bormoqda. Bu esa darsliklarda beriladigan boshlang'ich ta'lim metodikasi va lingvodidaktik asoslari yuzasidan ilmiy-amaliy tadqiqotlar qilishni taqozo etadi.

Tadqiqot ishlari shundan dalolat beradiki, OTM boshlang'ich ta'lim yo'nalishida "Husnixat o'qitish metodikasi", "Ona tili o'qitish metodikasi", "Ona tili" fanlarini o'qitish bo'yicha davlat malaka talablaridan kelib chiqqan holda mazmunan mukammal yaratilgan modul o'quv dasturlarining bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan o'quvchilarning topshiriqlarni pedagogik,

⁴ A.G'ulomov, M.Qodirov, M.Ernazarova, A.Bobomurodova, N.Allavutdinova, V.Karimjonova Ona tili o'qitish metodikasi (Universitet va pedagogika institutlarining filologiya fakulteti talabalari uchun) Darslik. T.: TPIII, 1991. T.Fan va texnologiya 2012. – 380 b.(186-6)

lingvodidaktik-psixologik va pragmatik xususiyatlarini rivojlantirish mexanizmi muhim ekanligini tahlil qildik. Yuqoridagi fikrlarga tayanib aytishimiz mumkinki, pedagog faoliyati keng qamrovlidir. U o'qitishning ikkita muhim ijtimoiy funksiyasi ta'lim- tarbiya berish va shaxsni rivojlantirish bilan bog'liq vazifalarni bajarishga mas'ul. Hozir o'quv-metodik majmualarni yangilash munosabati bilan respublikamizda oliy ta'lim tizimida o'qitilayotgan 200 ga yaqin OTMda boshlang'ich ta'lim yo'nalishi bo'yicha ona tili

o'qitish metodikasining lingvistik talqinlarni o'zbekona (substansial) talqin usullariga ko'chirib, birinchidan, o'rta ta'lim boshlang'ich sinflarida ona tili qurilishi bo'yicha olinadigan talqinlar bilan OTMda beriladigan talqinlarni uyg'unlashtirishga, ikkinchidan, jahon pedagogikasi silsilagida o'zbek lingvistik maktabi o'rnini barqarorlashtirishga real imkoniyatlar mavjud. Bu oliy ta'limda nutqiy kompetensiyani rivojlantirishga asosiy e'tibor qaratish lozimligini ko'rsatadi.



Foydalanilgan adabiyotlar:



- 1.G'ulomov A.,Qodirov M., Ernazarova M., Bobomurodova A., Allavutdinova N.,Karimjonova V. Ona tili o'qitish metodikasi (Universitet va pedagogika institutlarining filologiya fakulteti talabalari uchun) Darslik. T.:T.Fan va texnologiya 2012. – 380 b.
- 2.Pedagogika ensiklopediyasi. I jild. – T.: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. 2015. 253 b. (318)
- 3.J.Hasanboev, X.To'raqulov, M.Haydarov,O.Hasanboevalar tomonidan tuzilgan “Pedagogika fanidan tuzilgan izohli lug'at” – T.:Fan va texnologiya. 2008.73-b (480)
- 4.Vigotskiy L.S. Pedagogicheskaya psixologiya / Pod red. V.V. Davidova, – M.: Pedagogika, 1991. – 80 s.
- 5.A.G'ulomov, M.Qodirov, M.Ernazarova, A.Bobomurodova, N.Allavutdinova, V.Karimjonova Ona tili o'qitish metodikasi (Universitet va pedagogika institutlarining filologiya fakulteti talabalari uchun) Darslik. T.: TGPI, 1991. T.Fan va texnologiya 2012. – 380 b.(186-b)

AUDITORIYADAN TASHQARI MASHG‘ULOTLAR JARAYONIDA TALABALARNING RAQAMLI KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

XANBABAYEV XAKIMJAN IKRAMOVICH

Qo`qon davlat pedagogika instituti professori

Talabalarda raqamli kompetensiyani rivojlantirishga auditoriyadan tashqari darslar orqali ham erishish mumkin. Bunga onlayn kurslar, vebinarlar, seminarlar va boshqa raqamli o'rganish imkoniyatlari kiradi. Auditoriyadan tashqari darslar orqali talabalarda raqamli kompetensiyani rivojlantirishning didaktik tuzilishi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. O'quv maqsadlarini aniqlash: O'qituvchilar raqamli kurs yoki seminar uchun o'quv maqsadlarini aniqlashlari kerak. Bu kurs davomida talabalar ega bo'ladigan ko'nikma va bilimlarni aniqlashni o'z ichiga oladi.

2. Tegishli raqamli vositalarni tanlash: O'qituvchilar kurs mazmunini etkazish uchun tegishli raqamli vositalar va resurslarni tanlashlari kerak. Bunga onlayn platformalar, ta'lim dasturlari va ta'lim maqsadlariga mos keladigan boshqa raqamli resurslarni tanlash kiradi.

3. Kurs mazmunini yetkazib berish: O'qituvchilar kurs mazmunini onlayn ma'ruzalar, video darsliklar va boshqa raqamli resurslar orqali yetkazishlari mumkin. Bu talabalarga o'z tezligida va o'z vaqtida o'rganishga yordam beradi.

4. Amaliyot va fikr-mulohaza: Talabalar raqamli vositalardan foydalanishni mashq qilish va o'qituvchilar va tengdoshlaridan fikr-mulohazalarni olish imkoniyatiga muhtoj. Bu topshiriqlar, guruh loyihalari yoki onlayn muhokamalar orqali amalga oshirilishi mumkin.

5. Baholash: O'qituvchilar o'quvchilarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirishdagi yutuqlarini baholashlar, viktorinalar yoki boshqa baholash vositalari orqali baholashlari mumkin. Bu talabalar qo'shimcha yordam va takomillashtirishga muhtoj bo'lgan sohalarni

aniqlashga yordam beradi.

6. Mulohaza: Talabalar o'zlarining ta'lim tajribalari haqida fikr yuritishlari va raqamli vositalardan foydalanishda kuchli va zaif tomonlarini aniqlashlari kerak. Bu o'z-o'zini aks ettirish yoki tengdoshlarni baholash orqali amalga oshirilishi mumkin.

Umuman olganda, auditoriyadan tashqari darslar orqali talabalarda raqamli kompetensiyani rivojlantirishning didaktik tuzilishi o'quv maqsadlarini aniqlash, tegishli raqamli vositalarni tanlash, kurs mazmunini taqdim etish, amaliyot va fikr-mulohazalar uchun imkoniyatlarni taqdim etish, taraqqiyotni baholash va fikrlashni rag'batlantirishni o'z ichiga oladi.

Metodologiya:

Ushbu raqamli savodxonlik talabalarning raqamli asrda o'qitish salohiyatini kashf qilishlari uchun raqamli resurslardan foydalangan holda o'qitish-ta'lim tajribasini oshirish niyatida o'rganish tamoyiliga asoslanadi.

Ushbu elektron ta'lim vositalari orqali talabalarda raqamli kompetensiyani rivojlantirishning tashkiliy-didaktik tarkibiy tuzilmasining metodologiyasi raqamli kompetensiya va raqamli resurslarni tanlash va yaratish, samarali taqdimotlar, o'quv faoliyati, hamkorlik, sinfni boshqarish, baholash va boshqalar orqali o'qitish va o'rganishni qo'llab-quvvatlashning innovatsion usullarini ishlab chiqish uchun raqamli kompetensiya va raqamli yo'naltirilgan didaktikaga qaratilgan.

Ta'lim formatlarining samarali kombinatsiyasi (masalan, seminarlar, loyihaga asoslangan ta'lim, "Contexts4Content" loyihalari) orqali fanlarda raqamli savodxonlikni oshirish raqamli texnologiyalarni pedagogik nuqtai nazardan, qabul qiluvchi mamlakatning

madaniyati va realligini hisobga oladi.

O'qituvchilar o'z talabalari uchun muvaffaqiyatli o'rganish tajribasini yaratishga imkon beradigan samarali va amaliy usulda turli xil vositalarning ko'p qirrali va moslashuvchanligini qadrlash orqali raqamli texnologiyani o'qitishga qanday integratsiya qilishni o'rganadilar.

O'qituvchilar, mamlakat tarixi va madaniyati bilan tanishadilar va o'z predmeti nuqtai nazaridan o'rganib, o'qituvchilar jarayon davomida ba'zi texnik jihatlarni o'zlashtirib, raqamli didaktikaning turli jihatlarini bog'lash orqali o'z bilimlarini qayta ishlash va amaliy tarzda ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

An'anaviy sinf sozlamalaridan tashqari, talabalar turli onlayn kurslar, vebinarlar, seminarlar va boshqa raqamli o'rganish imkoniyatlari orqali raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishlari mumkin. Ushbu kompetensiyalarni samarali rivojlantirish uchun o'qituvchilar quyidagi bosqichlarni o'z ichiga olgan tizimli yondashuvga rioya qilishlari kerak:

1. O'quv maqsadlarini aniqlang: O'qituvchilar kurs davomida talabalar ega bo'ladigan ko'nikma va bilimlarni aniqlashlari kerak.

2. Tegishli raqamli vositalarni tanlang: O'qituvchilar o'quv maqsadlariga mos keladigan onlayn platformalar, ta'lim dasturlari va boshqa raqamli resurslarni tanlashlari kerak.

3. Kurs mazmunini yetkazib berish: Kurs mazmunini onlayn ma'ruzalar, video darsliklar va boshqa raqamli resurslar orqali yetkazish mumkin.

4. Amaliyot va fikr-mulohazalarni taqdim eting: Talabalarga raqamli vositalardan foydalanish va o'qituvchilar va tengdoshlaridan fikr-mulohazalarni olish imkoniyati kerak.

5. Taraqqiyotni baholang: O'qituvchilar o'quvchilarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirishdagi yutuqlarini baholashlar, viktorinalar yoki boshqa baholash vositalari orqali baholashlari mumkin.

6. Mulohaza yuritishni rag'batlantiring:

Talabalar o'zlarining ta'lim tajribalari haqida fikr yuritishlari va raqamli vositalardan foydalanishda kuchli va zaif tomonlarini aniqlashlari kerak.

Umuman olganda, ushbu didaktik tuzilma o'qituvchilarga auditoriyadan tashqari darslar orqali talabalarning raqamli kompetensiyalarini samarali rivojlantirishga yordam beradi.

Bu, shuningdek, moslashuvchanlik va shaxsiylashtirilgan o'rganish imkonini beradi, chunki talabalar o'z tezligida ishlashlari va o'rganish uslublari va ehtiyojlariga eng mos keladigan raqamli resurslarni tanlashlari mumkin. Ushbu tizimli yondashuvga rioya qilish orqali o'qituvchilar talabalarni bugungi raqamli dunyoda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur raqamli ko'nikmalar bilan ta'minlashlari mumkin.

Mustaqil ish talabalar uchun raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishning ajoyib usuli hisoblanadi. Talabalar mustaqil ishlaganda, ular o'zlari uchun eng mos keladigan raqamli vositalar va resurslarni tanlash erkinligiga ega. Bu ularga turli texnologiyalarni o'rganish va shaxsiylashtirilgan va ehtiyojlariga moslashtirilgan tarzda raqamli ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi.

Mustaqil ishlashni rag'batlantirishning usullaridan biri o'quvchilarga topshiriqlarini bajarishda foydalanishi mumkin bo'lgan raqamli resurslar va vositalar ro'yxatini taqdim etishdir. Bunga onlayn tadqiqot ma'lumotlar bazalari, ta'lim dasturlari va raqamli darsliklar kiradi. Talabalarga ushbu manbalardan foydalanish imkoniyatini berish orqali ular turli xil vositalarni o'rganishlari va sinab ko'rishlari va ulardan samarali foydalanishni o'rganishlari mumkin.

Mustaqil ishlarni rivojlantirishning yana bir usuli - talabalardan raqamli vositalar va resurslardan foydalanishni talab qiladigan loyihalarni tayinlashdir. Masalan, siz talabalardan PowerPoint yoki Prezi yordamida multimedia taqdimotini yaratishni yoki Google Sites yordamida raqamli portfel yaratishni so'rashingiz mumkin. Talabalarga ushbu turdagi

topshiriqlarni berish orqali siz ularni raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishga undaysiz, shu bilan birga ularga o'z bilimlarini ijodiy yo'llar bilan namoyish qilish imkoniyatini berasiz.

Umuman olganda, mustaqil ish orqali raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish talabalarini bugungi raqamli dunyoda muvaffaqiyatga tayyorlashning ajoyib usuli hisoblanadi. Ularni mustaqil ravishda o'rganishlari uchun zarur vositalar va resurslar bilan ta'minlash orqali siz ularga o'z ta'limini egallash va XXI asrda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni rivojlantirish imkoniyatini berasiz.

Talabalar foydalanishi mumkin bo'lgan raqamli resurslar va vositalar turlariga quyidagilar kiradi:

1. Onlayn tadqiqot ma'lumotlar bazalari: Bu jurnallar, maqolalar va kitoblar kabi keng ko'lamli akademik materiallarga kirishni ta'minlaydigan raqamli kutubxonalar.

2. Ta'lim dasturlari: Bular o'quvchilarga ta'lim mazmuni va faoliyatini ta'minlash uchun mo'ljallangan dasturiy ilovalar.

3. Raqamli darsliklar: Bu an'anaviy darsliklarning elektron versiyalari bo'lib, ularga kompyuter yoki mobil qurilma orqali kirish mumkin.

4. Multimedia vositalari: Bular talabalarga video, tasvir va audio fayllarni yaratish va tahrirlash imkonini beruvchi raqamli vositalardir.

Talabalarda raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish uchun ba'zi potentsial darsdan tashqari tadbirlarga quyidagilar kiradi:

1. Kodlash kurslari: Bu kurslar talabalarga kodlash va dasturiy ilovalarni ishlab chiqishni o'rgatishi mumkin.

2. Robototexnika kurslari: Bu to'garaklar o'quvchilarga raqamli vositalar yordamida robotlarni yasash va dasturlashni o'rgatishi mumkin.

3. Raqamli media kursari: Bu kurslar talabalarga videolar, tasvirlar va audio fayllar kabi raqamli axborot vositalarini yaratish va

tahrirlashni o'rgatishi mumkin.

4. Ijtimoiy media kurslari: Bu kurslar o'quvchilarga ijtimoiy media platformalaridan muloqot va marketing maqsadlarida foydalanishni o'rgatishi mumkin.

Ushbu turdagi darsdan tashqari mashg'ulotlarni taklif qilish orqali maktablar o'quvchilarga an'anaviy sinfdan tashqarida raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatini berishi mumkin. Bu talabalarga raqamli vositalar va resurslar bilan amaliy tajriba orttirishga yordam beradi, bu ularning kelajakdagi ilmiy va kasbiy izlanishlari uchun qimmatlidir.

Talabalarda raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish uchun qo'llash usullari quyidagilardan iborat:

1. Raqamli resurslar va vositalardan foydalanishni ta'minlash.

2. Raqamli vositalar va resurslardan foydalanishni talab qiluvchi loyihalarni tayinlash.

3. Talabalarni turli texnologiyalarni tadqiq qilish va tajriba qilishga undash.

Talabalarda raqamli kompetensiyani yaxshilash talabalarini faol jalb qiladigan va ularning raqamli ko'nikmalarini samarali rivojlantirish va qo'llash imkonini beradigan turli usullar va strategiyalarni qo'llashni o'z ichiga oladi. Talabalarda raqamli kompetensiyani rivojlantirish uchun ba'zi samarali qo'llash usullari:

1. Amaliy loyihalar va tadbirlar: Talabalarga raqamli vositalar va ko'nikmalarni qo'llashni talab qiladigan amaliy loyihalar va tadbirlar bilan shug'ullanish imkoniyatini bering. Bu multimedia taqdimotlarini yaratish, veb-saytlarni loyihalash, loyihalarni kodlash, raqamli hikoyalar yoki onlayn tadqiqotlar o'tkazishni o'z ichiga olishi mumkin. Haqiqiy loyihalar ustida ishlash orqali talabalar o'zlarining raqamli vakolatlarini amaliy va mazmunli usullarda qo'llashlari mumkin.

2. Hamkorlikdagi guruh ishi: Talabalardan raqamli vositalar va platformalar yordamida birgalikda ishlashni talab qiladigan

hamkorlikdagi guruh ishini rag'batlantirish. Talabalardan onlayn hamkorlik qilish va samarali muloqot qilishni talab qiladigan guruh loyihalari yoki muammolarni hal qilish vazifalarini belgilang. Bu nafaqat ularning raqamli ko'nikmalarini rivojlantiradi, balki jamoaviy ish va hamkorlik qobiliyatlarini ham oshiradi.

3. Raqamli portfellar va aks ettirish: Talabalarga raqamli ko'nikmalar va yutuqlarni namoyish qilish uchun raqamli portfellar yarating. Raqamli portfellar talabalarga turli xil raqamli vositalar va platformalar yordamida o'z ishlarini tanlash va taqdim etish imkonini beradi. Bundan tashqari, talabalarni o'zlarining raqamli ko'nikmalari, takomillashtirish sohalari va vaqt o'tishi bilan o'sishi haqida o'ylashlari mumkin bo'lgan reflektiv amaliyot bilan shug'ullanishga rag'batlantiring.

4. Gamifikatsiya va raqamli simulyatsiyalar: o'rganish tajribalariga o'yin elementlari va raqamli simulyatsiyalarni qo'shing. Gamifikatsiya qilingan faoliyat va raqamli simulyatsiyalar talabalar o'zlarining raqamli ko'nikmalarini qo'llashlari mumkin bo'lgan qiziqarli va immersiv muhit yaratadi. O'quv o'yinlari va simulyatsiyalar real stsenariylarni taqlid qilishi mumkin, bu esa o'quvchilarga xavfsiz va interaktiv sharoitda muammoni hal qilish, qaror qabul qilish va raqamli savodxonlik ko'nikmalarini mashq qilish imkonini beradi.

5. Onlayn muhokamalar va ijtimoiy media ishtiroki: Talabalar o'rtasida o'zaro aloqa va hamkorlikni osonlashtirish uchun onlayn munozara platformalari va ijtimoiy mediadan foydalaning. Talabalarni onlayn munozaralarda qatnashishga, resurslarni baham ko'rishga va virtual o'quv hamjamiyatidagi tengdoshlari bilan muloqot qilishga undash. Bu talabalarga raqamli aloqa ko'nikmalarini, ma'lumot almashish va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini oshirish imkoniyatlarini beradi.

6. Haqiqiy baholashlar: talabalardan haqiqiy kontekstlarda raqamli kompetensiyalarini namoyish etishlarini talab qiluvchi dizayn

baholashlari. Bunga raqamli taqdimotlar, multimedia loyihalari, onlayn viktorinalar yoki raqamli hikoyalarni baholashni yaratish kiradi. Haqiqiy baholashlar real stsenariylarni aks ettiradi va talabalarga raqamli ko'nikmalarini mazmunli tarzda namoyish qilish imkonini beradi.

7. Fikr va mulohaza: Talabalarga raqamli loyihalari va faoliyati haqida o'z vaqtida va konstruktiv fikr bildirish. Talabalarni fikr-mulohazalar ustida mulohaza yuritishga, yaxshilanishi kerak bo'lgan yo'nalishlarni aniqlashga va shunga ko'ra o'z ishlarini qayta ko'rib chiqishga undash. Ushbu fikr-mulohaza va mulohaza jarayoni talabalarga raqamli kompetensiyalarini oshirishga va raqamli ko'nikmalarga nisbatan o'sish fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi.

8. Kasbiy rivojlanish imkoniyatlari: Talabalarga raqamli kompetensiya bilan bog'liq kasbiy rivojlanish faoliyati bilan shug'ullanish imkoniyatlarini taklif eting. Bu maxsus raqamli ko'nikmalar yoki sertifikatlarni rivojlantirishga qaratilgan seminarlar, vebinarlar yoki onlayn kurslarni o'z ichiga olishi mumkin. Uzluksiz o'rganish yo'llarini taqdim etish orqali talabalar raqamli kompetensiyalarini yanada yaxshilashlari va texnologiyadagi so'nggi yutuqlardan xabardor bo'lishlari mumkin.

Ushbu qo'llash usullarini o'qitish va o'rganish amaliyotiga kiritish orqali o'qituvchilar o'quvchilarning raqamli kompetensiyasini samarali rivojlantirishi va oshirishi, ularni raqamli asrda muvaffaqiyatga tayyorlashi mumkin. Talabalarning raqamli texnologiyalardan foydalanish bo'yicha ishonchi va malakasini ta'minlash uchun keng ko'lamlı yordam, yo'l-yo'riq va resurslar bilan ta'minlash juda muhimdir.

Talabalarda raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish maqsadlariga quyidagilar kiradi:

1. Talabalarni bugungi raqamli dunyoda muvaffaqiyatga tayyorlash.

2. O'quvchilarning o'z bilimlariga egalik qilishlarini kuchaytirish.

3. XXI-asr ish joyida muvaffaqiyatga

erishish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni rivojlantirish.

Raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishdan foyda ko'rishi mumkin bo'lgan sub'ektlarga quyidagilar kiradi:

1. Ta'limning barcha bosqichlaridagi talabalar.

2. O'qitishni qo'llab-quvvatlash uchun raqamli vositalar va resurslardan foydalanishi kerak bo'lgan o'qituvchilar va o'qituvchilar.

3. O'z ishida texnologiyadan foydalanishi kerak bo'lgan mutaxassislar.

Raqamli davrda talabalar foydalanishi mumkin bo'lgan qidiruv tizimlariga quyidagilar kiradi:

1. Google Scholar: Akademik adabiyotlarga kirish imkonini beruvchi qidiruv tizimi.

2. JSTOR: Akademik jurnallar, kitoblar va asosiy manbalardan foydalanish imkonini beruvchi raqamli kutubxona.

3. Khan Academy: Keng ko'lamli fanlar bo'yicha video darslar va interaktiv mashqlardan foydalanish imkonini beruvchi ta'lim platformasi.

Talabalarda raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish uchun turli xorijiy usullar va yondashuvlar mavjud. Mana bir nechta e'tiborga loyiqlari:

1. Raqamli fuqarolik tashabbuslari: Ko'pgina mamlakatlarda raqamli fuqarolik tashabbuslari mavjud bo'lib, ular talabalarni raqamli dunyoda mas'uliyatli va axloqiy xulq-atvoriga o'rgatishdir. Ushbu tashabbuslar onlayn xavfsizlik, maxfiylik, raqamli izlarni boshqarish va onlayn axborotni tanqidiy baholash kabi mavzularga qaratilgan.

2. Kodlash va kompyuter fanlari bo'yicha ta'lim: Bir qancha mamlakatlar boshlang'ich maktab darajasidan boshlab kodlash va kompyuter fanlari ta'limini o'z o'quv dasturlariga kiritgan. Ushbu dasturlar talabalarni kodlash tillari, algoritmlar, muammolarni hal qilish va raqamli kompetensiyalarini oshirish uchun hisoblash fikrlash bilan tanishtiradi.

3. Texnologiya bilan loyihaga asoslangan ta'lim: Loyihaga asoslangan

ta'lim yondashuvlari ko'pincha texnologiya vositalari va resurslarining integratsiyasi bilan birlashtiriladi. Talabalar raqamli vositalardan foydalanish, hamkorlik qilish, tadqiqot qilish va topilmalarini raqamli media yordamida taqdim etishni talab qiladigan mazmunli loyihalar ustida ishlaydi.

4. Aralashtirilgan ta'lim va onlayn platformalar: Onlayn va yuzma-yuz o'qitishni birlashtirgan aralash ta'lim modellari raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish uchun keng qo'llaniladi. Onlayn platformalar va Google Classroom, Moodle yoki Schoology kabi ta'limni boshqarish tizimlari raqamli kontentni yetkazib berish, interaktiv faoliyat va talabalar o'rtasida hamkorlikni osonlashtiradi.

